Koordinatsion qobiliyat hamda texnik-taktik harakatlar tizimi sifatida musobaqa faoliyati jarayoni barcha darajalarda eng yuqori boshqaruv natijalariga erishishga yo‘naltirilgan xususiyatlarga ega.

Raqobatlashish jarayonida o‘z xususiyatiga xos ravishda dinamik holatlarini kurashchilarning texnik-taktik mahoratini hamda muvofiq lashtirish ko‘nikmalarining samaradorligini oshirish yo‘llari, chuqur izlanishlar bilan bog‘liqligini tushunish vositasidir.

Eng muhim muammo-bu bilvosita harakatdan to‘g‘ri izlanishlar bilan birin ketin to‘g‘ri hamda aksincha harakatga o‘tish shartlarini aniqlash, bir zumda amalga oshiriladi, ammo raqobatbardosh kurashda juda ongli, erkin harakat bo‘lib qoladi.

Texnik-taktik tayyorgarlik hamda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni

musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari yondashuvi ma'lum bir dinamik vaziyatda musobaqa faoliyatining tarkibiy birligi ekanligini aniqlashga yordam berdi.

Sport kurashi nuqtai nazaridan "MUBIN ZASK" intellektual sensor texnologiyasiga asoslangan kurashchilar uchun sport mashg'ulotlarini boshqarish tizimini joriy etish orqali muvofiqlashtirish hamda texnik-taktik harakatlar samaradorligini takomillashtirish masalalari chuqur o'rganildi.

Musobaqa bellashuvlari natijasini yaxshilashga malakali kurashchilarda koordinatsion qobiliyatni texnik-taktik harakatlar orqali takomillashtirish tizimini qo'llash bilan erishilmoqda.

Musobaqa faoliyatining tahlili davomida bellashuvning daqiqalari bo'yicha texnik-taktik tayyorgarlik ko'rsatkichlari miqdoriy tarkibi aniqlandi. O'zbekiston chempionatlarining qiyosiy tahlil natijalaridan shu ma'lum bo'ldiki, ko'rsatkichlar o'zgarishiga va ular orasidagi farq yaqqolroq bo'lishga moyil ekanligi o'rganib chiqildi.

Sportchilarning musobaqa faoliyati xususiyatlarini batafsil o'rganish asosida o'quv-mashg'ulot jarayonini samaradorligini oshirishdan kelib chiqib, kurashchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olishi kerak bo'ladigan texnik-taktik tayyorgarligini boshqarishning maxsus tizimi belgilandi.

Olingan faktik materiallar asosida bellashuvdagi texnik-taktik harakatlar miqdori va samaradorligi aniqlanib, kurashchilarning musobaqa bellashuvi tahlil qilinishida shaxsiy pedagogik kuzatuvlar bilan bir qator video tasmadagi yozuv materiallaridan ham foydalanilgan.

#### Adabiyotlar ro'yxati.

1. Керимов Н.А., Недорезов А.И., Рузиев М.А., Рузиев А.А., Система планирования и контроля учебно тренировочных нагрузок в вольной борьбе //Олимпия ҳаракатини ривожлантириш, олимпия таълимотини жорий этиш ва Сиднейда ўтказиладиган XXVI Олимпия ўйинларига тайёргарлик масалаларига бағишланган: III Республика илмий-амалий анжумани муаммолар тўплами. 27 апрел 1999. - Тошкент. – Б. 113-116.

2. Shakhmuradov, Y. & Podlivaev, B. "Raising the level of technical-tactical actions in standing by including leg actions as subsidiary elements", in International Journal of Wrestling Science, 1, (2011). – P. 16-23.

3. Матвеев Л.П. Заметки по поводу некоторых новаций во взглядах на теорию спортивной тренировки //Теория и практика физической культуры. - Москва, 1995. -№12. - С. 49-52.

4. Curby, D. G. (2009). Analysis of the 2008 Olympic Greco-Roman Wrestling Competition. Exercise and Society: Journal of Sport Science, 49. – P. 189-191.

5. Бакиев З.А. Керимов Ф.А. Инновационны е технологии в подготовке квалифицированных борцов на основе системного анализа деятельности спортсменов и тренеров с учетом уровня их спортивного мастерства// //Шаг в науку// Материалы IV научно-практической конференции молодых ученых (II всероссийской) г. Москва, 18 декабря 2020. – С. 328-334.

6. Ботяев, В.Л. Взаимосвязь и динамика проявления координационных способностей как фактор актуализации системы спортивного отбора / В.Л. Ботяев, Е.В. Павлова // Вестник спортивной науки. – 2008. – № 2. – С. 23–25.

7. Верхошанский Ю.В. Горизонты научной теории и методологии спортивной тренировки //Теория и практика физической культуры. - Москва, 1998.- №7. – С. 41-54.

8. Годик М.А. Совершенствование физической подготовленности спортсменов // Современная система спортивной подготовки. – Москва, 1995. – С.136-138. Adilov S.Q. Malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi va uning qiyosiy tahlili // Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali 2020/7, Issn: 2181-7804 B. 24-26. [13.00.00 № 7].

9. Adilov S.Q. Erkin kurashchilarning koordinatsion qobiliyatlarini va texnik-taktik tayyorgarligini "ZS" sport uskunasi orqali takomillashtirish samaradorligini oshirish // Fan-

sportga ilmiy-nazariy jurnali 2020/5, Issn: 2181-7804 B. 28-30.1983[13.00.00 № 5].

10. Adilov S.Q. Increasing basics of the efficiency of competition activity and developing technical and tactical preparation // Mental enlightenment scientific-methodological journal Volume 2022 / Issue 6 Issn: 2181-6131 P.51-64. SJIF-7.623

11. Adilov S.Q. Sport kurashida koordinatsion qobiliyatlar va texnik-taktik tayyorgarliklarni maxsus mashqlar orqali takomillashtirishning samaradorligini oshirish // Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali 2022/5, Issn: 2181-7804 B. 10-12. [13.00.00 № 5].

12. Adilov S.Q. Kurash turlarida koordinatsion qobiliyat va texnik-taktik tayyorgarliklarni takomillashtirishni rejalashtirish // Xalqaro ilmiy-metodik jurnal.- Buxoro, 2022/№10. Issn: 2181-1709 (P). B. 108-115. [13.00.00 № 10].

13. Adilov S.Q. Malakali sambochilarning jismoniy tayyorgarligi va uning qiyosiy tahlili // O‘zMU xabarleri. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi. – Toshkent, 2022 [1/11/1] Issn: 2181-7324. B. 61-63. [13.00.00 № 11].

14. Adilov S.Q. Sport kurashida mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish // Nam-DU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil 11-son. Issn: 2181-0427. B. 731-736. [13.00.00 № 11].

15. Adilov S.Q. Kurash turlarida koordinatsion qobiliyatlar va texnik-taktik tayyorgarliklarni maxsus mashqlar orqali takomillashtirish samaradorligining qiyosiy tahlili // Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali 2023/2, Issn: 2181-7804 B. 78-83. [13.00.00 № 2].

16. Adilov S.Q. Sport kurashida sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash texnologiyasi // Ta’limda innovatsion tadqiqotlar 2023/10, Issn: 2181-1709 (P). B. 73-78. [13.00.00 № 10].

17. Adilov.S.Q. Malakali sambochilarning jismoniy tayyorgarligi va uning qiyosiy tahlili // “Jismoniy tarbiya va sport talimi muammolar istiqbollari” nomli Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. Ch.:2023. – B.265-268.



## XORIJ TAJRIBASINI MAKTABGACHA TA'LIMGA TRANSFORMATSIYA QILISHNING AHAMIYATI

*Aliyeva Iroda Otabek qizi*

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti*  
<https://orcid.org/0009-0004-9828-3076>

*Annotatsiya: Mazkur maqolada xorij tajribasini maktabgacha ta'limga transformatsiya qilishning ahamiyati haqida fikr mulohazalar yuritiladi. Shuningdek hozirgi kunda dolzarb masalaga aylanib borayotgan ta'limning asosiy bosqichi hisblangan maktabgacha ta'limni yuqori sifatda tashkil etish va bola ta'limi va tarbiyasiga ta'sir qiluvchi o'qitishning usullarini milliy metodlar bilan boyitishga katta ahamiyat qaratish muhim jihatlardan biri ekanligi yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: Global tendentsiya, madaniy omillar, ijtimoiy omillar, iqtisodiy omillar, ta'lim sifati, infratuzilma, resurslar, inklyuziv ta'lim, psixologik yondashuv, an'analar, qadriyatlar, til, muloqot.*

## ЗНАЧИМОСТЬ ТРАНСФОРМАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДЛЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Алиева Ирода Отабек қизи*

*Институт переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов организаций дошкольного образования, 13.00.08 Теория и методика дошкольного воспитания и обучения докторант 2-курс*

*Аннотация: в данной статье рассматривается важность трансформации зарубежного опыта в дошкольное образование. Также было подчеркнуто, что одним из важных аспектов является качественная организация дошкольного образования, которое считается основным этапом воспитания, что становится сегодня актуальной проблемой, и обогащение методов обучения национальными методами, влияющими на воспитание. и воспитание детей.*

*Ключевые слова: Глобальный тренд, культурные факторы, социальные факторы, экономические факторы, качество образования, инфраструктура, ресурсы, инклюзивное образование, психологический подход, традиции, ценности, язык, общение.*

## THE IMPORTANCE OF TRANSFORMING ABROAD EXPERIENCE TO PRESCHOOL EDUCATION

*Aliyeva Iroda Otabek qizi*

*Institute of retraining and professional development of directors and specialists of pre-school education organizations, 13.00.08 Theory and methodology of pre-school education and training 2 nd stage doctoral student*

*Abstract: This article discusses the importance of transforming foreign experience into preschool education. It was also highlighted that one of the important aspects is the high-quality organization of preschool education, which is considered the main stage of education, which is becoming an urgent issue today, and the enrichment of teaching methods with national methods that affect the education and upbringing of children.*

*Keywords: Global trend, cultural factors, social factors, economic factors, quality of education, infrastructure, resources, inclusive education, psychological approach,*

*traditions, values, language, communication.*

Kirish. Jahonda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan global tendentsiyalar xalqaro ta'lim tizimlarining shakllanishiga, maktabgacha ta'limning yangi yondashuvlarni joriy etilishiga va innovatsion metodlardan foydalanish orqali ta'lim sifatini yaxshilashga ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, "BMTning Ta'lim, Fan va Madaniyat Tashkiloti (UNESCO) ta'lim sifatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan global strategiyalar bilan, UNICEF bolalarning huquqlarini himoya qilish va ularning ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishga yordam berish maqsadida turli dasturlarni va sifatli ta'limni ta'minlashga qaratilgan resurslar ishlab chiqish bilan, Evropada Ta'limni Rivojlantirish Kengashi (Council of Europe) yuqori sifatli yondashuvlarni rivojlantirish va taqdim etish" masalalari bilan shug'ullanadi. Maktabgacha ta'limdagi eng yaxshi amaliyotlarni o'rganib, o'zaro tajriba almashinuvini ta'minlaydi. Shu bilan birga Xalqaro Ta'lim Assotsiatsiyasi (International Education Association) Ta'limga oid eng yaxshi metod va strategiyalarni o'rganish va ulardan foydalanishni rivojlantirish uchun xorijiy tajribalar bilan shug'ullanmoqda. Shuningdek, ushbu tashkilotlar maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun xorijiy tajribalarni o'rganish, innovatsion metodlarni joriy etish va bolalarning to'g'ri rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlari hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Asosiy qism. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, jumladan Finlyandiya, Kanada, Niderlandiya kabi davlatlarda boshqa mamlakatlarning amaliyotdan olingan tajribalari tahlil qilinmoqda. Shuningdek, Helsinki, Toronto, Alberta Universitetlarining "ta'lim nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tadqiqotlarida ta'lim metodlari va dasturlari, shu jumladan, maktabgacha ta'limda ijodiy yondashuvlarni tahlili hamda har bir mamlakatning ta'lim tizimining xususiyatlari va muvaffaqiyatli tashkil etilgan dasturlari o'rganiladi va xorij tajribasi asosida, o'z milliy sharoitlariga moslashtirilgan yangi metodologiyalarni ishlab chiqiladi". Ushbu jarayonlarda, har bir mamlakatning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda amalga oshirilishi, ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish uchun o'zaro aloqalar, tajribalar va yangiliklarni e'tiborga olish dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va yangi yondashuvlar va mahalliy ehtiyojlarga mos ravishda tayyorlash hamda joriy qilinishi kabi bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. "Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q". Bundan kelib chiqadiki, O'zbekistonning boy madaniy merosi va qadriyatlarini ta'lim dasturlariga singdirish, yurtimizning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari yani oila tuzilishi, ota-onalar va jamoatchilikni ta'lim jarayoniga jalb qilish va bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotining imkoniyatlari va resurslarini hisobga olgan holda chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda xorij tajribasini maktabgacha ta'limga transformatsiya qilishda madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda ushbu omillarni batafsil ko'rib chiqamiz.

<b>Madaniy omillar</b>		
<i>An'analar va qadriyatlar:</i> O'zbekistonning boy madaniy merosi va qadriyatlari ta'lim dasturlarida muhim o'rin tutadi. Dasturlar milliy urf-odatlar, an'anaviy did va ma'naviyatni hisobga olib, bolalarga o'z madaniyatini tanitish va qadrlashni o'rganish imkonini berishi kerak.	<i>Til va muloqot:</i> O'zbekistonning ko'p millatli tuzilishi til va muloqot masalalariga e'tibor berishni talab qiladi. O'zbek tilini o'rganish, shuningdek, boshqa tillarni bilish (masalan, rus yoki ingliz tillari) uchun sharoit yaratish muhimdir.	<i>San'at va madaniyat:</i> Maktabgacha ta'lim dasturlarida musiqa, raqs, tasviriy san'at va boshqa san'at shakllarining o'rni muhimdir. Bolalarga san'at orqali o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkonini berish zarur.
<b>Ijtimoiy omillar</b>		
<i>Ijtimoiy jamiyat ehtiyojlari:</i> O'zbekiston ijtimoiy tizimining o'ziga xos jihatlari - oila tuzilishi, ota-onalar va jamoatchilikni ta'lim jarayoniga jalb qilishni nazarda tutadi. Dasturlarda ota-onalarning o'qitishdagi roli va ishtiroki oshirilishi zarur.	<i>Inklyuziv ta'lim:</i> Ijtimoiy muammolarga qaramay, bolalarning barcha qatlamlarini, shu jumladan, maxsus ehtiyojlarga ega bolalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish muhimdir. Dasturlar inklyuziv yondashuvni qo'llab-quvvatlashi, kerakli sharoitlarni yaratishi lozim.	<i>Psixologik yondashuv:</i> Bolalarning psixologik xususiyatlari va yoshlariga mos o'qitish usullari ishlab chiqilishi zarur. Rivojlanishning turli bosqichlarida, bolalarning kognitiv va emotsional ehtiyojlari hisobga olinishi kerak.
<b>Iqtisodiy omillar</b>		
<i>Infratuzilma va resurslar:</i> Ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda mavjud infratuzilma, ta'lim muassasalarining imkoniyatlari va resurslari hisobga olinishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun zarur bo'lgan moddiy, texnik va inson resurslari mavjudligini ta'minlash kerak.	<i>Moliyaviy qo'llab-quvvatlash:</i> Maktabgacha ta'lim iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi zarur. Ularning moddiy yordam, grantlar va stipendiyalar orqali qanday moliyalashtirilishi muhimdir.	<i>Ta'lim sifati:</i> O'zbekistondagi iqtisodiy o'zgarishlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirishga undaydi. Ta'lim dasturlarini sifatli ta'lim bilan moslashtirish, yangi metodologiyalarni joriy etish zarurati tug'iladi.

Xulosa. Yana shuni takidlash joyizki, O'zbekiston sharoitida xorij tajribalarini ta'lim dasturlarga transformatsiya qilishda innovatsion yondashuvlar foydalanish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni hamda interaktiv metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalasi keng qamrovli bo'lib bunda, milliy ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali o'quv dasturlarini shakllantirish juda muhimdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda xorij tajribasini maktabgacha ta'limga transformatsiya qilish madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni inobatga olish orqali ta'lim dasturlari yangi yondashuvlar va mahalliy ehtiyojlarga mos ravishda tayyorlanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nitwit. <https://president.uz/oz/lists/view>.

2. Scientific-Methodological Foundations Of Organization And Management Of Methodical Work In Pre-School Educational Organizations. Genius Repository, 28, 54–58. Retrieved from <https://geniusrepo.net/index.php/1/article/view/575>. Olimov Sodiq





Anvar o'g'li (2024)

3. Информационнокоммуникационные технологии организации и управления инновационным методическим обеспечением в дошкольных образовательных организациях. Информатика. Экономика. Управление - Informatics. Economics. Management, 3(1), 0159–0168. <https://doi.org/10.47813/2782-5280-2024-3-1-0159-0168>. Бегимкулов, У. Ш., & Олимов, С. А. (2024).

4. <https://www.unicef.org/innovation/learninginnovationhub>.

5. UNESCO ning rasmiy veb-sayti. <https://www.unesco.org>.

6. <https://www.oecd.org/education/>

## TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY METODIK TAYYORGARLIGINI TEXNOLOGIK ASPEKTLARI

*Almatova Zebo Xudayberdiyevna*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada loyihalashtirish texnologiyalari asosida bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini o'ziga xos xususiyatlari jarayonining pedagogik asoslari yoritilgan.*

*Kalit so'zlar. Loyihalashtirish, metodik, kasbiy, pedagogik texnologiyalar, loyihalashtirish texnologiyalari.*

## ТЕОРИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ДИЗАЙНЕРСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Алматова Зебо Худайбердиевна*

*Джизакский государственный педагогический университет, преподаватель, доктор философских наук (PhD) педагогических наук*

*Абстракт. В данной статье описаны педагогические основы процесса совершенствования профессионально-методической подготовки будущих учителей биологии на основе проектных технологий.*

*Ключевые слова. Проектирование, методические, профессиональные, педагогические технологии, технологии дизайна.*

## THEORY OF IMPROVING PROFESSIONAL METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE BIOLOGY TEACHERS BASED ON DESIGN TECHNOLOGIES

*Almatova Zebo Khudaiberdiyevna*

*Jizzakh State Pedagogical University, teacher, doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences*

*Abstract. This article describes the pedagogical foundations of the process of improving the professional methodological training of future biology teachers based on design technologies.*

*Keywords. Designing, methodical, professional, pedagogical technologies, design technologies.*

*Kirish. Biologiya o'qituvchining bilimi, mahorati va o'qitish texnolo-giyalari loyihalashtirilsagina o'quv jarayonini samarali tashkil etish mumkin. Buning uchun o'quv jarayonini tashkil etishning turli metodlari va ularni qo'llashni bilish kerak. "Biologiyani o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish" fani aynan shu maqsadlarni ruyobga chiqarishga qaratilgan. U biologiyani o'qitish texnologiya-lari va loyihalashtirish fanining predmeti, bu dars berish (o'qitish) jarayonining o'zidir.*

*Biologiya o'qituvchisidan o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish maqsadida o'quvchilarning mustaqil ishlari va ta'limiga e'tibor qaratish, o'quv-chilarning o'z-o'zini baholashi uchun mavzular bo'yicha standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari bazasini yaratish, uni kompyuter xotirasiga joylashtirib adaptiv test topshiriqlariga aylantirish, shuningdek, o'quvchilar bilan o'tkaziladigan ma'naviyat daqiqalaridajismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamo-lotga erishishga yo'naltirish talab qilinadi.*

*Biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda o'quvchilarni tabiat va jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlarining mavzuga doir modda-lari bilan tanishtirish, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e'tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan ravnaqiga hissa qo'shish, jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, saxovatli bo'lishga undash zarur.*

*O'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni shakllanti-rish uchun o'qituvchi biologiyani*

o'qitishda o'quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyat-lari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish, xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasi barobarida estetik tarbiyaga e'tibor qaratishi lozim.

O'quvchilarda matematik savodxonlik, fan va texnika yangi-liklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasini shakllantirishda biologiyao'qituvchisi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida hisob-lashga doir biologik masalalar, nostandart o'quv topshiriqlari bilan ishlashni yo'lga qo'yishi lozim.

O'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakl-lantirishda o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlar muhim o'rin tutadi.

Biologiya darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllan-tirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biologiyadan davlat ta'lim standarti quyidagi uchta yo'nalish-dagi bilimlarni o'zida mujassamlashtiradi:

1. Organizm biologik sistema.
2. Organik olam evolyutsiyasi.
3. Ekologik sistemalar.

Quyida biologiya darslarida shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar haqida ma'lumot beriladi(1-jadval).

1-jadval

## Biologiya darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish

Biologik ob'yekt, hodisa, jarayonlarni tushunish, ta-nish, izohlash kompeten-siyasi	Biologik ob'yekt, hodisa, jarayonlar ustida kuza-tish va tajribalarni o'tka-zish kompetensiyasi	Sog'lom turmush tarzi va ekologik kompetensiya
Maktab biologik jihozlari va mikroskopdan foydalanish ko'nikmasini egallash	O'quv dasturidan o'rin olgan laboratoriya ish-larini kompyuterda baja-ra olish	Tabiatda o'zini tutish qoida-lariga amal qilish va tabiat muhofazasiga doir tadbirlar, video konferensiyalarda ishti-rok qilish Tabiat resurslarini o'ylamas-dan ishlatish natijasini tushu-nish, tabiat muhofazasiga doir saytlar orqali o'z munosabatini bildirish
O'simlik, hayvon va odam organlari va organlar tizimi, ularning hujayraviy tuzili-shini farqlay olish, Internet, o'quv filmlari orqali o'rganib borish	Tajriba ob'yekti bo'lgan hayvonlarni kesish, or-ganlarini tanish va tirik organizmlar hujayraviy tuzilishi va organoidlari tuzilishini o'rganish.	Nosog'lom turmush tarzi asoratlari va ekologik muam-molarni tushunish. Tabiatdagi hodisa va jarayonlar o'rtasidagi aloqalarni tushunish
O'rganilayotgan tirik ob'-yektning shakli va uning funksiyasi o'zaro bog'liqligini tushunish. Organizmlar hujayraviy tu-zilishini bilish, hujayra orga-noidlarini mikroskopda ku-zatish, ularni bir-biridan farqlay olish	Tajriba ob'yekti bo'lgan hayvonlarni kesish, or-ganlarini tanish va tirik organizmlar hujayraviy tuzilishi	Irsiy kasalliklarni oldini olish. Tibbiy genetik konsultatsiyalar mohiyatini anglab yetish. Sportga doir teleko'rsatuvlar orqali inson salomatligiga jis-moniy mehnat va sportning ta'sirini tushunish Jamo va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish. Tele-ekrandan shu mavzuga doir ko'rsatuvlar bilan tanishib boorish Baxtsiz hodisalarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni bilish



Keyinchalik manbalar ko'p tilli kontekst uchun talab qilinadigan yuqori darajadagi tarjimani ta'minlashga yo'naltirilishi mumkin. Bu narx va sifat nisbatini kafolatlash uchun noshirlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralarga olib kelishi mumkin.

Klaster – cluster – ingliz tilida shajara degan ma'noni angla-tadi. Ushbu lokal texnologiya talabalar tomonidan o'zlashtirgan va o'zlashtiradigan g'oya, nazariya, qonuniyat va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishini anglash, bir-biriga uzviyligini tushunishga imkon yaratib tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Klasterni tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- o'quv kursi mazmunidagi muayyan g'oya doska yoki qog'oz o'rtasiga yoziladi;
- ushbu g'oya bilan bog'liq qonuniyatlar, tushunchalar bir-biriga bog'liq holati ko'rsatkich bilan belgilanadi, so'ngra mazkur qonuniyat va tushunchalarning faktik ma'lumotlari grafik tarzda yoziladi va tarmoq hosil qilinadi.

- avval o'rganilgan mavzu va o'rganiladigan mavzu o'rtasidagi bog'lanishlar haqida xulosa chiqariladi.

Mamlakatimiz ta'limi tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar va o'quv metodik adabiyotlarni zamon talablariga mos shaklda ishlab chiqishdir. Bu yo'nalishda bugungacha ham o'ziga yarasha qoidalar, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oqlagan. Masalan, shu paytgacha umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari bu borada asosiy yo'l ko'rsatkich vazifasini o'tagan. Lekin bugun ilm-fan, texnika, texnologiya shiddat bilan rivojlanyapti, odamlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari kengay-yapti, yangi fan tarmoqlari va innovatsion yondashuvlar o'rtaga chiqyapti.

Xulosa. Ta'lim uslubining amalga oshirilishi pedagog faoliyatining o'zgarishiga olib keladi. U tayyor bilimlar tashuvchisidan o'z talabalarining bilish faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi. O'quv xonasidagi psixologik muhit ham o'zgaradi, chunki pedagogga o'z o'quv-tarbiya ishi va talabalarning ishini turli-tuman mustaqil faoliyatlariga, tadqiqot, izlanish, ijodiy xarakterdagi faoliyat ustunligiga qaratishiga to'g'ri keladi. Barcha loyihalarga tashqi baho zarurligi to'g'risida alohida shuni qayd etish lozim, chunki faqat shu yo'l bilan ularning samaradorligi, kamchiliklar borligini, o'z vaqtida tuzatish ishlarini olib borish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Kuychiyeva M.A. Biologiya fanini o'qitishda fanlararo bog'lanishlarning o'rni va ahamiyati // Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. - Toshkent, 2019. - №5 (78). - B. 34-37. (13.00.00; №10)

2. Kuychiyeva M.A. Tabiiy fanlar o'qituvchilarining kompetentligi va kasbiy layoqatini rivojlantirish masalalari // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2021. - №1-son. - B. 53-57. (13.00.00; №32).

3. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 [www.converter-magazine.info](http://www.converter-magazine.info). - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189).

4. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115)

5. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extracurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, - P. 617-621. (№12. SJIF; IF-7.565).

## ONA TILI TA'LIM TRAEKTORIYASINI METODIK TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

*Altibayeva Malika Kuvandikovna*  
*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchi*

*ANNOTATSIIYA. Talabalarni nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari asosida takomillashtirishning metodik-didaktik xususiyatlarini metodik rivojlantirish imkoniyatini yaratilishi lingvopedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish ilmiy-metodik asoslab berilgan. Talabalarning fanga qiziqishi, hamda bir o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'lishi, talabalarning nutqiy va lingvistik kompetentsiyalarga oid topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi, topshiriqlarni zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi, joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi didaktik asoslab berilgan.*

*Kalit so'zlar: lingvopedagogik kompetensiya, o'zbek tilshunosligi, leksikologiya, ilmiy-metodik asos, lingvistik kompetensiya, deduktiv, pedagogika, nutqiy kompetensiya, psixologiya*

## МЕХАНИЗМ МЕТОДИЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТРАЕКТОРИИ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

*Алтибаева Малика Кувандиковна*  
*Преподаватель кафедры педагогики Университета прикладных наук Ташкента*

*АННОТАЦИЯ. Научно-методически обоснована возможность методического развития методико-дидактических особенностей совершенствования речевых и лингвистических компетенций студентов на основе самостоятельного обучения и учебных заданий для улучшения их лингвopedagogических компетенций. Обосновано, что целесообразно формировать интерес студентов к предмету и предоставлять им возможность развивать несколько речевых навыков в рамках одного учебного задания. Такой подход способствует тому, чтобы студенты осознанно выполняли задания, связанные с речевыми и лингвистическими компетенциями, следовали дидактической последовательности при их выполнении и могли правильно взаимодействовать с искусственным интеллектом для поиска заданий в современных информационных источниках.*

*Ключевые слова: лингвopedagogическая компетентность, узбекское языкознание, лексикология, научно-методическая основа, языковая компетентность, дедуктивность, педагогика, речевая компетентность, психология*

## MECHANISM FOR METHODOLOGICAL IMPROVEMENT OF THE NATIVE LANGUAGE EDUCATION TRAJECTORY

*Altibayeva Malika Kuvandikovna*  
*Lecturer, Department of Pedagogy, Tashkent University of Applied Sciences*

*ANNOTATION. The scientific and methodological basis has been established for developing the methodological-didactic characteristics of improving students' speech and linguistic competencies through independent learning and educational assignments, aimed at enhancing their linguo-pedagogical competencies. It is considered appropriate to foster students' interest in the subject and provide them with the opportunity to develop multiple speech skills within a single educational task. This approach encourages students to consciously approach tasks related to speech and linguistic competencies, adhere to a didactic sequence in completing*

tasks, and effectively communicate with artificial intelligence to locate tasks from modern information sources.

*Key words: linguo-pedagogical competence, Uzbek linguistics, lexicology, scientific-methodical basis, linguistic competence, deductive, pedagogy, speech competence, psychology*

Kirish. Bugungi kunda OTM ona tili ta'lim jarayoniga qaratilayotgan e'tibor ona tili o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgani, oliy ta'lim tizimi bo'g'inida ona tili ta'limning ona tili o'qituvchilarining hayotida tutgan o'rnini, ona tili o'qituvchilarining modul tizimida qanday bilimga ega bo'lishda pedagogik tuzilmani o'rganmasdan, rivojlantiriladigan bilim, ko'nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarini tahlil qilish mushkul vazifadir.

Biz tadqiqotlarga tayanib, ona tili o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirishning pedagogik, lingvodidaktik-psixologik va pragmatik xususiyatlarini didaktik tizimni modellashtirish asosida ona tili o'qituvchilarining va o'quvchi o'rtasidagi ta'lim jarayonini metodik yondashuv asosida takomillashtirish tuzilmasini quyidagicha ko'rishda ifoda etdik. Shuning uchun ham oliy ta'lim mazmuni va metodikasi har bir ona tili o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillashtirishda to'la lingvodidaktik rivojlanishini, ona tili ta'limini qiynalmay davom ettirishga imkoni beradigan ta'limda bilimga oid ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlashga qaratilmog'i lozim. Bugungi kunda oliy ta'limning to'rt yil muddatda davom etishi ona tili o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirishga nisbatan ularning sonini ortib borayotganligini ko'rsatadi. Bu masalani ongli va savodli anglamasdan turib, pedagogik-metodik faoliyatga oid yangicha qarashlarni o'zlashtirib bo'lmaydi. Bu qarashlar markazida ona tili o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirishda psixolingvistik rivojlanishiga ko'maklashish vazifasi va shu vazifa doirasiga nutqiy kompetensiyasini jalb etish muammosi turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. M.Mirqosimova, Sh.Alimova, O.Zoitova, N.Umarova tomonidan 2004 yilda rus guruhlari uchun "O'zbek tili" o'quv qo'llanmasini tahlilga tortganimizda topshiriq bilan savollar bir xil vazifani bajarishi ma'lum bo'ldi. Oliy ta'limda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darsliklar, dars mashg'uloti jarayonida ham, hatto dars mashg'ulotidan so'ng ham talaba va o'qituvchining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o'quv materiallarining, xususan, o'quv topshiriqlarning tarkibi, savollarning tuzilishi va albatta, mazmuniga qaratilishi kerak.

Oliy ta'lim jarayonida ham muayyan bir maqsadga qaratilgan usullar va vositalar izchil belgilab olinadi. Ana shu ta'limning aniq maqsadiga eltuvchi vositalardan biri bu OTM darsliklardir. Darslik tushunchasi ham ta'limning eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Bu tushunchada bir qancha ilmiy manbalarda muayyan istilohiy ma'nolar berilgan.

Xususan, olim. "Pedagogika ensiklopediyasi" [2; 24 b.] darslik va uning paydo bo'lishi, darsliklar tarixi haqida batafsil ma'lumot berilar ekan, uni shunday ta'riflaydi: "Darslik – davlat tomonidan tasdiqlangan DTS asosida muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy-uslubiy saviyada yozilgan o'quvchi va talabalar uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi". Bizningcha, bu istilohiy izohlar darslik va uning ta'limdagi mustaqil ahamiyati va rolini ochib berish uchun kamdek.

Shu bois bu tushunchaga pedagog olimlar J.Hasanboyev, X.To'raqulov, M.Haydarov, O.Hasanboyevalar tomonidan tuzilgan "Pedagogika fanidan tuzilgan izohli lug'at" kitobiga murojaat qilamiz.

Darslik har bir o'quv predmetining mazmunini darslikda ko'rsatilgan hajmda didaktik talablar asosida kitob yoziladi. Darslik bu pedagogik tizimning axborotli modelidir. Chunki



har bir o‘quv darsligida talabalar bajarishi kerak bo‘lgan o‘quv jarayoning ma’lum bosqichlari ko‘rsatilgan bo‘lib, talabalar undan mavzularni o‘qib, mustaqil topshiriqlarni ma’lum harakatlar ko‘rinishida bajarishadi, tekshiradi, yechadi, javob beraadi. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shakllarda berilishi mumkin [3; 219 b.].

Darhaqiqat, bu ta’rif darslikning mustaqil ta’lim jarayonidagi mohiyatini nisbatan to‘laroq ochib bergan.

Shuningdek, darslik turli xil qo‘shimcha vositalar – antologiyalar, mashq va mustaqil topshiriqlar to‘plamlari, lug‘atlar, ma’lumotnomalar, darslikdan tashqari o‘qish uchun kitoblar, atlaslar, tarixiy-geografik xaritalar va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lishi to‘ldirilishi kerak bo‘lgan manba. Zamonaviy darsliklarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular o‘quv materialini yanada kengaytirilgan rejada beradi, mustaqil ta’lim topshiriqlari asosida eng yangi ma’lumotlar, ma’lumotnoma xarakteridagi tavsiflar bilan kengaytiriladi. Darslik bilan ishlashda lingvopedagogik kompetensiyalar asosida bo‘lajak ona tili ta’lim o‘qituvchilari qo‘shimcha adabiyotlar yordamida tahlil qilish, kreativ yondashish, tanqidiy yondashish, to‘ldirish, ularni taqdim etish uslubi va o‘rganilayotgan matnni o‘zgartirishni o‘rganadilar.

1. Ona tili ta’limda topshiriqlar asosida ona tilini o‘qitish metodikasiga oid innovatsion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona til o‘qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish; ona tili o‘qitish metodikasi ta’limda o‘zbek etnolingvistikaning so‘nggi yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyatga egaligi, maqsadiga muvofiq muctaqil izlanishga undashi lozim.

2. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma’lumotlar bazasi emas, balki bo‘lajak ona tili sinf o‘qituvchisiga ona tilining son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanishni o‘rgatadigan ta’lim topshiriqlarini tashkil etmog‘i lozim. Chunki oliy ta’lim tizimi maqsad faqat ona tili ta’lim o‘qituvchisini tayyorlash emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan lingvopedagogik kompetensiyalar ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishdir. Ona tili ta’limda topshiriqlar asosida ona tili ta’lim mazmunini takomillashtirish didaktik-pedagogik yondashuvlar asosida amaliyotga tatbiq etiladi.

3. Bo‘lajak ona tili ta’lim o‘qituvchilari nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, lug‘at va matn asosida milliy tilni, milliy ma’naviyatni o‘quvchi tafakkuriga singdirish, o‘z o‘quvchisini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash texnologiyasini ona tili metodikasi ta’limiga samarali joriy qilish asosiy masalalardan biridir. Ona tili ta’limda topshiriqlar tuzishda lingvodidaktik-pedagogik asoslarining model xaritasida ona tili oliy ta’limda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darsliklar, dars mashg‘uloti jarayonida ham, hatto dars mashg‘ulotidan so‘ng ham bo‘lajak ona tili ta’lim o‘qituvchilari shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma’lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darsliklardagi o‘quv materiallarining, xususan, mustaqil ta’lim topshiriqlarining tarkibi, tuzilishi va albatta, mazmuniga qaratish kerak.

4. Zamonaviy elektron darsliklar innovatsion mediatexnologiya kabi ko‘plab axborot manbalarini o‘ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda ona tili ta’lim topshiriqlari innovatsion mediatexnologik o‘quv lug‘atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to‘plami, testlar, ko‘rgazmali vositalar, elektron resurslar orilgan vagonlarga bog‘lay olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishi kerak. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ona tili ta’lim topshiriqlari ya’ni mashqlarni bajarilishi, ona tili mazmunini rivojlantirishda, o‘qitishda, xususan, topshiriqlarni tuzishda metodik yondashuvlardan foydalanish samaralidir. Dars mashg‘ulotdagi ta’lim jarayonini hayotiy muammolarni qanday hal qilishni o‘rgatishi kerak. Ona tili o‘qitish metodikasi fanining ona tili ta’limda topshiriqlar tuzish, lingvodidaktik-pedagogik asoslarining model xaritasida oliy ta’limda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darsliklar, dars mashg‘uloti jarayonida ham, hatto dars mashg‘ulotidan so‘ng ham bo‘lajak ona tili ta’lim o‘qituvchilarining shu

o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darsliklardagi o'quv materiallarining, xususan, ona tili ta'lim topshiriqlarining tarkibi, tuzilishi va albatta, mazmuniga qaratish kerak.

5. Zamonaviy elektron darsliklar innovatsion mediatexnologiya kabi ko'plab axborot manbalarini o'ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda ta'lim topshiriqlari innovatsion mediatexnologik o'quv lug'atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to'plami, testlar, ko'rgazmali vositalar, elektron resurslar orilgan vagonlarga bog'lay olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi kerak.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ona tili ta'lim topshiriqlari ya'ni mashqlarni bajarilishi, ona tili mazmunini rivojlantirishda, o'qitishda, xususan, topshiriqlarni tuzishda metodik yondashuvlardan foydalanish samaralidir. Dars mashg'ulotdagi ta'lim jarayonini hayotiy muammolarni qanday hal qilishni o'rgatishi kerak. Ona tili ta'limida har bir mashg'ulot asosida beriladigan savol, topshiriq va mashqlar ham xuddi shunday talaba, bo'lajak ona tili ta'lim o'qituvchilarining hayotiy muammolarini yechishga yo'naltirishi lozim. Masalan, professor-olimlar 2012-yilda nashr etilgan A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Allavutdinova, V.Karimjonovlar tomonidan yozilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligini mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar xuddi shu tarzda berilgan. Har bir savol talabani mushohada qilishga undaydi.

1. Leksikologiyaning tadqiqot obyekti nima? 2. So'z til birligi sifatida qaysi yo'nalishlarda o'rganiladi?. 3. Leksikologiyaning qaysi bo'limida so'zning semantik xususiyati – bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, umumiy va xususiy, mavhum va muayyan, bosh va hosila, to'g'ri va ko'chma ma'nolari tekshiriladi?. 4. Leksikologiya til lug'at tarkibining boyishini izohlang.

Ona tili ta'lim tizimida ona tili o'qitish metodikasi sohada qo'llanilishi, ona tili ta'lim yo'nalishining ona tilini o'qitishda, xususan, ona tili ta'lim topshiriqlari tuzishda pragmatik yondashuvlardan foydalanish samaralidir.

Ona tili ta'limda joriy etilayotgan yangi modul tizimining asosiy qismi ham baholash va ishlashga yo'naltiruvchi ta'lim topshiriqlaridir.

L.S.Vigotskiyning Pedagogik-psixologiya darsligida aynan ta'lim topshiriqlar mazmuniga ham alohida e'tibor berish lozimligini, talabalarning lingvodidaktik va psixologik bilish darajalari asosida bilimlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini bilish darajalari miqyosida tahlil etgan [4; 64 b.]. Hissiy daraja-sezgi, murakkab daraja- xotira, xayol, idroda, diqqat, mexanik xotira bilan bog'liq bo'lgan – esda saqlab qolinadigan nazariy ma'lumotlarni tekshirishga qaratilgan topshiriqlardan foydalanishni cheklash, balki fikrlashga, mushohada qilishga, dunyo qonuniyatlarini anglashga, oliy daraja-tafakkur va nutq, dunyoqarashni rivojlantirishga, sabab-oqibat-yechim, shakl va mazmun mutanosibligi, inkorni-inkor qilish, qiyoslash qonuniyatlarini anglashga, kreativ va tanqidiy yondashishga xizmat qiladigan mazmundagi mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish shart ekanligini ifodalaydi.


Natija va muhokama. Shu bilan birga, quyidagi darslikka e'tibor qaratamiz. Ma'lumki, "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi so'zlarning 50-55 % foizini ot so'z turkumiga mansub so'zlar tashkil etadi. Mazkur so'z turkumini o'rganishda ko'zlanadigan asosiy maqsad, avvalo, shu turkumga kiruvchi, ammo nutqda kam qo'llanilayotgan yoki deyarli qo'llanilmayotgan so'zlarni, nutqiy faoliyatiga olib kirish, o'quvchi va talabalarning talaffuziy va imloviy ko'nikma hamda malakalarini mustaqil kengaytirishdan iboratdir [1; 294 b.].

"Ona tili", "Ona tili o'qitish metodikasi", "O'zbek tili", darsliklardagi mashq, vazifa va topshiriqlar bo'lajak ona tili sinf o'qituvchilarining nutqiy va lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirishga aksariyat hollarda qaratilmagan, balki grammatik qonuniyatlarni o'rgatishga urg'u berilgan. O'zbek tili darsliklari bundan mustasno. Darsliklar DTS, o'quv reja va O'UMLar pedagogik-didaktik manba bo'lganligi bois ularda nutqiy va lingvistik ko'nikmalarni

rivojlantirishga yo‘naltirilgan turli ona tili ta’lim topshiriqlar, mashq va matn tahlilini talab etadigan savollar, og‘zaki so‘rov, mustaqil nutq, bahs-munozara kabilardan foydalanish shart. Fanda taraqqiyotni belgilovchi va davlatni, millatni, bunyodkorlarini jahonga mashhur qiladigan ilmiy maktabu yo‘nalishlar tadqiq manbaiga yangicha talqin etishning qat’iy metodologik tamoyillari asosida yondashish natijasi o‘laroq rivojlanadi va takomillashadi. 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning hayotga tatbiqi sharofati bilan o‘zbek tilshunosligida ona tili (o‘zbek tili) qurilishi yevropacha shakllar asosida formal talqin etish asoratidan qutulib, hozir jahon tilshunoslari diqqatiga ham sazovor bo‘layotgan substansial tahlil metodologiyasi asoslariga - tom ma’noda o‘zbekona tahlil usullariga - to‘la ko‘chirildi [5]. Tadqiqotlarimiz davomida ona tili o‘qituvchilari va o‘quvchi o‘rtasidagi didaktik ta’lim jarayonini biz ikki yo‘nalishda: - konseptual; - tarixiy; yo‘nalishlarga ko‘ra o‘rganib chiqdik. Tadqiqotlarimiz jarayonida ona tili o‘qituvchilari va o‘quvchi o‘rtasidagi ona tili ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv asosida DTSda belgilangan OTM ona tili sinf o‘qituvchilari ona tili o‘qitish metodikasi fanlari bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan talablar hamda ona tili ta’lim mazmunidan kelib chiqqan holda OTM ona tili o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirishda uzluksizlikni ta’minlashning didaktik tizimni mazmuni va tarkibiy tuzilishini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan metodik-didaktik asoslanildi.

1- jadval

Ona tili o‘qituvchilarining ta’lim traektoriyasini uzluksizligini ta’minlashda daraja ko‘rsatkichlarini pragmatik rivojlantirish tuzilmasi.



Ona tili o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirishda



o'quvchi o'rtasidagi ona tili metodikasiga oid ta'lim topshiriqlari, lingvodidaktik-psixologik va pragmatik xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik tuzilmasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan quyidagi yo'nalishlarni: -o'quv-biluv faoliyati va ona tili o'qitish metodikasi ta'limiy dars mashg'ulotlarni tashkil qilishda, o'z shaxsiy taraqqiyot yo'nalishida pedagog vazifalarini kengaytirish. Tadqiqot ishlari shundan dalolat beradiki, -didaktik tizim bo'yicha milliy va xalqaro tajribaga oid materiallar (masalan, ilg'or pedagogik g'oyalar, yangi zamonaviy axborot texnologiyalari, pedagogik soha hayotidagi yangiliklarga oid materiallar va b.q.);

- ona tili o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirishda o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatida qo'llay olishga tayyorligi;

- ona tili o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirishda uzluksizlikni ta'minlash va ona tili o'qituvchilarining birgalikdagi intellektual-emotsional o'zaro harakati ona tili ta'lim mazmuni va usullarining variativligi, interfaollik, dialoglik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilganligini OTM ona tili ta'lim yo'nalishlarida ona tili ta'lim jarayonini kengroq yoritish kerakligini maqsadga muvofiq deb topdik. Shuningdek tadqiqotimiz davomida yuqoridagi vazifalarning amaliyotda hal etilishiga doir mavjud ahvolni o'rganish pedagogik, lingvodidaktik-psixologik va pragmatik xususiyatlarini rivojlantirish tuzilmasini tahlil qilishga hamda ona tili o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirishda uzluksizlikni ta'minlashning daraja ko'rsatkichlari mexanizmini takomillashtirishga harakat qildik.

OTM ona tili ta'lim yo'nalishida "Husnixat o'qitish metodikasi", "Ona tili o'qitish metodikasi", "Ona tili" fanlarini o'qitish bo'yicha davlat malaka talablaridan kelib chiqqan holda mazmunan mukammal yaratilgan modul o'quv dasturlarining ona tili o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarning topshiriqlarni pedagogik, lingvodidaktik-psixologik va pragmatik xususiyatlarini rivojlantirish mexanizmi muhim ekanligini tahlil qildik. Yuqoridagi fikrlarga tayanib aytishimiz mumkinki, pedagog faoliyati keng qamrovlidir. U o'qitishning ikkkita muhim ijtimoiy funksiyasi ta'lim - tarbiya berish va shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarni bajarishga mas'ul. Hozir o'quv-metodik majmualarni yangilash munosabati bilan respublikamizda oliy ta'lim tizimida o'qitilayotgan 200 ga yaqin OTMda ona tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha ona tili o'qitish metodikasining lingvistik talqinlarni o'zbekona (substansial) talqin usullariga ko'chirib, birinchidan, o'rta ta'lim ona tili sinflarida ona tili qurilishi bo'yicha olinadiga talqinlar bilan OTMda beriladigan talqinlarni uyg'unlashtirishga, ikkinchidan, jahon pedagogikasi silsilagida o'zbek lingvistik maktabi o'rnini barqarorlashtirishga real imkoniyatlar mavjud.

Xulosa. Xulosa sifatida, tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, OTM bilan umumiy o'rta ta'lim darsliklarida berilgan topshiriqlar bir-biriga juda yaqin, ona tili ta'lim topshiriqlari hamda umumiy topshiriq tuzish metodikasini o'zida to'laqonli aks ettirmaydi, ularning metodikasi mualliflarning shaxsiy salohiyatiga bog'liq bo'lib qolgan, ammo davr talabi bilan mukammal tadrijiy metodika kasb etib bormoqda. Bu esa darsliklarda beriladigan ona tili ta'lim metodikasi va lingvodidaktik asoslari yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar qilishni taqozo etadi. Bu oliy ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Allavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun) Darslik. T.:T.Fan va texnologiya 2012. – 380 b.
2. Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 253 b. (318)
3. Hasanboev J., To'raqulov. X., Haydarov M., Hasanboeva O. tomonidan tuzilgan "Pedagogika fanidan tuzilgan izohli lug'at" – T.:Fan va texnologiya. 2008.73-b (480)
4. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya / Pod red. V.V. Davidova, – M.: Pedagogika, 1991. – 80 s.
5. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarini ma'lumotlari milliy bazasi

## TALABALARDA KREATIV KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

*Amonova Nargiza Muxtarovna  
Mustaqil izlanuvchi, Biokimyo kafedrasi assistenti,  
Buxoro davlat tibbiyot instituti  
<https://orcid.org/0009-0006-3870-7484>*

## НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

*Амонова Наргиза Мухтаровна  
Ассистент кафедры биохимии, соискатель  
Бухарский государственный медицинский институт*

## DIRECTIONS FOR IMPROVING CREATIVE COMPETENCE IN STUDENTS

*Amonova Nargiza Mukhtarovna  
Independent researcher, assistant of the Department of Biochemistry,  
Bukhara State Medical Institute*

*and development of spiritual values of a person. Young students make their future plans, determine their own independent lifestyle, and try to master a certain profession. Young people not only imagine that they are stepping into a big life, but also actually participate in it. For this reason, it is very important for young people to find their place in society, establish new relationships with others, understand the meaning of life, exciting but abstract experiences related to their destiny. After all, spiritual and moral problems, interest in self-awareness and understanding arise in them, a worldview is fully formed, acceptance or rejection of moral criteria occurs, moral reflection carefully monitors all processes. These issues are discussed in the article.*

*Key words: student youth, student period, worldview, social reality, spiritual self-awareness, learning process, values, spiritual values, learning, educational activity.*

Bugungi jamiyat talablari, ilmiy-texnika va texnologiya sur'atlari o'sib borishi, talaba-yoshlar bajarayotgan ijtimoiy vazifalarni yanada murakkablashtirmoqda. Bu ijtimoiy funksiyalar quyidagilardan iboratdir: jahon xalqlari hayotini, mamlakatimiz rivoji, taraqqiyotning o'zbek modelining mohiyatini har tomonlama chuqur o'rganish; fan-texnika va texnologiyalar asoslarini chuqur egallash; kasbga aloqador bo'lgan professional va ijtimoiy ko'nikmalarni amaliyot bilan, siyosiy va axloqiy madaniyatni tinmay o'stira borish yo'li bilan hosil qilish; ijtimoiy-siyosiy faoliyatda o'z mehnati bilan faol qatnashish; kelajakdagi mustaqil, ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarni egallash; yangicha dunyoqarashni shakllantirish va hokazolar.

Bu ijtimoiy vazifalar talaba - yoshlarning faol ijodiy mehnatida o'z ifodasini topadi. Talaba-yoshlar bu davrda o'z mehnat faoliyati turini, o'zining ma'naviy idealini belgilashi, muayyan turmush tarzini hosil qilishi lozim. Binobarin, talabaning faolligi - a'lo o'qishda, ilmiy faoliyatda va fan asoslarini ijodiy o'zlashtirishda o'z ifodasini topadi.

Talabalik yillarida o'qish faoliyatining rivojlanishi qator o'ziga xosliklariga ega. Mazkur davrda o'z-o'zini tahlil etish qobiliyati va o'zi haqidagi (o'zining xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvori, xarakteri) bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish ehtiyojining oshib borishi kuzatiladi. O'zini ma'lum bir ideallar bilan qiyoslash yuzaga chiqadi, o'z-o'zini tarbiyalash imkoniyati faollashadi. O'spirinlik davridagi fikrlash uslubi shaxsiy-emotsionallik bilan ajralib turadi. Dunyoqarash va nazariy muammolarga qat'iy nuqtai nazar namoyon bo'ladi (intellektual his-tuyg'ular faol rivojlanadi)[10].

Aynan ijtimoiy voqelikka haqqoniy munosabat, ilmiy dunyoqarashga doir yondashuvlarga fundamental javob bera olish - ishontirishning faol usullariga nisbatan irratsional ustanovkalarni shakllantirishga imkon beradi. Ta'lim jarayoni hamda o'quv maqsad va vazifalarini amalga oshirishdagi shaxs xulq-atvori individual o'quv uslubini o'zida aks ettiruvchi barqaror tavsif va psixologik asoslarga ega[14].

Talabalik davri – shaxsning kasbiy shakllanishi va ma'naviy qadriyatlarining rivojlanishi nuqtai nazaridan muhim yosh davri. Mazkur yosh davri o'zining alohida ehtiyojlari, shaxsning sifat jihatdan o'zgarishi, psixik hayotning o'ziga xosliklarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Zero, talaba yoshlar o'zlarining kelajak rejalarini tuzib, mustaqil hayot tarzini o'zi belgilab, muayyan kasbni o'zlashtirishga harakat qila boshlaydi. Yoshlar nafaqat o'zini katta hayotga qadam qo'yayotganligini tasavvur qiladi, balki unda real ishtirok etadi.

G.S.Abramova fikricha : “Inson “Men”i, ichki va tashqi erkinligi chegarasiga doir savollar echimi har bir insonning shaxsiy hayotidagi nozik masala - ya'ni, hayotiy vazifalar sifatida ma'naviy o'z-o'zini anglash bilan bog'liq”[1].

Adolat, burch, aybdorlik hissi, o'lim, mas'uliyat, taqdir, hayot mazmuni kabi savollar har qandayo yosh insonni tashvishga soladi. G.S.Abramova mazkur masalalar mohiyatini aniq ifoda etgan. “Yoshlikda ma'naviy o'zlikni anglash uchun barcha – abstrakt fikrlash, boshqa kishilar bilan aloqadorlik va ulardan alohidalikdan qayg'urish, hayotiy vazifalarni hal etish –

yaxlit voqelik sifatida hayotni tushunish predmeti sifatida xizmat qiladigan maqsad va vositalar haqidagi barcha shart-sharoitlar mavjud"[1].

Oliy ta'lim muassasasida o'qish jarayonida yoshlar talaba ma'naviyatini o'zida ifoda etadi. S.Abramova yoshlarning ma'naviy o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq muammolarni batafsil o'rganib, mazkur jarayonni faol kechishi haqida yaqqol guvohlik beruvchi jihatlarni aniqlab bergan. Avvalambor, bu ma'naviy hamdardlik, ya'ni boshqa insonlar bilan umumiylikni his qilish va ulardan mustaqil bo'lish, boshqalarga (kamdan-kam hollarda befarq bo'lishi mumkin), o'ziga, do'stlikka (o'spirin yaqin sirdosh izlaydi), muhabbat (insonga in'om qilingan) nisbatan intilishning kuchliligi va olam bilan munosabatga kirishish bilan bog'liqdir.

V.I.Slobodchikov va E.I.Isaev yoshlik davrini individuallashtirish pog'onasi sifatida tavsiflab, yoshlarni axloqqa alohida munosabat bildirishiga e'tibor qaratishgan. Ular individuallashtirish darajasini inson hayotining shaxsiy dunyoqarashni shakllantirish, individual o'ziga xoslik va betakrorlik bilan bog'liq asosiy bosqichlardan iborat deb hisoblashgan. "Yoshlarning asosiy muammosi - ijtimoiy borliq, o'z madaniyati va davriga individual, haqiqiy shaxsiy munosabatlarini topishdir"[15].

Yoshlar uchun jamiyatda o'z o'rnini topish, boshqalar bilan yangi munosabatlarni o'rnatish, hayot mazmuni, o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan hayajonli, biroq mavhum kechinmalarni tushinish juda muhimdir. Bu barcha masalalar ekzistensial xusiyatga ega bo'lib, xuddi ana shu asosdan ma'naviy-axloqiy muammolar, o'z-o'zini anglash va tushunishga qiziqish kelib chiqadi. Ajoyib ichki dunyo shakllanadi, axloqiy mezonlarni qabul qilish yoki rad etish yuz beradi, axloqiy refleksiya barcha jarayonlarni diqqat bilan kuzatib boradi.

Yoshlarning ekzistensial muammolari nuqtai nazaridan S.L.Bratchenkoning individual hayotiy tanlovlar, o'zining shaxsiy o'rnini belgilash, qadriyatlar, ya'ni hayot va o'lim, erkinlik va mas'uliyat, hayot mazmuni va uning yo'qotilishi, muloqot va yolg'izlik haqidagi g'oyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy ko'rinishda bu hayotiy qadriyatlar ekzistensialdir, yoshlar uchun bu qadriyatlar axloqiy tanlovda asos, muayyan sharoitda, jumladan, kasbiy vaziyatlarda shaxsiy mas'uliyat me'yori sifatida xizmat qiladi. Inson hayotining mazkur o'z-o'zini aniqlashtirish davrida shaxsning o'z-o'ziga munosabati (o'zidan qo'rqish, o'zini tan ololmaslik, o'z kuchidan shubhalanish, o'ziga ishonch, hurmatni, yaratishga qodirlikni namoyish qilolmaslik, muomalada cheklanganlik, shixslararo ziddiyat, ijtimoiy ochiqlik va boshqalar)[5].

Shaxsning "hayot sub'ekti"ga aylanishi murakkab jarayondir. S.L.Rubinshteyn "inson tomonidan yaratilgan durdona asarlar ijodkor hayotining cho'qqisi bo'lsa-da, u hayotning ma'lum bir onidir, hayotning qolgan paytlari "hech qanday e'tiborsiz, past darajada kechadi"[1] - deb yozadi. Demak, hayot, hatto insoniyat uchun ideal bo'lgan shaxslar misolida ham, kerakli saviyada, kerakli mahsuldorlikda va ma'naviy darajada kechavermaydi, hayot bilan ideal o'rtasidagi qarama-qarshilik inson uchun hayotni, yashashni muammoga aylantiradi. Inson "hayot sub'ekti" bo'lishi uchun ushbu qarama-qarshilikni u pozitiv hal etishi, ya'ni "hayotni yaratish va qurishga" o'tishi lozim. Shaxsning "hayot sub'ekti"ga aylanishi, eng avvalo, uning hayotiy maqsadida o'z aksini topadi.

Ijtimoiy-falsafiy va pedagogik-psixologik adabiyotlarda shaxs hayotini bir-biriga dialektik bog'liq jarayonlar - bolalik (go'daklik), yoshlik, etuklik va keksalikka bo'lib o'rganish keng tarqalgan. Ushbu jarayonlarni tahlil qilgan va ularga xos xususiyatlarni aniqlagan B.G.Ananev har bir hayotiy bosqich ma'lum bir qadriyatlarni hayotiy maqsad qilib qo'yishini ta'kidlaydi. U yoshlarda ta'lim va ilm olish, muloqot asosiy qadriyatlar sifatida kelishini va ular hayotiy maqsadini ushbu qadriyatlar orqali belgilashini asoslaydi[3].

Talabalarning ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda o'quv-bilish jarayoni hamda mazkur holatda sub'ektivlikning namoyon bo'lishi ham muhim o'rin tutadi.

O'quv faoliyatining muhim komponenti sub'ektning o'zi bilan bog'liqlikda sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'zlashtirish darajasini baholashga doir xatti-harakatni ifoda etadi. Mazkur



harakat orqali talaba qo‘yilgan o‘quv vazifasi to‘g‘ri amalga oshirildimi, kelgusida ko‘plab nazariy vazifalarni hal etishda qo‘llash bilan bog‘liq o‘quv harakatlari usullarini o‘zlashtirgan yoki o‘zlashtirmaganligini aniqlay oladi[11].

O‘quv faoliyati nazariy bilimlarni va o‘quv-bilish faoliyati usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. O‘quv faoliyati o‘zida quyidagi komponentlarni aks ettiradi: maqsad qo‘yish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish, o‘z-o‘zini baholash, rejalashtirish, qaror qabul qilish, nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, korreksiya, motivatsiya, o‘zlashtirish. YAxlitlikda o‘quv faoliyati o‘zaro birgalikdagi nazorat yoki refleksiya yordamida amalga oshiriladi[13].

G.P. Shedrovitskiyning konsepsiyasida ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish jarayoni sifatida o‘qish-o‘rganish va o‘quv-bilish faoliyati farqlanadi. O‘qish-o‘rganish – bu to‘liq anglanmagan o‘zlashtirish, o‘quv-bilish faoliyati – bu o‘quv vositalarini qo‘llash bilan bog‘liq maxsus tashkil etilgan o‘zlashtirish. O‘quv-bilish faoliyati: mazmun, o‘quv faoliyati natijasi, faoliyatni tashkil etish jarayonlari, psixik funksiyalar, qobiliyatlar va o‘zlashtirish jarayonlaridan tashkil topadi[14].

V.D.Shadrikovning ta’kidlashicha, o‘rganish – bu insonning atrof-muhit bilan o‘zaro harakati va unga layoqatlilik, borliqdagi jarayonlarni bilishga yo‘naltirilgan ijodiy jarayon emas, “insoniyat tomonidan to‘langan madaniyatni o‘zlashtirish, “o‘zlashtirish” yoki “qabul qilish”dir[17].

S.Yu.Jdanovanning ta’kidlashicha, o‘quv-bilish faoliyati - faoliyatning alohida turlarida natija olish uchun emas, o‘z-o‘zini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan nazariy va amaliy faoliyat sifatida yuzaga chiqadi hamda faoliyat komponentlari haqidagi bilimlarni, ularni amalga oshirishga doir bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda o‘zining natijaviyligiga ega[8].

A.M.Mityaeva o‘quv faoliyati tuzilmasi deganda, xilma-xil o‘zlashtiriladigan o‘quv materiallari, bilim, ko‘nikma va malakalar, intellektual faoliyat, o‘z o‘quv faoliyatini tashkil etish usullari yig‘indisini tushunadi[12].

N.A.Kiselevskaya “o‘quv-bilish faoliyati” tushunchasini “ma’lum bir hajmdagi bilim, ko‘nikma va malakalar, faoliyat turlari va xulq-atvor shakllarini ongli tarzda o‘zlashtirish maqsadi boshqariladigan inson xatti-harakatlari” sifatida talqin etadi[9].

M.G.Davletshinning fikricha, yoshlar har xil sohalar mazmuniga o‘zlarining ongli ravishda yondashuvlari orqali ularda ilm olishga nisbatan to‘g‘ri va oqilona tasavvurlar ertaroq hosil bo‘ladi [6].

E. G‘.G‘oziev mustaqil tafakkurning rivojlanishi, bilim jarayonining qiziqarli tashkil etilishi talabalar faoliyatida yangi muvaffaqiyatlarga erishishning ijodiy manbai, deb hisoblagan. E. G‘.G‘oziev o‘z tadqiqotlarida talabalarining o‘quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari, o‘quv faoliyatini rejalashtirish, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zini-o‘zi baholash, inson faoliyatini aniqlash, o‘quv faoliyatini rejalashtirishni aniqlash, maqsad qo‘ya olishni aniqlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilishni aniqlash, bo‘sh vaqtni aniqlash kabi tushunchalar haqida mulohazalar yuritgan [13].

R.I.Sunnatova o‘z ilmiy tadqiqotlarida talabalarining o‘z-o‘zini boshqarish jarayonidagi fikrlash faoliyatlarini o‘rgangan. Olima o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarining fikrlash faoliyatiga ta’sir etish xususiyatlarini quyidagicha izohlagan. Bir tomondan, talabalarining o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarida qator o‘zgarishlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. SHu bilan birga, talabalarda o‘quv faoliyatiga nisbatan qiziqishning oshib borishi hamda o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida bilim olishga nisbatan yangicha qarashlarning shakllanganligi ham ko‘rinadi. Shuningdek, talabalar o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida o‘z-o‘zlarini tarbiyalash va o‘z qobiliyatlarini takomillashtirishga harakat qilganliklari ham kuzatiladi [16].

Z.T.Nishanova talabalarining mustaqil-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar majmuini ishlab chiqqan. Bu mashg‘ulotlarda asosiy diqqat tafakkur operatsiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsada, ijodiylikning tezligi, aniqligi, originalligi kabi xususiyatlarini rivojlantirish masalasi ham chetda qolmagan[13].



Talabalik yillarida kasbiy tarbiya va shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydigan omillar o'rtasida aniq vazifalar nuqtai nazaridan dolzarblik kasb etuvchi o'quv fanlari, metod, usul va vositalar muhim sanaladi. Psixologik-pedagogik fanlar nafaqat talabalarni bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash, balki uni shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Yuqoridagi fikr bilan bog'liqlikda talabalarning ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlarning ta'sirini nazariy asoslash talab etiladi [7].

Pedagogik-psixologik fanlar o'zining mohiyatiga ko'ra insonning hayotiy maqsad va mo'ljallarni to'g'ri belgilash uchun muhim hisoblangan axborotlar tashkil etadi. Bu axborotlar hayot mazmuni, insonning undagi o'rni, insonparvar qadriyatlarni o'zida ifoda etadi. Bu fanlar talabaga yaxshilik va yomonlik, burch va mas'uliyat, ya'ni ma'naviy yo'nalganlik nuqtai nazaridan boshqa kishilar bilan munosabatlarni tushunish orqali dunyoni ko'rishga imkon beradi [18].

Demak, ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Ma'naviy qadriyatlar shaxs integrativ xususiyati sifatida o'zida ma'naviy bilimdonlik, ma'naviy dunyoqarash tizimida o'z o'rnini aniqlash imkoniyati va hayotiy vaziyatlarning keng ko'lamida ma'naviy etuklikni namoyon qilish qobiliyatini birlashtiradi. Ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish tuzilmasi maqsadga muvofiq ravishda quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: tanishtiruv-tahliliy, qadriyatli-yo'naltiruvchi, refleksiv-faoliyatga doir.

2. Ma'naviy qadriyatni rivojlantirish jarayoni uchta o'zaro bir-biri bilan bog'liq bosqichlarni amalga oshirishni talab etadi: ma'naviy sohaga doir bilimlarni kengaytirish; qadriyatlarga yo'nalganlik; shaxsiy ma'naviy qadriyatlar asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish.

3. Talabaning ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish barqaror, mustaqil va yaxlit hodisa sifatida oliy ta'lim muassasasi o'quv-tarbiya, qisman pedagogik-psixologik fanlarni o'rganish jarayonida qisman aks etadi.

4. Shaxsning ma'naviy rivojlanish sohasi doirasida sub'ekt, shaxs va indiviuallik sifatida talabalarning yosh tavsifi bir tomondan, uning ma'naviy kamolotida pedagogik-psixologik fanlarning o'rni va rolini hamda talabalik yillari o'z-o'zini namoyon etishda aks etadigan faol axloqiy tanlov davri ekanligini ko'rsatadi.

5. Ta'lim jarayonida talaba ma'naviy qadriyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ma'naviy jihatdan o'z-o'zini anglash, o'zining rejalarini faol tarzda amalga oshirish, hayotiy maqsadlarni belgilash; yaxlitlikda o'z "Men"ini asoslash, boshqa kishilar va o'z-o'ziga nisbatan munosabatini aniqlashtirish; jamiyat ma'naviy-axloqiy muammolarga qiziqish, ma'naviy qadriyatlarni tanlash, axloqiy ongning rolini kuchaytirish, ma'naviyatning ichki anglanganligi (interiorizatsiya), shaxsiy dunyoqarashini ishlab chiqish; o'z turmush tarzini belgilash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tushunish, refleksiya, o'z-o'zini hurmat qilish, ijtimoiy ochiqlik, tashabbuskorlik, mustaqillikka intilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. – М.:Мысль, 1991. –159 с.
2. Абрамова Г.С. Психология только для студентов: Учебное пособие для вузов. – М.: ПЕР СЭ, 2001. – 271 с.
3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – СПб.: Питер, 2001. - 288 с.
4. Анисимов С.Ф. Духовные ценности: производство и потребление. –Москва: Мысль, 1998. – 156 б.
5. Братченко С.Л. Экзистенциальная психология глубинного общения: уроки Джеймса Бюджентала. – М.: Смысл, 2001. – 197 с.
6. Davletshin M.G. Tanlangan ilmiy ishlar to'plami. – T.,2008.– 81 b.
7. Djumaniyazova M.X. Yoshlar tarbiyasida qadriyatlarning roli. //“Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali. Volume 1, ISSUE 3, 2023. July.
8. Жданова С. Ю. Стиль учебной деятельности и его развитие: На материале

исследования студентов-филологов и математиков: автореферат дис. ... кандидата психологических наук. – Пермь, 1997. – С.94.

9. Киселевская Н.А. Стили саморегуляции учебной деятельности и их формирование у студентов вуза. – Иркутск: ВСГАО, 2013. – 124 с.

10. Кулагина И.Ю. Возрастная психология – М.: ТЦ Сфера, Юрайт, 2017. – 325 с.

11. Компетентностный подход в высшем профессиональном образовании // А. Орлова, В.В.Грачева. – М.: ДиректМедиа, 2014. – 377 с.

12. Митяева А.М. Развитие индивидуальных стилей учебной деятельности студентов в вузе. – Орел: Картуш, 2015. – 175 с.

13. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya . Darslik / Z.T. Nishanova va boshq. - Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.

14. Сагиев Р.Р. Индивидуально-стилевые особенности саморегуляции в учебной деятельности студентов: дисс. ... канд.псих.наук. – Москва, 2013. – 177 с.

15. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Основы психологической антропологии. Психология развития человека: Развитие субъективной реальности в онтогенезе: Учебное пособие для вузов. – М.: Школьная Пресса, 2000. – 416 с.

16. Суннатова Р.И. Саморегуляция мыслительной деятельности. - Т.: Шарк, 1998. - 83 б.

17. Шадриков В.Д. Деятельность и способности. – М., 2004. – 320 с.

18. Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli. – Т.: 1995. – 123 б.

## **OLIV PEDAGOGIK TA'LIMDA MEDIASAVODXONLIK DAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

*Duschanova Moxinur Maxsudovna*

*Urganch davlat pedagogika instituti*

*“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqola oliy pedagogik ta‘lim tizimida mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Mediasavodxonlik zamonaviy jamiyatning muhim kompetensiyalaridan biri bo‘lib, o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida uning ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada mediasavodxonlikning mohiyati, uning oliy pedagogik ta‘limdagi o‘rni va uni samarali qo‘llashning usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, mediasavodxonlikni rivojlantirishga yordam beradigan innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar va didaktik yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijasida pedagogik jarayonlarda mediasavodxonlikni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar tavsiflanadi va amaliy takliflar beriladi.*

*Kalit so‘zlar: Mediasavodxonlik, oliy pedagogik ta‘lim, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, zamonaviy ta‘lim, didaktik yondashuvlar, kompetensiya, mediamadaniyat, axborot texnologiyalari.*

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ В ВЫСШЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ**

*Дусчанова Мохинур Махсудовна*

*Ургенчский государственный педагогический институт*

*Преподаватель кафедры «Методика начального образования»*

*Аннотация: Данная статья посвящена исследованию педагогических условий развития медиаграмотности в системе высшего педагогического образования. Медиаграмотность является одной из важных компетенций современного общества, и ее значение возрастает в процессе подготовки учителей. В статье анализируется сущность медиаграмотности, ее роль в высшем педагогическом образовании и методы ее эффективного применения. Также обсуждаются инновационные технологии, интерактивные методы и дидактические подходы, которые помогают развивать медиаграмотность. В результате исследования описаны педагогические условия, необходимые для успешного использования медиаграмотности в педагогическом процессе, и даны практические предложения.*

*Ключевые слова: Медиаграмотность, высшее педагогическое образование, педагогические условия, инновационные технологии, интерактивные методы, современное образование, дидактические подходы, компетентность, медиакультура, информационные технологии.*

## **PEDAGOGICAL CONDITIONS OF USING MEDIA LITERACY IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION**

*Duschanova Mokhinur Makhsudovna*

*Urgench State Pedagogical Institute*

*Teacher of the «Methodology of Primary Education» department*

*Abstract: This article is devoted to the study of the pedagogical conditions for the development of media literacy in the system of higher pedagogical education. Media literacy is one of the important competencies of modern society, and its importance is increasing in the process of teacher training. The article analyzes the essence of media literacy, its role*

*in higher pedagogical education and methods of its effective application. Also, innovative technologies, interactive methods and didactic approaches that help to develop media literacy are discussed. As a result of the research, pedagogical conditions necessary for successful use of media literacy in pedagogical processes are described and practical suggestions are given.*

*Key words: Media literacy, higher pedagogical education, pedagogical conditions, innovative technologies, interactive methods, modern education, didactic approaches, competence, media culture, information technologies.*

## Kirish.

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'quv jarayonini tashkil etishda sifat jihatdan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mediasavodxonlik bugungi kunda ta'lim tizimining muhim qismi sifatida qaralmoqda. Mediasavodxonlik nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, samarali qo'llash va tarqatish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, oliy pedagogik ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirish orqali bo'lajak pedagoglarning o'quv jarayonini zamon talablari darajasida tashkil eta olish imkoniyatlari oshadi.

Oliy pedagogik ta'limda mediasavodxonlikdan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayon samaradorligini ta'minlash uchun ma'lum pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va interaktiv yondashuvlardan foydalanish mediasavodxonlikni o'qituvchilar tayyorlash jarayoniga integratsiya qilishda asosiy vositalardan biri sifatida ko'riladi.

Mazkur maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi va ushbu jarayonni tashkil etishning samarali usullari bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari mediasavodxonlikni ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Oliy ta'limda mediasavodxonlikdan foydalanishning ahamiyati. Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonida mediasavodxonlik muhim vositaga aylangan. Oliy ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirish nafaqat talabalarni o'quv jarayonida samarali ishtirokchi sifatida shakllantirish, balki ularni mustaqil fikrlashga, axborotni tanqidiy baholashga va raqamli axborot manbalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Mediasavodxonlikning asosiy maqsadi:

Axborotning ishonchligini baholash: Talabalar turli axborot manbalarida tarqatilayotgan ma'lumotlarni tahlil qilishni va ularning haqqoniyligini aniqlashni o'rganadilar.

Axborot oqimini boshqarish: Talabalarga faqat zarur va ishonchli ma'lumotlardan foydalanishni o'rgatish orqali axborot haddan tashqari ko'pligidan qochish imkonini beradi.

Digital madaniyatni shakllantirish: Mediasavodxonlik talabalarning raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish madaniyatini rivojlantiradi.

Oliy ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirishning afzalliklari:

Innovatsion o'qitish usullarini joriy etish: Mediasavodxonlikning rivojlanishi ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni keng joriy etishga yordam beradi. Masalan, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va boshqa texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Talabalarning kreativ fikrlashini shakllantirish: Mediasavodxonlik orqali talabalar turli xil vizual va audiovizual materiallar yordamida ijodiy yondashuvlarni rivojlantiradilar.

Ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish: Talabalar axborotni iste'mol qilishda mas'uliyatni his qilishni o'rganadilar, shu orqali axborotning salbiy oqibatlarini kamaytirishga o'z hissalarini qo'shadilar.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish: Mediasavodxonlik talabalarni har qanday axborotga shubha bilan qarash, uni mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Oliy ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirish bugungi zamon talabiga mos keladigan bilimli, malakali va axborot bilan ishlash ko'nikmalariga ega mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mediasavodxonlik faqatgina axborotni qabul qilish va etkazish emas, balki axborotning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ta'sirini to'g'ri baholash imkonini beradi. Shu sababli, oliy ta'lim tizimida mediasavodxonlikdan foydalanish ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili(Sharhi):

Mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan xorijiy ilmiy tadqiqotlar ushbu masalaning zamonaviy ta'lim tizimidagi dolzarbligini va uning o'quv jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlarini keng qamrovda ochib beradi. Xususan, UNESCO (2011) tomonidan chop etilgan «Media and Information Literacy Curriculum for Teachers»[3] qo'llanmasi mediasavodxonlikni global o'quv dasturlariga joriy etishning ahamiyati va pedagogik strategiyalari haqida muhim tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Unda mediasavodxonlikni rivojlantirish o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishning asosiy omili sifatida talqin qilingan.

Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik bo'yicha o'quv dasturlari ta'limning barcha bosqichlariga integratsiya qilinmoqda. Xususan, Buckingham[1; 45] (2003) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mediasavodxonlikni rivojlantirishda multimediya resurslari va raqamli platformalardan foydalanishning o'rni haqida muhim ma'lumotlarni keltiradi. Tadqiqotda multimediya orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan.

AQShdagi tadqiqotlar, jumladan Hobbs[2; 167] (2010) tomonidan olib borilgan izlanishlar, mediasavodxonlikni o'qituvchilarga axborot manbalarini tanlash, tahlil qilish va samarali taqdim etishda yordam beruvchi kompetensiya sifatida qaraladi. Hobbsning ta'kidlashicha, mediasavodxonlik o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli integratsiya qilishning asosiy sharti hisoblanadi.

Osiyo mamlakatlarida, xususan, Janubiy Koreyada mediasavodxonlikni rivojlantirish maktab va oliy ta'lim tizimlarida keng joriy etilmoqda. Park va Son[4; 17] (2015) mediasavodxonlikni shakllantirishda interaktiv ta'lim usullari va raqamli o'quv resurslarining rolini o'rgangan. Ularning fikricha, mediasavodxonlik zamonaviy ta'lim sifatini oshirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlikni rivojlantirishda interaktiv yondashuvlar, multimediya vositalari va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar oliy pedagogik ta'limda mediasavodxonlikdan foydalanishning samaradorligini ta'minlash uchun mustahkam asos yaratadi.

MDH davlatlari olimlarining adabiyotlar tahlili:

Rus adabiyotlarida mediasavodxonlik ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati bilan bog'liq holda keng o'rganilgan. Bu boradagi tadqiqotlar o'quvchilar va o'qituvchilarning mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilishning pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Sharikov A. V.[7; 191] (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mediasavodxonlikni «axborot madaniyati»ning muhim qismi sifatida ta'riflaydi. Sharikovning fikricha, mediasavodxonlik o'quvchilarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatish vositasi bo'lib, ta'limda integratsion yondashuvlardan foydalanish orqali samarali rivojlantiriladi. U mediasavodxonlikni rivojlantirishda o'qituvchilar uchun maxsus metodik qo'llanmalar va o'quv resurslarini yaratishni taklif qiladi.

Fedorov A. V.[6; 261] (2020) mediasavodxonlikni o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarining ajralmas qismi sifatida o'rganadi. Tadqiqotda mediasavodxonlikni rivojlantirish o'quv jarayonini diversifikatsiyalash, multimediya vositalaridan foydalanish,

axborot resurslarini to'g'ri tahlil qilish orqali amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlangan. Fedorovning fikricha, mediasavodxonlik o'quvchilarni manipulyatsiyalarga qarshi turishga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Belova E. E.[5; 21] (2018) tomonidan olib borilgan izlanishlarda mediasavodxonlikni shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlari o'rganilgan. U o'qituvchilarni mediasavodxonlikka o'rgatishda texnologik savodxonlik va axborot manbalariga tanqidiy yondashuvning muhimligini qaydetadi. Belovaning fikricha, o'quvchilarda mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun o'qituvchilarning o'zlari etarli darajada malakaga ega bo'lishlari lozim.

Rus tilidagi qo'llanmalar va ilmiy maqolalar mediasavodxonlikni rivojlantirishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, interaktiv metodlardan foydalanish, hamda axborot oqimlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishni asosiy yo'nalishlar sifatida belgilaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik o'quv jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, rus adabiyotlarida mediasavodxonlikni shakllantirish masalalari o'quv jarayonining barcha bosqichlarida joriy etilayotgan innovatsion metodlar bilan bog'langan bo'lib, ushbu yondashuvlar oliy pedagogik ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun nazariy va amaliy asoslar beradi.

Muhokama:

Oliy pedagogik ta'lim tizimida mediasavodxonlikni rivojlantirishning ahamiyati global miqyosda tan olingan bo'lsa-da, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash zarur. Xorijiy va rus adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, mediasavodxonlikni rivojlantirish jarayonida quyidagi asosiy jihatlar dolzarb ahamiyat kasb etadi:

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Mediasavodxonlikni shakllantirishda raqamli platformalar, multimediya vositalari va o'quvchilarning interaktiv ishtirokini ta'minlaydigan texnologiyalarning o'rni katta. Xususan, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini integratsiya qilish tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'qituvchilarning malakasini oshirish. Mediasavodxonlikni samarali rivojlantirish uchun o'qituvchilar o'zlari mediasavodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishlari shart. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maxsus tayyorlov dasturlarini joriy etish orqali o'qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Pedagogik yondashuvlarning diversifikatsiyasi. Interaktiv yondashuvlar, masalan, guruhiy muhokamalar, muammoli o'qitish, loyihaviy ishlar va boshqa usullar orqali o'quvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirish jarayonini boyitish imkoniyati mavjud.

Mediamadaniyatni shakllantirish. Mediasavodxonlik nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki axborot madaniyatini ham rivojlantirishni talab qiladi. Bu jarayon manipulyatsiyalarga qarshi turish, axborotni tanqidiy baholash va uni maqsadli foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Axborot resurslarining sifati va tanlanishi. Mediasavodxonlikning samaradorligi ta'lim jarayonida foydalanilayotgan axborot resurslarining sifati bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun, ushbu resurslarni tahlil qilish va ularni to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlikni rivojlantirish o'quv jarayonini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish va ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, mediasavodxonlikni samarali joriy etish uchun milliy ta'lim tizimining xususiyatlarini hisobga olgan holda, xorijiy va rus tajribalarini moslashtirish lozim. Muhokama qilinayotgan masalalar pedagogik amaliyot uchun nazariy va amaliy asos yaratadi hamda oliy ta'limda mediasavodxonlikdan foydalanishni yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Mediasavodxonlik zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'limda

mediasavodxonlikni rivojlantirish, bo'lajak pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasini oshirish va ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlikni samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhimdir:

□ Innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish;

□ O'qituvchilar va talabalar uchun maxsus metodik qo'llanmalar yaratish va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish;

□ Interaktiv va loyihaviy ta'lim metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

□ Axborot resurslarini tanlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

□ Ta'lim jarayonida milliy va xorijiy tajribalarni moslashtirish.

Mediasavodxonlikni rivojlantirish orqali pedagogik ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish hamda axborotga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Shu sababli, ushbu masalani o'rganish va amaliyotga joriy etish ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mediasavodxonlikni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish nafaqat pedagogik jarayonlarni takomillashtiradi, balki ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. — Cambridge: Polity Press, 2003.

2. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. — Corwin Press, 2010.

3. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. — Paris: UNESCO Publishing, 2011.

4. Park S., Son H. Media Literacy Education in South Korea: Current Status and Future Directions. — Seoul: Korean National University Press, 2015.

5. Белова Е. Е. Психолого-педагогические аспекты формирования медиаграмотности у студентов. — Москва: Просвещение, 2018.

6. Федоров А. В. Медиаобразование: история, теория и методика. — Таганрог: Изд-во ТГПИ, 2020.

7. Шарипов А. В. Медиаобразование: теория, методология и практика. — Москва: Академия, 2017.

8. Madraximovich, K. E. (2020). Improving the methodological training of primary school teachers on the basis of innovative approaches. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(7).

9. Xudoynazarov, E. M. (2019). Didactic possibilities of oral exercises in forming initial classes pupils' mathematical thinking activity. *Eastern European Scientific Journal*, Ausgabe. Germany, (1-2019), 249.

10. Khudoynazarov, E. (2023). Boshlang 'ich ta'limda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati. *Молодые ученые*, 1(13), 32-37.

## **O‘QUVCHILARNING FANLARDAN EGALLAGAN BILIMLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA MEZONLARI**

*Elliyev Hamza Quvvatovich*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi*

*ANNOTATSIYA. Bu maqolada uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ta’lim mazmuni, sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ya’ni ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirishga qaratilgan.*

*Kalit so‘zlar: ta’lim va tarbiya, pedagogik texnologiyalar, sog‘lom turmush tarzi, ilm-fan va innovatsiyalar, o‘quv adabiyotlari, baholash metodlari*

## **СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ ПО ПРЕДМЕТАМ**

*Эллиев Хамза Кувватович*

*Исследователь Ташкентского университета прикладных наук*

*АННОТАЦИЯ. Данная статья направлена на повышение содержания, качества и эффективности образования при внедрении современных педагогических технологий в систему непрерывного образования. То есть оно направлено на развитие образования и обучения, формирование здорового образа жизни, развитие науки и инноваций.*

*Ключевые слова: образование и обучение, педагогические технологии, здоровый образ жизни, наука и инновации, учебная литература, методы оценивания*

## **MODERN METHODS AND CRITERIA FOR ASSESSING STUDENTS’ KNOWLEDGE IN SUBJECTS**

*Elliyev Hamza Quvvatovich*

*Researcher at Tashkent University of Applied Sciences*

*ANNOTATION. This article aims to increase the content, quality and effectiveness of education in the introduction of modern pedagogical technologies to the continuous education system. That is, it aimed at the development of education and training, the establishment of a healthy lifestyle, and the advancement of science and innovation.*

*Key words: education and training, pedagogical technologies, healthy lifestyle, science and innovation, educational literature, assessment methods*

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim” – deb belgilanishi, dunyo miqyosida hayot sur‘atlari ko‘chkisimon rivojlanayotgan globallashuv davrida, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz sharoitida ham yurtimizda ilm-fanni rivojlantirish, yosh avlodni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat yegasi yetib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini amalda keng joriy etishga yo‘naltirilgan bunday strategik vazifalar uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ta’lim mazmuni, sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar ko‘lami tarkibida texnika o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratish



texnologiyalarini takomillashtirish hamda ulardan ta'lim-tarbiya jarayonlarida samarali foydalanish ham o'ta dolzarb muammolardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shunga ko'ra, dastlab o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga bevosita taalluqli bo'lgan Davlat ta'lim standartlari (DTS) va Tarmoq ta'lim standartlari (TTS)ni tahliliy ko'rib chiqamiz. Qaysiki, ta'lim mazmunini yangilash jarayoni uni shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan o'zaro dialektik bog'lanishdagi davlat ahamiyatiga molik uchta muhim hujjat: ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv rejalarida o'z aksini toradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi RF-5712-son Farmonida "...o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq yetish; darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monorollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etmoqda; davlat ta'lim standartlari komretensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan.

Tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda; foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish talab yetilmoqda; xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan RISA (The Programme for International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish; pedagog xodimlarning malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun yegallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish xalq ta'limi tizimi oldida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligi tanqidiy-tahliliy bayon etilgan. O'quvchilarning matematik bilimini baholashning milliy, zamonaviy modeli Finlyandiya maktablarida o'quvchilarni baholash ta'lim jarayoniga kiritilgan bo'lib, butun o'quv yili davomida pedagoglar va o'quvchilar faoliyatini yaxshilash uchun qo'llanadi. Uchinchidan, mamlakatda o'quvchilarning akademik ko'rsatkichini aniqlashga tashqi baholovchilarning emas, maktabning mas'uliyati sifatida qaraladi. Demak, mamlakatimiz ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish uchun ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarga ishonchni orttirish, pedagoglarning o'zi ishiga mas'uliyatini oshirish juda muhim.

Tahlil va natijalar. Mazkur model 1-11-sinf o'quvchilarda matematik kompetensiyalarini topshiriqlar asosida aniqlash ko'nikmalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlar almashish, qayta ishlash, xulosa, qaror chiqarish komponentlarining o'zaro integrativ xossalari barqaror va izchil hisobga olish asosida takomillashtirilgan. Mazkur model 1-11-sinf o'quvchilarda matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin. Uning komponentlaridan strategik maqsadning to'g'ri qo'yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maqsadli komponent. Model elementining tuzilish strukturasi o'rganilayotgan jarayonning asosiy komponenti bo'lgan maqsad-o'quvchilarning o'quv faoliyatini samarali tashkil erish orqali yozma nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, o'zining me'yoriy-huquqiy asosiga ega bo'lib, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida zarur vazifalar amalga oshirib borildi.

Mazmunli-prosessual komponentida o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash

– matematika fani yuzasidan ta’limiy yondashuvlar, mexanizmi, metodikasi va baholash mezonlari asosida amalga oshirish hamda o‘quvchilarning kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari nazarda turilgan.

Natijaviy-baholash komponenti. Komponent yondashuv ta’lim maqsadlarini belgilashning umumiy tamoyillari, ta’lim mazmunini tanlash, ta’lim jarayonini tashkil qilish va ta’lim natijalarini baholash yig‘indisidir. Natijaviy baholash komponenti o‘quvchilarning matematik kompetensiyasini rivojlanganligini baholash mezonlari va natijalaridan iborat. O‘quvchilarning matematik kompetensiyasini rivojlanganligi “yuqori”, “o‘rta”, “past” darajalari bo‘yicha baholandi.

1-jadval

Baholash mezon va ko‘rsatkichlar

Mezonlar           Mazmun va mohiyati

Motivatsion       Qo‘shish, ayirish, bo‘lish va ko‘paytirish amallarini kerativ baholash

Kognitiv mavzu va matndan tashqaridagi ma’lumotlarni mavzuga bog‘lay olish, matn osti ma’nolarni kalit so‘zlar asosida aniqlash

Refleksiv           ma’lumotlar almashish, qayta ishlash, xulosa, qaror chiqarish, mantiqiy fikrlash, anglash, mushohada qilish va amalda qo‘llash

Tadqiqotimiz doirasida amalga oshirilgan kuzatuv, empirik o‘rganish va tahlillarimiz mazkur model quyidagi o‘zaro bog‘liq funksiyalarni bosqichma-bosqich integratsiyalash orqali amalga oshirilganda samarali bo‘ladi degan xulosaga kelish imkonini berdi:

- fanlararo aloqadorlik asosida nutqiy kompetensiyani hosil qiluvchi, fikrlashga undaydigan pragmatik o‘quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

- turli uslubdagi matnlardan, o‘quv materiallaridan foydalangan holda fanlararo aloqadorlik asosida nutqiy kompetensiyani oshiruvchi topshiriqlar ishlab chiqish;

- turli nutq vaziyatiga mos matnlardan foydalanilganda fikrlashga yo‘naltiruvchi misol va topshiriqlar o‘quvchilarda matn va matndan tashqaridagi ma’lumotlarni mavzuga bog‘lay olish, kalit so‘zlar asosida aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishda nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish;

- matematika mashg‘ulotlarida kompetensiyani rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish bo‘yicha metod, usul va texnologiyalarni taklif qilish.

Maqolada o‘quvchilarida matematik kompetensiyani baholash metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari mantiqiy fikrlash, anglash, mushohada qilish va amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi amaliy mashg‘ulotlarini tahliliy prognozlash va loyihalash hamda ta’limni tashkil etishning individual xususiyatlarini amaliy integratsiyalash asosida takomillashtirishga erishildi. Buning uchun interaktiv metod turlari juda ko‘p. Ularni dars mavzusining xususiyatlari va ko‘zlangan maqsadga muvofiq tanlansa kifoya. Quyida tadqiqotimiz doirasida o‘quvchilarida takomillashtirilgan matematik bilim va ko‘nikmalarni baholash metodikasining tarkibiy qismi sifatida foydalanishga doir interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

“Matematik tahlil va sintez” metodi – masala yechimining alternativ variantlarini jadval ko‘rinishida ruyxati tuzilib, ushbu yechimlarning bir-biriga yaqinlari, mantiqan o‘xshashlari va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniqlanadi, umumlashtirilib turli yangi variantlar hosil qilinadi.

Bu uslubda o‘quv jarayoni aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

O‘qitish bosqichlari:

- o‘quvchining o‘quv mazmuni va maqsadlarini faollashtirish;

- faoliyatning maqsadga yo‘naltirilgan asoslari sxemasini va boshqa fanlar bilan integratsiyalash bosqichlarini anglash:

- bajarish uslubi ko‘rsatilmagan holda, taklif etiladigan aniq faoliyat namunasi;

- faoliyatni to‘g‘ri bajarishni to‘liq va mukammal ko‘rsatilishi;

- olingan bilimlar asosida o'quvchi tomonidan faoliyatning maqsadga yo'naltirilgan asoslarini mustaqil yaratilishi.

- tashqi shakl ko'rinishidagi faoliyat (model, sxema, chizmalar);
- faoliyatni tashqi nutqiy umumlashtirish;
- ichki nutq darajasida faoliyatni umumlashtirish;
- faoliyatni interiorizatsiyalash – ichki rejali aqliy bajarish faoliyatiga o'tish.

Afzalliklari:

- o'qitish jarayonini individuallashtirish va integratsiyalash;
- namunalarni ko'rsatish hisobiga uquv va malakalarni shakllantirish vaqtini kamaytirish;
- algoritmlashtirish va integratsiyalash hisobiga faoliyatni yuqori darajada avtomatlashtirish;
- faoliyat sifatini individual nazorat qilish imkoniyati;
- o'qitish uslubiyotini tezkor to'g'rilash, tuzatish.

Kamchiliklari:

- nazariy bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatining cheklanganligi;
- uslubiy yordam ko'rsatishning murakkabligi;
- ijodiy faoliyat bo'yicha fikran va rivojlanlantiruvchi qobiliyatga ega bo'lish imkoniyatini zarurligi.

Uslubning maqsadi: o'quvchilarda muammoning mohiyatini aniqlash, o'z fikrlarini aniq bayon qilish, uni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'tkazish tartibi: masala yechimining alternativ variantlarini jadval ko'rinishida ro'yxati tuzilib, ushbu yechimlarning bir-biriga yaqinlari, mantiqan o'xshashlari va ular o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi, umumlashtirilib turli yangi variantlar hosil qilinadi. Masalan: guruhlardan birining bajargan topshirig'i taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

Topshiriq: so'zning morfemik tarkibini aniqlang.

O'tkazish tartibi:

-o'quvchilar yakka tartibda so'zning morfemik tarkibini o'rganish yuzasidan nazariy ma'lumotlarni yozadilar:

masala natijasini ifodalaydi;

-kichik guruhlarda bir-biriga yaqin, mantiqan o'xshash va bog'lanishli nazariy ma'lumotlar jadval ko'rinishida ketma-ketlikka keltiriladi;

-umumlashtiriladi;

-o'quvchilar tomonidan ketma-ketlikda umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida so'zning morfemik tarkibini o'rganishga doir mustaqil ishlar bajariladi. Namuna:

Taqdimot o'tkaziladi.

“Kundaliklar” metodi – ma'lum vaqt oralig'ida guruhning har bir a'zosi tomonidan tug'ilgan g'oyalari yozib boriladi va ular guruhda tahlil qilinib, bitta o'rtacha fikrga kelinadi.

Metodning maqsadi: o'quvchilarda yakka va jamoaviy ijodiy faoliyat ko'nikmalarini, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, turli shakldagi ijodiy faoliyatni egallash malakalarini integrativ hosil qilish.

O'tkazish tartibi:

birinchi bosqich: guruhning har bir ishtirokchisi yakka holda ishlash uchun o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan tarqatma materiallardan birini tanlab oladi. Tarqatma materialda mavzu yuzasidan tayanch tushunchalarning nomi yozilgan. Tinglovchi yakka tartibda tayanch tushunchalar haqida bilganlarini jadval ko'rinishida shakllantiradilar.

ikkinchi bosqich: o'quvchilar yakka tartibda mavzuga doir tayanch tushunchalar ishtirokida kundalik faoliyatlarini og'zaki va yozma tarzda ifodalaydilar. Mazkur vazifa jamoaviy tarzda ham amalga oshirilishi mumkin[.]

uchinchi bosqich: o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga doir savol-javob o'tkaziladi.

to'rtinchi bosqich: o'quvchilar faoliyatini baholash.

“6-6” metodi – guruhning olti a’zosi 6 minutda masala yechimi bo’yicha alohida-alohida o’z fikrlarni va o’z variantlarini yozishadi, keyin guruhda tahlil qilinib, eng muhimi tanlab olinadi.

“Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish” metodi. Ijodiy faoliyat-amaldagidan farq qiluvchi biror bir yangilik yaratishdir. Yangi bilim, uquv va malakalar ko’rinishida ushbu subyekt uchun oldindan noma’lum bo’lgan yangilik yaratish borasidagi ijodiy faoliyat.

Mazmun: amallarni baholash

Maqsad: o’quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtirish, muammolarni hal qilish malakasini shakllantirish, masala yechimini ongli ravishda izlash qobiliyatini rivojlantirish.

Loyihalash – metodni ikki bosqich asosida qurish:

1. Dastlab loyihani fikran yuzaga keltirish, uning rejasi va bajarish bosqichlarini tayyorlash.
2. Loyihani amalga oshirish:
  - axborot bilan ishlash: matn yaratish uchun turli axborotlarni izlash, saralash, zamonaviy axborot, qiziqarli voqea, mazmunli fikr-mulohazalarni umumlashtirish;
  - qayta ishlash: muammoni bir ko’rinishdan boshqa ko’rinishga o’tkazish. Bunda muhokama natijasida eng qiziqarli va sermazmun deb topilgan matn muhokama qilinadi va tanlanadi;
  - ijodiy faoliyatni rivojlantirish: mavjud bo’lgan bir necha matnlar asosida yangi ma’lumotlarni izlash. Bunda masalani bir ko’rinishdan boshqasiga o’tkazish, turli usullarda yechish va vazifalar taqsimlab olinadi;
  - ijodiy masalalarni guruhda yechish: kichik guruhda tuzilgan masalani tahlil qilish, kundalik faoliyatda ro’y bergan voqealar bilan boyitish, bo’lajak mutaxassis sifatida kelajakdagi ish faoliyati bilan bog’lash, tanlagan kasbi bo’yicha yechimlar bilan boyitish, do’stlari va ularga bo’lgan munosabatini aks ettirish va hokazolar.
  - ijodiy faoliyatni guruhiy baholash: o’quvchilar tomonidan guruh ishini mustaqil baholash va qiyosiy tahlili, o’quvchilarning o’zini o’zi baholashi.

Natija. Metodni qo’llash natijasida o’quvchilarda rivojlanadigan kompetensiyaning mazmuni: o’quvchilarda o’rganganlarini kundalik faoliyatda qo’llash, matematika faniga oid kompetensiyalarni shakllantirishda ijodiy muhitni vujudga keltirish, ona tili fanini o’qitish va jarayonni boshqarishga ijodiy yondashuvning shakllanishi.

“Bosqichma-bosqich” metodi.

Maqsad: bu metodda o’quv jarayoni aniq maqsadga yo’naltirilgan faoliyatni tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

O’qitish bosqichlari:

- bajarish usuli ko’rsatilmagan holda, aniq faoliyat namunasi beriladi;
- faoliyatni to’g’ri bajarish yuzasidan to’liq va mukammal ko’rsatma beriladi;
- muayyan mavzuga doir aniq topshiriq beriladi;

O’quvchilarning hayotiy ko’nikmalarini shakllantirish (matematika darslarida) masalani tahlil qilish ko’nikmasini shakllantirishga doir mustaqil ish bosqichma bosqich bajariladi.

Ma’lum vaqt oralig’ida guruhning har bir a’zosi tomonidan tug’ilgan g’oyalari yozib boriladi va ular guruhda tahlil qilinib, bitta o’rtacha fikrga kelinadi.

Natija. Metodni qo’llash natijasida o’quvchilarda rivojlanadigan kompetensiyaning mazmuni: o’quvchilar tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda fikr-mulohazalarini bildiradi va o’z fikrlarini himoya qilishga o’rganadi.

Xulosa shuki, uzluksiz ta’lim tizimida o’quvchilar bilimni baholashni chuqur ilmiy jihatdan asoslash, nazariy ma’lumotlar bilan boyitish lozim. Bizga ma’lumki, uzluksiz ta’limda o’quvchilar muayyan muammoni oson yechishda ularning matematik bilimlari muayyan darajada yuqori bo’lishi talab qilinadi, masala yoki misol yechish texnikasiga amal qilish so’raladi.



#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-yil 11-maydagi PF-60-son 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-arreldagi 187-son qarori.
3. M.E.Axmedova Umumiy pedagogika.Darslik.2023yil.Zuxra baraka biznes MCHJ
4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr, 2020, 252 bet.
5. Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. – Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 318 b.
6. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassisleri uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. –Toshkent, 2019-yil. –B. 92.
7. Asilova G.A. Umumiy o'rta ta'limda tanlash usulidagi testlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari: ped.fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 1998. – 137 b.
8. Asqarova M. J. 7-9-sinf algebra kursi bo'yicha test topshiriqlari tuzish prinsiplarini takomillashtirish: ped.fan. nomz. ... dis. – Farg'ona, 1998. – 141 b.

#### 4-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH USULIYOTI

*Farmonova Madina Obidovna*

*OXU I bosqich magistri*

*Ilmiy rahbar Xalilova Ruxsora Raupovna*

*Annotatsiya: mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilar bilan ishlashda interfaol hamda innovatsion metodlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning darslarni samarali o'zlashtirishlari uchun interfaol metodlardan foydalanish yo'llari, uslublari haqida tavsiyalar berilgan.*

*Kalit so'zlar: pedagogik, interfaol, innovatsiya, modul, tanqid, metod, ona tili, ta'lim tizimi.*

Yangi O'zbekistonning kelajagi yosh avlod qo'lida ekanligi hech kimga sir emas albatta. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida 2019-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli «Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni qabul qilingan. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan o'q «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'yar ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, lim-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga kata maqsadlarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish - barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda «Yangi O'zbekiston - maktabdan ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi», International scientific and practical conference "Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches" March 13, 2024 440 degan g'oya asosida keng ko'lamlil islohotlarni amalga oshiramiz [2]. O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o'qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblasa bo'ladi. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak. O'tilgan har bir darsning o'quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi. Eng asosiysi o'quvchi dars o'tishi innovatsion usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston davlat ta'lim siyosatida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, mahorati va bilimdonligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni darslarda qo'llay olishi, o'quvchiga puxta bilim berishi, erkin, ijodiy fikrlash ko'nikma, malakalarini hosil qila olishi zamon talablaridan biridir. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi

faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ishharakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Ta'lim metodlarini tasniflashni ko'plab olimlar turlicha bayon etib, o'z tasniflarini bayon etishgan. Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan barcha o'quv fanlari keyingi ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtirish samaradorligini ta'minlab beradi. Shu nuqtai nazardan bu davrdagi ta'lim jarayonini interfaol usulardan foydalangan holda tashkil etish dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Interfaol ta'lim jarayonida dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interaktiv ingliz so'zidan olingan bo'lib, «Interakt», ya'ni, Inter — bu «o'zaro», «akt» — harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini bildiradi. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Shuningdek ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundun-kunda

kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator oqitish usullari haqida soz yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qo'llanishi mumkin bolgan ayrim metodlar xususida so'z yuritamiz.

1. Modulli talim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Hamkorlikda oqitish texnologiyasi, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga orgatadi, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinishi vujudga keltirish.

3. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalar to'g'riligini tasdiqlashdir.

4. Interfaol metod texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik oyinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'ynlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

6. Sinov darslari. Yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish shakllari va usullarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, oqituvchi oquvchini oquv jarayonining faol qatnashchisiga

aylantiradi.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati bu darsni interfaol darsga aylantiradi. O'qitishning yangi interfaol shakllari - ta'lim-tarbiya masalalarini unumli yechishga, o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llaridan biri. Xorijiy davlatlar tajribasida

sinovdan o'tgan bu metod ya'ni interfaol metodga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi: Ular chaqiriq, aqliy hujum, anglash, fikrlash kabi bosqichlardir.

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarni faollashtirish, mavzuning mazmun - mohiyatiga kirib borish, uni his etish, anglab yetish jarayoniga tayyorlash kabi maqsadlar ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadi.

2. Aqliy hujum bosqichi. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanishi mumkin bo'lib, u muamoni o'z g'oyalari, fikrlarini aytish yo'li bilan hal qilishdan iborat. Masalan, o'qituvchi sinf taxtasiga til so'zini yozadi va o'quvchilardan «Ushbu so'z sizlarda qanday tassavvur hosil qildi yoki shu so'zni yana qaday talqin qilsa bo'ladi?» - deb so'raydi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni sinf taxtasiga quyidagi tartibda yozib borishi mumkin: O'quvchilarning fikrlari noto'g'ri deb topilmasligi lozim aksincha, o'qituvchi iloji boricha o'quvchilarga yordam berishi noto'g'ri fikr aytib qo'yishdan cho'chimaslikka da'vat qilishi, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o'qituvchi tahlil qilib berishi kerak. Sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda, o'quvchiga o'qiladigan materiallarni 1 hafta oldin tavsiya etsa, o'quvchi dam oladigan shanba, yakshanba kunlarida bekor qolmaydi. Albatta, bunda ota-ona nazorati o'ta muhim. .

3. Anglash bosqichi. Bu bosqichda aqliy hujum bosqichidagi mavzuga oid bahs-munozara natijasida yuzaga kelgan xulosaviy fikrlar eshilib, o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi. Savol-javoblar orqali mavzu mustahkamlanadi.

Ta'limda innovatsion metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad - o'qituvchining o'z pedagogik xazinasini qayta ko'rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqori sifatli metodik yo'nalishga intilishini hosil qilish, kelgusi o'ylar, izlanishlar, tajribalarga undashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*.

2. Til va adabiyot ta'limi ( O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligining ilmiy metodik jurnali). 2008 yil 1-son. 3-6 b

3. Xalq Ta'limi jurnali 2015 yil 5- son. 36 b

4. Til va adabiyot ta'limi 2019 yil 1- son 16 b



## **KASB TA'LIMI "DIZAYN" YO'NALISHI TALABALARIGA IXTISOSLIK FANLARINI 3D MAX TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QITISHNING TASHKILIY- PEDAGOGIK SHARTLARI**

**G'OFUROVA AZIZA XIDIRNAZAR QIZI**

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada libos dizayni yo'nalishida dars jarayonini takomillashtirish va dars sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar bilan birga innovatsion texnologiyalarini yo'nalishning me'yoriy hujjatlaridan kelib chiqib tavsiya etish, ulardan dars jarayonida foydalanishning tashkiliy pedagogik shartlari va ulardan foydalanib o'qitish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek maqolada talabalarga dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi motivatsion komponent haqida fikrlar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: motivatsiya, innovatsiya, interaktiv, ta'lim, malaka talablari, 3Dmax, dastur, texnologiya, dizayn, libos, metod, kompyuter, bosqich.*

## **ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН СТУДЕНТАМ НАПРАВЛЕНИЯ «ДИЗАЙН» ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ 3D MAX**

*Гафурова Азиза Хидирназаровна*

*Преподаватель Джизакского государственного педагогического университета имени Абдуллы Кадыри*

*Аннотация: В данной статье представлена информация об учебном процессе конструирования одежды, а также интерактивные методы, служащие повышению качества урока, а также рекомендации инновационных технологий на основе учебно-методических документов курса, организационно-педагогических условий, их применения в процессе урока и этапы обучения их использованию. Также в статье представлены размышления о мотивационном компоненте, влияющем на развитие дизайнерских навыков у студентов.*

*Ключевые слова: мотивация, инновация, интерактив, образование, требования к навыкам, 3Dmax, программа, технология, дизайн, платье, метод, компьютер, этап.*

## **ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR TEACHING SPECIALIZED SUBJECTS TO STUDENTS OF THE «DESIGN» DIRECTION IN VOCATIONAL EDUCATION USING 3D MAX TECHNOLOGIES**

*Aziza Khidirnazarovna Gafurova*

*Lecturer at Abdulla Qodiriy Jizzakh State Pedagogical University*

*Abstract: This article presents information about the educational process of clothing design, as well as interactive methods that serve to improve the quality of the lesson, as well as recommendations for innovative technologies based on the educational and methodological documents of the course, organizational and pedagogical conditions, their application in the lesson and the stages of learning to use them. The article also presents reflections on the motivational component that influences the development of design skills in students.*

*Key words: motivation, innovation, interactive, education, skill requirements, 3Dmax, program, technology, design, dress, method, computer, stage.*

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar ta'limning barcha darajalarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy qobiliyatlarni

rivojlantirish muammolarini sifatli o'rganishni talab qiladi. Ta'lim tizimida ro'y berayotgan bunday o'zgarishlar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi uslublar va usullarini, pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, shu asosida professional harakterdagi muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega kadrlarni tayyorlashni talab qiladi. Shundan kelib chiqib, o'qitishda raqamli texnologiyalarning maxsus dasturlardan foydalanish pedagogik jarayonni amalga oshirishda va ko'nikmalarini talabalar bilan baham ko'rishda qulayligi bilan pedagogik jarayon uchun dolzarb va talabchan yo'nalish bo'lib ko'rinadi.

Oliy ta'lim muassasalari dars jarayonini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida interfaol metodlar bilan birga kompyuter texnologiyalarining maxsus dasturlardan foydalanish talabaning psixologik xususiyatlarini shakllantiradi, shuningdek, ma'lumotlarni tez o'zlashtirish imkoni yaratiladi va nutq madaniyati hamda boshqaruvchanlik qobiliyatini rivojlanadi.

Interfaol metodlarni qo'llash ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Dars jarayonini takomillashtirish va dars sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar esa jamoa bo'lib fikrlashga asoslanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabaning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Ta'limda interfaol metodlar bilan birga innovatsion texnologiyalarni qo'llash dars jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu esa o'qitishning texnik vositalari va kompyuter texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bu ehtiyoj professor-o'qituvchilardan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida to'g'ri va o'z o'rnida foydalana olish malakalariga ega bo'lishlikni talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining konstruktiv dizaynerlik kompetentligini rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlarini, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim metodlarini tanlashga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Kasb ta'limi "Dizayn" (Libos va gazlamalar) yo'nalishining malaka talablarida va o'quv reja bloklaridagi fanlarning mazmuniy birligi va aloqadorligi asosidagi fanlararo o'quv modulini o'rganish hamda dizayn loyihalashga doir topshiriqlar tizimini bajarishda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar shakllanganligining mezon sifatida axborot-kommunikatsion fikrlash va o'quv-bilish faolligining rivojlanish darajasi belgilangan. Shundan kelib chiqib yo'nalishga doir ixtisoslik fanlarini o'qitishni innovatsion texnologiyalarini o'zida qamrab olgan o'qitish metodlarini tavsiya etish lozim[1].

Bugungi kunda o'qitishni innovatsion texnologiyalari kompyuter texnologiyalarining maxsus dasturlari bilan chambarchas bog'lik. Libos dizayn yo'nalishi uchun o'qitishni innovatsion texnologiyalari 3D max texnologiyasining bir qancha dasturlari mavjud.

Bu texnologiyadagi yangi dizayn loyihalash usullari, vositalari va imkoniyatlari haqida talabalarni xabardor qilish, ushbu usul va yondashuvlarni amalga oshirish dizayn talabalarida 3D max texnologiyasi bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularni muvaffaqiyatli dizaynerlik karerasiga tayyorlaydi.


Libos dizaynining o'quv rejasidagi asosiy fanlariga integratsiyalash imkoniyatlarini tahlil qilib, tasviriy san'at, rangtasvir, kompozitsiya, libos dizayni fanlariga murojaat qilishimiz lozim. Dizaynning deyarli barcha sohalarida kompyuter grafikasidan foydalanishni tavsiya etish dizayn ta'limining rivojlanishi, shuningdek dizaynerlarni kasbiy tayyorlashda kompyuter grafikasidan kompleks foydalanishning ilmiy va uslubiy yondashuvlariga asoslanadi.

Kompyuterda 3D max texnologiyasidan foydalanib dizayn loyihalash - bu texnologiyani o'rganishning yanada murakkab darajasidir.

Raqamli texnologiyalardagi eng qiziqarli va ayni paytda murakkab sohalaridan biri bu 3D max texnologiyasi bo'lib, u dizayn-loyihalarini ishlab chiqishda keng qo'llaniladi. Bu texnologiya badiiy va ijodiy faollik bilan rivojlangan fazoviy fikrlashning alohida darajasini

talab qiladi, chunki barcha obyekt va belgilar virtual makonda yaratilgan, modellashtirilgan va joylashtirilgan bo'ladi.

M.N. Marchenko o'z tadqiqotida "loyihalash jarayonida siz nisbatan qisqa vaqt ichida ko'plab variantlarni amalga oshirishingiz, qayta ko'rib chiqishingiz, sinab ko'rishingiz, dasturning turli funksiyalari va imkoniyatlaridan kutilmagan maslahatlar olishingiz mumkin", deb ta'kidlaydi.[2]




1-rasm. Kompyuter grafikasi turlari

Shuni ta'kidlash kerakki, kompyuter dasturlarining butun blokini modellashtirishni ikkita variantga bo'lish mumkin - bular 2D grafikalar bilan ishlash uchun muharrirlar va dizayn yo'nalishdagi amaliy ahamiyatidan kelib chiqib tizimlashtirilgan 3D dasturlaridir.

Loyihalash jarayoni bir proyeksiya oynasidan ikkinchisiga, bir kuzatish nuqtasidan ikkinchisiga faol o'tish bilan birga keladi. Uch o'lchovli fazo sahnasini va obyektini tasvirlash uchun koordinata usuli ishlatiladi.

Ammo kompyuterda uch o'lchovli modellashtirishni kompyuter grafikasining boshqa turlarini hisobga olmasdan ko'rib chiqish mumkin emas (1-rasm).

Talabalarga ushbu sohada o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlashga imkon berish uchun o'quv jarayoni murakkablik darajalariga bo'linishi kerak. L.Ya.Nodelman kompyuter grafikasi bo'yicha o'qitish darajalari bo'yicha taqsimlanishni taklif qiladi. [3] Buning asosida ushbu fanni o'rganish turlarini eng maqbul kombinatsiyasi va taqsimlanishini taklif qilish mumkin. 2-rasmda kompyuter grafikasini o'rganish jarayoni ko'rsatilgan bo'lib, u uch bosqichga bo'linadi.



2.-rasm. Talabalarga kompyuter grafikasini o'qitish bosqichlari

Talabalar 3D max texnologiyasi haqidagi asosiy tushunchalarni birinchi bosqichda o'zlashtirishlari zarur. Bu ushbu kursni keyingi bosqichlarini o'rganish uchun asos bo'lishi kerak. Bu bosqichda dizayner-talabalar 3D max texnologiyalarining dizayn loyihalashga doir zaruriy umumiy bilimlarni beradi.

Ikkinchi bosqich 3D max texnologiyasining rivojlangan turlari va yo'nalishlari bilan bevosita tanishtiradi. Bu bosqich umumiy kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. 3D max texnologiyalari bilan ishlaydigan zamonaviy mutaxassis ushbu bilimlardan o'z kasbiy faoliyatida foydalana bilishi kerak. Va yuqorida ta'kidlaganimizdek, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida dizaynerning kompyuter texnologiyalaridan foydalanmasdan kasbiy rivojlanishi mumkin emas.

Va nihoyat, uchinchi bosqich. Bu yerda talaba o'z ishida professional 3D max texnologiyasining grafik muharrirlardan foydalanishni o'rganadi. Bu darajada talabalarga o'z-o'zini identifikatsiyalash va professional paketlarni o'rganish uchun zarur bo'lgan bilimlarni singdirish muhimdir. 3D max texnologiyasi rivojlanishdan to'xtamaydi va har yili juda ko'plab yangi professional grafik muharrirlar paydo bo'ladi. Ushbu bosqichni o'qitishda o'qituvchining asosiy vazifasi talabalarga nafaqat mavjud bilimlardan foydalanishni o'rgatish, balki yangilarini tajriba qilishdan qo'rqmaslikni ham o'rgatishdir.

Uchinchi bosqichda kompyuterda uch o'lchovli modellashtirishni o'rganishni boshlash juda oqilona. Ikki o'lchovli grafikaning takomillashtirilgan varianti 3D grafikasi bo'lib, u texnik o'rganish nuqtai nazaridan murakkabroq bo'lganligi sababli dastlabki ikki darajani o'rganmasdan turib, talabaning uch o'lchovli kompyuterda modellashtirish bilan ishlashga o'tishi juda qiyin bo'ladi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda ularning xarakterli xususiyatlarini inobatga olgan holda interfaol metodlardan samarali foydalanishga e'tibor qaratildi. Bunda, eng avvalo, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun nazariy bilimlarni berish va bu bilimlarni mustahkamlab, kutilgan natijani ta'minlay olish imkoniyatiga ega interfaol metodlar tanlandi:

3D max texnologiyasi vositalarida "Dizayn" yo'nalishida ixtisoslik fanlarni o'qitish jarayonini quyidagi tartibda takomillashtirish mumkin[5].

1. 3D max texnologiyasini o'quv rejalariga integratsiyalash: 3D max texnologiyasini Dizayn yo'nalishi malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlariga integratsiyalash. Talabalarga ushbu dasturdan foydalanish fan doirasida asosiy va ilg'or ko'nikmalarga ega bo'lishiga yordam beradi. Talabalarga o'qitish jarayonida beriladigan topshiriq va loyihalar ularning o'zlarining dizayn loyihalarini yaratishi va vizualizatsiya qilishi uchun 3D max texnologiyasidan foydalanishga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

2. Amaliyotga asoslangan o'qitish: talabalarga darslarda amaliy mashqlar berish orqali, ularning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini berish juda muhimdir. Talabalar 3D max texnologiyasida dizayn bilan bevosita ishlashlari mumkin bo'lgan amaliy mashg'ulotlar va mahorat darslarini tashkil etish ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va natijalarini yaxshilashga yordam beradi. 3D max texnologiyasida dizayn yo'nalishi talabalarini o'qitishda amaliyotga asoslangan metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

3. Loyihalar va mashqlar: talabalarga 3D max texnologiyasida dizayn loyihalashni o'rgatish uchun loyihalar va mashqlar tayyorlash juda foydali bo'ladi. Buning uchun haqiqiy dizayn loyihalarini yaratish uchun 3D max texnologiyasidan foydalanishlari talab qilinadigan loyiha ishlarini tashkil etish lozim. Bu tashkil etilgan loyihalar va mashqlar, talabalarining o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda mustahkamlash imkonini beradi. Misol uchun, 3D max texnologiyasida avatar bilan ishlash, model yaratish, animatsiya qilish, materiallar va teksturani qo'llash, va illustratsiya va yorug'lik effektlarini hosil qilish, ob'yektga animatsion holatni berish kabi mashqlar talabalarining ko'nikmalari va mahoratlarini oshirishga yordam beradi.



4. Individual yondashuv: Talabalarga 3D max texnologiyasida dizayn loyihalashni o'rgatishda individual ishlashga yo'naltirilgan yondashuvni berish, ularning o'zlashtirgan bilim darajalarini baho bilan baholash juda muhimdir. Talabalarni ishlarini baholash va fikr-mulohazalar bildirish ularning bilim, malaka va natijalarini yaxshilashlari uchun bir omil hisoblanadi.

Bu ularning o'z xatolarini aniqlashlari va ularni bartaraf etishiga yordam beradi. 3D max texnologiyasida individual yondashuv, talabalarining o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashda ularga qo'shimcha yordam berish imkonini beradi. Qo'shimcha yordamni onlayn manbalar, o'quv materiallaridan olishlari mumkin. Chunki talabalarga 3D max texnologiyasini o'rganishga yordam beradigan ko'plab onlayn resurslar, video darsliklar va o'quv materiallari mavjud. Talabalarni ushbu manbalardan mustaqil ta'lim va amaliy darslarda foydalanishga undash tavsiya etiladi.

5. Korporativ o'qitish: 3D max texnologiyasida dizayn yo'nalishi talabalarini o'qitishda korporativ o'qitish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Talabalarni guruh bo'lib ishlashga o'rgatish, ularning bir-biriga yordam berish va o'zlashtirgan bilimlarini boshqalar bilan baham ko'rish imkonini beradi. Bu usul, talabalarining ish samaradorligini oshirish va ularning jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

6. Real hayot misollaridan foydalanish: 3D max texnologiyasida dizayn yo'nalishi talabalarini o'qitishda real hayot misollaridan foydalanish juda muhimdir. Talabalarga real hayotdagi dizayn vazifalari, loyihalar va mashqlar berish, ularni real hayotga oid dizayn vazifalarini hal qilishga qo'shish, masalan, taniqli odamlarni kiyimlaridan, urf bo'lgan kiyimlarni elementlaridan foydalanib dizayn qilish imkonini berish juda foydali bo'ladi.

7. Yangiliklardan foydalanish: dizayn yo'nalishi talabalarini 3D max texnologiyasining vositalaridan foydalanib o'qitishda sohaga doir so'nggi yangiliklardan foydalanish juda muhimdir. Bu dars jarayonini takomillashtirishga va talabalarga motivatsiya berishga xizmat qiladi. Misol uchun talabalarga maruza soatlarida 3D texnologiyasining maxsus dasturlarida yaratilgan liboslar va ularni podyumdagi nomiyishi bo'yicha vedio darslarni namoyish etilishi talabalarga motivatsiya bag'ishlaydi[6].

Raqamli texnologiyalari jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti mahsulidir, shuning uchun ta'lim va boshqa sohalar xodimlari mamlakatda ularning doimiy rivojlanish tendensiyasiga moslashishlari, ularni ko'proq sohalarida qo'llashlarini kengaytirishlari, shu orqali fan va texnikani rivojlanish darajasini yanada yuqori pog'onaga olib chiqishlari zarur.

Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llanilishi tabiiy-ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlab, talabalarining individual ishlash qobiliyatlarini rivojlanishiga, o'zini o'zi kamolotga etkazishga intilishni shakllantirishga shuningdek, bo'lajak dizayner-o'qituvchilarga axborot texnologiyalari bilan ishlay olish malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Taklif etilayotgan raqamli texnologiyalarining 3D max dasturlari vositasida dizayn loyihalashni ta'lim jarayoniga qo'llash haqiqatan ham dolzarbdir va ta'lim jarayonini butunlay yangicha qurishga qodir. 3D max dasturlari vositasida dizayn loyihalash texnologiyalari dizayn olamini tashvishga soladigan barcha muammolarni mutlaqo hal qilishi mumkinligi haqidagi g'oyani shakllantiradi. Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish tegishli xulosalar tuzish, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida 3D max dasturlaridan foydalanib kiyimlarni loyihalash va modellashtirish jarayonlarini tashkillashtirish oliy ta'limda dizaynerlarning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilib tahlil qilish, muloqot va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

2. Raqamli texnologiyalar talabalar tafakkurining mohiyatini o'zgartirib, ta'lim jarayonining

mohiyatini yaxshi tomonga o'zgartiradi, ta'lim sifatini oshiradi. Dizayn yo'nalishi bo'yicha talabalar o'rtasida kompyuterda 3D max texnologiyasida dizayn loyihalash metodlarini takomillashtirish darajasi talabalarning olgan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Talabalarning o'zlari bajargan ishlarining natijalarida ko'radi. 3D grafika bilan ishlash tufayli o'qituvchi qisqa vaqt ichida va minimal kuch bilan ma'lum bir mavzu bo'yicha 3D ko'rgazmali qurollar ko'rinishidagi ma'lumotlar blokini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa o'rganilayotgan materialni yaxshiroq o'zlashtirishga olib keladi. Shu bilan birga dars jarayoni individuallikka yo'naltirilgan yondashuv asosida amalga oshiriladi va ta'lim yo'nalishlari o'rtasida aloqalar o'rnatiladi. Kelajakdagi mutaxassis-dizaynerning kasbiy faoliyati kompyuterda modellashtirishning zamonaviy usullari va ko'p o'lchovli makonni vizualizatsiya qilish sohasida universal bilimlarni talab qiladi. Bu dizayn sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashdagi talablarning bajarilishiga xizmat qiladi. 3D max texnologiyasining Marvelous designer dasturi asosida model dizaynini yaratishda ixtisos fanlardan tikuv buyumlari texnologiyasi, tikuv buyumlarini konstruksiyalash. tikuvchilik materiallari fanlarini bog'lab o'rganish va o'zlashtirish imkonini beradi. Aynan shu dasturda ishlashni kiyimni modellashtirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqdik va kiyim dizayni uchun Marvelous Designer va CLO 3D, Style3D tizimlarining tanlovi oqilona to'g'ri tanlav degan xulosaga keldik. Bunday usullar talabalarga muammoni qidirib topishga, mustaqil o'rganib tahlil qilishga va hatto xulosalarni ham o'zlari qabul qilishga o'rgatadi, shuningdek, dizayn talabalarining badiiy va ijodiy faolligi darajasini oshirish va kasbiy kompetensiyani rivojlanishiga olib keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gofurova.A. Kasb ta'lim dizayn yo'nalishida ixtisoslik fanlarini 3d texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning axborot dedaktik ta'minoti //Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 559-562.
2. Тришина С.В. Информационная компетентность как педагогическая категория [Электронный ресурс] / С.В. Тришина / <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-11.htm>. – В надзаг. : Интернет-журнал «Эйдос». – загл. с экрана.
3. Штеймарк, О.В. Повышение качества знаний студентов педагогического вуза средствами цифровых образовательных ресурсов: дис. ... канд. пед. наук.: 13.00.01 / Штеймарк Ольга Валентиновна. - М., 2011. - 178 с.
4. Саблина Н. А. Автореферат “Развитие художественно-творческой активности студентов-дизайнеров средствами компьютерного 3D моделирования” Москва, 2015г
5. Марченко, М. Н. Компьютерная графика / программы дисциплин специализации (для специальностей 030800 «Изобразительное искусство» и 052400 «Дизайн»). - Краснодар: КубГУ, 2002. - 22с.104.
6. Гофурова А. Х., Гофурова С. С. МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ В ОБЛАСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ДИЗАЙНА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ 3D-ТЕХНОЛОГИЙ //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 1367-1373.

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

*Gulmatova Hurriyat Sadikovna*  
*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya. Ushbumaqoladana ta'limda axborot tizimi, axborot texnologiyalarini qo'llashning ta'lim sifatiga ta'siri, ta'limni raqamlashtirish faoliyati, jumladan axborot texnologiyasi va axborot vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari, axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan bog'liq muammolar va vazifalar, axborot texnologiyalari imkoniyatlari yordamida ta'lim jarayoni sifatini yaxshilash, axborotning sirkulyatsiyasi va ishlov berish majmuidan foydalanish, o'quv jarayonida axborotli vositalardan samarali foydalanish, didaktik materiallarni ishlab chiqish, pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligi kabi masalalar yoritib berilgan.*

*Tayanch iboralar: axborot, axborot texnologiyalari, texnik sohalar, ta'lim sifati, imkoniyatlar, ta'lim xizmatlari, axborot vositalari, raqamli texnologiyalar, tizim, samaradorlik.*

## ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ

*Гулматова Хуррият Садиковна*  
*свободный соискатель Бухарского инженерно-технологического института*

*Аннотация. В данной статье информационная система в образовании, влияние использования информационных технологий на качество образования, мероприятия по цифровизации образования, в том числе возможности эффективного использования информационных технологий и информационных носителей, проблемы и задачи, связанные с внедрением информационных технологий, информация для повышения качества образовательного процесса с помощью технологий, использование обращения и обработки информации, эффективное использование информационных средств в образовательном процессе, разработка дидактических материалов, использование технических средств и дидактических средств. Методически правильно материалы в практической деятельности педагогов освещены такие вопросы, как готовность к использованию.*

*Ключевые слова: информация, информационные технологии, технические области, качество образования, возможности, образовательные услуги, медиа, цифровые технологии, система, эффективность.*

## INFLUENCE OF INFORMATION TECHNOLOGIES ON THE QUALITY OF EDUCATION

*Gulmatova Hurriyat Sadikovna*  
*independent researcher of the Bukhara Engineering Technological Institute*

*Abstract. In this article, the information system in education, the influence of information technologies on the quality of education, measures for the digitalization of education, including the possibilities of effective use of information technologies and information carriers, problems and tasks associated with the introduction of information technologies, information for improving the quality of the educational process with the help of technologies, the use of information handling and processing, the effective use of information tools in the educational process, the development of didactic materials, the use of technical means and didactic tools.*

*Methodically correct materials in the practical activities of teachers covered such issues as readiness for use.*

*Keywords: information, information technologies, technical areas, quality of education, opportunities, educational services, media, digital technologies, system, efficiency.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini yanada samarali, qulay va qiziqarli qilish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarini ta'limda qo'llash ta'lim sifati va talabalarning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda. Axborot texnologiyalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri juda katta. Ular o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Quyida axborot texnologiyalarining ta'limdagi asosiy ta'sirlarini ko'rib chiqamiz:

1. O'qitish jarayonini modernizatsiya qilish. Axborot texnologiyalari darslarni yanada zamonaviy va qiziqarli qilishga yordam beradi. Interaktiv taqdimotlar, videolar, simulyatsiyalar va onlayn resurslar talabalarning e'tiborini jalb qiladi va ta'limni jonlantiradi.

2. Talabalarning faolligini oshirish. Texnologiyalar orqali talabalar mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Onlayn kurslar, o'quv platformalari va interaktiv o'yinlar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlashadi va qiziqarli tarzda yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradi.

3. Individual yondashuv. Axborot texnologiyalari o'qituvchilarga talabalarning individual ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi. Turli darajadagi materiallar va moslashtirilgan resurslar yordamida har bir talabaning rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi.

4. Tezkor axborot olish. Internet orqali talabalar kerakli ma'lumotlarni tezda topishlari mumkin. Bu ularning o'rganish jarayonida mustaqil fikrlashini va analitik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Hamkorlik va muloqot. Axborot texnologiyalari yordamida talabalar o'rtasida muloqot va hamkorlik osonlashadi. Onlayn platformalar va forumlar orqali fikr almashish, loyiha ishlarini birgalikda bajarish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

6. Qayta aloqa va baholash. Texnologiyalar orqali o'qituvchilar talabalarning progressini tez va oson baholay olishadi. Testlar, viktorinalar va onlayn baholash vositalari yordamida talabalarning bilim darajasini aniqlash mumkin.

7. Qobiliyatlarni rivojlantirish. Axborot texnologiyalari yordamida talabalar turli ko'nikmalarni, jumladan, raqamli savodxonlik, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, axborot texnologiyalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Ular ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va moslashuvchan qilishga yordam beradi, bu esa talabalarning o'rganish jarayonini kuchaytiradi va ta'lim sifatini oshiradi.

Metodlar. Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Zamonaviy ta'lim kontekstida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televideniye)dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

1. O'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.



2. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

O'quv jarayonida axborotli vositalardan samarali foydalanish, didaktik materiallarni ishlab chiqishda bir necha muhim jihatlarni hisobga olish zarur. Quyida bu jarayonni batafsil ko'rib chiqamiz:

1. O'quv jarayonini tahlil qilish – o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun avval talabalarning bilim darajasini, qiziqishlarini va o'qitish maqsadlarini aniqlash kerak va bu jarayonda o'quv dasturi va mavzularni tahlil qilish muhimdir.

2. Didaktik materiallar turlariga to'xtaladigan bo'lsak, didaktik materiallar turli xil bo'lishi mumkin. Ular:

- matnli materiallar – darsliklar, qo'llanmalar, maqolalar;
- vizuall materiallar – diagrammalar, rasmlar, grafiklar;
- audiovizual materiallar – videolar, audio yozuvlar, interaktiv taqdimotlar;
- onlayn resurslar – ta'lim platformalari, o'quv dasturlari, elektron kitoblar.

3. Materiallarni ishlab chiqish – didaktik materiallarni ishlab chiqishda quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak, bular:

mavzuga moslik, bu materiallar o'quv dasturiga va talabalarning ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak;

qiziqarli va interaktiv, bu talabalarni jalb qiladigan materiallar tayyorlash bilan bog'liq bo'lib, bunga o'yinlar, viktorinalar va guruh ishlari kiradi;

mualliflik – o'ziga xoslik va yangi yondashuvlarni qo'llash, talabalarga qiziqarli bo'lishida ko'rinadi;

foydalanuvchilarga qulaylik, bunda materiallar oson tushunarli va foydalanish uchun qulay bo'lishi ko'zda tutilgan.

4. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi aloqalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, didaktik materiallarni tayyorlashda o'qituvchilarning fikrlari va tajribalarini inobatga olish, shuningdek, talabalar bilan muloqotda bo'lish zarur. Bu o'quv jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

5. Takroriy baholash yaratilgan materiallarning samaradorligini muntazam baholash va yangilash zarurati bilan bog'liq bo'lib, talabalardan fikr olish va materiallarni takomillashtirish jarayonini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Demak, aytish mumkinki, didaktik materiallarni ishlab chiqish jarayoni o'quv jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Axborotli vositalar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, talabalarning qiziqish va ehtiyojlariga mos materiallar tayyorlash orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish uchun bir qator usullar va yondashuvlar mavjud. Quyida bu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy qadamlar keltiriladi:

1. Pedagogik tayyorgarlikni baholash qadamida quyidagilar amalga oshiriladi:

suhbatlar va intervyular vositasida o'qituvchilarning texnologiyalardan qanday foydalanayotganini aniqlash uchun ochiq suhbatlar o'tkazish mumkin bo'lib, bu orqali ularning tajribasi va qobiliyatlari haqida ma'lumot to'plash mumkin.

kurs va seminarlar yordamida pedagoglarning malakasini oshirish uchun o'tkazilgan treninglar va seminarlarni baholash mumkin.

2. Amaliyotlar va sinovlar qadamida esa quyidagilar ko'zda tutilgan:

darslarga kuzatuv – o'qituvchilarning darslarini kuzatib, texnik vositalar va didaktik materiallardan qanday foydalanayotganini baholashdan iborat;

nazoratli darslar – o'qituvchilarni nazorat ostida dars o'tkazishga taklif qilish va ularning uslublarini tahlil qilish bilan belgilanadi.

3. O'quv materiallarining tahlili qadamida esa:

□ didaktik materiallarning sifati nazorat qilinadi, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan didaktik materiallar va texnik vositalarni tahlil qilinib, ularning maqsadga muvofiqligi va samaradorligi aniqlanadi;

□ tegishli resurslarni tahlil qilish orqali o'qituvchilarning foydalanayotgan resurslari va materiallarining ta'lim dasturiga mosligini tekshiriladi.

4. Talabalar fikrlarini yig'ish qadamida quyidagilar amalga oshiriladi:

□ so'rovnomalar o'tkazish – talabalar bilan o'tkaziladigan so'rovnomalar orqali o'qituvchilarning ta'lim uslublari va foydalanayotgan materiallari haqidagi fikrlari olinadi;

□ guruh muhokamalarini o'tkazish – talabalar o'rtasida muhokama o'tkazish orqali o'qituvchilar tomonidan berilgan bilimlarning samaradorligi aniqlanadi.

5. Natijalarni tahlil qilish qadamida esa quyidagilar e'tiborga olingan:

□ olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, o'qituvchilarning tayyorgarligini baholash uchun yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish;

□ tavsiya va takliflar, ya'ni olingan natijalar asosida pedagoglarga malaka oshirish uchun tavsiyalar berish.

Demak, pedagoglarning texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon muntazam ravishda amalga oshirilishi kerak, bu esa o'qituvchilarning pedagogik malakasini oshirish va talabalarga yanada samarali ta'lim berishga imkon yaratadi.

Axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish asosiy yo'nalishlaridan biri va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning shug'ullanishi lozim bo'lgan sohasidir.

Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir:

1. Texnik muammolar – bular ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron-hisoblash va mikroprotessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, ularni amalda qo'llash xususiyatlarini belgilaydi.

2. Dastur muammolari – bular ta'lim tizimida foydalanish uchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi.

3. Tayyorgarlik muammolari – bular o'qituvchi va talaba, pedagog va talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, hisoblash texnikasidan ham foydalanish uquvi bilan bog'liqdir.

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi. Albatta, buning uchun mazkur texnologiyani sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi axborot almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini (ya'ni, texnologiyani) boshqarishning axborot ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining asosini quyidagi uchta texnika yutug'i tashkil etadi:

1. Axborotning mashina o'qiydigan tushunchalarda jamlash muhitining paydo bo'lishi (magnit, lentalar, kinofilmlar, magnit disklar va h.);

2. Axborotni yer sharining istalgan nuqtasiga vaqt va masofa bo'yicha muhim cheklashlarsiz yetkazishini ta'minlovchi aloqa vositalarining rivojlanishi, aholining aloqa vositalari bilan keng qamrab olinishi (radio eshittirish, televidenie, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, yo'ldosh

aloqa, telefon tarmog'i va h.);

3. Axborotni kompyuterlar yordamida berilgan algoritm bo'yicha avtomatlashtirilgan ishlab chiqish imkonini (saralash, tasniflash, kerakli shaklda ifodalash, yaratish va h.) oshirish.

Natijalar. Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulyatsiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir.

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- har bir odamga xos noyob fazilatlardan iborat individual qobiliyatlarni o'qitilayotgan talabalarda ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilish qobiliyatlarini, o'zini o'zi kamolotga yetkazishga intilishni shakllantirish;

- voqea va hodisalarni kompleks o'rganishni, aniq, tabiiy-ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash;

- o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy tarzda va dinamik ravishda yangilash.



1-rasm. Axborot texnologiyalari orqali ta'lim jarayonida hal etiladigan vazifalar

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga xizmat qiladi: ma'lumotlarni tezkor va qulay olish, bunda talabalar va o'qituvchilar uchun kerakli ma'lumotlarni tezda topish imkonini beradi. Internet, elektron kutubxonalar va onlayn resurslar orqali har qanday mavzuda bilim olish osonlashadi. O'qitish jarayonini interfaol tashkil qilish orqali axborot texnologiyalari interaktiv darslar, simulyatsiyalar va o'yinlar orqali talabalarni faol ishtirok etishga jalb etadi, bu esa ta'lim jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Individual yondashuvni ta'minlash natijasida texnologiyalar yordamida talabalarning individual ehtiyojlari va darajasiga mos materiallar tayyorlash mumkin. Bu, o'z navbatida, har bir talabaning o'ziga xos rivojlanishiga imkon yaratadi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida aloqa o'rnatish – axborot texnologiyalari yordamida o'qituvchilar va talabalar o'rtasida doimiy aloqani ta'minlash, fikr almashish va bir-birlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish natijasida esa qaqamli savodxonlik, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Albatta, o'quv jarayonini baholash va nazorat bilan axborot texnologiyalari yordamida talabalarning bilimini baholash jarayoni yanada oson va samarali bo'ladi. Bunda onlayn testlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali talabalarning yutuqlari tezda aniqlanishi mumkin. Shuningdek, tashqi resurslardan foydalanish ham o'qituvchilar tashqi resurslar, masalan, onlayn kurslar, video darslar va ta'lim platformalaridan foydalanishi orqali ta'lim sifatini oshirishi mumkin. Shu bilan birga zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llash axborot texnologiyalari yordamida yangi pedagogik uslublar va metodlarni amalga oshirish

imkoniyatlari kengayadi, bu esa ta'lim jarayonini modernizatsiya qiladi.

Shunday ekan, axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim vazifalarni bajarish orqali talabalarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qulay qiladi, bu esa ta'lim sifatini oshiradi va talabalarning tayyorgarligini yaxshilaydi.

Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Ammo mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin. Buning sabablaridan biri-kompyuter texnologiyalari an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayonida joriy etila boshlanganligidir. U o'zining asosiy mazmuni va metodlari bo'yicha bu texnologiyalarga yo'naltirilmagan va ularga ehtiyoj sezmaydi.

Axborot texnologiyalarining ta'lim sifatiga ta'sirini quyidagi sifatlarda ham kuzatish mumkin.

ta'limda natijadorlikning oshishi – axborot texnologiyalarini qo'llash talabalarning natijalari va bilim darajasini oshirishga olib keladi hamda talabalarning ko'nikmalari va bilimlarini tez va samarali o'rganish imkoniyatlari kengayadi;


muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish – talabalarning muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi, ular turli masalalar va vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

hamkorlik va muloqot – onlayn platformalar va guruhli ishlash imkoniyatlari orqali talabalar o'zaro hamkorlikni rivojlantirishadi hamda bu ularning jamoaviy ish ko'nikmalarini va muloqot qilish qobiliyatlarini oshiradi.

Munozara. Ta'lim texnologiyalari doimo axborotli bo'lgan, chunki ular ko'p xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga yetkazish bilan bog'liq edi. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgardi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- o ta'limning texnik vositalari: kompyuterlar va kommunikatsiya vositalari;
- o ta'lim jarayonini tashkil etishda tizimli va amaliy dastur ta'minoti;
- o ta'lim-tarbiya jarayonida yangi o'quv-texnika vositalarini tatbiq etish bo'yicha mos metodik ishlanmalar.

- o ta'limning texnik vositalari: kompyuterlar va kommunikatsiya vositalari;
- o ta'lim jarayonini tashkil etishda tizimli va amaliy dastur ta'minoti;
- o ta'lim-tarbiya jarayonida yangi o'quv-texnika vositalarini tatbiq etish bo'yicha mos metodik ishlanmalar.



2-rasm. Axborot texnologiyalarining ta'lim sifatiga ta'siri



Axborot texnologiyalarining ta'limdagi roli quyidagilarda aks etadi. Bular:

1. O'qitish jarayonini modernizatsiya qilish. Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini yangilashga yordam beradi, onlayn kurslar, interaktiv darslar va virtual sinflar orqali talabalar o'z vaqtida va joyidan qat'i nazar ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Talabalarning faolligini oshirish. Multimediali materiallar, interfaol dasturlar va gamifikatsiya orqali talabalar darsda ko'proq ishtirok etadilar. Bu esa ularda motivatsiyani oshiradi va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi.

3. Individual yondashuv. Axborot texnologiyalari yordamida har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv dasturlari ishlab chiqilishi mumkin bo'lib, talabalar o'z qobiliyatlari va tezliklariga qarab o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. Ma'lumotlarga tezkor kirish. Talabalar va o'qituvchilar turli resurslarga, masalan, elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar va ta'lim platformalariga oson kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularga qo'shimcha bilim olishda yordam beradi.

Keyingi vaqtlarda "o'qitishning kompyuter texnologiyalari" tushunchasi tarqalib, bunda kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o'qitish texnologiyalari tushuniladi. Biroq axborot texnologiyalari tushunchasi o'qitishning kompyuter texnologiyalari tushunchasidan kengroqdir, chunki kompyuterlar axborot texnologiyalari texnik vositalarining tarkibiy qismidir.

Xulosa. Axborot texnologiyalarini ta'limda qo'llash nafaqat o'quv jarayonini modernizatsiya qiladi, balki talabalarning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Ularning yordamida ta'lim sifati oshadi, talabalarning natijalari yaxshilanadi va ularning shaxsiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Kelajakda ham axborot texnologiyalarining ta'lim sohasida roli davom etadi va bu sohadagi yangiliklar ta'lim sifatiga yanada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxassis kadrlarini tayyorlash uchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali axborot texnologiyalarini qo'llash, buning uchun virtual laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishmoq lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shqin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman butun o'qitish samarasini oshirishi, egallangan bilimlar xususida o'ziga-o'zi baho berish imkonini ta'minlamog'i zarur. Aynan shu nuqtai nazardan zamonaviy axborot texnologiyalarining tadbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aghaie, M., & Jafarian, A. (2021). The Role of Information Technology in Education. *Journal of Educational Technology*, 12(2), 45-58.

2. Daminov, L. O., & Tukhtaeva, J. P. T. Z. S. (2020). Nigora Zakiralievna Sayfullaeva, Khurshid Nozimovich Khakimov The Importance of Game Technologies in the Training of Future Vocational Teachers on the Basis of Competent Approach. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 4, 6669-6674.

3. Johnson, L., & Adams, S. (2019). Digital Learning: The Impact of Information Technology on Student Engagement and Learning Outcomes. *Journal of Educational Psychology*, 110(4), 567-579.

4. Munoz, M. (2022). Personalized Learning Through Technology: A Case Study. *Educational Technology Research and Development*, 70(1), 89-105.

5. Smith, J. (2020). Implementing Information Technology in Educational Settings: Strategies and Challenges. *International Journal of Educational Research*, 15(3), 123-135.

6. Zhao, Y. (2020). The Future of Education: Integrating Technology and Traditional

Learning. Future of Education Journal, 9(1), 30-42.

7. Sh, T. Z. (2020). Integration of special subjects in higher education. International Engineering Journal For Research & Development, 5(3), 125-131.

8. Sharifovna, T. Z. (2019). ORGANIZATIONAL-METHODOLOGICAL INTER-OBJECTIVE INTEGRATIONS IN TEACHING SPECIAL DISCIPLINES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

9. Sadoqat, S. (2024). INTEGRATIV TA'LIMNING MAQSADI VA INTEGRATSIYA DARAJALARI. UNIVERSAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH, 2(10), P. 37.

10. Тухтаева, З. Ш. (2016). Касб-ҳунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси.

11. То'xtayeva, Z., Usmonova, N., & Umedova, M. M. (2023). BO 'LAJAK MUHANDISLARINING LOYIHALASH KO 'NIKMALARIGA QO 'YILADIGAN KASBIY TALABLAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(27).

## СПЕЦИФИКА ПОДГОТОВКИ БИБЛИОТЕЧНЫХ КАДРОВ В РАЗНЫХ ПЕРИОДАХ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Ганиева Барно,

Профессор Ташкентского университета информационных технологий  
им. Мухаммада ал-Хорезми, кандидат педагогических наук

*Аннотация. В статье рассматриваются вопросы подготовки библиотечных кадров, раскрывается специфика и особенности развития библиотечного дела в Узбекистане в разных периодах развития общества. В статье представлен аналитический обзор развития отрасли во взаимосвязи с кадровыми ресурсами.*

*Ключевые слова: библиотечная наука, библиотеки, библиотечные кадры, высшее библиотечное образование, библиотековедение.*

## TURGLI DAVRLARDA JAMOAT RIVOJI JARAYONIDA KUTUBXONA KADRLARINI TAYYORLASHGA XOS XUSUSIYATLAR

Ganieva Barno,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
professori, pedagogika fanlari nomzodi.

*Annotatsiya. Maqolada kutubxona kadrlarini tayyorlash masalalari muhokama qilinib, jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida O'zbekistonda kutubxonachilik rivojining o'ziga xos xususiyatlari hamda mazkur jarayonga hamohang kadrlar tayyorlash masalalarining tahliliy sharhi keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: kutubxonashunoslik, kutubxonalar, kutubxona xodimlari, oliy kutubxona ta'limi, kutubxona faoliyati.*

## THE SPECIFICITY OF LIBRARY STAFF TRAINING IN DIFFERENT PERIODS OF SOCIETAL DEVELOPMENT

Ganieva Barno,

Professor at Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Candidate of Pedagogical Sciences.

*Annotation. The article examines the issues of training library personnel, reveals the specifics and features of the development of library science in Uzbekistan in different periods of society development. The article presents an analytical review of the development of the industry, interconnected with human resources.*

*Keywords: library science, libraries, library personnel, higher library education, library activity.*

**Введение.** Подготовка кадров в библиотечную сферу всегда была актуальной, так как, библиотеки являются неотъемлемой частью непрерывного образования республики. Актуальность проблемы прежде всего заключается в том, что она направлена на обоснование нового подхода к изучению истории подготовки и повышения квалификации библиотечных специалистов. История подготовки библиотечных работников нуждается в изучении, как методологических, так и теоретических оснований. Научное исследование проводится в целях изучения исторических сведений по подготовке кадров для информационно-библиотечных учреждений, его значения для информационно-библиотечного обслуживания населения. Предметом исследования является проведение ретроспективного анализа развития библиотек страны и взаимосвязи процесса подготовки кадров, освещение своеобразной специфики ее развития в

различные исторические периоды, включая обзор учебных заведений, учебных планов. В работе использованы принципы историзма, системности, статистического анализа, а также методы сравнительного и проблемно-хронологического анализа.

Результаты исследования позволят: получить достоверную информацию о развитии библиотечного дела, повысить эффективность программ обучения, разработать стратегию подготовки кадров в библиотечную отрасль. Научное значение исследования определяется возможностью их использования в усовершенствовании теоретических выводов относительно совершенствования нормативно-правовой базы подготовки кадров в республике.

Нет сомнений, что профессионально подготовленный персонал обеспечивает прогресс и способствует развитию общества. История подготовки библиотечных работников нуждается в изучении, как методологических, так и теоретических оснований. Результаты научных исследований, данных в статье, нацелены на изучение исторических сведений по подготовке кадров для библиотек Республики Узбекистан, значения профессиональной подготовки для информационно-библиотечного обслуживания населения. Анализ развития библиотек страны и в контексте с подготовкой библиотечных кадров, освещение своеобразной специфики развития библиотечного дела в различные исторические периоды, включая обзор учебных заведений и учебных планов. В работе использованы принципы историзма, системности, статистического анализа, а также методы сравнительного и проблемно-хронологического анализа. Такой подробный анализ по анализу подготовки кадров для библиотечного дела в республике проводится впервые. Результаты исследования позволят: получить достоверную информацию о развитии библиотечного дела, отследить тенденции развития процессов подготовки библиотечных кадров в республике, повысить эффективность программ обучения, разработать стратегию подготовки кадров в библиотечном секторе.

Библиотечное образование должно опираться на практику работы библиотек. Проблема подготовки библиотечных кадров появилась после того, как возникли первые библиотеки. Долгое время она осуществлялась в стенах самих библиотек. Лишь в XIX в., когда началось сравнительно активное развитие библиотечного дела, наметилась потребность в специальной системе библиотечного образования. Какие виды библиотек функционируют в Узбекистане? Информационно-библиотечные учреждения (ИБУ) Республики Узбекистан подразделяются на Информационно-библиотечные центры (ИБЦ), Информационно-ресурсные центры (ИРЦ) и библиотеки. В республике всего 12 189 ИБУ, включая крупнейшие библиотеки, библиотеки министерств и ведомств, так же школьные библиотеки. Всего ИБУ страны трудятся 71170 ед. работников. В библиотеках 28496,5 работников. С высшим образованием 4511 или 15,8 % от общего числа специалистов. В том числе с высшим библиотечным образованием 2929 или 10,3% от общего числа специалистов. Со средним и специальным образованием – 21 484,5 в том числе со средним специальным библиотечным образованием – 9387,5 или 33%. Знаниями основ ИКТ обладают 10 403 специалиста 36,5 % от общего числа специалистов.

## ОБСУЖДЕНИЕ

Исторические нюансы подготовки специалистов в библиотечные учреждения.

Рассмотрим исторические нюансы подготовки кадров в библиотечные учреждения. Как это происходило, как становилась система подготовки кадров в библиотечную отрасль.

Одним из первых решений по обеспечению кадрами в библиотечную отрасль республики по устранению проблемы нехватки кадров было открытие в Ташкенте 30 мая 1919 года специального библиотечного отдела, в подразделении внеклассное



образование при Народном комиссариате Образования (O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi,1989). Были определены несколько задач которые возлагались на данный отдел, в том числе и подготовка библиотечных кадров. Летом 1919 года в Ташкенте были открыты первые двухмесячные курсы по подготовке библиотекарей. В этих курсах были переподготовлены 10 библиотекарей из разных регионов республики. По исследованиям проф. А.Г.Касымовой (Qosimova,1977) “Осенью этого же года в Самарканде на краткосрочных курсах были подготовлены 27 специалистов. В период развития новых библиотек, становления библиотечной отрасли потребность в кадрах стало увеличиваться. Вопросы подготовки кадров для библиотечных учреждений обсуждались в 1926 году на I Всеузбекистанском съезде работников клубов и библиотек” (Qosimova,1992). Если в 1927 году в Ташкенте были открыты шестимесячные курсы по подготовке библиотечных кадров, то 1934 году были открыты восьми месячные, шести и трех месячные курсы без отрыва от производства. Для подготовительных курсов, требовалось школьное общее образование. Из 900 часов отведенных данного учебного курса 100 часов общеполитические предметы, 400 часов общеобразовательные и 400 часов выделялось на специальные дисциплины (Рис.1).

Специальные дисциплины включали в себя такие предметы, как, “Организация и планирование библиотечной работы”, “Библиотечная техника”, “Ознакомление с книгой с точки зрения библиотекаря”, “Фонды библиотек”, “Публичные и методические работы библиотек” (Рис.2).



Рисунок 2. Соотношение специальных дисциплин

В том же году в Самарканде 82 выпускников закончили годовичные курсы подготовки клубных - библиотечных работников. В сентябре 1934 года пять человек были отправлены в Московский и Ленинградский библиотечные вузы. Уже к 1935 году в Ташкенте, Самарканде и Хиве были 270 выпускников, которые были подготовлены на двух, шести месячных и годовых курсах (O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi,1989). В последующих годах было уделено огромное внимание подготовке библиотечных работников. В 1937 году открылся первый Ташкентский библиотечный техникум и начал принимать учащихся на заочное и очные отделения. В 1938-1939 годах на годовых курсах подготовлены 694, на краткосрочных курсах были подготовлены 145 библиотекарей. Библиотечный техникум закончили 58 библиотекарей. Периодически читали лекции ведущие библиотекари-библиографы, такие как, директор Среднеазиатской Государственной библиотеки Е.К. Бетгер, директор Среднеазиатской Государственной фундаментальной библиотеки Н.А.Баранов, приглашенные в Ташкент лекторы - российский теоретик и организатор библиотечного дела, крупный библиотековед и библиографовед Л.Б.Хавкина, автор высших библиотековедческих курсов, сотрудник Государственной Народной библиотеки им. Салтыкова-Щедрина Я.П.Гребеншиков (Моторина,1984). В 1937 году был первый выпуск, 58 выпускников, созданного библиотечного техникума. Эти организованные

работы не могли восполнить потребность в библиотечных кадрах. Высшие учебные заведения Москвы и Ленинграда каждый год присылали по 5-6 кадров, но это не могло удовлетворить растущую потребность в высококвалифицированных кадрах. По статистическим данным в 1939 году в Узбекистане библиотечная сеть была в 100 раз больше, чем в 1915. В 1940 году в Узбекистане, число только массовых библиотек составляла 1792, их фонд состоял более 2 млн 553 экземпляров. В республике не было базы подготовки кадров с высшим образованием. Чтобы поднять престиж профессии библиотекаря в 1952 году было учреждено почётное звание «Заслужанный библиотекарь». С 1954 по 1955 годы периодически организовывались семинары по повышению квалификации библиотечных кадров. В течении этого времени в Ташкенте были организованы 60 семинаров. В целом в республике была огромная потребность в высококвалифицированных кадрах. В конце 50-х в начале 60-х в Каракалпакии был 1 специалист с высшим библиотечным образованием, 10 средне специальным и 100 сотрудников с начальной профессиональной подготовкой. В начале 1960 года в Ферганской области в системе Министерства Культуры из 307 библиотечных работников, всего 5 сотрудников были с высшим библиотечным образованием, 44 сотрудника с средне специальным образованием.

В первые библиотечных кадров высшей квалификации начали готовить в Кокандском педагогическом институте. В 1958 году при Кокандском педагогическом институте открылся библиотечный факультет где была создана кафедра «Библиотечноеведение и библиография». В 1960 году факультет был переведён в Ташкентский педагогический институт имени Низами. В первый год приёма на факультет были приняты 300 студентов. В первые годы факультет готовил кадров и для библиотек Таджикской, Туркменской и Республике Казахстан. В 1973 году на факультете обучались 14 представителей нации (Qosimova, 1992).

После первого библиотечного учебного заведения в Узбекистане -Ташкентского библиотечного техникума (1937 год) начали открываться культурно-просветительские техникумы: в 1964 году в Намангане, 1968 году в городе Карши, 1972 году в Нукусе, 1974 году в Бухаре. В библиотечных отделах начали готовить в год более 300-500 средне-специальных специалистов. В середине 1970-х годов стало ясно, что налаженная система подготовки средне-специальных учебных заведений не может обеспечить высококвалифицированными кадрами всех имеющихся на тот момент библиотек. Постановлением Совета министров СССР от 22 августа 1973 года также Постановлением Главного Комитета Компартии Узбекистана и Совета Министров Узбекской ССР от 4 октября 1973 года был организован Ташкентский институт Культуры. Открытием данного культурного высшего образовательного учреждения, который готовит высококвалифицированных кадров в библиотечную сферу, была создана завершённая система подготовки библиотечных кадров.

В 1960-70 гг. в библиотеках текучесть кадров была огромной. Основными причинами были материальные, так как, заработная плата библиотечников была маленькой, специалисты с высшим образованием при удобном случае покидали библиотеки и устраивались на более высокооплачиваемые сферы.

В 1974-1984 годы был ощутимый подъём в подготовке кадров с высшим образованием благодаря открытию Библиотечного факультета в Ташкентском Государственном институте Культуры. В этот период были подготовлены 4449 высококвалифицированных библиотечников-библиографов. В пяти Культурно-просветительских техникумах с 1972 по 1982 годы были подготовлены 5898 специалистов с средне специальным образованием.

В итоге в публичных библиотеках республики степень высококвалифицированных специалистов стало вырастать, например, в 1984 году по сравнению с показателями

1974 года, за десять лет с 7,8 % выросло до 24,1%. Данный график даёт возможность увидеть количество подготовленных кадров и сделать сравнительный анализ с 1917 года по 1984 годы (Рис.3).




Рисунок 3. График специалистов работающих в публичных библиотеках Узбекистана с 1965 по 1984 гг.

Рисунок 3. График специалистов работающих в публичных библиотеках Узбекистана с 1965 по 1984 гг.

Диаграмма (рис.4.) отражает основные показатели публичных библиотек в 1974 по 1990 гг. Количество библиотек, развитие ресурсного потенциала, так же число читателей возрастало и в соответствии естественно возрастало и потребность подготовки кадров.




Рисунок 4. Основные показатели публичных библиотек в 1974-1990 гг.

С 1974 года важная задача по подготовке высококвалифицированных специалистов в библиотечную сферу возлагалась на Библиотечный факультет Ташкентского Государственного института культуры (ТашГИК). В 2006 году факультет переименовали на «Управление библиотечно-информационной деятельностью», это был единственным факультетом по подготовке специалистов данного профиля. В институте также готовили магистров по 3 специальностям: Информатизация и библиотековедение, Документоведение и архивоведение и Книжный маркетинг. Каждый год в институт принимали аспирантов по библиотечному делу. Повышение квалификации библиотекарей

республики осуществлялась на базе факультета ТашГИК «Повышение квалификации сотрудников сферы культуры» (Каримов У.Ф., 2005). В 1990-2005 годы в Узбекистане уже 10 колледжей начали готовить библиотечных работников со средним специальным образованием. Процесс подготовки библиотечных кадров на тот момент, состоял из колледжа, где готовились младшие библиотечные сотрудники и института, где готовили бакалавров, магистров, аспирантов, а так же функционировал специальный факультет повышения квалификации библиотечных работников. Исследования по изучению кадрового состава, проведенное среди библиотек 42 ВУЗов республики, показали, что из 981 сотрудников данных библиотек только 272 имеют специальное высшее образование, т.е. составляют лишь 27,7% от общего числа сотрудников (Рис.5). По возрастному уровню из 272 библиотечных работников – 15 в возрасте до 25 лет, 146 в возрасте 26 – 45 лет, 111 – старше 46 лет. Отсюда: 5,5% библиотечных работников – молодые специалисты, 53,6% – среднего возраста и 40,8% – библиотечные работники старше 46 лет. (Каримов, 2005) (Рис.6)




Рисунок 5. Данные о сотрудниках ИРЦ ВУЗов




Рисунок 6. Возраст сотрудников ИРЦ ВУЗов имеющих высшее специальное образование

### Заключение

С развитием средств обработки и передачи информации меняется и система информационного обслуживания. Соответственно и меняются и требования к уровню знаний библиотечных работников. Современный специалист, основываясь на фундаментальные библиотечные знания, развивает новые информационные услуги и функции, которые раньше в библиотеках считались нетрадиционными. Это такие направления как: разработка специализированных электронных баз данных и архивов; электронная доставка документов; электронная каталогизация; дистанционное библиотечное обслуживание; создание электронных коллекций редких и древних книг, журналов и документов; развитие Интернет услуг; генерация электронных библиотек по заказам пользователей; развитие библиотечной электронной коммерции и многие другие функции. История подготовки библиотечных работников нуждается в изучении, как методологических, так и теоретических оснований. Одновременно разработка частно-научной методологии в библиотечной профессиологии, в том числе в теории



подготовки и профессионализации библиотечных работников позволяет очертить рамки дальнейших научных исследований. Таким образом, можно сделать вывод, что развитие и состояние библиотечного дела, качество библиотечного обслуживания напрямую связано с кадрами, которые определяют уровень развития отрасли. Недостатки в системе подготовки библиотечных работников могут отрицательно отражаться на деятельности библиотек. Программы обучения в учебных заведениях, где готовят библиотечных кадров, должны быть объектом пристального внимания, постоянного обновления, развития и соответствовать требованиям времени.

#### Литература

1. Qosimova O. (1992). O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. Qo'llanma. (64). Toshkent:O'qituvchi.
2. Sudarikova Ye.P., Trapeznikova L.V. Podgotovka bibliotечных kadrov v 21 veke <http://www.gpntb.ru/win/inter-events/crimea2001/tom/sec6/Doc3.html>
3. Ганиева Б. (2020) История и практика подготовки кадров в библиотечной отрасли Узбекистана //Kutubxona.uz., 2020.- №1(45).-с.33
4. Ганиева Б. Новая магистерская программа новый кадровый потенциал для библиотек <http://www.flib.sci.am/eng/Tempus/reports/UZ-LIS.p>.
5. Karimov U. Die informations technologien in den Bibliotheken Uzbekistans: gegenwartiger Zustand, probleme und losugsansate.B-I-T, Bibliotek information Technologie. Karlsruhe, Германия, 2005, №1, С.50-51
6. Rakhmatullaev M., Ganieva B., Habibullaev A. Library and Information Science Education in Uzbekistan//Slavic & East European Information Resources. 2017.- DOI:10.1080/15228886.2017.1322381 To link to this article: <http://dx.doi.org/10.1080/15228886.2017.1322381>

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "HAYOT FAOLIYAT XAVFSIZLIGI  
VA MEHNAT MUHOFAZASI FANINI O'QITISHDA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Hamidov Odil Abdurasulovich*

*Jizzax politexnika instituti "Umumtexnika fanlari" kafedrasi dotsenti*

*Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni samarali kasbiy faoliyatga tayyorlashga imkon beruvchi hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi fani bo'yicha multimediali o'rgatuvchi majmualar uchun o'quv materiallarini tanlash masalasining pedagogik jihatlari, shuningdek, bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarida mehnatni muhofaza qilish soxasiga oid kompetensiyalarni shakllantirish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalalari qaralgan.*

*Kalit so'zlar: o'quv material mazmuni, uyg'unlik, ilmiylik, komponentlik, nazorat-korreksion, interfaol metodlar, multimediali o'rgatuvchi majmua.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ  
В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «БЕЗОПАСНОСТЬ  
ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ОХРАНА ТРУДА» В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ  
ЗАВЕДЕНИЯХ**

*Хамидов Одиль Абдурасулович Доцент кафедры "общетехнические науки «  
Джизакского политехнического института*

*Аннотация. В статье рассмотрены педагогические аспекты задачи выбора учебного материала для мультимедийного обучающего комплекса по предмету безопасность жизнедеятельности и охрана труда обеспечивающего подготовку к эффективной профессиональной деятельности студентов в высших учебных заведениях. А также раскрывается формирование компетенций в области охраны труда, усвоение теоретических знаний, формирование практических умений и навыков у будущих преподавателей профессионального образования.*

*Ключевые слова: содержание учебного материала, гармоничность, научность, компетентность, контроль-коррекция, методы интерактив, мультимедийный обучающий комплекс.*

**THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE TEACHING OF THE  
SUBJECT «LIFE ACTIVITY SAFETY AND LABOR PROTECTION» IN HIGHER  
EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

*Hamidov Odil Abdurasulovich*

*Associate professor of the Department of «General Technical Sciences» of Jizzakh  
Polytechnic Institute*

*Annotation. The article discusses the pedagogical aspects of the task of choosing educational material for a multimedia teaching complex on the subject of life safety and labor protection, which provides training for effective professional activities of students in higher educational institutions. It also reveals the formation of competencies in the field of labor protection, the assimilation of theoretical knowledge, the formation of practical skills among future teachers of vocational education.*

*Keywords: the content of the educational material, harmony, scientific, competence, control – correction, interactive methods, multimedia teaching complex.*

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan "Elektron ta'lim" milliy tizimi barpo etilmoqda. U mustaqil ta'lim olishga qaratilgan bo'lib, o'qitish jarayonida o'qituvchining shaxsan ishtirok etishga zaruriyat qolmaydi, ta'lim oluvchilar barcha topshiriqlarni mustaqil bajarishga, o'quv jarayonini takomillashtirishga imkoniyat yaratiladi. Shu maqsadda ta'lim muassasalari, shu jumladan oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning dasturiy va o'quv-metodik ta'minotini yaratish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

O'quv jarayonida kafolatlangan natijaga erishish esa mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanishni ko'zda tutadi. O'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o'quv uslubiy materiallar va elektron o'quv adabiyotlardan (elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma va boshqalar.) foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligi, sifati va unumdorligini oshirish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kiritishdan iborat.

Ana shularni e'tiborga olgan holda ushbu ishda texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida o'qitish ko'zda tutilgan mehnat muhofazasi fani bo'yicha yaratiladigan multimediali o'rgatuvchi majmua yaratish masalasi qaralgan.

Multimediali o'rgatuvchi majmua – bu ta'lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning axborot - metodik vositasi bo'lib, u o'z ichiga aniq ta'limiy vazifalarni xal qilish uchun turli ko'rinishdagi (video ma'ruza, maxsus videoroliklar va boshqalar) o'zaro bir-biriga bog'liq axborotlar ishtirok etadigan mustaqil va yangilanadigan interfaol nashrlarni oladi. O'quv jarayonida multimediali o'rgatuvchi majmuadan foydalanish pedagogik va psixologik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega bo'lib, quyidagilarga imkon beradi: o'quv materiallarni o'zlashtirish va tushunish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi boy illyustrativli (rasmlar, animatsiyalar va boshqalar) materiallar bilan ishlash; o'rganuvchining (o'quvchi yoki talaba) o'quv jarayoniga tayyorgarligini e'tiborga olish; o'quv materialini o'rganishning individual tempi (surati) ni tanlash imkoniyatini taqdim etish; ta'lim oluvchiga o'rganishning mustaqil mashrutini tanlash imkoniyatini taqdim etish; zamonaviy kompyuterlarning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish; ta'lim oluvchining bilish faoliyatini modellashtirish.

Multimediali o'rgatuvchi majmua yaratish texnologiyasi yetarli darajada murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. Chunki, ular shunchaki dasturiy vositalar bo'lmasdan, balki o'quv jarayoniga joriy etishga mo'ljallangan to'laqonli pedagogik dasturiy vositalar bo'lishi kerak.

Biz "Hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi" fani bo'yicha multimediali o'rgatuvchi majmua yaratish jarayonini quyidagi asosiy bosqichlarga ajratdik: majmuani yaratishning maqsad va vazifalarini shakllantirish; majmua tuzilmasini ishlab chiqish; o'rgatuvchi dastur o'z ichiga olgan bo'lim (bob) va mavzular bo'yicha mazmunni ishlab chiqish; majmua tuzilmasi ssenariyasini tayyorlash; dasturlash; sinovdan o'tkazish; sinov natijalari asosida mazmunga tuzatish kiritish; foydalanuvchi uchun metodik yo'riqnoma tayyorlash; o'quv jarayoniga o'rgatuvchi majmuani joriy samaradorligini baholash.

Hozirgi kunda multimediali dasturiy vositalarni yaratish uchun qo'llaniladigan juda ko'plab tayyor dasturiy vositalar ham mavjud. Ana shunday vositalarga Actions, Authorware, Flash, MediaTool, PowerPoint, Toolbook va boshqalar kiradi.

Biz oliy ta'lim muassasalari kasbiy ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan "Hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi" fani bo'yicha multimediali o'rgatuvchi majmua yaratish uchun Authorware, Flash paketlari imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qildik. Bu

uskunaviy dasturi vositalarni tanlash esa quyidagilar bilan izohlanadi:

1) Authorware interfeysning umumiy elementlariga va ko'p sonli ilovalar (masalan, Flash MX) bilan integratsiyalash imkoniyatiga ega bo'lib, u o'z navbatida Macromedia Flash vositasi yordamida multimediali vositalar yaratish bo'yicha tajribaga ega bo'lganlar uchun paket bilan tanishuv jarayonini maksimal darajada osonlashtiradi.

2) Macromedia Authorware bu interaktiv multimediali o'rgatuvchi dastur yaratishning vizuallashtirilgan muhiti hisoblanadi. Shu munosabat bilan uning imkoniyati taqdimot yaratishga mo'ljallangan paketlar imkoniyatidan bir muncha keng.

Macromedia Flash tasvirlarni animatsiya qilishda eng yaxshi vosita hisoblanadi. Bu dasturiy vosita Macromedia kompaniyasi tomonidan yaratilgan bo'lib, u ma'lumotlarni multimedia ko'rinishda taqdim eta oladigan eng muhim texnologik jarayonlarni o'z ichiga olgan dasturiy vositadir. Flash dasturiy vositasining asosiy uskunaviy vositasi sifatida vektorli grafika qo'llanilib, uning asosida multimedialarning hamma elementlarini ya'ni ovoz, harakat, obyektlar bilan muloqatni amalga oshiradigan imkoniyatlari mavjud. Flash texnologiyasida yaratiladigan dasturlarning o'lchami minimal darajada bo'lib, ular kompyuter ekranining o'lchamiga bog'liq emas.


Multimediali dasturiy vositalar nafaqat o'qituvchining unda foydalanish funksiyalarini bajarishni osonlashtiradi, balki predmetga bog'liq qiziqishni oshiradi, o'qish jarayonini tezlashtiradi va bilimlarni mustahkamlaydi. Multimediali o'rgatuvchi majmuaning blokli modul tuzilmasi 1 – rasmda keltirilgan.

Multimediali o'rgatuvchi majmuani loyihalashning boshlang'ich bosqichi bo'lib pedagogik ssenariyani yaratish hisoblanadi. Har bir bob bo'yicha alohida pedagogik ssenariyani ishlab chiqish zarur. 2 -rasmda esa "Mehnat muhofazasi" fanidan yaratiladigan multimediali o'rgatuvchi majmuaning birinchi bobi bo'yicha pedagogik ssenariyani grafik amalga oshirish namunasi keltirilgan.

O'rganilayotgan kursning bitta moduli (bobi) ni tashkil etuvchi bir necha kadrlar "Bosh menyu", "Oldinga", "Almashtirish", "Orqaga", "Qidirish", "Ma'lumotnoma", "Chiqish" kabi maxsus suzuvchi tugmalar yordamida chiziqli matn tamoyili bo'yicha tashkil etiladi.


Bu yerda talaba faoliyatining tuzilmaviy sxemasi minimal holatda o'nta ta'lim trayektoriyasini tanlash imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa o'qituvchiga turli xil pedagogik masalalarni yechish, talabaga esa ta'lim darajasi, o'rganilayotgan predmet bo'yicha tayanch bilimlar mavjud yoki mavjud emasligiga bog'liq holda materialni o'zlashtirishning individual xususiyatlarini e'tiborga olib yangi materialni o'rganish bo'yicha mustaqil ishlarni maksimal darajada samarali tashkil etishga imkon yaratadi.





**1-rasm. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi" fani bo'yicha yaratilgan multimedial o'rgatuvchi majmua tuzilmasi**

O'quv materiallarini taqdim etish birligi bo'lib esa, bir necha gipermurojaatli materiallar va animatsiyalar bilan to'ldirilgan kadrlar hisoblanadi. Bitta kadrda joylashgan ma'lumotlar esa yaxlit hisoblanadi va o'zida qandaydir tugallangan ma'noni ifodalaydi. O'rganilgan nazariy materialni mustahkamlash uchun o'zini – o'zi tekshirish bo'yicha savollar va bilimlarni nazorat qilishning eng samarali shakli hisoblangan o'zini – o'zi nazorat qilish testlari taqdim etiladi. Testning har bir varianti esa test topshiriqlari bazasidan tasodifiy ravishda tanlab olinadi. Mashq qiluvchi rejim esa o'rganuvchi tomonidan testga berilgan javob noto'g'ri bo'lgan vaqtda javob variantini takroriy tanlash imkonini beradi.



**2-rasm. Multimediali o‘rgatuvchi majmuada “Hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi” kursi birinchi bobini o‘rganish mashruti**

Nazorat qiluvchi topshiriqlar esa quyidagi shakllarda ifodalanadi:

to‘g‘ri javobni tanlash bo‘yicha topshiriqlar;

tushirib qoldirilganlarni to‘ldirish bo‘yicha topshiriqlar;

moslikni o‘rnatish bo‘yicha topshiriqlar;

javobni mustaqil shakllantirish va kiritish ko‘zda tutilgan topshiriqlar.

Multimediali o‘rgatuvchi majmua “qaynoq” tugmalar, qidiruv tizimi, majmua bilan ishlash bo‘yicha ma‘lumotnoma, o‘qituvchilar uchun qo‘llanma va unchalik katta bo‘lmagan glossariy bilan ta‘minlangan.

Yaratilgan multimediali o‘rgatuvchi majmua matn, jadval, nutq, musiqa va animatsiya ko‘rinishdagi axborotlarni mujassamlashtiradi.

Talabalarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash jarayonida yuqorida qayd etilgan mul’timediali o‘rgatuvchi majmua quyidagi didaktik funksiyalarni bajaradi; kasbiy tayyorlash jarayoni mazmuniga zaruriy nazariy va amaliy bilimlarni o‘zida aks ettiradigan informativ; o‘quv materialini interfaol shaklga o‘tkazishni taminlovchi va auditoriyadan tashqari vaqtda kasbiy tayyorlash jarayonini amalga oshirish imkonini beradigan transformativ; o‘quv materialini adekvat majmuaviy qabul qilish uchun uni tuzilmashtirish imkonini beruvchi integrativ; kasbiy tayyorlash jarayonini samarali boshqarishni ta‘minlovchi tashkiliy – rag‘batlantiruvchi; joriy va yakuniy nazoratni tashkil etish niko‘zda tutuvchi nazorat–korreksion; talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga imkon beruvchi aksiologik; nazariy materialni bayon etishning yuqori darajasi hamda talabalarda tadqiqotchilik faoliyatiga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni taminlovchi tadqiqotchilik; talabalarni kasbiy tayyorlashda axborot- metodik vosita sifatida foydalanish imkonini beradigan mustaqil bilim olish.

Mehnatni muhofazasi fani bo‘yicha multimediali o‘rgatuvchi majmua tarkibiga kiritiladigan o‘quv materialini mazmunini tanlab olish komponentlik va ilmiylik hamda uyg‘unlik (relevantlik) tamoyillari asosida amalga oshirildi.

Komponentlik tamoyili mehnatni muhofaza qilish fanini o‘qitish jarayonida umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan va u nafaqat davlat ta‘lim standartlari, balki ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyasining tashkil etuvchilaridan biri sifatida ishlab

chiqarishni rekonstruksiya qilish va texnik qayta qurish xisobiga modernizatsiyalash bilan shartlanilgan. Texnika oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan bo'lajak muxandislarda mehnatni muhofazasi soxasiga oid kompetensiyalarni shakllantirish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek ishlab chiqarishda ro'y berishi mumkin bo'lgan turli xil shikastlanishlardan ogoxlantirishni, jaroxatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish va ishlarni xavfsiz metodlar bilan tashkil etishni nazarda tutadi.

Masalan, elektr xavfsizligi va elektr moslamalari yerga ulash moslamalari bo'yicha mul'timediali o'rgatuvchi majmua mazmuniga umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni taminlovchi quyidagi o'quv materiallari kiritilgan:

- elektr xavfsizligi asoslari (fikrlash madaniyatini, umumlashtirishga qobiliyatlilikni, taxlil qilish, maqsadni qo'yish va unga intilish yo'llarini egallash, nostandart vaziyatlarda tashkiliy - boshqarish yechimlarini topishga qobiliyatlilikni va ular uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorlik);

- yerga ulash moslamalarini montaj qilish bo'yicha operatsiyalar (montaj qilish texnologiyalarini bilish, sozlash, konstruksiyalarni sinash va foydalanishga topshirish, muhandislik tizimlari va qurilish obyektlari jihozlari, korxonada chiqaradigan mahsulot namunalari bilish; jihozlari va texnik ta'minot vositalarini tajribaviy tekshirish metodlarini egallash; qurilish obyektlari, jihozlari, texnik holatni va qoldiq resursni baholash metodlarini egallash);

- elektr moslamalarini yerga ulashni hisoblash metodikasi (tabiiyfanlarning asosiy qonunlarini, matematik modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqot metodlarini qo'llash);

- elektr moslamalarini yerga ulash masalalarini loyihalash algoritmi (muhandislik tadqiqotlarini o'tkazish metodlarini egallash);

- elektr jihozlari qurilmalari qoidalari (muhandislik tadqiqoti sohasidagi meyoriy bazalar, bino va inshootlarni loyihalash tamoyillarini bilish);

- elektr jihozlarni ishlatishda mehnat muhofazasi bo'yicha tarmoqlararo qoidalar (ishlab chiqarish xodimlari va aholini ro'y berishi mumkin bo'lgan avariya, halokat, baxtsiz xodisalardan himoyalash metodikasi asoslarini egallash).

Talabalarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalalarining muximligi o'quv materialining zamonaviy fan darajasiga mosligini ta'minlashini talab etadi.

Ilmiylik tamoyili esa o'quv materialini mazmunining zamonaviy fan darajasiga mosligini va talabalarda tadqiqotchilik faoliyatiga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Masalan, qurilish yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan elektr xavfsizligi va elektr qurilmalarini yerga ulash moslamalari bo'yicha mul'timediali o'rgatuvchi majmua tarkibiga biz tashqi va ichki yerga ulash moslamalarini montaj qilish bo'yicha ishlarni bajarishning na'munaviy texnologik xaritasini kiritdik. Bunday xaritadan ishlab chikarish jarayonlarini loyixalash, qurilish ishlarini tashkil etish, boshqa tashkiliy-texnologik xujjatlar, shuningdek ishchi va muxandis-texnik xodimlarning ishlab chiqarishga oid ishlarini bajarish qoidalar bilan tanishtirishda foydalaniladi.

Na'munaviy texnologik xarita nafaqat qurilish meyorlari va qoidalari, sanitariya meyorlari qoidalar to'plami, texnik shartlar va rejalarni boshqarish xujjatlarini, balki zamonaviy texnika fanlarining fundamental tushunchalari, qonunlari va nazariyalariga muvofiq, materiallarning berilgan tizimi va xususiyatlarini shakllantirish usullari, ularning sifat ko'rsatkichlarini baxolash metodlari, binolarni elektr ta'minoti tizimlarini rivojlantirish istiqbollari, bir fazali va uchfazali elektr zanjirlari va qurilmalari, shuningdek elektr mashinalari va elektr inshootlari ishlash tamoyillarini xisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

Ilmiylik tamoyili asosida mul'timediali o'rgatuvchi majmua uchun o'quv materialini tanlash, talabalarda katologlar, arxivlar va axborot shakllari bilan ishlash ko'nikma va

malakalarini shakllantirish; kartotekalarni tuzish, annotatsiyalar, blok - sxemalar, o'quv - ishlab chiqarish loyixalarni tuzish, chizmalar, diagrammalar va grafiklarni yasash taqdimotlar tayyorlashga imkon beradi.

Masalan, elektr xavfsizligi va elektr moslamalari himoya qilish yerga ulash qurilmalari bo'yicha multimediali- o'rgatuvchi majmuada na'munaviy xaritani o'z ichiga olgan modulda, talabalarga ishlarning alohida turlarini bajarishga oid texnologik xaritani yaratish bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rganish va tahlil qilish, o'rganilgan shaklda sharxlash, hisobot, tayyorlash shuningdek ishlarning alohida turlarini bajarish taklif etiladi.

Uyg'unlik tamoyilini amalga oshirish o'quv materialining amaliy- mo'ljalli yo'nalganligini ta'minlaydi.

Masalan, xavoning changlanganligini tadqiq qilish bo'yicha multimediali o'rgatuvchi majmuada, birinchi navbatda, ishlab chiqarish binolarida changlanish va nurlanish bilan kurash usullarini o'z ichiga oladigan o'quv material mavjud. Talabalarga ishlab chiqarish binolaridagi xavoga nisbatan quyilgan gigiyenik talablar bilan tanishib chiqish; shamollatish usullari tasnifini ko'rib chiqish, kerakli xavo almashinishini aniqlash, tabiiy shamollatish hisobini bajarish talab etiladi. Ushbu multimediali o'rgatuvchi majmua o'quv material vaznli metod bilan xavodagi changni aniqlash metodikasini o'z ichiga oladi va u quyidagilarni nazarda tutadi: maxsus qurilmada o'lchash apparaturasi yordamida xavodagi chang konsentratsiyasini aniqlash, olingan natijalarni sanitariya meyorlariga muvofiq baholash va mehnat sharoiti tasnifini aniqlash.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, ilmiylik, komponentlik va uyg'unlik tamoyillari asosida tanlangan o'quv materiallari asosida hayot faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi qilish fani bo'yicha yaratilgan multimediali o'rgatuvchi majmuaning afzalliklari quyidagilardan iborat.

- mashg'ulotlarda berilayotgan o'quv materiallarining talabalartomonidan chuqurroq va muammoliroq o'rganish;
- mashg'ulot jarayonida bilimlarni o'zlashtirish sarflanadigan vaqtning qisqarishi evaziga vaqtni tejash imkoniyati;
- o'zlashtirilgan bilimlarning ta'lim oluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolish va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi;
- mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinish natijasida talabaning ta'lim subyektiga aylanishi;
- talabalar uchun kuzatish, mushohada qilish qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatlarning paydo bo'lishi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Семёнова Н.Г. Теоретические основы создание и примененая мультимедийных обучающих систем лекционных курсов электротехнических дисциплин. Оренбург, Вестник, 2007, 317 с
2. X.Raximova va boshqalar. "Mehnatni muhofaza qilish", Toshkent O'zbekiston nashryoti 2003 y.
3. O. Yuldoshev va boshqalar. "Mehnatni muhofaza qilish", Toshkent Mehnat2001 y.
4. E.I.Ibragimov, S.Gazinazarova, O.R.Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.; TIMI, 2014.-536 b.
5. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik-T.: "Toshkent-iqtisodiyot", 2014.-268 b.



---

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI RAQAMLASHTIRISH VOSIDASIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA FLIPPED CLASSROOM METODINI QO'LLASH

Hotamova Dildora Komilovna  
Buxoro davlat pedagogika in

---

*Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda raqamlashtirish jarayonining muhim ahamiyati va «Flipped Classroom» (teskari sinf xonasi) metodining qo'llanilishi tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa talabalarning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini oshiradi. Flipped Classroom metodi talabalarga nazariy materiallarni mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatini berib, amaliy mashg'ulotlar vaqtida bilimlarni chuqurlashtirish va muhokama qilishga yo'l ochadi. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'qituvchilarni yangi raqamli vositalar bilan ishlash ko'nikmalariga ham tayyorlaydi.*

*Kalit so'zlar: raqamlashtirish, flipped klassroom, pedagogik faoliyat, innovatsion ta'lim metodlari, mustaqil o'rganish, ta'lim samaradorligi, pedagogik kompetensiyalar, interaktiv ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar.*

Loyiha asosidagi o'qitish (Project-Based Learning, PBL) STEAM ta'limining markaziy elementi hisoblanadi. Ushbu metod doirasida o'quvchilar haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilish uchun loyihalar ishlab chiqadilar. Bu jarayonda barcha STEAM elementlari o'zaro bog'langan holda ishlaydi. O'quvchilar loyihalarini rejalashtirish, tadqiqotlar o'tkazish, natijalar taqdim etishga tayyorlash va tajribalarni o'zaro baholash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar o'zlarini mustaqil fikr yuritish va jamoada ishlashga mehr qo'yishadi.



1-rasm. STEAM texnologiyalarining ta'lim natijadorligini texnologiyasi

### 3. Texnologiyalarni qo'llash

STEAM ta'limida texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Yaqinda o'qituvchilar 3D modellashtirish dasturlaridan, robototexnika kitlaridan va kodlash platformalaridan foydalana boshlashdi. Masalan, o'quvchilar Arduino mikrokontrollerlari yordamida oddiy robotlar yaratishlari mumkin. Bu jarayon analitik fikrlash va muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

### 4. Innovatsion ta'lim uslublari

STEAM ta'limida innovatsion ta'lim uslublariidan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Misol uchun, gamifikatsiya (o'yin elementlarini qo'llash) darslarni qiziqarli va interfaol qiladi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishishda samarali strategiyalar ishlab chiqish yordami bilan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bularning barchasi ta'lim natijalarini oshirishga xizmat qiladi.

### 5. O'quvchilarning ko'nikmalarini baholash

STEAM texnologiyalarini qo'llashning muhim jihatlaridan biri o'quvchilarning ko'nikmalarini baholashdir. Baholash tizimlari an'anaviy testlar bilan cheklanmay, o'quvchilarning loyihalarini, taqdimotlarini va jamoaviy ishlarini o'z ichiga olishi kerak. O'z-o'zini baholash va o'zaro baholash metodlari o'quvchilarga o'zlarining bilim va qobiliyatlarini tahlil qilish imkoniyatini beradi va haqiqiy o'qitish jarayonining ko'rsatkichini oshiradi.

### 6. Jamiyat va ijtimoiy ta'sirlar

STEAM ta'limining ijtimoiy ta'siri ham muhimdir. O'quvchilar o'z loyihalari orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga yondashishlari mumkin. Bunday tajriba o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradi va ularni jamoat tashabbuslari bilan bog'lashga yordam beradi. O'quvchilarning jamoatchilik oldida o'z g'oyalarini namoyish etishlari ularning ishtiyoqini oshiradi va kelajakda ijtimoiy liderlar sifatida rivojlanishlariga xizmat qiladi.

#### 7. O'qituvchilarni tayyorlash

O'qituvchilarni STEAM ta'limiga tayyorlash jarayoni ham alohida e'tiborga sazovor. O'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muntazam ravishda treninglar va workshoplarda ishtirok etishlari zarur. O'qituvchilarning o'zaro tajriba almashinuvi, fanlararo muloqot ularga yangi metodologiyalarni o'rganish va o'zining o'qitish uslublarini takomillashtirishga yordam beradi. Buning natijasida o'qituvchilar zamonaviy ta'lim yondashuvlariga mos keladigan ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

#### 8. Bugungi ko'rsatkichlar

Bugungi kunda STEAM texnologiyalarini qo'llash natijasida ta'lim natijadorligining ko'plab ijobiy ko'rsatkichlari aniqlanmoqda. O'quvchilarning bilim darajasi oshishi, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari yaxshilanishi hamda jamoa ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi kuzatiladi. Ta'lim jarayonida fanning amaliy jihatlari mazmuni yanada chuqurlashadi. STEAM ta'limi orqali o'quvchilarda innovatsion fikrlash va yaratuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirgan holda, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat davomida ko'rsatilayotgan natijalar ta'lim tizimida STEAM texnologiyalarining kuchli ta'sirini aks ettiradi. Bunday yondashuvlar faqat ilmiy ko'nikmalarni rivojlantirmay, balki o'quvchilarda murakkab muammolarni hal qilishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Umumiy ravishda, STEAM ta'limi nafaqat o'quvchilarning ilmiy natijalariga, balki ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kengaytirish, ularni ijodiy fikrlashga va jamoaviy ishga undashda zarur ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar, bugungi kun talablariga mos ravishda o'quvchilarni ta'lim natijalarining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lim tizimini rivojlantirishda STEAM yondashuvini amalga oshirish haqiqatda ta'lim jarayonini o'zgartiruvchi kuchdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адольф В.А. Степанова И.Ю Проектирование образовательного процесса профессионального становления специалиста на основе компетентностного подхода. // Высшее образование в России. - 2008. - № 3.- 2008. С. 158-161.

2. Бабанский Ю. К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. Методические основы. -М.: Педагогика, 2005. - 193 с.

3. Беспалько В.П., Татур Ю.Г. Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалиста. - М., 1989.-144 б.



## ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ТАМОЙИЛЛАРИ

Имомов Мусурмон Пирназарович

педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.

ШахДПИ

*Аннотация- компетенциявий ёндашув асосида ўқувчиларнинг касбий маданиятини ривожлантиришнинг устувор тамойилларинини аниқлаш.*

*Аннотация- определить приоритетные принципы развития профессиональной культуры студентов на основе компетентностного подхода.*

*Annotation- determine the priority principles for the development of students' professional culture based on a competency-based approach.*

Ўзбекистон жамиятининг ҳозирги ҳолати, айнан, мамлакат ҳаётининг сиёсий, иқтисодий соҳаларида содир бўлаётган ўзгаришлар профессионал таълим муассасаларида кадрлар тайёрлаш муаммосига янги нукта назардан қарашни тақозо этади.

Илмий-педагогик фаолиятни ташкил этишда тегишли жараёнда устувор бўлган тамойилларни аниқлашга жиддий ёндашиш талаб қилинади. Бинобарин, устувор тамойилларнинг тўғри, оқилона танланиши муайян жараёни яхлит ҳолда қамраб олиниши, ҳеч бир омилнинг эътибордан четда қолмаслигига олиб келади.

Компетенциявий ёндашув асосида коллеж ўқувчиларининг касбий маданиятини ривожлантириш жараёнида устувор бўлган тамойилларни аниқлашда касбий таълимнинг умумий тамойилларни ҳам инобатга олинади.

Касбий таълим қуйидаги умумий тамойилларга мувофиқ ташкил этилади: замонавий ишлаб чиқариш талабларига жавоб бериш; назария ва амалиёт бирлиги; ишлаб чиқариш жараёнидаги таълим; касбий-политехник йўналганлик; мустақиллик; ўқувчиларнинг ёш, индивидуал хусусиятларини инобатга олиш; жамоада ўқитиш; ягона педагогик талабни қўйиш ва ўқувчи шахсини ҳурмат қилиш; кўрсатмалилик.


Инновацион таълим муҳитининг шаклланиши ўқитиш жараёнига жамиятда кечаётган ижтимоий, иқтисодий, маданий ўзгаришларни инобатга олган ҳолда янги тамойилларни ҳам жорий этишни тақозо қилади. Ушбу талабдан келиб чиққан ҳолда сўнгги йилларда касбий таълимнинг умумий тамойиллари қуйидагилар билан бойитилди: таълимнинг инсонпарварлиги ва демократик ғояларга асосланиши (ўқитишнинг ўқувчи имкониятларини, ўқувчилар жамоасининг эҳтиёж ва қизиқишларини инобатга олиш асосида ташкил этилиши); таълимни ишлаб чиқариш меҳнати билан боғлаш (ўқитиш ва ишлаб чиқиш меҳнати ўртасида ўзаро алоқадорлик, боғлиқлиги таъминлаш); касбий мобиллик (таълим мазмунини ўзгарувчан ижтимоий вазиятларга мувофиқ келишини таъминлаш, шунингдек, битирувчиларни турли вазиятларда касбий фаолият олиб боришга тезкор мослашувчига эришиш); модулли ўқитиш (таълимнинг модул (мантқиқий тугалланган бирлик)ларга мувофиқ ташкил этилиши); онглилик (ўқувчиларнинг ўқув жараёни ҳамда касбий фаолиятга онгли ёндашишини таъминлаш); фаоллик (таълим жараёнида ўқувчиларнинг ўқув-билиш фаолияти суръатининг тезлашувига эришиш) ва мотивация (ўқувчиларни касбий фаолиятни амалий жиҳатдан ташкил этишга туртки берувчи эҳтиёжга эга бўлиши)га асосланганлик; барча учун очиқлик (касб ва ҳунар йўналишлари бўйича республика фуқароларининг тенг ҳуқуқлилик асосида таълим олишига эришиш) ва кўргазмалилик (касбий таълимнинг кўрсатмали – бажариб кўрсатилиши ёки визуал намоён қилиш асосида ташкил этилиши); касбий компетентликнинг пухта эгалланиши (касбий компетентлик сифатлари – билим, кўникма, малака, тажриба бирлигига эришиш); мақсадга йўналтирилганлик (ижтимоий буюртма сифатида малакали кичик мутахассисларни тайёрлаш), тизимлилик (ўқитишнинг

барча омиллари – мақсади, вазифалари, ташкилий шакллари, методлари, воситалари, технологиялари, натижаси, ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятдан иборат таркибий элементларнинг бирлиги асосида ташкиллаштирилиши); таълимнинг натижаланганлиги (малакали кичик

мутахассисни тайёрлашдан иборат ижтимоий буюртманинг бажарилиши) ; шахс мустақиллигини ривожлантириш; ўқитишнинг касбий фаолиятга мотивация бериши; таълимнинг самарадорлиги; қулай касбий таълим муҳитининг мавжудлиги; иқтисодий мақсадга мувофиқлик .

Илмий-педагогик фаолиятни ташкил этишда тадқиқот объекти, унинг характерли хусусиятидан келиб чиққан ҳолда касбий таълимнинг умумий тамойиллари билан бирга замонавий ёндашувларни характерловчи тамойилларга ҳам таяниб иш қўрилади.

Назарий таҳлил, тажриба майдонлари бўлган коллежлар, шунингдек, ўқувчилар фаолиятини кузатиш, ўқитувчилар ва ўқувчилар билан суҳбатлар ташкил этиш натижасида қуйидаги тамойилларнинг компетенциявий ёндашув асосида коллеж ўқувчиларининг касбий маданиятини ривожлантиришда устувор ўрин тутишига ишонч ҳосил қилинди (1-расм):



**1-расм. Компетенциявий ёндашув асосида ўқувчиларнинг касбий маданиятини ривожлантиришнинг устувор тамойиллари**

1. Қадриятли ёндашув тамойили. Касбий фаолият шахс ҳаётининг муҳим таркибий асоси сифатида унинг моддий эҳтиёжларини қондиришга хизмат қилади. Шу сабабли унга нисбатан ижобий муносабатда бўлиш, иш ўрнини, меҳнат жараёнини ташкил этишда масъулиятни ҳис қилиш, иш қуроллари, меҳнат анжомлари, воситаларини эҳтиётлаш, уларнинг меҳнатга яроқлилигини доимий таъминлаш, дастгоҳнинг узоқ муддат хизмат қилиши учун зарур чораларни қўриш, иш ўрни санитария ҳолатининг юқори даражада бўлишига эришиш, меҳнат маҳсулотларини тежаш, касбий анъаналарга нисбатан ҳурмат кўрсатиш талаб қилинади. Компетенциявий ёндашув асосида коллеж ўқувчиларининг касбий маданиятини ривожлантиришда меҳнат қадриятларининг аҳамиятини кўрсатиш, уларга нисбатан ижобий муносабатни шакллантириш талаб этилади.

2. Муаммоли ўқитиш тамойили. Замонавий таълимда муаммоли ўқитиш асосий ўринлардан бири эгалламоқда. Бинобарин, муаммоли ўқитиш таълим оловчини фикрлашга, муаммо юзасидан бир неча ечимни илгари суришга, уларнинг таҳлил қилиш орқали мақбул ечимни қабул қилишга, уни асослашга ундайди. Бир сўз билан айтганда, муаммоли ўқитиш ўқувчини мавжуд муаммо бўйича ҳар томонлама фикрлашга ундайди. Фикрлаш қобилиятига эга шахс эса ўз имкониятини, ички ресурсларини тўла намоён эта олади. Мазкур тамойил “инсон капитали”дан самарали фойдаланишга қаратилган

тенденцияга тўла мос келади.

3. Интерфаоллик тамойили. Инновацион таълим муҳитида ўқитишнинг етакчи омилларидан бири интерфаоллик саналади. Инглиз тилидан таржима қилинганда “интерфаол” тушунчаси “биргаликда ҳаракат қилмоқ” деган маънони англатади. Назарий моҳиятига кўра эса интерфаоллик ўқувчиларнинг жуфтликда, кичик ва катта гуруҳларда ўзаро ҳамкорлик, ҳамжиҳатликда, бирга ҳаракат қилиш асосида ўқув материалларини ўзлаштириш, ўқув топшириқларини бажаришни ифодалайди. Интерфаоллик негизида, шунингдек, ўқувчиларнинг компьютер технологияси билан “мулоқот” асосида янги билимларни ўзлаштириш ва улардан фойдаланишга қаратилган ҳаракати ҳам намоён бўлади.

Коллежларда “Металларга ишлов бериш технологияси” фанини ўзлаштиришда ўқувчи ҳамда ўқувчилар жамоасининг интерфаоллиги аксарият ҳолатларда ўқув топшириқларини бажариш, дастгоҳларда ишлаш жараёнида кўзга ташланади. Металларга ишлов бериш, уларни қайта ишлашда бир-бирларининг амалий ҳаракатларини кузатиш, хатоларни англашга кўмаклашиш, мавжуд хато ва камчиликларни биргаликда бартараф қилиш, амалий ҳаракатлар юзасидан якуний хулосага келиш интерфаоллик ёрқин намунаси саналади.

4. Лойиҳа таълими тамойили. Замонавий ўқитишда лойиҳа таълими ҳам алоҳида ўрин тутаяди. Ўқувчиларни ўқув, амалий ва ижодий лойиҳаларни бажаришга жалб қилиш уларда касбий масалалар юзасидан фикр юритиш, далилларни топиш, фикрларни тизимлаштириш ва таҳлил қилиш, бир неча вариантда ечимларни топиш, улар ўртасидан оптимал ечимни аниқлаш, ечимни асослаш ҳамда тақдим этиш малакаларини ҳосил қилади. Бу интеллектул салоҳиятга эга мутахассисни тайёрлашдан иборат ижтимоий-педагогик буюртмани бажаришга ҳисса бўлиб қўшилиш билан бирга ўқувчиларни факултетада вазиятларда ҳам касбий фаолиятни самарали олиб боришга тайёрлайди.

5. Инновацион ёндашув тамойили. Тузилмавий жиҳатдан “инновацион ёндашув” тушунчасининг ўзагини “инновация” атамаси ташкил қилади. Луғавий маъносига кўра “инновация” тушунчаси инглиз тилидан таржима қилинганда “янгилик киритиш” демакдир. Таълим жараёнида янгиликни киритиш ўқитиш мазмуни, ташкилий шакллари, методлари, воситалари, ўқитувчи ҳамда ўқувчи фаолиятини янги ғоялар негизида бойитиш, ўзгартириш ва такомиллаштиришни билдиради. Коллежларда “Металларга ишлов бериш технологияси” фанини ўқитишда ўқувчиларни ўқув материалларини ўзлаштириш, ўқув топшириқларини бажаришга жалб қилиш жараёнининг интерфаол методлар, лойиҳа, витаген ҳамда ривожлантириш технологиялари ёрдамида ташкил этилиши касбий таълимнинг инновацион ёндашув асосига қурилаётганлигидан далолат беради.

6. Амалий ёндашув тамойили. Дастгоҳчиларнинг касбий фаолияти ўз моҳиятига кўра амалий ҳаракатлар мажмуидан иборат. Бу эса “Металларга ишлов бериш технологияси” фанини ўқитишда амалий машғулотларга устуворлик берилишини тақозо қилади. Амалий машғулотларнинг бугунги кун талабларига мувофиқ ташкилий-методик жиҳатдан тўғри ташкил этилиши ўқувчиларда дастгоҳларда ишлаш кўникма, малакаларини ривожлантириш билан бирга касбий фаолият моҳиятини тўла англаш, унга нисбатан ижобий муносабатни шакллантиришга хизмат қилиши лозим.

7. Витаген ёндашув тамойили. Луғавий нуқтаи назардан “витаген” тушунчаси “ҳаётий тажрибага таяниш” маъносини англатади. Табиийки, коллеж ўқувчиларининг касбий маданияти негизида уларнинг субъектив борлиқ (атрофдагилар) билан муносабатга киришиш жараёнида орттирган ижтимоий, амалий машғулотлар чоғида эгаллаган кам бўлса-да, касбий тажрибалари ётади. Мавжуд тажрибалар асосида, шунингдек, амалий касбий фаолият даврида зарур малака талаблари бўйича ҳаракатларни бажариб кўриш, ҳатто йўл қўйилган хато ва камчиликларни таҳлил қилиш орқали ўқувчиларда тажриба

тўпланиб боради. Ўқувчиларнинг умри давомида орттирилган ҳаётий ҳамда таълимнинг умумий даврида оз-оздан кўшилиб, якунида “салмоқли вазн”га эга бўлган тажриба келгусида улар томонидан компетентли мутахассис сифатида эришиладиган ютуқлар учун “пойдевор” бўлиб хизмат қилади.

8. Рефлексивлик тамойили. Барча халқаро тушунчалар каби “рефлексивлик” ҳам ўзбек тилида муайян маънони англатади. Луғавий маъносига кўра “рефлексивлик” инглиз тилидан таржима қилинганда “ортга назар ташлаган ҳолда фаолият, хатти-ҳаракатни таҳлил қилиш” маъносини англатади. Назарий жиҳатдан ушбу тушунча ёрдамида ўз-ўзини, ўз фаолиятини таҳлил қилишга қаратилган ҳаракат ифодаланади. Коллеж ўқувчиларининг рефлексив қобилиятга эга бўлиши улар томонидан мустақил равишда ўзларининг ўқув-билиш ва касбий фаолиятларини таҳлил қилиш, касбий билим, кўникма ва малакаларга эгаликнинг динамик характерини ўрганиш, хато ва камчиликни англаш, уларни тузатиш ёки бартараф қилиш йўлида изланишларига ёрдам беради. Ўз фаолиятини доимий, изчил равишда таҳлил қилишга рефлексив ёндашиш коллеж ўқувчиларида ўзига, ўз хатти-ҳаракатларини танқидий баҳолашга ўргатади. Бу эса замонавий мутахассис учун зарур бўлган касбий сифатлардан биридир. Шу сабабли коллежларда компетенциявий ёндашув асосида ўқувчиларининг касбий маданиятини ривожлантиришда уларнинг рефлексив қобилиятга эга бўлишларига ҳам алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, назарий таҳлил, тажриба майдонлари бўлган коллежлар, шунингдек, ўқувчилар фаолиятини кузатиш, ўқитувчилар ва ўқувчилар билан суҳбатлар ташкил этиш натижасида юқоридаги тамойилларнинг компетенциявий ёндашув асосида коллеж ўқувчиларининг касбий маданиятини ривожлантиришда алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Ўрта махсус профессионал таълим босқичида кадрлар тайёрлайдиган техникумларнинг намунавий Устави // <https://lex.uz/docs/4945840>.

2. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Т.: ТДПУ ҳузуридаги ПКҚТМО Тармоқ маркази, 2016. – 5-б.

3. Имомов М.П. Профессионал таълим муассасалари ўқувчиларининг касбий маданиятини компетенциявий ёндашув асосида ривожлантириш методикаси: п.ф.ф.д.(PhD). ... дис. – Т.: 2021. 187-б.

4. Образцова Т.И. Сущность, функции и принципы профессионального обучения // <https://uchportfolio.ru/articles/read/1027>.

5. Принципы профессионального обучения // [https://studref.com/472522/pedagogika/printsipy\\_professionalnogo\\_obucheniya](https://studref.com/472522/pedagogika/printsipy_professionalnogo_obucheniya).



## TARBIYACHI-PEDAGOGLARNING EMOTSIONAL KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

*Jovmirzaeva Nargiza Quvondiqovna*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi va nazariyasi" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*  
<https://orcid.org/0009-0003-8701-2548>

*Annottasiya: Hissiy kompetensiya – bu his-tuyg'ularning sifatini kishi ularni boshdan kechirayotgan paytda bilish qobiliyatidir. Hissiy kompetensiya muammosi yaqinda rivojlana boshladi va o'zining asosiy kompetensiyalari tufayli umuman inson salomatligini va ayniqsa o'qituvchi va tarbiyachining salomatligini saqlash va mustahkamlashga yordam beradi. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoqlarning emotsional kompetentsiyasini shakllantirish mexanizmlari, his-tuyg'ularni boshqarish, muloqot, bolalar bilan ishlashda emotsiyaning tarbiyachi-pedagoqlar faoliyatidagi o'rni tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, emotsiya, his-tuyg'u, malaka, shakllantirish, munosabat, yondashuv, muloqot, bolalar, ijobiy natija, samarali metodlar, texnologiya, tamoyil.*

## ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕДАГОГОВ

*Жовмирзаева Нагиза Кувондиқовна*

*Тошкентский международный университет Кимё, магистрант 2-курс по специальности «Методика и теория дошкольного образования»*

*Аннотация: Эмоциональная компетентность – это способность распознавать качество эмоций, когда человек их испытывает. Проблема эмоциональной компетентности в последнее время начала развиваться и благодаря своим базовым компетенциям помогает сохранить и укрепить здоровье человека в целом и здоровье учителей и воспитателей в частности. В данной статье анализируются механизмы формирования эмоциональной компетентности педагогов дошкольных образовательных организаций, управление эмоциями, общением, роль эмоций в работе педагогов-педагогов по работе с детьми.*

*Ключевые слова: организация дошкольного образования, эмоция, чувство, компетентность, формирование, отношение, подход, общение, дети, положительный результат, эффективные методы, технология, принцип.*

## EMOTIONAL COMPETENCE OF TEACHERS

*Jovmirzaeva Nargiza Kuvondikovna*

*Kimyo International University in Tashkent, 2nd level master's student in the specialty «Methodology and theory of preschool education»*

*Abstract: Emotional competence is the ability to recognize the quality of emotions when a person experiences them. The problem of emotional competence has recently begun to develop and, thanks to its basic competencies, helps to maintain and strengthen human health in general and the health of teachers and educators in particular. This article analyzes the mechanisms of developing emotional competence of teachers in preschool educational organizations, managing emotions, communication, the role of emotions in the work of teachers working with children.*

*Keywords: organization of preschool education, emotion, feeling, competence, formation, attitude, approach, communication, children, positive result, effective methods, technology, principle.*

Kirish. His-tuyg'ular dunyosi inson hayotining barcha jabhalariga – boshqa odamlar bilan munosabatlarga, faoliyatga, muloqot va idrokga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachining kasbiy faoliyati yuqori hissiy intensivlik va stressga moyillik bilan ajralib turadi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, his-tuyg'ularni samarasiz boshqarish nevrozlarga, odamning aqliy, somatik, jismoniy sog'lig'ining buzilishiga va natijada faoliyat va hayot sifatining pasayishiga olib keladi. YU.M.Orlov, A.B.Xolmogorova, N.G.Garanyan, V.I. Petrushin, G.I. Mishin kabi olimlarning fikriga ko'ra, zamonaviy pedagog hissiy kompetentsiyasi shakllangan bo'lishi zarur.

Asosiy qism. Pedagog-tarbiyachilarning hissiy kompetentsiyasini rivojlantirish bir qator omillar evaziga shakllanadi. Xususan, birinchi omil – bu o'z his-tuyg'ularini va hissiyolarini tan olish va tushunishdir. Emotsional ongning eng yuqori darajasi insonning nafaqat his-tuyg'ularni idrok etishi va tasvirlashi, balki uning paydo bo'lish sabablarini ham tushunishi bilan tavsiflanadi. Emotsional kompetentsiyaga ega bo'lgan pedagoglar stressli vaziyatlarni boshqalarga qaraganda osonroq yengishadi va tezda hissiy muvozanatni tiklaydilar.

Ikkinchi qobiliyat – his-tuyg'ularni boshqarish. Boshqalar bilan hamkorlikda ishlaydigan kishi (bu to'g'ridan-to'g'ri tarbiyachiga tegishli) o'z ehtiyojlari va atrofdagilar bilan til topishga majbur bo'ladi. Ya'ni hamkasblar, ota-onalar va bolalar bilan ham ta'limiy, ham hamkorlik vaziyati o'zaro bir-biriga hissiy ta'sir ko'rsatishga asoslanadi. Biroq, bu jarayonda pedagogning his-tuyg'ularni bostirishiga to'g'ri keladi va bu psixologik muammolarga olib keladi. Shuning uchun his-tuyg'ularni bostirish va e'tiborsiz qoldirish o'rniga emotsionallikni boshqarish kompetentligi muhim sanaladi.

Uchinchi omil – bu boshqalarning his-tuyg'ularini tan olish va tushunish. Ushbu qobiliyatning yuqori darajasiga ega bo'lgan pedagog boshqalarning his-tuyg'ulari haqidagi signallarni «o'qishni» yaxshi biladi va nimani his qilayotganini anglash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday odamlar empatik hisoblanadi.

To'rtinchi omil – bu boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish. Boshqalarning his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyati yuqori darajadagi faoliyatdir. Tarbiyachi pedagog uchun bu kompetentsiya ayniqsa dolzarbdir. Tuyg'ularga ochiq, har bir holatda ehtiyotkorlik bilan ish tutish, nizoli vaziyatlarning paydo bo'lish sabablarini tushunish qobiliyati tarbiyachi-pedagogga professional faoliyatda muammolarni boshdan kechirmaslik imkonini beradi. Bu holatda tarbiyachi tomonidan bolalar va hamkasblarning his-tuyg'ulariga konstruktiv ta'sir ko'rsatishi hayajonlangan yoki g'azablangan insonni tinchlantirish, ularga o'z his-tuyg'ularini anglashga yordam berish, qiziqish uyg'otish va kayfiyatini ko'tarish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Emotsional kompetentsiyaning ushbu muhim xususiyatlarini amalda qo'llash uchun pedagog ijobiy his-tuyg'ularni asosiy va muhim omil deb hisoblaydi. Bunday munosabat tarbiyachiga mavjud pedagogik hamda psixologik kompetentsiyalardan muvaffaqiyatli foydalanishga yordam beradi.

Nazariya va amaliyot shuni ko'rsatadiki, hissiy jihatdan barkamol tarbiyachi pedagogik improvizatsiya va ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'ladi va bu omil pedagogni professional sifatida tavsiflaydi. O'zining professionalligi va mahoratida u o'ziga ishonch, hissiy sherik topadi. Ishonch va improvizatsiya pedagogik faoliyatdagi stressning oldini olishda eng samarali vosita hisoblanadi.

O'zining va boshqa odamlarning his-tuyg'ularidan xabardor bo'lgan malakali tarbiyachi-pedagog ularga qanday munosabatda bo'lishidan qat'i nazar, ularni ijobiy qabul qiladi va professional manba sifatida ko'radi. Yuqori darajadagi hissiy kompetentsiyaga ega bo'lgan tarbiyachilar o'zlarini, o'z qadriyatlarini, ehtiyojlarini yaxshi bilishadi va ularga muvofiq yashaydilar. Kasbiy faoliyatni amalga oshirish va munosabatlarni o'rnatish o'z-o'zidan muvofiq holatida sodir bo'ladi. Bunday pedagog-tarbiyachilar ochiqlikka asoslangan

munosabatlarni quradilar. Ular jamoada hamda guruh bolalari o'rtasida ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otishga va ulardagi eng yaxshi holatlarni ochib berishga qodir. Bunday pedagoglar ijobiy ta'sir qilishni ya'ni qo'llab-quvvatlash, ilhomlantirish, rivojlanish taktikasini tanlaydilar.

Pedagogik muloqot – tarbiyachi faoliyatining uzviy va qismidir. Shuning uchun hissiy kompetentsiya muhim ahamiyatga ega, bu hissiy kelishuvga, konstruktiv muloqotga yordam beradi va vaziyatdan, ular qanchalik noqulay bo'lishidan qat'i nazar ijobiy munosabatlarni saqlab qolishga imkon beradi. Bu o'z-o'zidan tarbiyachilar, ota-onalar, hamkasblar va ta'lim muassasasi rahbariyati bilan muloqotni uyg'unlashtirish shartidir.

Tarbiyachi hissiy kompetentsiyani mustaqil ravishda ham rivojlantirishi mumkin. Buning uchun hozirgi vaqtda keng tarqalgan texnikalarni qo'llash muhimdir: his-tuyg'ularni aniqlash; hissiyotlar manbasini aniqlash; reaksiyaning eng mos turini tanlay olish. Bunda his-tuyg'ular va hissiyotlarning ahamiyatini va ularning har bir inson hayotida qanday rol o'ynashini bilish kerak.

Ko'pgina tadqiqotchilar emotsional kompetentsiyani yaxshilash uchun «Tuyg'ular kundaligi»ni yuritish tavsiya etiladi (N. Kozlov) , unda quyidagi fikrlarni muntazam ravishda qayd etish kerak: hissiyotga sabab bo'lgan voqea, his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi, hissiyotning nomi yoki o'zini his qilish va xulq-atvorga nisbatan reaksiya.

Kundalik yuritish natijasida:

1. Inson o'zining emotsional holati haqidagi faktlarni bilib oladi.
2. Kundalik egasining o'ta emotsional holati ham ijobiy, ham barqarorroq bo'ladi.
3. Inson qanday hayotiy voqealar uning hissiy holatiga ta'sir ko'rsatayotganini aniq tushuna boshlaydi. Bu unga to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi.
4. Salbiy vaziyatlarga munosabat konstruktiv bo'ladi.

Tuyg'ularni boshqarishni o'rganish emotsional kompetentsiyaning muhim komponenti sifatida salbiy his-tuyg'ularni bartaraf etishga xizmat qiladi. Salbiy his-tuyg'u ta'siridagi pedagog har doim ham xotirjam bo'lmaydi va doimiy ravishda his-tuyg'ularni nazorat qila olmaydi. U o'zini yo'qotib qo'yishi va hatto atrofida qilargalarga ovozi ko'tarishi mumkin. Bunday vaziyatda tuyg'ularni boshqarish qobiliyati hissiy tajribalar energiyasidan konstruktiv, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil qilish va salbiy hissiy vaziyatlarni yengish uchun foydalanishga imkon beradi. Shu bilan birgalikda hissiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati yetakchilik qobiliyatidir. Haqiqiy pedagog butun bir guruh bolalarning his-tuyg'ularini boshqaradi, u jamoaviy his-tuyg'ularni to'g'ri yo'nalishga yo'naltiradi, do'stona muhit yaratadi va salbiy kayfiyatni mohirlik bilan bartaraf etadi. Umumiy talab ko'p jihatdan pedagog o'zining asosiy hissiy vazifasini qanchalik samarali bajarishiga bog'liq. Tarbiyachi bolalarda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otsa, ulardagi eng yaxshi tomonlarini yuzaga chiqaradi, bu esa muvaffaqiyatga hissa qo'shadi. Hissiy kompetentsiyani rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishish uchun istak va doimiy izlanish talab etiladi.

Natijada esa «ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish» ya'ni bolalarning hissiy rivojlanishi bo'yicha ishlarni tashkil etish samarali kechadi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy va hissiy intellektini rivojlantirishga ham erishiladi. Maktabgacha yoshdagi bola ta'sirchan, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishga ochiq, o'zini va boshqa odamlarni tushunishga intiladi. Aynan maktabgacha yoshda bola o'zgal xatti-harakatlarini, his-tuyg'ularini o'zlashtiradi, bu unga boshqa odamning tajribasini tushunishga yordam beradi, shuningdek, turli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqarishni o'rganadi.

Emotsionallik darajasi yuqori tarbiyachi bolalarga ko'rsatadigan ta'sir natijasida tarbiyalanuvchilarda quyidagi xususiyatlar shakllanadi:

- boshqa bolalarga hamdard bo'lish, atrofida qilargalarning kayfiyati qandayligini tushunish;
- boshqa bolalarni atrofida jamlash, o'yinchoqlarini baham ko'rish.

Buyuk frantsuz pedagogi Volter shunday degan edi: “Tuyg'ular – bu kema yelkanini tutib

turadigan shamol. U kemani harakatga keltirishi mumkin yoki uni cho'ktirishi mumkin". Shunga mos ravishda pedagogning emotsional kompetentsiyasiga nisbatan ham mazkur qiyoslashni qo'llash mumkin. Emotsional kompetentsiya hissiy intellekt bilan bog'liq va unga asoslanadi. Emotsional kompetentsiyani rivojlantirish uchun ma'lum darajadagi hissiy intellekt talab qilinadi.

Tarbiyachi pedagog hissiy kompetentsiyasining eng muhim ko'rsatkichlari hissiy barqarorlik, empatiya va hissiy moslashuvchanlikni rivojlantirishning yuqori darajasidir.

Emotsional kompetentlik bu – pedagogning salbiy omillarga dosh berish, hissiy qo'zg'alish holatini yengish va stressdan keyin tezda ruhiy muvozanat holatiga qaytish qobiliyati. Empatiya esa boshqalarning hissiy holatini aks ettirish va tushunish, boshqasiga hamdardlik, faol yordam berish xulq-atvorini o'z ichiga oladi.

Ushbu xususiyatlarga ega pedagog tarbiyalanuvchilarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bolalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan pedagoglarni afzal ko'rishlari isbotlangan:

1. Insoniy fazilatlar – mehribon, xushchaqchaq, mas'uliyatli.
2. Tashkiliy fazilatlar – adolatli, halol, boshqalarga hurmat ko'rsatadigan.
3. Uddaburonlik fazilatlar – faoliyatga undovchi, qiziqishlarni inobatga oluvchi.
4. Tashqi ko'rinishi – yaxshi kiyingan, yoqimli ovoz, muloyim qarashga ega. H i s s i y jihatdan barkamol pedagog ta'limiy improvizatsiya va ijodkorlik qobiliyatiga, har qanday faoliyatni qiziqarli qilish mahoratiga egaligi bilan ajralib turadi.

Emotsional kompetentli pedagog bolalarga quyidagicha ta'sir o'tkazadi: – O'z his-tuyg'ularini boshqarish va bolaning hissiy holatlarini to'g'ri aniqlash, unga hamdardlik ko'rsatish qobiliyati.

– Bolalarning salbiy his-tuyg'ularini (qo'rquv, hasad, injiqlik va h.k.) kamaytiradigan, shuningdek, ijobiy his-tuyg'ularni rag'batlantirish va saqlab qolishga yordam beradigan tegishli ta'sir strategiyalaridan foydalangan holda, bolalarning hissiy holatini baholash va uni boshqarish.

– Guruhda qulay hissiy muhitni yaratish.

Xulosa

Bolalar bilan birgalikdagi faoliyat jarayonida emotsional kompetentli pedagog quyidagi usullardan foydalanishini tadqiqotimiz davomida aniqladik:

- guruhda ijobiy hissiy muhit yaratish;
- bolalarga to'g'ri yondashuvni topish va ularning individual va psixologik-yosh xususiyatlarini bilish;
- bola bilan muloqot qilishda ko'z bilan verbal aloqa qilish zarurligini anglash;
- tashkilotchilik qobiliyatlari ko'nikma va malakalariga ega bo'lish; - “passiv” bolalar soni tobora kamayib borishini ta'minlash;
- bolalarning birgalikdagi faoliyatini rag'batlantirish;
- bolalarga o'z his-tuyg'ularini nomlash va ular bilan muhokama qilish;
- hissiy stress holatida bolalarning e'tiborini neytral faoliyatga (rasm chizish, ochiq o'yin) o'tkazish. Bularning barchasi bolalarning hissiy intellektini rivojlanishiga olib keladi. Yuqoridagi ta'kidlangan emotsional kompetentlik talablarigarioya qilish tarbiyachi pedagogning psixologik malaka darajasini oshirishga yordam beradi. Agar tarbiyachi emotsional yetuk bo'lsa, psixologik kompetensiyasi yetarlicha tez shakllanadi va uning kasbiy faoliyatida bolalar bilan til topishi osonroq bo'ladi. Shuningdek, emotsional kompetentsiyani rivojlantirish ijodiy individuallikni rivojlantirish, pedagogik yangiliklarga sezgirlikni shakllantirish, o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashishni ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сергиенко Е. А., Ветрова И. И., Волочков А. А., Попов А. Ю. Адаптация теста



Дж. Мэйера, П. Сэловея и Д. Карузо «Эмоциональный интеллект» на русскоязычной выборке // Психологический журнал. 2010. Т. 31. № 1. С. 121–139.

2. Николая Козлова «Как относиться к себе и к людям», “ЭКСМО”, ISBN 978-5-699-48888-9, 2014.

3. Н.А.Рыбакова Эмоциональная компетентность педагога: сущностная характеристика / Н.А. Рыбакова // Педагогика. Вопросы теории и практики. 2019. С. 190-195.

4. М.В.Силантьева Наличие должного уровня эмоциональной компетентности – один из важнейших факторов профессиональной успешности преподавателя высшей школы. Актуальные проблемы социологии и управления: межвузовский сборник научных трудов. –Издательство: Санкт-Петербургский государственный экономический университет, 2017.

5. С.А.Артемяева Проблемы эмоциональной компетентности в системе подготовки педагогических кадров. Перспективы науки. - 2016.

6. Краткий психологический словарь: М.:Фенкс, 2010. С-110.

7. Е.К.Хакимова, дисс. автореферат на тему “Формирование эмоциональной компетентности у будущих педагогов-психологов”, Казань, 2018.

8. Т.Л.Шабанова, К.В.Шабанова. Модель исследования эмоциональной компетентности у студентов-педагогов Современные проблемы науки и образования. - 2015. №1.

## O'RTA YOSHDAGI 45-60 YOSHLI ERKAKLAR UCHUN JISMONIY TAYYORGARLIKNI HISOBGA OLGAN HOLDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI MASHQLAR JAMLANMASINI ISHLAB CHIQISH

*Karimov Faxriddin Xurramovich,*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Jismoniy madaniyat va sport faoliyati kafedrasini professori*

*Annotatsiya: Ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, erkaklarda birinchi jiddiy sog'liq muammolari balog'at yoshining birinchi davrida - 22 yoshdan 35 yoshgacha boshlanadi. Shu bilan birga, aynan shu yoshda odam motor funktsiyalarini o'rgatish qobiliyatini yuqori darajada ushlab turadi va salomatlik va hatto sport natijalariga erishish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. So'nggi yillarda shunga o'xshash tarkibdagi fitnes dasturlari samaradorligini asoslash muammolari bo'yicha katta hajmdagi materiallar to'plangan: kuch, aerobika, o'yin, gimnastika, suzish vositalaridan foydalanishga asoslangan, hatta yoga va boshqalar. Biroq, hozirgi bosqich, sog'liqni saqlash va konditsionerlik bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqishga kompleks yondashuv. Materiallar. Maqolada Fitness Territory fitnes klubi (Moskva) mijozlari bo'lgan 22-35 yoshdagi 35 nafar erkakning test va tekshiruv natijalari keltirilgan. Sinov materiallari e'tibor va mazmunni asoslash, shuningdek, balog'at yoshining birinchi davridagi erkaklar uchun har tomonlama jismoniy tayyorgarlik bo'yicha metodologiyani ishlab chiqish uchun ko'rsatmalar bo'lib xizmat qildi.*

*Kalit so'zlar: 50-60 yoshdagi erkaklar, sog'lomlashtirish, jismoniy mashqlar, funktsional ko'rsatkichlar, yurak-qon tomir tizimi.*

Mamlakatimiz taraqqiyotida bugungi kunda sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish muhim o'rin tutadi [2]. Ko'pgina ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kasalliklarining aksariyati tana normal va patologik chegarada bo'lgan holatda boshlanadi [5, 7]. Mamlakatimizning kattalar aholisining 70 foizigacha ushbu salomatlik uchun xavfli holatda bo'lib, erkaklarda birinchi jiddiy sog'liq muammolari balog'at yoshining birinchi davrida - 22 yoshdan 35 yoshgacha boshlanadi [3]. Shu bilan birga, aynan shu yoshda odam motor funktsiyalarini o'rgatish qobiliyatini yuqori darajada ushlab turadi va salomatlik va hatto sport natijalariga erishish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi [1, 4].

Mashq qilishning xilma-xilligi juda kam baholangan vositadir. Aslida, mashqlar to'plami qanchalik katta bo'lsa, natijalar shunchalik yaxshi bo'ladi.

Yoshi bilan davrlashtirish ham tobora muhim ahamiyat kasb etadi. To'planish fazalaridan (mushaklarning o'sishi) intensivlashuv fazalariga (maksimal kuch) o'zgaruvchan yoki chiziqli ravishda o'tadigan blokli mashg'ulotlar - bu ajoyib g'oya.

Qadimgi mijozlar uchun to'planish va kuchayish o'rtasida 2: 1 yoki 3: 1 nisbatini saqlab qolish tavsiya etiladi, chunki ularning bo'g'inlari endi kuchayish protokollariga moslashtirilmaydi.

An'anaga ko'ra, kuchaytirish bosqichlari 1 dan 6 gacha takrorlanadi.

40 yoshdan oshganlar uchun ushbu bosqichlardan birini har 3-4 tsiklda, kamida 4-6 marta takrorlash tavsiya etiladi.

Jismoniy tayyorgarlik tushunchasi, ijtimoiy mehnat va sog'liqni saqlash tizimidagi barcha tadbirlar aholining sog'lom turmush tarzini yaratish, ularning mehnat qobiliyatini oshirish hamda sog'lom yashashga qaratilgan. Inson salomatligi tufayli uzoq yillar sog'lom bo'lib, ish faoliyatini saqlab qola bilishi muhim. Shu sababdan kishilarning sog'lig'ini mustahkamlash, mehnat qobiliyatlarini takomillashtirish va mehnat samaradorligini oshirish yo'lida jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida qonun va qonun osti xujjatlar «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» Qonunning qabul qilinishi (

14.01.1992.-26.05.2000.-04.09.2015.) 2017-yil 3-iyun «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror, 2018-yil 5-mart «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni; 2019-yil 29-yanvar «O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholini jismoniy ommaviy sportga jalb etish to'g'risida» 2019-yil 13-fevral «2019-2023-yillar davomida «O'zbekistonda Jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», «Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» (30.10.2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlar farmonlarni qabul qilinishi aholining salomatligini yaxshilash, o'quvchi-yoshlar va talabalarning jismoniy barkamolligini ta'minlash, mehnatkash ishchi-xizmatchi va ziyolilarni jismoniy tarbiya va sport

bilan muntazam shug'ullanishga jalb etishda muhimdir. Mamlakatda aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishning asosiy maqsadi insonlarning doimo sog'lom bo'lishi, bolalikdan jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga odatlantirish, yoshlarni sportga safarbar etish, sportchilarning jahon sport maydonlarida ishtirok etishi hamda yutuqlarni qo'lga kiritib, O'zbekiston shuhratini jahonda yoyishiga qaratilgan. Ikkinchi tomondan esa hozirgi davr texnika taraqqiyoti natijasida ko'pchilikning o'tirib ishlashi, ijod qilishi kam harakat qilishiga olib kelmoqda. Bu, o'z navbatida, qon aylanish tizimining o'ta susayishi, ya'ni gipodinamiya kasalligiga chalinishiga sabab bo'lmoqda. Uchinchidan esa, tamaki chekish, turli giyohlar va spirtli ichimliklarni «tatib ko'rish», turli xil yuqumli kasalliklar (gripp turlari) hamda shunga o'xshash turli salbiy holat orqali kasalga chalinish ko'paymoqda. To'rtinchidan, maktabgacha tarbiya muassasalari barcha turdagi o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslarining saviyasi pastligi, ommaviy sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya - sport tadbirlariga yoshlarni ommaviy ravishda jalb etishining qoniqarsizligi, 60-70 foiz o'quvchi-yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya dasturi talablari hamda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari normativlarini o'z vaqtida bajara ol-masligida. Yuqorida ta'kidlangan eng muhim muammolar negiziga jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish hamda jismoniy tayyorgarlik kabi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarning chuqur singib ketmaganligi namoyon bo'lmoqda.

#### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Jismoniy tayyorgarlik tushunchasi shundan iboratki, bu har bir inson, ayniqsa, aqliy va jismoniy soha ishchi-xizmatchilari va o'quvchi-yoshlarning har qanday mehnatga yaroqliligi (qobiliyati), jismonan baquvvat, chiniqqan bo'lishidagi faol harakatlardir. Bunday amaliy faoliyatlar faqat jismoniy mehnat va jismoniy mashqlarni bajarish yo'li bilan vujudga keladi va mustahkamlanadi. Xalq orasida «Sog'liq pulga topilmaydi» degan gap bor, bu haqiqatdir. Kasallikka chalingan kishilar buni yaxshi idrok etishadi. Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino sog'liqni saqlash va uni mustahkamlashda jismoniy mashqlarni (badantarbiya) har qanday doridan ustun qo'yadi. Inson salomatligi haqida mulohaza yuritilsa, albatta, uni doimo saqlash, imkoniyat darajasida rivojlantirish lozim bo'ladi. Bunda jismoniy tayyorgarlik eng ustuvor tadbir bo'lmog'i zarur. Jismoniy tayyorgarlikda shug'ullanuvchilarning (tarbiyalanuvchilar), eng avvalo, yoshi, jinsi va jismoniy holati (kasal yoki sog') e'tiborga olinadi. Shu asosda beriladigan (bajariladigan) mashqlarning turkumi, miqdori va bajarish usullari belgilanadi. Ta'kidlanganidek, shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va jismoniy holatlariga qarab o'tkaziladigan mashg'ulotlarning ko'lami g'oyat keng. Ularning har biri alohida mavzudir. Shu sababdan jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus xususiyatlarigagina to'xtalamiz.

#### TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Jismoniy tayyorgarlik: Jismoniy tayyorgarlikning asosiy maqsadi - o'quvchi (shug'ullanuvchi)ni har tomonlama rivojlantirish, uning funksional imkoniyatlarini oshirish va salomatligini mustahkamlashdir. O'yinchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantiruvchi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

> organizmning funksional tayyorgarlik darajasini oshirish va uning imkoniyatlarini

kengaytirish (funksional tayyorgarlik);

> mashg'ulot faoliyati samaradorligini ta'minlab beradigan jismoniy sifatlar: kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik bilan bevosita bog'liq jismoniy qobiliyatlar: sakrash, yugurish va uloqtirish harakatlarining quvvati, samaradorligini oshirish.

Jismoniy tayyorgarlik, asosan, quyidagilarga bo'linadi:

> Umumiy jismoniy tayyorgarlik.

> Maxsus jismoniy tayyorgarlik.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) - jismonan, salomatlikni yaxshilashning asosiy vositasi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik, asosan, quyidagi vazifalarni yechishga imkon beradi:

> Inson organizmining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, chidamlilik, kuch, tezlik, egiluvchanlik, chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish, shu sifatlarni rivojlantirish asosida o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun zarur bo'lgan umumiy xarakterdagi funksional bazani yaratish.

> Salomatlikni mustahkamlash, tashqi muhitning zararli omillariga qarshi ta'sir ko'rsatish.

> O'quv va mehnat faoliyati jarayonida ishlash qobiliyati pasaygan davrda faol hordiq chiqarish uchun sharoit yaratish.

> Qo'shimcha tug'dirilgan qiyinchiliklarni yengish jarayonida iroda kuchini mustahkamlash. Jismonan yetuklik o'quvchining jismoniy rivojlanishi, uning harakat bilim va ko'nikmalarining barcha ijodiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga imkon beruvchi darajasidir. Shuni e'tiborga olish kerakki, insonning jismoniy sifatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mashqlarni muayyan bir sifatni rivojlantirish uchun qo'llash noto'g'ri. Ayni paytda jismoniy mashqlar o'quvchining jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari o'rtasida to'sinlarda, brusslarda, turli xil gantellar bilan bajariladigan mashqlar jismoniy rivojlantirish uchun samaraliroqdir. Bu mashqlar tana uyg'unligini ta'minlaydi. Mushaklar massasi, chiroyli qomatni yaratish, tashqi nafas olishni yaxshilashga yo'naltirilgan jismoniy mashqlar majmuasi yoshlar salomatligini asraydi va mustahkamlaydi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash uchun kuch imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar sonini ko'paytirish zarur. Masalan, ko'krak qafasi aylanisini oshirish uchun bajarishda tortilish, aylanib ko'tarilish, osilgan quyi oyoqlarni to'singa tekkizish va h.k. mashqlar bajariladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik o'quvchining jismoniy tayyorgarligini oshirishda amaliy mashg'ulotlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bunda jismoniy sifatlar - kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayon bo'lishi zarur. Umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari yuqori darajada bo'lishi o'quv jarayonlarning samaradorligi ortishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik turli vositalar to'plamini o'z ichiga oladi. Jumladan, sport anjomlari va ular bilan bajariladigan mashqlar hamda boshqa sport turlari (akrobatika, yengil atletika, sport o'yinlari, suzish va h.k.) dan olingan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar asosida bajarilishidir. Umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi shundan iboratki, o'quvchilarning har qanday mehnatga jismonan yaroqliligi (sifatlarning rivojlanganligi) bo'lishida faol harakatlardir. Bunday amaliy faoliyatlar faqat jismoniy mashqlarni bajarish yo'li bilan vujudga keladi va shu orqali mustahkamlanadi. Jismoniy sifatlarga ega bo'lish uchun esa har doim jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanib borish zarur. O'quvchilar jismoniy sifatlarga ega bo'lishlari uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya (haftada 2 soat) darslari butun hafta davomida saqlashini ta'minlay olmaydi. Shu boisdan o'quvchilarga jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun esa har kuni ertalab va kechki paytda jismoniy tarbiya bilan astoydil shug'ullanish zarur ekanligini o'rgatishimiz kerak. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligining asosiy yo'li darsdan tashqari (haftada 2-3 marta) olib boriladigan sport to'garaklariga jalb etish hisoblanadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mustaqil mashg'ulot



Umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mustaqil shug'ullanishda (UJT) jismoniy ish qobiliyatini oshirish, jismoniy rivojlanishini yaxshilash uchun foydalaniladi. Mashg'ulotga jismoniy sifatlarni rivojlantirish (kuch, tezlik, egiluvchanlik, epchilik, chidamlilik), shuningdek almashish jarayonlarini yaxshilash, qon aylanish, nafas olish sistemalarining imkoniyatlarini oshirishga oid mashqlar kiritiladi. Kuchni rivojlantirish uchun mashqni ikki turidan foydalaniladi.

Birinchi turi

> bu o'zining shaxsiy og'irligini cho'zish bilan bajariladigan mashq, masalan, baland turnikda tortilish, qo'llarga tayanib yotgan holda bukish va yozish, cho'qqayib o'tirish, sakrash.

Ikkinchi turi

> har xil mushak guruhlarini rivojlantirishda qo'shimcha cho'zilish bilan bajariladigan mashqlar, masalan, cho'qqayib o'tirish, engashish va yelkada shtangani ko'tarish bilan burilishlar. Tezlikni rivojlantirish uchun imkoni boricha maksimal tezlik bilan bajariladigan mashqlar qo'llaniladi, masalan, qisqa masofaga yugurish, tez me'yorda koptokni otish va olib kelish mashqlari bo'ladi. Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun bo'g'imlardagi har xil harakatlar, mushak va bog'lamlar cho'zishni talab qiladigan mashqlardan foydalaniladi; oldinga chuqurroq engashish, qo'l va oyoqlar bilan keng harakat qilish, siltash, osilish va x.k. Odamda chidamlilikni rivojlantirish uchun unga katta tezlikda bo'lmagan, biroq uzoq vaqt davomida bajariladigan mashqlar qo'llaniladi, masalan, bir me'yorda yugurish yoki 2-3 km.ga kross hamda chang'ida harakatlanish bo'lishi mumkin. Epchilik sifatini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar qoida bo'yicha yuqorida qayd qilingan sifatlarni nomoyon qilishni talab qiladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik: Maxsus jismoniy tayyorgarlik tarixi.

Hozirgi davrdan uch ming yil avval yashagan zardushtiylar (hozirgi Xorazm vohasi va uning atroflari) hayoti haqida «Avesto» (Zardushtiylar qomusi) kitobida yozilishicha, bolalarni ma'naviy yuksak darajada mehnat qilish, jismonan chiniqtirish uchun maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari bilan shug'ullantirib borishgan. Yana shu kabi misollar «Alpomish» dostoni va «To'maris afsonasi»da o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, harbiy jasorat ko'rsatish kabi maxsus tayyorgarlik jarayonlari buyuk sarkarda Amir Temur va uning sulolalari (Mirzo Ulug'bek, Bobur va h.k.) hayotida amaliy jihatdan o'z mazmuniga ega bo'lgan. Umuman olganda, jangovarlik, qahramonlik, kasb-hunar va oriyat yo'lida maxsus xizmatlar, faoliyatlar cheksiz ko'p va keng bo'lganligi haqida tarixiy manbalar, badiiy asarlar, tasvirlarda ularni uchratish mumkin.

Maxsus jismoniy tayyorgarlikning afzalliklari

MJT jismoniy sifatlarni tutash holda inson tanasining ma'lum bir qismi (qo'llar, oyoqlar, bel va h.k.) jismonan mustahkamlash va rivojlantirishga qaratiladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari MJT mashqlari jarayonlari quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir:

- > Tez yugurish (60, 100 t.).
- > Yugurib kelib balandlikka, uzunlikka sakrash.
- > To'siqlardan sakrab o'tish.
- > To'pni uzoqqa va mo'ljalga uloqtirish.
- > Turnikda tortilish.
- > Kurashni o'rgatishda akrobatika mashqlarini bajarish;
- > Sport o'yinlarining elementlarini bajarish.

Maxsus jismoniy tayyorgarliklarning ijobiy ta'sirini aniqlashda berilgan topshiriq va vazifalarning bajarilishi orqali kuzatiladi. Ko'rsatkichlar va natijalar ijobiy, o'sish darajalari yaxshi bo'lganda ularga qo'shimcha mashqlar vazifa qilib berilishi mumkin. O'quvchilar dars mashg'ulotlarida egallagan malakalarini doimo takomillashtirib borishlari, keyingi jarayonlarda bundan maqsadli foydalanishga va yuqorida ta'kidlangan jismoniy sifatlarni (tezlik, chaqqonlik,

epchillik, kuchlilik, chidamlilik), qo'llaniladigan usullarni mukammallashtirishga yo'l ochib beradi.

#### Maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish

O'quvchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlik, asosan, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiruvchi mashqlardan iborat bo'lib, mushak va bo'g'inlarni qizitishga hamda cho'ziluvchanligini orttirishga yo'naltirilgan mashqlarga egadir. Bunda o'quvchining harakatlanish sifatlarini mashg'ulot faoliyati xususiyatlari tomonidan qo'yiladigan talablarga qat'iy muvofiq holda rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. O'quvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi, asosan, kurash gilami ustida o'tkazilishi va eng muhim harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi uchun turli murakkabliklardan iborat mashqlar qo'llaniladi. Bunday murakkablashtirilgan mashqlar o'quvchi organizmiga bo'lgan ta'sirini kuchaytiradi. Maxsus jismoniy tayyorgarliklarning ijobiy ta'siri, topshiriqlar va vazifalarning bajarilishini o'qituvchilar sinov-tajribalar orqali kuzatadi. Ko'rsatkichlar va natijalar ijobiy, o'sish darajalari yaxshi bo'lganda ularga qo'shimcha mashqlar vazifa qilib berilishi mumkin. O'quvchi-yoshlar va talabalar bilan maxsus ishlash jarayonlari ularni sportga jalb etish va jamoalar tuzishga bevosita yordam beradi. O'quvchi-yoshlar va talabalar o'quv va sport mashg'ulotlari hamda musobaqalarda egallagan malakalarini doimo takomillashtirib borishlari, keyingi ish jarayonlarida bundan maqsadli foydalanishlari lozim. Yuqorida ta'kidlangan jismoniy tarbiya vositalari qo'llaniladigan usullar jismoniy tayyorgarlikka asos bo'la oladi. Ya'ni tezlik, chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarning ilk bor shakllanishi va ularni mukammallashtirishga nazariy va amaliy jihatdan yo'l ochib beradi. XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, jismoniy tayyorgarlik jarayonida, jismoniy va funksional tayyorgarlikning boshqa sohalaridagidek maqsadga yo'naltirilgan faoliyat orqali rejalashtirilgan natijaga har doim ham erishib bo'lmaydi. Bu jarayonida erishiladigan natija yosh shug'ullanuvchi yoki jismoniy madaniyat sohibining mashg'ulot jarayoni uchun rejalashtirilgan jismoniy mashqlar va ularni shug'ullanuvchi organizmiga ta'siri natijasi bilan uzviy bog'liqligini ham nazariy, ham amaliy bilishning o'ziga xos ahamiyati katta. Shuning uchun soha mutaxassisi oldindan uzoqni ko'ra biluvchi, bashorat qila oluvchi, vazifani aniq belgilash va hal qilishga oid puxta bilimlarga ega, o'qimishli, o'z ishini biladigan, sevadigan, ta'limning innovatsion texnologiyalaridan xabardor, qadriyatlarimizni shug'ullanuvchi ongiga singdira oladigan bo'lishi va ularni tayyorlash talabi qo'yilmoqda. Albatta, bu soha mutaxassisini tayyorlaydigan, takomillashgan jismoniy tarbiya tizimi faoliyatiga bog'liq.

#### Adabiyotlar:

1. Юнусова Ф.Ю. Теория и методика физической воспитания. Учебное пособие. Ташкент. УзГосУФК. 2007 г.
2. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari -Toshkent., O'quv qo'llanma O'zDJTI, 2005-yil .
3. Mahkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent., darslik «Iqtisod - moliya» 2008-yil .
4. Матвеев Л.Р. Теория и методика физической воспитания. Учебник. Москва «Физическая культура и спорт» 2005 г.
5. David C. Watt Sports management and administration © 1998 David C. Wat
6. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. o'quv qo'llanma, Toshkent., O'z DJTI, 2005-yil

## **BOSHLANG'ICH TAYORGARLIK GURUHIDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK VOSITALARINI ME'YORLASH ORQALI TOR IXTISOSLIKKA YO'NALTIRISH**

*Kurbanov SH.N.*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Xalqaro kurash instituti, O'zbekiston, Chirchiq sh.*

*Annotatsiya. Kuch va kuch chidamliligi, tezkor—kuch va tezkor—kuch chidamliligi, tezkor sifatлари boshlang'ich tayorgarlik guruhidagi kurashchilarda yetarli darajada rivojlanmaganligi ma'lum bo'ldi.*

*Kallit so'z: tayorgarlik, vositalar, texnik harakat, meyorlash, yugurish, tortinish.*

## **ОРИЕНТАЦИЯ НА УЗКУЮ СПЕЦИАЛИЗАЦИЮ ЧЕРЕЗ НОРМИРОВАНИЕ СРЕДСТВ ОБЩЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В МЛАДШЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЕ**

*Курбанов.Ш.Н.*

*Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, Международный институт Кураш*

*Аннотация. Оказалось, что сила и силовая выносливость, быстрота—сила и быстрота—выносливость, скоростные качества недостаточно развиты у борцов в группе начальной подготовки.*

*Ключевое слово: подготовка, инструменты, техническое действие, ориентирование, бег, подтягивание.*

## **ORIENTATION TO A NARROW SPECIALIZATION BY NORMALIZING THE MEANS OF GENERAL PHYSICAL TRAINING IN THE INITIAL TRAINING GROUP**

*Kurbanov.SH.N.*

*Uzbek State University of Physical Education and Sport, International Kurash Institute, Uzbekistan, Chirchiq*

*Anotation. It turned out that strength and strength endurance, fast—strength and fast—strength endurance, fast qualities were not sufficiently developed in the wrestlers of the initial training group.*

*Keyword: skill, tools, technical movement, meowing, running, reluctance*

*Dolzarbliigi. Keyingi yillarda mamlakatimizda mardlik, bag'rikenglik, olijanoblik va halollikning timsoli sifatida e'zozlanib kelingan, o'zbek xalqining tarixiy merosi Kurash milliy sport turini yanada rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Takidlash joizki, sharqona yakkama-yakka kurash turlarida, ayniqsa, kurashda uning nozik jihatlarni payqash muhimdir. Undagi usullar xar qanday muxlisga zavq shavq bag'ishlaydi. Muhimi bu usullar ikki qo'lga ham bog'liq kurashchilar tomonidan amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarni odamning fiziologik va psixologik shaxsiy xoxishini va maqsadini, yashash sharoitini xisobga olgan xolda o'tqazish kerak. Faqat shundagina muvaffaqiyatga erishish mumkin. Xamda asosiy ijodiy fikrlash shu yo'nalishda ishlatish kerak chunki u kurash masalasidagi yangi ma'lumotlarni tartibga soladi, taniqli kurashchilar tajribasini qo'llaydi. Kurashda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik yordamida texnik xarakatlarni takomillashtirish uslubiyati unchalik yaxshi rivojlanmaganligi, sportchini texnik-taktik imkoniyatlarini to'la sarf qilishga imkon bermaydi.*

*Tadqiqot maqsadi. Boshlang'ich tayorgarlik guruhida kurashchilarning umumiy*

tayyorgarlik vositalarini meyorlash .

Tadqiqot vazifalari: Kurashchilarda mashg‘ulot yuklamalari davomida texnik xarakatlarni me‘yorini aniqlash;

Kurashchilarda jismoni sifatlarni rivojlantirishni nazorat va tahlil qilish;

Umumiy tayyorgarlik yordamida texnik xarakatlarni o‘rgatish orqali to‘g‘ri tashkil qilingan mashg‘ulot jarayoni samarali usullarini qo‘llash.

1.	Turnikda va burusyada ishlash.	
2.	Turli og‘irlikdagi gantel va shtangalarda ishlash.	
3.	Turli og‘irlikdagi kuvaldalar bilan ishlash.	
4.	Xar-xil xolatlarda arqonga chiqib tushishlar.	
5.	Turli masofalarga yugrish 30,60,100,mokismon, kross.	
6.	Turli usullarda sakrashlar.	+
7.	Turli xarakatli o‘ynlar futbol, basketbol, regbi.	

Tadqiqotda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida shug‘illanuvchi kurashchi o‘g‘il bolalar biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dastur bo‘yicha qatnashdilar. Pedagogik tajribagacha anketa so‘rovnoma o‘tkazilib, unda ko‘plab murabbiylardan boshlang‘ich tayyorgarligi bosqichidagi mashg‘ulot vositalari tanlab olindi.

2-jadval

T/r	T Testlar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		T T/O	T T/K	FAR Q	%	T/ O	T T/K	FAR Q	%
1.	30-m.ga yugurish	4,9	4,6	0.3	6.5	5,0	4,8	0.2	4.1
2.	Turnikda osilgan olda 90 <sup>0</sup> burchak xosil qilish	15	20	5	25	15	16	1	6.2
3.	Turnikda tortinsh	13	18	5	27.7	13	14	1	7.1
4.	3x10 moksimon yugurish	7,1	6,8	0.3	44	7,1	7,0	0.1	1.4
5.	1000m.ga yugurish	4,2	3,9	0.3	76	4,2	4,1	0.1	2.4



Umumiy jismoniy tayyorgarlik natijalari.

Tajribamiz so'ngida umumiy tayyorgarlik bo'yicha tajriba guruhida tadqiqot boshida 30-metirga yugirish 4.9 tashkil qilgan bo'lsa tadqiqot oxrida 4.6 tashkil qildi. Nazorat guruhi esa tadqiqotdan oldin 5.0 tashkil qilgan bo'lsa tadqiqot so'ngida 4.8 tashkil etdi. Turnikda osilgan holda 900 burchak xosil qilish tadqiqot guruhi tadqiqot boshida 15 sek tadqiqot oxrida 20 sekga o'sdi. Nzorot guruh esa boshida 15 sekundni tashkil qilgan bo'lsa tadqiqot so'ngida 16sekundni tashkil qilgan. Turnikda tortinish tadqiqot guruhi tadqiqot boshida 13 ta tadqiqot oxrida 18 ta tortindi. Nzorot guruh esa tadqiqot boshida 13 ta tashkil qilgan bo'lsa tadqiqot so'ngida 14 ta tortinishni tashkil qilgan. 3x10 moksimon yugurish tadqiqot guruhi tadqiqot boshida 7.1 sekund tadqiqot oxrida 6.8 sekundga o'sdi. Nzorot guruh esa tadqiqot boshida 7.1sekundni tashkil qilgan bo'lsa tadqiqot so'ngida 7.0 sekundni tashkil qilgan. 1000m.ga yugurish tadqiqot guruhi tadqiqot boshida 4.2 daqiqa tadqiqot oxrida 3.9 daqiqaga o'sdi. Nazorat guruh esa tadqiqot boshida 4.2 daqiqani tashkil qilgan bo'lsa tadqiqot so'ngida 4.1daqiqani tashkil qilgan.

#### XULOSA

Adabiyotlar sharxidan yana bir narsa ma'lum bo'ldiki, kurash bo'yicha mavzu doirasida yoki o'nga yaqin bo'lgan ilmiy ma'lumotlar ham to'la—to'kis va atroflicha o'z ifodasini topmagan.

Jismoniy sifatlarni rivojlanganlik darajasini ifodalovchi test mashqlari natijalariga ko'ra nazorat va tadqiqot guruhlarida tadqiqot boshida kuzatilgan ko'rsatkichlar bir—biridan deyarli farq qilmadi. Kuch va kuch chidamliligi, tezkor—kuch va tezkor—kuch chidamliligi, tezkor sifatlari boshlang'ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarda yetarli darajada rivojlanmaganligi ma'lum bo'ldi.

Yana shu ma'lum bo'ldiki, nazorat va tadqiqot guruhlarida yetarli darajada jismoniy tayyorgarlikga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

Testlar bo'yicha ma'lum bo'ldiki, o'quvchi yoshlar, ya'ni nazorat guruhi to'la to'kis sport formasida emasligi aniqlandi. Tadqiqot guruhining esa, sport formasi yuqori ekani isbotlandi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdiev A.N Borba organizatsiya vostonovitelnogotrenirovochnogo protsessa v pedsorevnovatelnom etape.- Monografiya, -T, 2000,

2. Abdullaev Sh.A. Yosh kurashchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari .O'quv uslubiy qo'llanma -2012y.

3.Kerimov F.A.. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent-2004 yil.

4. Tastanov N.A. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2015 y.

5.Taymurodov A.R. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati, T: 2024.

6. Taymuratov A.R., Shukurov.M.N., Rasulov.Q.Q – Sport pedagogik mahoratini oshirish (Kurash usullarini o'rgatish metodikasi). T: 2024.

## **BO‘LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA REJISSURADAGI IJODIY USLUBLAR VA ULARNING SPETSIFIKASI**

*Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich  
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti dotsenti,  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda rejissuradagi ijodiy uslublar va ularning spetsifikasi tadqiq qilinib, har bir ijodiy uslubning bo‘lajak rejissyorlarni tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida rejissyorlik san‘ati klassifikatori ishlab chiqilgan.*

*Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, san‘at ta‘limi, rejissyor, aktyor, teatr, san‘at, ijodiy uslublar.*

## **ТВОРЧЕСКИЕ СТИЛИ В РЕЖИССУРЫ И ИХ ОСОБЕННОСТИ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ РЕЖИССЁРОВ**

*Маматкасимов Джахангир Абиркулович  
доцент Государственного института искусства и культуры Узбекистана,  
доктор философии в области педагогических наук (PhD)*

*Аннотация: В данной статье изучаются творческие стили режиссуры и их специфика в развитии профессиональной компетентности будущих режиссёров, а также подчеркивается значение каждого творческого стиля в подготовке будущих режиссёров. В результате исследования была разработана классификация режиссёрского искусства.*

*Ключевые слова: профессиональная компетентность, художественное образование, режиссёр, актёр, театр, искусство, творческие методы.*

## **CREATIVE STYLES IN DIRECTING AND THEIR SPECIFICATIONS IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE DIRECTORS**

*Mamatkasimov Jahangir Abirkulovich  
Associate Professor of Uzbekistan State Institute of arts and culture  
Doctor of Philosophy (PhD) in the field of Pedagogical sciences*

*Abstract: In this article, the creative styles of directing and their specifics in the development of professional competence of future directors are studied, and the importance of each creative style in the training of future directors is highlighted. As a result of the research, a classification of directing art was developed.*

*Key words: professional competence, art education, director, actor, theater, art, creative methods.*

*Kirish. Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda rejissuradagi ijodiy uslublar va professional rejissuraning tarixiy asoslarini o‘rganish muhim jihatdir.*

*Rejissyorlik san‘ati kasb sifatida XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida shakllanadi. Shu davr ichida teatr tarixidan o‘rin olgan mashhur rejissyorlar: Germaniyada Kronek va Reyngard, Fransiyada Antuan, Angliyada Kreg, Rossiyada Lenskiy yetishib chiqadilar. Bu davrgacha rejissyor funksiyasiga “Badiiy-ijodiy ishlar emas, balki “ma‘muriy-texnik” xarakterdagi ishlarni bajarish yuklatilgan edi. Bunday xarakterdagi ish hozirgi rejissyor yordamchisining vazifalaridan iborat [1, 16].*

Rejissyorlik san'ati spektakl, kino, tomosha, audio va videovizual xarakterga ega media asarlar yaratishda san'atning turli janrlaridan keng foydalangan va badiiy sintez natijasida yagona yechimga ega badiiy asar yaratish jarayonidir.

Rejissyorlik san'ati (garchand u qadimda boshqacha nom bilan atalgan bo'lsada) alohida san'at turi sifatida uzoq tarixga ega. Antik teatrdan asosiy o'rinni xor egallagan. Ya'ni ommaning faoliyati, qo'shiq, raqs, turli texnik vositalarni harakatga keltirish ishlari xor boshlovchisi tomonidan boshqarilgan. Hozirgi tushunchada antik teatr tomoshalariga xor boshlovchisi rejissyorlik qilgan. Xor boshlovchisi tashkiliy ishlardan tashqari dramatik asarning g'oyasi, maqsadi, siyosiy-ijtimoiy talablarga javob berish-bermasligi borasida hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan. Shuningdek, aktyorlar bilan ishlash, mizansahnalarni o'ylab topish kabi vazifalar ham xor boshlovchisi – rejissyor zimmasida bo'lgan [3, 3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarixiy manbalar va san'atshunos tadqiqotchilarning [7; 4; 5; 10] qayd etishicha rejissyorlik san'ati insoniyatning ilk tomosha unsurlari, ya'ni ovchilik o'yinlari paydo bo'lgan davrdanoq vujudga kelgan. Bu jarayon arxeologik topilmalar, arxaiik san'at yodgorliklarida ibtidoiy odamning taqlidiy harakatlari, sezgi organlari, ong va talaffuzi taraqqiy etishi, ranglardan va ohanglardan ta'sirlanishi, o'z qo'l mehnati bilan yaratilgan narsalarda o'z tuyg'ulari va fikrlarini aks ettirishi, biron material vositasi bilan real dunyoni badiiy tasvirlashi kabilarda aks ettirilganligi qayd etilgan.

M.H.Qodirov o'z tadqiqotlarida "Rejissyor tushunchasi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib boshqaruvchi degan ma'noni bildiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, "rejissyor" so'zi O'zbekistonga XIX-asrning oxiri – XX-asr boshlarida kirib kelgan. Lekin bu bilan, qadimiy o'zbek xalq tomoshalari va bayramlarini tashkilotchisi, Ya'ni rejissyori bo'lmagan, deyish albatta xato bo'lur edi. O'zbek madaniyatiga "rejissyor" tushunchasi kirib kelgunga qadar "korfarmon" degan so'z ishlatilgan. "Korfarmon" so'zining ma'nosi ishga farmon beruvchi, ya'ni ishboshi demakdir. Darhaqiqat, "korfarmon – bu o'ziga xos ishboshi – administrator, rejissyor, muallim, o'yin boshidir" – deb qayd etadi [6, 45].

Milliy teatrni shakllantirish, tomoshabin ma'naviyatini boyitish, uni estetik jihatdan tarbiyalash ijtimoiy-siyosiy, tarixiy zaruriyatning namoyon bo'lishidir. Shu bilan birga har bir tarixiy davrning estetik tamoyillari quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) xalq va professional san'at tarixiy an'analarining o'zlashtirilishi hamda milliy dramaturgiyani shakllantirish; 2) spektakllarda hayotiylik, xalqchilik va milliylik hamda tasvirli (obrazli)lik, sahna tilining shakllanishi; 3) mumtoz asarlarning sahnaviy talqiniga va milliy rejissura maktabiga asos solinishi hamda rejissura va aktyorlar ijrosida milliy ifoda vositalarini qo'llash [9, 11].

Rejissyorlik san'ati drama teatrida pesa tanlash, uning g'oyasi, janr va badiiy xususiyatlari, tasvirlanayotgan davr, muallifning ijobiy uslubini o'rganishdan boshlanadi. Rejissyor asar talqini uchun sahna vositalarini izlaydi, har bir personaj xarakteri va umuman, spektakl talabiga monand aktyorlar tanlaydi, sahnaviy ritm va sur'atni belgilaydi, mizansahnalarni yaratadi, rassom va kompozitor bilan hamkorlikda asarni badiiy bezash prinsiplarini ishlab chiqadi [11, 291].

Rejissyorlik san'ati paydo bo'lib, havaskorlikdan professionallikka o'tish jarayonida turli ijodkorlar yetishib chiqdi va ular o'z faoliyati bilan rejissurada o'ziga xos ijodiy uslublarni tatbiq qildi.

Muhokama. Teatr san'ati reformatori K.S.Stanislavskiyning aktyorlik va rejissura san'ati professionallashuviga poydevor bo'lgan Stanislavskiy sistemasi va mazkur sistemaning yaratilishi, sistema spesifikasi, sistemani amalga oshirishda ijodiy jarayonlarni qamrab olgan monografik xarakterga ega bir qancha risola va esdaliklari bevosita bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda fundamental xususiyatga ega.

K.S.Stanislavskiy nafaqat jahon teatri rivoji va taraqqiy etishi hamda sahna san'atining o'ziga xos ijod sistemasini olib kirgan teatr reformatori, aktyor yoki rejissyor sifatida, balki, teatr san'ati, xususan aktyorlik va rejissyorlik san'ati sohasining yetuk nazariyotchisi, sahna

san'ati nazariyasi asoschilaridan biridir.

K.S.Stanislavskiy muallifligidagi o'quv adabiyotlarining ta'lim obekti teatr san'ati rejissurasiga qaratilgan bo'lib, tadqiqot predmeti sifatida sahna xatti-harakati va uning elementlari tadqiq etilgan.

K.S.Stanislavskiyning teatr nazariyasi aktyor va rejissyorlarni professional tarbiyalashning muhim kontentlari: san'at, xususan teatr san'ati spesifikasi, diletantizm, sahna san'ati va sahna hunari, xatti-harakat, "agarda", berilgan shart-sharoit, tasavvur, sahnaviy diqqat, haqiqat tuyg'usi va ishonch, hissiyotlarni eslab qolish qobiliyati, munosabat, artistning xususiyati, qobiliyati va istedodi, psixik hayot, kechinma san'ati, namoyish san'ati, plastika, gimnastika, ovoz va nutq, diksiya, tempo-ritm, xarakter, xarakterlilik, sahna etikasi, sahnaviy hissiyot, trening va mushtra, rol ustida ishlash, pesa va rol bilan tanishish, obraz ustida ishlash, maqsad, oliy maqsad, oliy-oliy maqsad, g'oya, yetakchi xatti-harakat, rol ustida ishlash rejasi, adabiy tahlil, rejissyorlik tahlili, aktyorlik shtampi, aktyorlik ampuasi, aktyorlik va rejissyorlik san'ati va boshqa shu kabi ijodiy jarayonlar tadqiqi asosida yaratilgan Stanislavskiy sistemasiga asoslanadi.

Stanislavskiy sistemasi aktyorlik va rejissyorlik san'ati bo'yicha kadrlar tayyorlash jarayonining ta'limiy va tarbiyaviy formulasi bo'lib, butunjahon sahna san'ati tomonidan birdek qabul qilingan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan ta'limotdir.

Teatr san'atida zaruriy islohotlarni ijodiy jarayonlar orqali amalga oshirib, rejissyor funksiyasini konkretlashtirishga erishgan V.E.Meyerxold teatr sahnasida o'ziga xos ijodiy yangilib yaratib "shartli teatr" uslubini tatbiq etadi va bu jarayonda "montaj" usulidan keng foydalanadi. Shuningdek, V.E.Meyerxold sahna konstrukturasi iborasini joriy etib, spektaklning har bir ko'rinishini konstruktiv qurilmalar yordamida ishlab chiqadi. Spektaklning ayrim sahnalarini to'g'ridan-to'g'ri tomosha zaliga ko'chirish orqali maydon tomoshalari shaklini qo'llaydi.

V.E.Meyerxoldning "biomehanika" uslubida aktyor raqqos singari yengil va akrobat singari nafis harakat qila olishi talab qilinib, artistizm esa sportchidek chaqqon harakatlari bilan boyitilgan.

V.E.Meyerxold o'zining mashhur "biomehanika" usulini amerikalik ruhshunos olim Djeymz ta'limotiga tayangan holda yaratgan. U tomoshabinga ta'sir qilishning turli yo'llarini Stanislavskiy prinsiplaridan farqliroq, ko'proq namoyish qilish, jestlar, mimikalar, pozalar orqali amalga oshirish borasida izlandi. Uning sahnalashtirgan asarlarida tomoshabin tomoshabin sifatida emas, balki bevosita shu asar ishtirokchisi sifatida gavdalangan. Buning uchun u mizanssenalarni mana shu vazifalarga mos qilib joylashtirardi. U improvizatsiyaga to'la erkinlik berardi. Buning uchun esa u pedagog-muallim sifatida asar mavzusi, g'oyasi, oliy maqsadi kabi tushunchalarni aktyorlarga singdirib, psixo-fizik holatlarini ana shu rolga mos qilib tayyorlar va repitisiya qilardi [8, 175].

V.E.Meyerxoldning ijodiy uslubi Stanislavskiy ta'limoti ta'sirida paydo bo'lgan bo'lsada, ikki ijodiy uslub o'rtasida bir-biriga keskinlik paydo bo'ladi.

Stanislavskiy sistemasining asosiy maqsadi aktyor ijodida "ichkidan tashqiga" usulini qo'llash bo'lsa, Meyerxold usulida uning aksi. Ya'ni aktyor sahnada "tashqidan ichkiga" usulida rol ijro etish kerak bo'lgan. Masalaga chuqurroq yondoshilsa bu ikki usul ham o'z o'rnida to'g'ri. Ikki ijodkor ham o'z usullarini oqlash maqsadida ijodiy faoliyatida sahnalashtirilgan spektakllarda qo'llay boshlaydi [8, 174].

V.E.Meyerxoldning ijodiy uslubidan zamonaviy teatr san'ati va ayniqsa maydon tomoshalari rejissurasida keng foydalanilmoqda.

K.S.Stanislavskiy sistemasini to'laqonli o'zlashtirgan holda, teatr san'atida o'ziga xos ijodiy burilishlar yaratgan rejissyor Ye.B.Vaxtangov sahnada aktyorlar uchun erkin improvizatsiyaga keng imkoniyatlar yaratib, Stanislavskiy sistemasining davomchisi sifatida sahnada hayotiy



haqiqat mohiyatini badiiylik, ramziylik, majoziylik sifatleri bilan ta'minlaydi.

Ye.B.Vaxtangov ijodini o'rganish jarayonida uchta yo'nalish – aktyorlik, rejissyorlik va pedagogik faoliyatiga katta e'tibor berish lozim. Bu uch yo'nalish bir-biri bilan birikib, uning estetikasini, ijodiy yo'nalish harakatini tashkil etadi [1, 46].

Ye.B.Vaxtangov ijodiy faoliyatida grotesk uslubidan keng foydalanib, “Hayratda qoldirish” sistemasiga asos soladi. Mazkur sistemaning asosini sahnada “yashash” va “ko'rsatib berish”ning badiiy yaxlitligi tashkil etib, spektaklni jonli, harakatchan, organik va shu bilan bir qatorda shartli, paradoksli, “tasavvur qilib bo'lmaydigan” darajada bo'rttirib, tomoshabinni hayratda qoldirishga harakat qilgan va mazkur jarayonni o'z spektakllari orqali isbotlagan.

Ye.B.Vaxtangovning teatr-studiyadagi pedagogik faoliyati aktyorlarni kasbiy tarbiyalash bilan birgalikda etik va estetik, jamoa ma'naviyati va ijodiy intizom tamoyillariga asoslangan bo'lib, teatr-studiyada: muomalada – shirinsuxan bo'lish; kundalik hayotda – kamtar bo'lish; do'stlarga yordam qo'lini cho'zish; jamoa ishida bir-biriga yelkadosh bo'lish; yurish-turishda – oliftagarchilik qilmaslik va manmansiramaslik; o'zaro munosabatlarda – xayrixohlik, o'zgarar muvaffaqiyatidan xursand bo'lish; kichik rollar yo'q, kichik aktyorlar bor; bugun – Gamlet, ertaga – sahna ishchisi, yorituvchi, kostyumer; ko'pchilik oldida, mahoratli aktyor uchun roldan voz kechish; shoir, artist, rassom, tikuvchi, ishchi – hamma bir maqsad uchun, xizmat qiladi; teatr ijodiy hayotida har qanday qonunni buzish – bu jinoyatdir, kabi talablar joriy etilgan [1, 48].

Ye.B.Vaxtangov zamonaviy teatr san'atida nafaqat ijodiy uslubining mukammalligi, balki teatr-studiyasida joriy etgan intizomiy talablar orqali sahna madaniyatiga katta tajriba olib kirganligi bilan ham tadqiq etiladi.

XX-asr nemis dramaturgiyasi va teatr san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan rejissyor va dramaturg Bertold Brext o'z ijodiy faoliyati natijasida “Epik teatr” nazariyasiga asos soladi va o'z teatrini “noaristotelcha”, “noan'anaviy” teatr deb nomlaydi.

Bertold Brextning “Epik teatr” nazariyasi quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir [2, 121-122] (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Teatrning dramatik shakli    Teatrning epik shakli

– tomoshabinlarni sahnada kechayotgan xodisa voqealarga jalb qilish orqali o'z oqimiga olib kiradi;

– sahnada, asar voqealarini to'laqonli tarzda eks ettiradi va tomoshabinni voqealar girdobiga olib kirishi orqali uning siyosiy faolligini susaytiradi, shashtini bo'shashtirishga intiladi;

– hissiyotlarini qo'zg'atish evaziga tomoshabinni voqealar kechayotgan muhitga olib kirish orqali, qahramon bilan birga yashashga, g'am-alam chekishga majbur qiladi;

– spektakl yechimi “nima bilan tugashi” eng muhim omil bo'lib qoladi. – tomoshabinni sahnada kechayotgan xodisa va voqealarning kuzatuvchisiga aylantiradi;

– asar voqealarini – “song”lar – gapirib berish orqali, eshituvchi va kuzatuvchiga aylanadi;

– asar to'g'risida tomoshabinni xulosa chiqarishga undaydi.

– tomoshabinni sahnada kechayotgan voqealarga tanqidiy ko'z bilan qarashga undash orqali ularni muhitga nisbatan gij-gijlaydi;

– voqealar qanday rivojlanadi, qahramonlar tang vaziyatlarda o'zini qanday tutadi, “song”lar orqali alohida munosabat bildiradi.

– tomoshabinning aqli va tafakkurini ishga soladi.

Brext o'z teatrini epik (ulug'vor) teatr deb atar ekan, bunga to'la asosli edi. Tomoshabinning erkin fikr yuritishi, hukm chiqarishi haqida qancha gapirmaylik, har bir sahnaviy lavhada Brextning xulosalari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Brext qo'llagan uslublar, uning dunyoqarashi, uning dramaturgiyasi va rejissurasining ziyobaxsh sahnaviy ifodasi tarzida namoyon bo'lishiga yordam beradi [1, 56].

Natijalar. K.S.Stanislavskiy, V.I.Nemirovich-Danchenko, Ye.B.Vaxtangov, Bertold Brextning ijodiy uslublari bevosita o‘zbek milliy professional teatri taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatib, yevropacha teatr uslubining shakllanishiga asos bo‘lgan. Jumladan, M.Uyg‘ur, YE.Bobojonov, T.Xo‘jayev, N.Aliyeva kabi rejissyor-pedagoglar tomonidan teatr ta’limining o‘ziga xos metodikasi yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham aktyor va rejissyorlarni tayyorlash va o‘qitish metodikasi K.S.Stanislavskiy, V.I.Nemirovich-Danchenko, Ye.B.Vaxtangov, B.Brext ijodiy uslublari asoslangan bo‘lib, bu borada Stanislavskiy sistemasi to‘laqonli ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan va shu asosda o‘quv sahna asarlari tayyorlanadi. V.I.Nemirovich-Danchenko, Ye.B.Vaxtangov, B.Brext ijodiy uslublariidan foydalanish ixtiyoriy bo‘lib, sahna asarining janri yoki kurs badiiy rahbarining sahnalashtirish rejasiga ko‘ra zaruriy hollarda foydalaniladi. Shuningdek, teatr ta’limi amaliyotiga joriy etilgan o‘quv metodik adabiyotlarida bo‘lajak aktyor va rejissyorlar uchun mazkur ijodiy uslublarning ahamiyati va mohiyati, shuningdek rejissura nazariyasi va amaliyotiga oid ma’lumotlar yoritilgan.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda rejissuradagi ijodiy uslublari va professional rejissuraning tarixiy asoslarini o‘rganish dolzarb bo‘lib, rejissyorlik san’atining rivojlanish jarayoni sodda, havaskorlik xarakterida bo‘lishiga qaramasdan milliy va badiiy-estetik tamoyillarga asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 422 b.
2. Mahmudov J. Rejissura tarixi va nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va ta’lim poligraf, 2020. – 212 b.
3. Mahmudov J., Mahmudova H. Rejissura asoslari. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 224 b.
4. Qodirov M.X. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1993. – 207 b.
5. Qoraboyev U.X. O‘zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 240 b.
6. Qoraboyev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986. – 322 b.
7. Rahmonov M. O‘zbek teatri qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: Fan, 1975. – 286 b.
8. Sayfullayev B. va boshq. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
9. Umarov M. Mannon Uyg‘ur va milliy teatr estetikasi. – Toshkent: Musiqa, 2006. – 198 b.
10. Umarov M.B. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 303 b.
11. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-jild. Parchin – Soliq. Tahrir hay’ati: A.Abduvahitov, A.Azizxo‘jayev, M.Aminov va b. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 701 b.

## BO'LAJAK PEDAGOGLARNING ILMIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA KITOBXONLIK MADANIYATINING O'RNI

Margubaxon Haydarova

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

*Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatining ahamiyati o'rganiladi. Kitobxonlik madaniyati tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida taqdim etiladi. Shuningdek, maqolada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning samarali strategiyalari, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi va ilmiy tadqiqot faoliyati bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur strategiyalar bo'lajak pedagoglarning nazariy va amaliy bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi.*

*Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, ilmiy tafakkur, bo'lajak pedagoglar, tanqidiy fikrlash, ilmiy tadqiqot faoliyati, zamonaviy texnologiyalar.*

## РОЛЬ БИБЛИОТЕЧНОЙ КУЛЬТУРЫ В РАЗВИТИИ НАУЧНОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ

Маргубахан Хайдарова

доцент Коканского государственного педагогического института, кандидат педагогических наук

*Аннотация: В данной статье исследуется роль культуры чтения в развитии научного мышления будущих педагогов. Культура чтения представлена как основной фактор, способствующий развитию критического и творческого мышления. Также в статье раскрыты эффективные стратегии формирования культуры чтения, её интеграция с современными технологиями и связь с научно-исследовательской деятельностью. Эти стратегии направлены на расширение теоретических и практических знаний будущих педагогов.*

*Ключевые слова: культура чтения, научное мышление, будущие педагоги, критическое мышление, научно-исследовательская деятельность, современные технологии.*

## THE ROLE OF LIBRARY CULTURE IN THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC THINKING OF FUTURE EDUCATORS

Haydarova Margubaho

Associate Professor of Kokand State Pedagogical Institute, PhD

*Annotation: This article explores the importance of reading culture in developing scientific thinking among future educators. Reading culture is presented as a key factor in fostering critical and creative thinking. The article also highlights effective strategies for cultivating reading culture, its integration with modern technologies, and its connection to scientific research activities. These strategies aim to enhance the theoretical and practical knowledge of future educators.*

*Keywords: reading culture, scientific thinking, future educators, critical thinking, scientific research activities, modern technologies.*

**KIRISH.** Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiyalar davrida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lajak pedagoglarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishdir. Ilmiy tafakkur — bu pedagogning nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Bu qobiliyatni shakllantirishda kitobxonlik madaniyati muhim o'rin tutadi.

Kitobxonlik madaniyati faqatgina o'qish jarayoni emas, balki o'qilgan asarlarni chuqur tahlil qilish, ular asosida yangi bilim va g'oyalarni kashf etish sanaladi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglar uchun bu jarayon o'zlarining intellektual va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy vositadir. Chunki zamonaviy o'quvchilarni tarbiyalashda pedagogning ilmiy salohiyati va ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola bo'lajak pedagoglarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatining pedagogik ahamiyatini o'rganishga bag'ishlanadi. Unda kitobxonlikning nazariy asoslari, amaliy yondashuvlari va uning ta'lim jarayonidagi roli tahlil qilinadi.

#### Kitobxonlik madaniyati va ilmiy tafakkur

Kitobxonlik madaniyati — bu shaxsning o'qilgan asarlarni anglash, tahlil qilish, ulardan ma'lum bir xulosalar chiqarish va hayotga tatbiq etish qobiliyatidir. Kitobxonlik faqatgina vaqtni mazmunli o'tkazish vositasi bo'lib qolmasdan, shaxsning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bo'lajak pedagoglar uchun kitobxonlik madaniyati ularning ilmiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

#### Kitobxonlik madaniyatining mohiyati

Kitobxonlik madaniyati ikki asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

1. Bilimlarni o'zlashtirish va o'qilganlarni tahlil qilish qobiliyati: Bu pedagogning nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishi va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantiradi.

2. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: Kitobxonlik jarayoni bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradi, ya'ni o'qilgan materiallar asosida yangi g'oyalarni ilgari surish imkoniyatini yaratadi.

#### Ilmiy tafakkurning mohiyati va uning ahamiyati

Ilmiy tafakkur — bu muammolarni tanqidiy tahlil qilish, ularga ilmiy yondashuvni qo'llash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Bo'lajak pedagoglar uchun ilmiy tafakkur quyidagi jihatlarda muhim ahamiyatga ega:

- Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash: Bu, pedagogning dars jarayonida ilmiy yondashuvni qo'llashiga imkon beradi.

- Innovatsion yondashuvlarni shakllantirish: Ilmiy tafakkur yordamida pedagog yangi metodikalarni ishlab chiqishi va tatbiq etishi mumkin.

- Mustaqil o'rganish ko'nikmasini rivojlantirish: Ilmiy tafakkur bo'lajak pedagogning mustaqil o'qish va tahlil qilish qobiliyatlarini takomillashtiradi.

#### Kitobxonlik madaniyati va ilmiy tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik

Kitobxonlik madaniyati va ilmiy tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisining rivojlanishi uchun zamin yaratadi. O'qish jarayonida shaxsning ilmiy tafakkuri quyidagicha rivojlanadi:

1. Nazariy bilimlar to'plash orqali: Kitoblar orqali yangi ilmiy tushunchalar o'zlashtiriladi va ular asosida tafakkur rivojlanadi.

2. Tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali: O'qilgan asarlarni tahlil qilish orqali muammolarga ilmiy yondashuv shakllanadi.

3. Ilmiy tadqiqotlarni qo'llash orqali: Kitob o'qish jarayonida olingan bilimlar ilmiy tadqiqot faoliyatida qo'llanilib, tajriba orttirish imkonini beradi.

#### Bo'lajak pedagoglar uchun kitobxonlik madaniyatining ahamiyati

- Kasbiy malakani oshirish: O'qilgan kitoblar pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan nazariy va amaliy bilimlarni kengaytiradi.

- Tafakkur qamrovini oshirish: Kitobxonlik orqali pedagoglar turli sohalarida fikrlash va muammolarni hal qilish imkoniyatlarini o'rganadilar.

- Ijtimoiy va madaniy bilimlarni boyitish: Kitoblar pedagoglarga o'z kasbiy faoliyatlarida foydalaniladigan ijtimoiy va madaniy bilimlarni taqdim etadi.



Kitobxonlik madaniyati bo'lajak pedagoglarning ilmiy tafakkurini shakllantirishda muhim vositadir. Bu madaniyatni rivojlantirish orqali pedagoglar nafaqat ilmiy bilimlarini oshiradilar, balki ularni ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo'naltiradilar. Shu sababli, ta'lim tizimida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish va rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar qo'llanishi zarur.

### Rasm 1. Bo'lajak pedagoglarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish strategiyalari Kitobxonlik madaniyati va ilmiy tadqiqot faoliyati

Kitobxonlik madaniyati va ilmiy tadqiqot faoliyati bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayonlardir. Kitobxonlik madaniyati shaxsning ilmiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantiradi, ilmiy tafakkur va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilishda kitobxonlik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Kitobxonlik madaniyatining ilmiy tadqiqot faoliyatidagi o'rni

#### 1. Ilmiy manbalarni izlash va o'zlashtirish

Ilmiy tadqiqot faoliyati sifatli va ishonchli ilmiy manbalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Kitobxonlik madaniyati talabalarni:

- Ilmiy manbalarni izlash va saralash;
- O'qilgan asarlardan muhim ma'lumotlarni ajratib olish;
- O'zlashtirilgan bilimlarni tadqiqotda qo'llash kabi ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

#### 2. Tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish

Kitob o'qish orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni baholash va ilmiy dalillar bilan mustahkamlash tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu, o'z navbatida, ilmiy tadqiqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### 3. Ilmiy til va uslubni shakllantirish

Kitobxonlik, ayniqsa ilmiy asarlarni o'qish, tadqiqotchilarga ilmiy uslub va terminologiyani o'zlashtirish imkonini beradi. Bu ilmiy maqolalar yozish, ma'ruzalar tayyorlash va ilmiy munozaralarda qatnashishda muhim rol o'ynaydi.

#### 4. Ilhom va yangi g'oyalar manbai

Kitoblar ilmiy tadqiqotlar uchun yangi g'oyalar va yondashuvlarni kashf qilishda ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Masalan, badiiy va ilmiy adabiyotlarni o'qish orqali talabalar mavzuni yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ladilar.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yo'llari

#### 1. Ilmiy va badiiy adabiyotlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash

Talabalar nafaqat o'z sohalariga oid ilmiy adabiyotlarni, balki badiiy asarlarni ham o'qishlari lozim. Bu ularning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

#### 2. Elektron va bosma manbalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish

Ilmiy tadqiqot faoliyatida talabalarni quyidagi resurslardan foydalanishga o'rgatish lozim:

- Raqamli kutubxonalar (masalan, JSTOR, Elsevier, Ziyonet);
- Ilmiy maqolalar platformalari (masalan, Google Scholar, ResearchGate);
- Kitoblar va monografiyalar.

#### 3. Ilmiy o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish

Talabalarga o'qilgan ilmiy manbalar asosida konspektlar yozish, xulosalar chiqarish va ushbu bilimlarni tadqiqotga tatbiq etishni o'rgatish muhimdir.

#### 4. Ilmiy muhokama va tahlil mashg'ulotlarini tashkil etish

Kitob o'qish va uning mazmunini tahlil qilishga asoslangan seminarlar va muhokama mashg'ulotlari talabalarni chuqurroq fikrlashga va o'z fikrlarini asoslashga o'rgatadi.

#### 5. Ilmiy loyihalarda kitobdan foydalanish

Talabalarga ilmiy loyihalar doirasida turli kitoblardan foydalangan holda tadqiqot olib borishni o'rgatish orqali kitobxonlik madaniyatini amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Kitobxonlik madaniyati va ilmiy natijalar sifatining bog‘liqligi

Ilmiy tadqiqot jarayonida kitobxonlik madaniyati rivojlangan shaxslar:

- Aniq va ishonchli dalillar keltirish;
- Manbalarga asoslangan original xulosalar chiqarish;
- Ilmiy natijalarni taqdim etishda puxta uslubdan foydalanish kabi sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi.

Kitobxonlik madaniyati ilmiy tadqiqot faoliyati uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Bu madaniyat talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, ilmiy bilimlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli, bo‘lajak pedagoglarni ilmiy faoliyatga tayyorlashda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va uni targ‘ib qilish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Bo‘lajak pedagoglarning ilmiy tafakkuri va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishda kitobxonlik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobxonlik madaniyati nafaqat bilim olish jarayonining asosiy komponenti, balki talabalarning tanqidiy fikrlashi, ijodiy yondashuvi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu madaniyatni rivojlantirish orqali pedagoglar:

- Ilmiy tafakkurni chuqurlashtirish: Kitobxonlik talabalarda tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi, bu esa ilmiy muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi.
- Innovatsion fikrlarni rivojlantirish: Ilmiy va badiiy asarlarni o‘qish orqali talabalar yangi g‘oyalarni kashf qilish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- Ilmiy natijalarning sifatini oshirish: Kitobxonlik madaniyatiga ega pedagoglar ilmiy izlanishlarida puxta dalillarga tayangan holda original va sifatli ilmiy xulosalar chiqaradilar.

Shunday ekan, bo‘lajak pedagoglarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim. Buning uchun:

- Kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha motivatsion va amaliy tadbirlar tashkil etish;
- Elektron va bosma resurslardan foydalanishni o‘rgatish;
- Ilmiy va badiiy asarlarni o‘qish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish talab etiladi.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish orqali pedagogik kadrlar tayyorlash sifati oshadi va ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Shu sababli, ushbu masala ta’lim tizimida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Қ. Таълимда инновацион ёндашувлар. Тошкент: Маърифат нашриёти, 2021.
2. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.
3. Fedorov A. Media Education: History, Theory, Methods and Practice. Moscow: Publishing House of Moscow State University, 2004.
4. Ганбаров Г.М. Книга как источник формирования научного мировоззрения студентов. Москва: Педагогика, 1985.
5. Knowles M. The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy. Chicago: Follett, 1980.
6. Назарова С.Б. Педагогик компетенцияларни шакллантиришда китобхонлик маданиятининг ўрни. Тошкент: Ўқитувчи, 2019.
7. Rogoff B. Apprenticeship in Thinking: Cognitive Development in Social Context. New York: Oxford University Press, 1990.

## **O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM: MUAMMO VA YECHIM**

*Mirzayeva Vasila Qamariddin qizi*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali 2 - bosqich talabasi*

*Annotatsiya. Inklyuziv ta'limning o'zbekistondagi rivojlanishi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limga qanday qaror va qonunlar borligi. Bu yo'nalishga bizning maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarimiz qanday tayyorlanyapti va qanday qulayliklar borligi. Inklyuziv ta'limning kamchiliklari va afzallik tomonlari. Shuningdek yurtimiz ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalalari, xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim shakllari, inklyuziv ta'lim, pedagogik tahlil, metod, ijtimoiy siyosat.*

## **INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN: CHALLENGES AND SOLUTIONS**

*Mirzayeva Vasila Qamariddin qizi*

*2nd-year student of the Kattakurgan Branch of Samarkand State University*

*Abstract. Development of inclusive education in Uzbekistan. What are the decisions and laws on inclusive education in Uzbekistan. How our schools and pre-school educational institutions are preparing for this direction and what facilities are available. Disadvantages and advantages of inclusive education. Reforms in the education system of our country and their importance, issues of development of inclusive education, pedagogical essence of the concept of development of inclusive education in the public education system were also analyzed.*

*Key words: education, forms of education, inclusive education, pedagogical analysis, method, social policy.*

## **ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

*Мирзаева Васи́ла Кама́риддин кызы*

*Студентка 2-го курса Каттакурганского филиала Самаркандского государственного университета*

*Абстракт. Развитие инклюзивного образования в Узбекистане. Какие решения и законы по инклюзивному образованию в Узбекистане. Как наши школы и дошкольные образовательные учреждения готовятся к этому направлению и какие возможности имеются. Недостатки и преимущества инклюзивного образования. Также были проанализированы реформы в системе образования нашей страны и их значение, вопросы развития инклюзивного образования, педагогическая сущность концепции развития инклюзивного образования в системе народного образования.*

*Ключевые слова: образование, формы обучения, инклюзивное образование, педагогический анализ, метод, социальная политика.*

*Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zamirida inson manfaatlariga ustuvorlik berigan bo'lib, yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z hayotida his etishlari uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional va oliy ta'lim sohasidagi islohotlarni alohida e'tirof etish lozim.*

*Yosh avlodga sifatli ta'lim berish masalasi hozirgi kunda mamlakatimizning «Inson qadri uchun» degan ustuvor tamoyilga asoslangan strategiyasida ham muhim siyosiy komponentlar*

qatoriga kiritilgan. Prezident Sh.Nirziyoyev inson qadri tushunchasini izohlar ekan, «Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zaminaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz» deb ta'kidlaydi.

Bugungi ta'lim tizimi yoshlarni, kelajagimizning munosib vorislari sifatida tayyorlashni bosh maqsad qilib olgan. Bunda sog'lom yoshlar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarga ham bir xilda ta'lim berishga qaratilgan inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari va mazmunini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu borada, 2020-yil 23-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni qabul qilinib, inklyuziv ta'lim ta'lim olish shakli sifatida belgilandi.

Respublikamizda inklyuziv ta'limni takomillashtirish masalasi hukumatimizning ko'plab hujjatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida, ma'ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o'zining munosib aksini topgan. Xususan, imkoniyati cheklangan yoshlarga ta'lim berish sifatini oshirish hamda maqsadida turli ixtisoslik va yo'nalishlardagi bosma va audiokitoblarga bo'lgan ehtiyoj har olti oyda o'rganilib, shu asosda adabiyotlar ro'yxati shakllantirib borish, oliy ta'lim muassasalarining tegishli ixtisoslik va yo'nalishlari bo'yicha fanlardan audiomateriallar ba Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo'lga qo'yish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilmoqda.

Lekin bu borada yetarlicha kamchiliklar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida bu boradagi asosiy muammolar qayd etilgan:

- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlarning yaratilmaganligi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmaganligi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmaganligi natijasida ota - onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotlarga ega emasligi;

- pedagogika yo'nalishidagi OTMlar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmaganligi;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmaganligi, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Inklyuziv –(inklyuziya-inglizcha [inclusion]- uyg'unlashish) hamkorlikdagi ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan.

Inklyuziv ta'lim tamoyillari: e'tirof etilish, ochiqlik, kommunikativlik, kompleks yondashish, moslashuvchanlik, qulaylik, qulay muhit, ta'lim klasteri sharoitida, bola ta'lim markazida, ochiq muloqot, hamkorlik.

Inklyuziv ta'lim bolaga nima beradi?

- o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

- o'zini barcha bolalar bilan bir xil his qila boshlaydi;

- yotsirash, yakkalanish kabi xusiyatlari yo'qoladi;

- o'z imkoniyatini o'zi kashf etadi;

- mustaqil harakatlanish, birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati yaratiladi;

- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi.



Inklyuziv ta'limning afzalliklari (bola va jamiyat manfaatlarini doirasida):

- 1) bolada o'ziga ishonch ortadi;
- 2) tengdoshlar bilan muloqotga kirishadi;
- 3) jamiyat insonparvarlashadi;
- 4) sotsiumga erta moslashadi va qo'shiladi;
- 5) to'laqonli ta'lim va ijtimoiy tizim yaxshilanadi;
- 6) nogironlarning muammolari bartaraf etiladi.

Inklyuziv ta'lim O'zbekiston Respublikasida ilk bor ekspremint loyihalar sifatida 2005-yildan boshlangan.

Hech o'ylab ko'rganmisiz, biz har kuni yurgan yo'llardan ayrim bolalar yura olmaydi, biz har kuni ko'rgan go'zallikni, atrof olamdagi voqea-hodisalarni eshita olmaydi, ko'ra olmaydi, chunki uning harakatlanishi falajlik oqibatida chegaralanib qolgan, uning ko'zlari ojiz, quloqlari eshitmaydi. Ammo bu bola ham har tomomlana sog'lom bo'lib voyaga yetishi, hamma qatori jamiki go'zalliklardan bahra olib yashashi mumkin edi, biroq salbiy omillar ta'sirida u bundan bebahra qolgan.

Turli xildagi sabablarga ko'ra ruhan yoki jismonan nuqsonli bo'lib qolgan bolalarni jamiyatdan alohida e'tiborsiz holda tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bunday bolalar nuqsonliligi sababli imkoniyatlari cheklanib qolgan. Imkoniyatlarining chegaralanib qolganligi oqibatida korreksion yordamga muhtoj.

Nogiron bolalar bilan korreksion ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ish olib borish, ijtimoiy jamiyatga adaptatsiyalash, imkoniyatlaridan foydalanib, o'z-o'ziga xizmat qila oladigan va jamiyatga ma'lum darajada nafi tegadigan qilib voyaga yetkazish har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda «Har qanday halqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi» [2]

Shuning uchun ham bu vazifalarni to'laqonli amalga oshirish maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni huquqlarini qo'llab-quvvatlab, ularni joriy etish maqsadida jahon miqiyosida «Inklyuziv ta'lim» siyosat darajasiga ko'tarilib xalqaro huquq normalari, jumladan, BMT ning 1989 yilgi «Bolalar huquqlari to'g'risida Konvensiya»si, Dakar Deklaratsiyasi, Salamanka bayonoti va Ish rejasi (1994yil) kabilarda o'z aksini topgan. Biroq juda ko'p hollara maxsus yordamga muhtoj bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bunga asosiy sabablar birinchi navbatda ota-onalarning farzandiga bo'lgan e'tiborining sustligi bo'lsa, keyingi galda bu bolani o'qitish uchun ta'lim muassasalarining o'sha hududda yo'qligi yoki juda uzoqda joylashganligidir. Mana shunday hol maxsus yordamga muhtoj bola uchun juda ayanchli holdir. Chunki bu bolada mavjud nuqson tufayli uning imkoniyatlari chegaralanib qolgan, ma'lumki bola ta'lim-tarbiya olmasa va undagi nuqsonni tuzatish ishlari olib borilmasa, nuqson darajasi yanada og'irlashadi, ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqadi va uning o'z o'ziga xizmat qilish malakalari shakllanmay qoladi. Ijtimoiy hayotga moslashishi qiyinlashadi. Bir so'z bilan aytganda u «nogiron» bo'lib qolaveradi. O'z navbatida jamiyatda nogironlarning ko'payishi shu jamiyat taraqqiyotini orqaga tortadi. Mana shunday oqibatlarga olib kelmasligi, maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning haq-huquqlarini to'laqonli ta'minlash maqsadida ham inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari keng tus olmoqda.

UNICEF xalqaro tashkiloti loyihasi doirasida 2005-2007 yilda O'zbekistonning Qoraqolpog'iston, Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida tajriba-sinov ta'riqasida ish olib borilgan, lekin u vaqtlarda imkoni cheklangan bolalar to'la-to'kis aniqlanib ta'limga jalb etilmagan. Shuning uchun birinchi bo'lib, yuqorida sanalgan viloyatlarda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni aniqlash bo'lgan. Birinchi vazifani o'rganish natijasida, o'rganishga O'zbekistonda ana shu maxsus ta'lim yo'nalishi bo'yicha yetkchi mutaxassislar, tibbiyot xodimlari jalb etilib, o'sha viloyatlarda ta'limga jalb etilmay qolgan bolalarni aniqlab chiqilgan.

O'rganishlar natijasida 1400ga yaqin bolalar inklyuziv ta'limga muhtoj ekanligi aniqlangan. 1400ta bolani ko'rib ularning sog'liklari haqida o'rganilib, 1-sinfga inklyuziv sinf tarzda o'tkizilishi mumkin bo'lgan bolalarni inklyuziv sinfga tayyorlash, qolganlarini esa maxsus maktab internatlarga joylashtirish ishlari amalga oshirilgan. Ana endi har bir shaxsda savol paydo bo'ladi, "Nima sababdan shuncha bola e'tibordan chetda qolib ketgan?". Vaholanki, SSSR davrida ham, mustaqillik davrida ham "Majburiy ta'lim" degan qonun mavjud bo'lgan. Ta'lim to'g'risidagi qonunda "7 yoshdan boshlab barcha bolalar ta'limga qamrab olish kerak" degan qonun mavjud bo'lgan. Lekin uni amalga oshirish bo'yicha ish juda izchillik bilan olib borilmagan. Natijada bu bolalar maktab bilan qamrab olinmaganligini birinchi sababi: ota-ona bolasini nogironligidan andisha qilib, nomus qilib bolalarini bekitgan. Ikkinchisi nogiron bo'lsa, albatta, internatda ta'lim olishi kerak degan qonun bor edi. Sog'lom bolalar orasida ular ta'lim ololmaydi degan tushuncha mavjud bo'lgan. Ota-onalar bo'lsa bag'ridan bolasini chiqargisi kelmagan, ya'ni internatdan chiqargisi kelmagan. Natijada bolalarning yoshi 9-10 yoshda bo'lsalar ham ularning savodi bo'lmagan. Fayziyeva Ubayda Yunusovna va ularning hamkasblari inklyuziv ta'limga muxtoj bolalarni hammasini aniqlab, hamma viloyatlarda ularni inklyuziv ta'limga jalb qilish borasida ish olib borganlar. Ota-onasi rozi bo'lgan bolalar internatlarga jaylangan.

Jami 800ta bolalar internatga jalb qilingan bo'lsa, shundan 300dan ortig'i inklyuziv ta'limga jalb etildi. Ularning maktablarga joylashtirish borasida mutaxassislar maktab sharoitlari, imkoniyatlarni hammasini o'rganib chiqib, talabga javob beradigan maktablarga bolalar joylashtirildi. Bu borada bolalar ham tibbiy tekshiruvlar, psixologlar bilan birgalikda ularning psixologik nuqtayi nazardan ularni o'rganib chiqib, agar maktablarga joylashtirilsa o'z tengqurlari bilan bir qatorda o'zlashtirib olish va ma'lumotlarni qabul qilish doirasiga qarab maktablarga joylashtirilgan. Bolalarning ota-onalari ham 1 oylik maxsus kurslarda o'qitilgan, bunga sabab bolalarning ota-onalari ham tushunishsin, ijtimoiy yordamga muhtoj bolalar ham sog'lom bolalarga o'xshab teng huquqli ekanliklari haqida.

"Bola huquqlari to'risidagi kanvensiya"ni har bir maktabda, butun maktab o'quvchilarini bir joyga to'plagan holda, munozaralar uyushtirilgan maktab o'quvchilari ham hamma teng huquqli ekanligini tushuntirishda keng ko'lamli ishlar olib borilgan, bundan tashqari maktab o'qituvchilarga ham seminarlar tashkil etilgan. Mana shu ikki yil mobaynida judayam kerakli bo'lgan ishlar olib borilgan. Har bir viloyatdan o'zining trenirlar mavjud bo'lgan, ular bilan maktab bilan ishlaydigan ma'sul shaxs bo'lgan. 1-sentyabrgacha mana shunday keng ko'lamli ishlarni qilib, 1-sentyabrda o'quvchilarni maktabga olib chiqilgan. Ilmiy rahbarlar ham bunday bo'lishlarini kutishmagan edilar. Maktab o'quvchilari ularni mehrl ko'zlar bilan kutib olib, ulardan o'z yordamlarini ayamadilar.

2006-yili inklyuziv sinflarda natijalar qanday bo'layotgani bilish maqsadida o'rganishlar olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, eshitmaydigan bola ham sog'lom bolalar qatorida ular bilan birga o'qib, gapiradigan darajaga kelganligi ko'ringan. UNICEF tomonida har bir zaif eshituvchi bolaga implant o'rnatilgan. Bu yutuqlarni bolalardagi o'zgarishlarni ko'rgan ota-onalar ham bolalarini internatga bermasdan, ommaviy maktablarga chiqarib o'qitgan. Maktabni bitirgan bolalar yuqori lavozimlarda ishlaydigan darajada bo'lib bitirgan maktabni.

Inklyuziv ta'limning mohiyati shundan iboratki, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalardan «nogiron» degan tamg'ani olib tashlab, normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlilikni ta'minlash, jamiyatga to'laqonli, erta moslashtirish, mavjud imkoniyatlaridan foydalana olishlarini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari tizimida o'qitishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasida ham davlat siyosat darajasiga ko'tarildi. Natijada inklyuziv ta'limga doir xalqaro huquqiy meyoriy hujjatlar, rivojlangan chet el davlatlarning inklyuziv ta'lim tajribalari o'rganib chiqildi va ularga asoslangan holda

yangi tahrirdagi «Ta'lim to'risida»gi Qonunning 20-moddasi, «Inklyuziv ta'lim» deb nomlanib, «Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan»ligi qonuniy asos bilan mustahkamlandi. [2] Inklyuziv ta'lim masalasi Respublikamiz Prezidenti tomonidan davlat siyosatining eng ustuvor vazifasi sifatida qaralib, PQ-4860-sonli «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda Vazirar mahkamasining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida» gi 638-sonli qarorida o'z aksini topdi. Mazkur ishlarning natijasi sifatida inklyuziv ta'limning barcha jihatlari, joriy etish yo'llari, maqsad va vazifalari, bu sohada islohatlar «Umimiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizom, 2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi, 2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha «YO'L XARITASI»DA belgilab olinib, amaliyotga joriy etish borasida ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi natijalar kutilmoqda:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta'limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta'minlanadi;

- davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta'lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

- inklyuziv ta'lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta'lim sifati, shuningdek o'quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variantivligiga erishiladi. [4]

Konsepsiya amaliy natijalariga muvofiq Respublika miqyosida o'tgan 2021-2022 - va joriy 2022-2023- o'quv yilidan 130 dan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar tashkil etildi.

Inklyuziv ta'limning amaliy natijalarini o'rganish masadida Toshkent shahar Uchtepa tumani 109-sonli, Chilonzor tumani 163-sonli, Sergeli tumani 55-sonli, Olmazor tumani 134-sonli, Samarqand viloyati Samarqand shahar 81-sonli, Yunusobod tumani 70-sonli, Shayxontoxur tumani 324-sonli, Yakkasaroy tumani 135-sonli, Samarqand viloyati Samarqand shahar 81-sonli davlat umumta'lim maktablaridagi inklyuziv ta'limning joriy etilish holati o'rganildi. Sergeli tumani 55-umumiy o'rta ta'lim maktabiga Sergeli tumani XTB buyrug'i asosida 6 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga jalb etilgan. Ushbu ta'lim shaklini joriy etish bo'yicha barcha meyoriy hujjatlar yuritilgan. O'qituvchilar bilan olib borilgan suhbat va savolnomalar asosida inklyuziv sinflar o'qituvchilari uchun o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha metodik ta'minot zarurligi, bu borada o'qituvchilar malakasini oshirishga juda katta zaruriyat mavjudligi, dars jarayonini kuzatish asnosida inklyuziv sinflarda o'quvchilar sonini kamaytirishga katta ehtiyoj borligi aniqlandi.

Respublikamizda inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda Xalq ta'limi vazirligi va uning huzuridagi Respublika tashxis inklyuziv ta'lim laboratoriyasi xodimlari Sulton Mo'minov, Shoista Axmedova, Gulmira Alimovalar ham munosib jonbozlik ko'rsatmoqdalar.

Xulosa.

Erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda inklyuziv ta'limni joriy qilishda ko'plab muammolar va to'siqlar talaygina. Muammolarni va to'siqlarni hal etish zaruriyatdir. Chunki jamiyatimizda yashayotgan har bir maxsus yordamga muhtoj bola bizning ham farzandimiz. Alohida ehtiyojli bolalarga «Ular kimning farzandi?» deya savol berish o'rinsizdir. Zero, ularning kamoloti bizning ham kamolotimiz, ularning fojeasi bizning ham fojeamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz // «Xalq so'zi» gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, N 238(8018)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr. (<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm>).
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.
4. BMTning «Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.
5. Madatov Ilhom Yusup o'g'li . «Inklyuziv ta'lim» darslik. Toshkent - « Best-Publish» - 2024. 10-15 bet.
6. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inkluziv ta'lim, 1(2), 111-113
7. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-ona qaramog'ida bo'lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.
8. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inkluziv ta'limga tayyorlash.



## **OLIV TA'LIM TIZIMIDAGI NORMATIV HUIJATLARNING ASOSIY TURLARI: NIZOMLAR, QARORLAR, AKKREDITATSIYA STANDARTLARI VA ILMIV YO'RIQNOMALAR.**

*Mirzayev Shoxrux*

*Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Normativ-huquqiy hujjatlar oliy ta'lim tizimida boshqaruv, faoliyat va sifatni ta'minlashning asosini tashkil qiladi. Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarining akademik va ma'muriy landshaftini shakllantiradigan to'rtta asosiy me'yoriy hujjatlar turini o'rganadi: nizomlar, qarorlar, akkreditatsiya standartlari va ilmiy yo'riqnomalar. Hujjatlarning har bir turi asosiy huquqiy tuzilmalarni o'rnatishdan akademik yaxlitlik va sifat uchun mezonlarni ta'minlashgacha bo'lgan alohida funksiyalarni bajaradi. Ushbu tartibga solish vositalarini tushunish orqali institutlar muvofiqlikni ta'minlashi, standartlarni qo'llab-quvvatlashi va akademik va ma'muriy sohalarida doimiy takomillashtirishga yordam berishi mumkin.*

*Kalit so'zlar: me'yoriy hujjatlar, oliy ta'lim, nizomlar, qarorlar, akkreditatsiya standartlari, ilmiy yo'riqnomalar, institutsional boshqaruv.*

## **ОСНОВНЫЕ ВИДЫ НОРМАТИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПОЛОЖЕНИЯ, РЕШЕНИЯ, СТАНДАРТЫ АККРЕДИТАЦИИ И НАУЧНЫЕ РУКОВОДСТВА**

*Шахрух Мирзаев научный сотрудник*

*Наманганского государственного университета*

*Аннотация: Нормативно-правовые документы составляют основу управления, деятельности и обеспечения качества в системе высшего образования. В данной статье рассматриваются четыре основных типа нормативных документов, формирующих академический и административный ландшафт высших учебных заведений: уставы, решения, стандарты аккредитации и академические рекомендации. Каждый тип документов выполняет определенную функцию: от установления основных правовых структур до обеспечения стандартов академической честности и качества. Понимая эти инструменты регулирования, учреждения могут обеспечить соблюдение стандартов, поддерживать стандарты и способствовать постоянному совершенствованию в академической и административной областях.*

*Ключевые слова: нормативные документы, высшее образование, положения, решения, стандарты аккредитации, академические рекомендации, институциональный менеджмент.*

## **MAIN TYPES OF NORMATIVE DOCUMENTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM: REGULATIONS, DECISIONS, ACCREDITATION STANDARDS AND SCIENTIFIC GUIDELINES**

*Shakhrukh Mirzayev*

*Researcher of Namangan State University*

*Abstract: Normative legal documents form the basis of management, activity and quality assurance in the higher education system. This article examines four main types of regulatory documents that shape the academic and administrative landscape of higher education institutions: statutes, decisions, accreditation standards, and academic guidelines. Each type of document serves a distinct function, from establishing basic legal structures to providing benchmarks for academic integrity and quality. By understanding these regulatory tools, institutions can ensure compliance, support standards, and promote continuous improvement*

in academic and administrative areas.

*Key words: regulatory documents, higher education, regulations, decisions, accreditation standards, academic guidelines, institutional management.*

Kirish. Oliy ta'lim muassasalari (OTM) ularning to'g'ri ishlashi, akademik yaxlitligini hamda milliy va xalqaro ta'lim standartlariga mos kelishini ta'minlovchi me'yoriy hujjatlarning murakkab tarmog'i bilan boshqariladi. Ushbu hujjatlar qarorlar qabul qilishda izchillikni ta'minlash, qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash va institutsional mukammallikni rag'batlantirish uchun zarurdir.[1] Ushbu maqolada muhokama qilingan me'yoriy hujjatlarning to'rtta asosiy turi - nizomlar, qarorlar, akkreditatsiya standartlari va ilmiy yo'riqnomalar oliy ta'limning huquqiy, akademik va operatsion jihatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.[2]

### 1. Oliy ta'lim to'g'risidagi nizomlar

Ta'rif va funktsiya: Nizomlar oliy ta'lim muassasalarining asosiy tamoyillari, huquqlari, burchlari va boshqaruv tuzilmalarini belgilab beruvchi ta'xis huquqiy hujjatlardir. Odatda, ular milliy yoki mintaqaviy qonun chiqaruvchi organlar tomonidan tuziladi va institutlar faoliyat yuritadigan asosiy me'yoriy-huquqiy baza bo'lib xizmat qiladi.

Maqsad: Nizom oliy ta'lim muassasalarini tashkil etishning huquqiy asoslarini, ularning vazifalarini, faoliyat doirasini, boshqaruv modelini va davlat organlari bilan munosabatlarini belgilaydi. Ular asosiy jihatlarini qamrab oladi, masalan:

Tashkilotning tashkil etilishi va tan olinishi.

Boshqaruv tuzilmalari (masalan, vasiylar kengashi, professor-o'qituvchilar va ma'muriyatning roli)

Moliyaviy avtonomiya va boshqaruv

Professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalarning huquq va majburiyatlari

Oliy ta'limga ta'siri: Nizomlar institutsional boshqaruvning asosini tashkil etib, universitetlar va kollejlarning milliy ta'lim siyosati chegaralarida ishlashini ta'minlaydi. Ular, shuningdek, institutlarni jamoatchilik va hukumat nazorati oldida mas'ul qilib, akademik erkinlikni himoya qiladi.[3]

### 2. Oliy ta'limdagi qarorlar

Ta'rif va funktsiya: Oliy ta'lim kontekstidagi qarorlar muassasalarning boshqaruv organlari yoki tashqi nazorat qiluvchi organlar tomonidan qabul qilingan rasmiy qarorlar yoki qarorlarga taalluqlidir. Ushbu qarorlar ko'pincha institutsional ehtiyojlar, strategik rejalashtirish va tashqi omillarga javoblarga asoslanadi.

Qaror turlari:

Ichki qarorlar: ular institutsional kengashlar, ilmiy kengashlar yoki universitet senatlarini tomonidan qabul qilinadi. Ular akademik dasturlarni ishlab chiqish, o'qituvchilarni tayinlash, talabalarni qabul qilish siyosati va resurslarni taqsimlash kabi masalalarni hal qiladi.[4]

Tashqi qarorlar: Bularga oliy ta'lim muassasalarini nazorat qiluvchi davlat vazirliklari yoki ta'limni tartibga soluvchi organlar tomonidan qabul qilingan qarorlar kiradi. Masalan, yangi o'quv dasturlarini tan olish, moliyalashtirishni taqsimlash yoki institutsional birlashish to'g'risidagi qarorlar.

Maqsad: Qarorlar siyosatni ishlab chiqish, ma'muriy yoki akademik muammolarni hal qilish va nizomlar va institutsional qoidalarni amalga oshirishga yordam berish uchun xizmat qiladi. Ular kundalik operatsiyalar va uzoq muddatli strategik tashabbuslar uchun yo'nalish beradi.

Oliy ta'limga ta'siri: Qarorlar institutlarning o'zgaruvchan ta'lim landshaftlari, ijtimoiy ehtiyojlar va talabalar talablariga javob berish qobiliyatini saqlab qolishini ta'minlaydi. Ular institutlarga o'z missiyasi va me'yoriy-huquqiy bazaga rioya qilgan holda muammolarni hal qilishda yordam beradi.

### 3. Oliy ta'limda akkreditatsiya standartlari

Ta'rif va funktsiya: Akkreditatsiya standartlari oliy ta'lim muassasalarining akademik sifat, institutsional yaxlitlik va operatsion samaradorlik bo'yicha minimal talablarga javob berishini ta'minlash uchun tashqi akkreditatsiya qiluvchi organlar tomonidan o'rnatilgan mezonlar majmuasidir. Akkreditatsiya odatda milliy yoki xalqaro agentliklar tomonidan amalga oshiriladi va ta'lim sifati va jamoatchilik ishonchini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.[5]

Akkreditatsiya turlari:

Institutsional akkreditatsiya: Bu muassasaning umumiy sifati va boshqaruvini, jumladan uning missiyasini, professor-o'qituvchilar malakasini, talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini va moliyaviy barqarorlikni baholaydi.

Dasturiy akkreditatsiya: Bu o'quv rejasini, professor-o'qituvchilarning malakasini, tadqiqot natijalarini va dasturning sanoat ahamiyatini baholashga qaratilgan maxsus o'quv dasturlari yoki fanlarga qaratilgan.

Maqsad: Akkreditatsiya standartlari muassasalarning sifat kafolati mezonlariga javob berishini ta'minlaydi. Akkreditatsiya ko'pincha moliyalashtirish, talabalarni ro'yxatga olish va ish beruvchilar va boshqa ta'lim muassasalari tomonidan tan olinishi uchun zaruriy shartdir. [6]

Oliy ta'limga ta'siri: Akkreditatsiya yuqori ta'lim standartlarini saqlab qolish va o'qitish, tadqiqot va xizmat ko'rsatishda doimiy takomillashtirishga yordam beradi. Shuningdek, u oshkoralik va hisobdorlik uchun asos yaratadi, bu institutlarning ta'lim va boshqaruv sohasidagi ilg'or tajribalarga amal qilishini ta'minlaydi.

4. Oliy ta'lim bo'yicha ilmiy yo'riqnomalar

Ta'rif va funktsiya: Ilmiy ko'rsatmalar oliy ta'lim doirasida tadqiqot, o'qitish va bilimlarni tarqatishni tartibga soluvchi rasmiy tavsiyalar, ilg'or tajribalar va axloqiy me'yorlarga ishora qiladi. Ushbu ko'rsatmalar odatda ilmiy kengashlar, tadqiqot organlari va professional uyushmalar tomonidan tuziladi.

Maqsad: Ilmiy ko'rsatmalar tadqiqot va ilmiy faoliyatning yaxlitligi va sifatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ular turli jihatlarni qamrab oladi, jumladan:

- Tadqiqotda axloqiy me'yorlar (masalan, plagiatning oldini olish, ma'lumotlarning yaxlitligi va insonlar ishtirokidagi tadqiqotlar)
- Akademik nashr standartlari va o'zaro baholash jarayonlari
- O'qitish va pedagogikaning ilg'or tajribalari

Oliy ta'limga ta'siri: Ilmiy ko'rsatmalarga rioya qilish orqali institutlar va alohida olimlar o'zlarining tadqiqotlari va o'qitishlari bilimlar to'plamiga mazmunli hissa qo'shishini va axloqiy me'yorlarga rioya qilishlarini ta'minlashi mumkin. Bu nafaqat akademik yaxlitlikni oshiradi, balki oliy ta'lim muassasalarining jahon miqyosidagi obro'sini mustahkamlaydi.[7]

Normativ hujjatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. To'rt turdagi me'yoriy hujjatlarning har biri OTM boshqaruvi va operatsion tizimini shakllantirishda o'ziga xos rol o'ynaydi, biroq ular alohida faoliyat ko'rsatmaydi. Buning o'rniga, ular yaxlit tartibga solish muhitini shakllantirish uchun o'zaro ta'sir qiladi:

a. Nizomlar huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi, qarorlar esa boshqaruv orqali ushbu nizomlarning amalga bajarilishiga yordam beradi.

b. Akkreditatsiya standartlari institutlarning akademik va ma'muriy sifat uchun talab qilinadigan mezonlarga javob berishini ta'minlaydi.

c. Ilmiy ko'rsatmalar axloqiy va akademik standartlarga rioya qilinishini ta'minlaydi, ayniqsa tadqiqot va o'qitish sohalarida.

Ushbu me'yoriy hujjatlar birgalikda mas'uliyatni rag'batlantiradigan, sifatni ta'minlaydigan va oliy ta'lim muassasalarining uzoq muddatli muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlovchi tizimli asosni yaratadi.

Normativ hujjatlarni boshqarishdagi qiyinchiliklar. Me'yoriy hujjatlar samarali boshqaruv va sifatni ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularni amalga oshirishda

bir qancha muammolar paydo bo'lishi mumkin:

Murakkablik va ortiqcha tartibga solish: Nizomlar, qarorlar va akkreditatsiya talablarining ko'pligi institut rahbarlari va professor-o'qituvchilarini siqib chiqarishi mumkin. Ushbu murakkablikni navigatsiya qilish ehtiyotkorlik bilan muvofiqlashtirish va aniq muloqotni talab qiladi.[8]

Standartlardagi dinamik o'zgarishlar: Texnologiyalar, ijtimoiy ehtiyojlar va akademik amaliyotlardagi o'zgarishlar tufayli institutlar o'zlarining me'yoriy hujjatlarini dolzarb bo'lib qolishi uchun tez-tez moslashtirishlari kerak. Bu resurslarni siqib chiqarishi va siyosat va tartiblarning doimiy yangilanishini talab qilishi mumkin.

Avtonomiya va muvofiqlikni muvozanatlash: Institutlar me'yoriy-huquqiy bazaga rioya qilish va innovatsiyalar va intellektual o'sish uchun zarur bo'lgan akademik erkinlikni saqlab qolish o'rtasida muvozanatni saqlashi kerak.

Xulosa. Oliy ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlar, jumladan, nizomlar, qarorlar, akkreditatsiya standartlari va ilmiy yo'riqnomalar institutlarni to'g'ri boshqarish, sifatni ta'minlash va faoliyat samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Ushbu hujjatlar oliy ta'lim muassasalarini milliy va xalqaro standartlarga moslashtirish, akademik yaxlitlikni ta'minlash va mas'uliyatni saqlash uchun asos yaratadi. Ushbu me'yoriy-huquqiy bazalarni boshqarishdagi qiyinchiliklarga qaramasdan, ularni sinchkovlik bilan integratsiyalashuvi oliy ta'lim tizimlarining muvaffaqiyati va barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karlibaeva G. OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY RESURSLARI SHAKLLANISH TIZIMINI BOSHQARISH AMALIYOTINING TAHLILI //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 111-121.

2. Xonqulov S. X. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINI YARATISHNING NAZARIYA VA AMALIYOTDAGI HOLATI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 7. – C. 26-36.

3. “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son

4. “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

5. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

6. Tamtik M., Kirss L. Building a norm of internationalization: The case of Estonia's higher education system //Journal of Studies in International Education. – 2016. – T. 20. – №. 2. – C. 164-183.

7. Goastellec G. Globalization and implementation of an equity norm in higher education: Admission processes and funding framework under scrutiny //Peabody journal of education. – 2008. – T. 83. – №. 1. – C. 71-85.

8. Figueroa F. E. The Bologna Process as a hegemonic tool of Normative Power Europe (NPE): the case of Chilean and Mexican higher education //Globalisation, Societies and Education. – 2010. – T. 8. – №. 2. – C. 247-256.



## TALABALARNING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK QO'SHIQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Mo'minova Gulnoraxon

Farg'ona Davlat Universiteti, Pedagogika kafedrasida tayanch doktoranti

*Аннотация. Лексик компетенция бу xorijiy tilni egallashdagi eng muhim bilimlar to'plami bo'lib, uni shakllantirmay turib muloqatni amalga oshirib bo'lmaydi. Hozirgi vaqtda talablarni bilim darajasini samarali oshirishga xizmat qiluvchi texnologiyalarni ishlab chiqish tadqiqotlarning dolzarb masalisiga aylangan. Shu jihatdan autentik qo'shiqlar leksik kompetensiyani rivojlantirishda samarali natija beruvchi multimodal matn turi sifatida etirof etilgan. Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy o'quv yurti ingliz tili yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda autentik qo'shiqlardan foydalanishning ta'siri va samaradorligini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishining 160 nafar ikkinchi bosqich talabarlari tadqiqotga jalb qilindi va ma'lumotlar lug'at testi orqali to'plandi. Tadqiqotning kvantitativ ma'lumotlar tahlili orqali, talabalarining leksik kompetensiyasi sezilarli darajada yaxshilangani aniqlandi. Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi autentik qo'shiqlar talabalarining leksik kompetensiyasini yaxshilashda muhim rol o'ynashini va ularni lug'at boyligini oshirish uchun samarali vosita sifatida qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.*

*Калит so'zlar: лексика, аутентичный материал, лексическая компетенция, аутентичный текст, коммуникативная компетенция*

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АУТЕНТИЧНЫХ ПЕСЕН В РАЗВИТИИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Гульнорахон Муминова

Сотрудник степени доктора наук кафедры педагогики Ферганского государственного университета

*Аннотация. Лексическая компетенция является одним из важнейших компонентов в освоении иностранного языка, и без её формирования невозможно осуществить общение. В настоящее время разработка технологий, способствующих эффективному повышению уровня знаний студентов, стала актуальной темой исследований. В этом отношении аутентичные песни были признаны типом мультимодального текста, который даёт эффективные результаты в развитии лексической компетенции. Цель данного исследования – определить влияние и эффективность использования аутентичных песен в улучшении лексической компетенции студентов, изучающих английский язык в высших учебных заведениях. Для достижения этой цели в исследовании приняли участие 160 студентов второго курса факультета английского языка и литературы Ферганского государственного университета, а данные были собраны с помощью теста на знание словарного запаса. Количественный анализ данных показал, что лексическая компетенция студентов значительно улучшилась. Результаты исследования показывают, что аутентичные английские песни играют важную роль в улучшении лексической компетенции студентов и могут эффективно использоваться как средство для увеличения словарного запаса.*

*Ключевые слова: лексика, аутентичные материалы, лексическая компетенция, аутентичная песня, коммуникативная компетенция.*

## THE EFFECTIVENESS OF USING AUTHENTIC SONGS IN DEVELOPING STUDENTS' LEXICAL COMPETENCE

Gulnorakhon Mo'minova

PhD student at the Department of Pedagogy, Fergana State University

*Abstract. Lexical competence is one of the most essential sets of knowledge in mastering a foreign language, and communication cannot take place without developing it. Currently, the development of technologies that effectively enhance students' knowledge levels has become a pressing issue in research. In this regard, authentic songs have been recognized as a type of multimodal text that yields effective results in developing lexical competence. The aim of this study is to determine the impact and effectiveness of using authentic songs in improving the lexical competence of students majoring in English at higher educational institutions. To achieve this goal, 160 second-year students from the English Language and Literature Department of Fergana State University were involved in the research, and data were collected through a vocabulary test. The quantitative data analysis showed that the students' lexical competence improved significantly. The results of the study indicate that authentic English songs play an important role in enhancing students' lexical competence and can be effectively used as a tool for increasing vocabulary.*

*Keywords: lexic, authentic material, lexical competence, authentic song, communicative competence.*

Kirish. Bugungi kunda ingliz tili global muloqat vositasi sifatida davlatlararo aloqalarda, iqtisod, biznes, madaniyat, san'at va ilm-fan sohasi rivojida muhim ro'l o'ynaydi. Ingliz tilida erkin muloqat qilish uchun leksik kompetensiya kabi tilni asosiy jihatini puxta egallamoq lozim. Leksikkompetensiyaso'zningma'nosinibilish,so'zni boshqatilgatarjimaqilaolishvachettildagi so'zining ma'nosini o'z ona tili bilan taqqoslash kabi leksik bilimlarning yig'indisidir[1]-[3]. Angilyalik amaliy linguistika sohasi bo'yicha olim Nobert Schmitt leksik kompetensiyani shakllantirishda katta va keng so'z boyligiga ega bo'lish, so'zlardan va frazalardan konteksga mos ravishda foydalanish qobiliyati hamda shu qobiliyatlarni rivojlantirishda autentik (haqiqiy) materiallardan foydalanish muhim ro'l o'ynashini takidlaydi[4],[5]. Hozirgi vaqtda qo'shiqlar autentik material sifatida chet til o'rganish jarayonida keng qo'llanila boshlangan samarali ta'limiy vosita hisoblanmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Autentik qo'shiqlar til materiali sifatida

Qo'shiq - bu musiqa asbobi yordamida siz kuylashingiz mumkin bo'lgan va odamlarga uni tinglashdan zavqlanish uchun mo'ljallangan so'zli tovushlar namunasi. Ko'plab chet el tadqiqotchilari qo'shiqlar orqali chet til leksik kompetensiyasini samarali rivojlantirish mumkinligini yozishgan. Yevropalik tadqiqotchilar R. Lo va Henry Li ga ko'ra, qo'shiqlar sinf muhitidagi monoton kayfiyatni o'zgartirishi sababli, o'quvchilardagi zerikish hissini yo'qotadi[6].

Angilyalik metodislar Slattery va Willis qo'shiqlardan foydalanish yosh o'quvchilarni so'z va iboralarni dastlab tushunmasa ham, ularni o'z-o'zidan takrorlashga undashini ta'kidlaydilar[7] Bu esa o'z navbatida xotirada so'zlarni mustahkam o'rganishishiga olib keladi.

Murcia Cortes fikriga ko'ra qo'shiqlar talabalarning ijtimoiy-emotsional o'sishiga, jismoniy rivojlanishiga, madaniy savodxonlik hamda chet tilini o'rginishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[8]. Bu fikrlar mohiyatini rus metodisti O. Serebrenkova o'z qarashlari bilan kengaytirib, ingliz estrada qo'shiqlari ingliz tilida so'zlashuvchilarning madaniy kelib chiqishining bir qismi sifatida, ingliz tilining tarixiy va zamonaviy voqeligini aks ettiradi deb ta'kidlaydi[9]. Demak, qo'shiqlarni eshitish nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiribgina qolmay bundan tashqari ingliz

tili tarixi va madaniyati bilan tanishishga ham yo'l ochadi.

Qo'shiqlar bilan birga kuylash o'quvchilarga talaffuz, intonatsiya va fonetik ko'nikmalarni mashq qilish imkonini beradi.

Qo'shiqlarning musiqiyliigi o'quvchilarga tilning tabiiy ritmiga taqlid qilishga yordam beradi, ularning talaffuzi va umumiy og'zaki muloqot ko'nikmalarini yaxshilaydi. Xuddi shu fikrlarni ilgari surgan xitoylik metodist Shen ko'pchilik talabalar ingliz qo'shiqlarini tinglash orqali o'rganishni qiziqarli o'yin deb bilib, ular o'z-o'zidan ya'ni ongsiz ravishda yangi so'zlarni o'rganishadi, bu esa talabalar uchun lug'at va grammatika bo'yicha zerikarli darsliklarni mexanik ravishda yodlashdan ko'ra, til xabardorligini oshirishning ancha qiziqarli va samarali usuli deb aytadi[10]. Rus metodisti M. Erikina fikriga ko'ra autentik qo'shiqlar muqobil material sifatida til ko'nikmalari rivoklantirish jarayonini rang-barang qiladi[11].

Qo'shiqlardan foydalanishning eng afzallik jihati shuki, ular barcha yoshdagi til o'rganuvchilar uchun birdek maroqli va qiziqarli vosita hisoblanadi. Masalan, yosh bolalar qo'shiqlarni sevib tinglashlari va yaxshi ko'rib birgalikda jo'r bo'lib kuylashlari sababli, ularga yangi so'zlarni o'rgatishda turli xil rang-barang qo'shiqlar foydalanish juda qo'l keladi.

Autentik qo'shiqning lingvodidaktik imkoniyatlarini tahlil qilsak, qo'shiq o'zida tilning barcha funksiyalarini: fonetik, gramatik va leksik funksiyalarini aks ettiradi. Chet el metodist mutaxassislardan biri Griffining fikriga ko'ra qo'shiqlar o'zida ma'noli kontentni qamrab olganligi sababli yangi lug'atni namoyish qilish va o'rgatish uchun foydali autentik materialdir[12]. Griffening qo'shiqlarning til funksiyalari rivojlantirishdagi ahamiyati haqidagi qarashlarin boshqa bir metodist olim Falioni qo'shiqlar til o'rganuvchiga yangi lug'atni va turli xil grammatik strukturalarni ham tanishtirib beruvchi vosita degan fikrlari bilan kengaytiradi[13],[14].

Metodlar. Talabarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyani rivojlantirishda autentik qo'shiqlardan foydalanish samaradorligini aniqlashda nazariy

muammolarini aniqlash va ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tadqiqot natijalarini yozish va taqqoslash kabi metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar son va miqdor bilan bog'langanligi uni kvantitativ hamda tajribadan avvalgi (TA) va tajribadan keyingi (TK) testlari olib borilganligini ekperimental taqqiqot ekanligini belgilaydi. Tajriba-sinov jarayoniga jami 160 nafar respondentlar jalb qilinib, ular Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishida tahsil oluvchi ikkinchi bosqich talabalarini o'z ichiga oladi. Autentik qo'shiqlarning talabalarining leksik kompetensiyasi rivojlanishdagi ta'sirini o'rganish maqsadida, tadqiqot obekti sifatida tanlangan talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi va 2023-akademik o'quv yili davomida tajriba guruhlarida autentik qo'shiqlargan asoslangan dars mashg'ulotlari olib borildi, nazorat guruhlarida esa an'anaviy dars jarayonlari davom etdi. Tajriba-sinov jarayonlari nihoyasiga yetgach har ikkala guruhlarda tajriba so'ngi testlari olindi. To'plangan ma'lumotlar matematik statistik usullar yordamida tahlil qilib umumlashtirildi.

**1-Jadval. Talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda  
autentik qo‘shiqlardan foydalanish texnologiyalari  
bo‘yicha tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so‘ngidagi (T.s.)  
ma’lumotlarning umumiy jadvali**

Tajriba - sinov obyekti	Respondent lar	Tajriba guruhlar						Respondent lar	Nazorat guruhlar					
		Yuqori		O‘rta		Past			Yuqori		O‘rta		Past	
		T.a	T.s	T. a	T.s	T.a	T.s		T.a	T.s	T. a	T.s	T.a	T.s.
FARDU	<b>80</b>	23	37	27	26	30	17	<b>80</b>	17	24	29	28	34	28

Yuqoridagi jadvalga asosan, tajriba-sinov avvalidagi natijalarga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarining nazorat guruhidagi talabalariga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar orasidagi farqlar aniqlandi. Yuqoridagi statistik tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda autentik qo‘shiqlardan foydalanish texnologiyalari bo‘yicha tajriba guruhlaridagi o‘zlashtirish nazorat guruhlaridagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan.

Demak, olib borilgan tajriba-sinov ishlari Ingliz tili yo‘nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda autentik qo‘shiqlardan foydalanish texnologiyalari ta’lim samaradorligi oshishini tasdiqladi.

#### Xulosa

Talabalarining leksik boyligini rivojlantirish chet til o‘rganishning juda muhim jarayonidir. Talabalar o‘rganayotgan tilida muvaffaqiyatga erishishi uchun leksik kompetentlikka ega bo‘lish juda katta ahamiyatga ega. Qo‘shiqlar ingliz tili darslarida leksik kompetensiyani rivojlantirish maqsadida foydalanilishi mumkin bo‘lgan samarali autentik til materialidir. Shuningdek, bu talabalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi va yaxshi taassurot qoldirishi sababli ularda motivatsiyani uyg‘otishga yordam beradi, bu esa o‘z-o‘zidan talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan hamda tajriba-sinov ishi natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, autentik qo‘shiqlar til o‘rganish muhitini autentik, motivatsion, oson va qiziqarli qilgani sababli, ularni dars jarayoniga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, autentik qo‘shiqlar talabalarining leksik kompetensiyani takomillashtirib, talabalarining kreativlik qobiliyatlari, tanqidiy fikrlash, guruhda ishlash, hamkorlik, mustaqil qaror qabul qilish, faol ishtirokchi, muommolar yechimini topish kabi shaxsiy va psixologik xususiyatlarini rivojlantirishda yordam berishini mazkur tadqiqot natijalari dalilladi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati

1. L. Monastyrova (2023) “Principles of developing foreign language lexical competence of university students in distance education,” *Prob. of Engin and Ped. Edu.*, no 79, pp. 38-44, 2023.

2. Muminova, G. (2022). The importance of developing lexical competence in teaching and learning a foreign language. In international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century (Vol. 1, No. 2, pp. 19-22).



3. Mo'minova, G. (2023). UNIVERSITET TALABALARINING SO 'ZO 'RGANISH STRATEGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. Farg'ona davlat universiteti, (2), 190-190.
4. Nobert Schmitt (2000) "Vocabulary in English language teaching.
5. Muminova, G. (2022). AN INVESTIGATION INTO VOCABULARY LEARNING STRATEGIES OF KOREAN AND UZBEK LEARNERS OF ENGLISH. Frontline Social Sciences and History Journal, 2 (02), 39–46.
6. Lo, R. S. M., & Li, H. C. F. (1998). Songs Enhance Learner Involvement: Materials Development. In Forum Vol. 36 3-bet
7. Slattery, M., & Willis, J. (2001). English for primary teachers: A handbook of activities and classroom language (Vol. 1). Oxford University Press.
8. Cortés, M. K. (June, 2012). Slideshare. Obtained from Slideshare:
9. О. Л. СЕРЕБРЕННИКОВА, Применение англоязычной эстрадной песни для профессионально-личностного развития студентов языкового вуза (1–2 курсы): дис. канд. пед. наук- Улан-Удэ — 2019
10. Shen, C. (2003). Using English Songs : an Enjoyable and Effective Approach to ELT. English Language Teaching, 2(1), 88–94
11. М. А. Ерыкина, Методика интеграции аутентичного песенного материала в систему средств обучения иностранному языку (английский язык; неязыковой вуз): дис.канд. пед. наук- Москва-2017
12. Griffiee, D. T. (1995). Songs in action. Hertfordshire: Phoenix
13. Falioni, J. W. (1993). Music as means to enhance cultural awareness and literacy in the foreign language classroom. Mid-Atlantic Journal of Foreign Language Pedagogy, 7, p-98.
14. Kaharova, M. (2021). MICRO FIELD OF LEXEMES WHICH DENOTE UZBEK PEOPLES' HOLIDAYS AND WORK CEREMONIES. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Founders: Theoretical and Applied Science,(9), 646-648.

## **“UMUMIY PEDAGOGIKA” FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING O‘QUV-TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN MODELI**

*Murtazayeva Umida Isakulovna  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Samarqand filiali katta o‘qituvchisi*

*Annotatsiya. Mazkur maqola “Umumiy pedagogika” fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini tahlil qiladi. Kredit-modul tizimi sharoitida “Umumiy pedagogika” fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli taklif etildi.*

*Kalit so‘zlar: Kredit-modul tizimi, kognitiv-kreativ ko‘nikmalar, raqamli ta’lim, mobil texnologiyalar, o‘quv-tadqiqot kompetensiyalari.*

## **УСОВЕРШЕНСТВОВАННАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ “ОБЩАЯ ПЕДАГОГИКА”**

*Муртазаева Умида Исакуловна  
старший преподаватель Самаркандского филиала Ташкентского университета  
информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми*

*Аннотация. В данной статье анализируются научно-практические основы развития учебно-исследовательских компетенций студентов при преподавании “Общей педагогики”. Предложена усовершенствованная модель развития учебно-исследовательских компетенций студентов в рамках кредитно-модульной системы.*

*Ключевые слова: кредитно-модульная система, познавательные-творческие навыки, цифровое образование, мобильные технологии, учебно-исследовательские компетенции.*

## **IMPROVED MODEL OF DEVELOPMENT OF STUDENTS’ EDUCATIONAL-RESEARCH COMPETENCES IN TEACHING THE SCIENCE OF “GENERAL PEDAGOGY”**

*Murtazayeva Umida Isakulovna  
Senior Lecturer, Samarkand Branch of Tashkent University of Information Technologies  
named after Muhammad al-Khwarizmi*

*Annotation. This article analyzes the scientific-practical basis of the development of students’ educational-research competencies in the teaching of “General pedagogy”. An improved model of development of educational-research competencies of students was proposed in the context of the credit-module system.*

*Keywords: Credit-module system, cognitive-creative skills, digital education, mobile technologies, educational-research competencies.*

Zamonaviy ta’lim tizimida kredit-modul tizimi ta’lim jarayonini individuallashtirish va talabalarning mustaqil o‘quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, muhandis-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish,

o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan[1].

Ayniqsa, "Umumiy pedagogika" fani bo'yicha talabalarning o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida axboriy-perspektiv va raqamli-analitiklik qobiliyatlarni shakllantirish o'ta dolzarb masaladir. Ushbu jarayonda kognitiv-kreativ, kommunikativ-refleksiv, tadqiqot-motivatsion va ilmiy-amaliy ko'nikmalarni belgilash orqali talabalarning izlanish salohiyatini yanada oshirish mumkin.

Raqamli ta'lim muhitida talabalarga yangi usullarni joriy etish, ularning o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, generativ sun'iy intellekt vositalari bilan integratsiya qilingan progmatik disputlar, transformativ debatlar va P2P (Peer-to-Peer) hamkorlikka asoslangan metodlar ta'lim jarayonini faollashtirish, talabalarning fikrlash jarayonini chuqurlashtirish, ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu usullar talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirib, murakkab muammolarni hal qilishda ilmiy va amaliy yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini kengaytiradi. Bunday yondashuvlar raqamli muhitda talabalarning mustaqil izlanish salohiyatini oshirishga ham yordam beradi. Ayniqsa, interaktiv muhitda muammoli topshiriqlarni hal etishda ushbu metodlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun maxsus raqamli vositalar, jumladan, "general\_ped.uz" mobil ilovasidan foydalanish orqali ta'lim jarayonining texnologik komponenti takomillashtirilmoqda. Ushbu mobil platforma talabalarga mustaqil o'qish, topshiriqlarni bajarish, o'z faoliyatini baholash va tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda yordam beruvchi samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida talabalarning o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini baholash mezonlarini kreativ, produktiv va progressiv ko'rsatkichlar asosida qayta ishlab chiqishda namoyon bo'ldi. Bu yondashuv orqali talabalarning izlanish salohiyatini chuqur tahlil qilish va uni rivojlantirishning samarador yo'nalishlarini aniqlash mumkin. Axborot texnologiyalari to'g'risida gap ketganda, qayta ishlashning materiali sifatida ham, mahsulot sifatida ham axborot ishtirok etadi. Biroq bu obyekt, jrayon yoki hodisa to'g'risidagi sifat jihatidan yangi ma'lumot bo'ladi. Texnologiya xodimning axborot bilan ishlash usuli va uslubi hamda texnik vositalar orqali namoyon bo'ladi [2]. A.T. Kenjabayev va N.Raximov tomonidan e'tirof etilishicha, ta'limni axborotlashtirish deganda ta'lim doirasini uslubiy, texnologik va amaliy ishlanmalar ta'minoti o'qitishning psixologik-pedagogik maqsadlarini hal etish va tarbiyalash komfort holda sog'liqni asrash sharoitida foydalanishga mo'ljallangan zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari yordamida optimal amalga oshirish tushuniladi[3].

Pedagogik model - bu o'rganilayotgan ob'ektning ma'lum xususiyatlari, belgilari, xususiyatlari, uning ichki tashkil etilishi yoki faoliyat ko'rsatish tamoyillariga taqlid qiluvchi yoki aks ettiruvchi va ma'lum bir ijtimoiy-madaniy amaliyotga xos bo'lgan madaniy shakl shaklida taqdim etiladigan aqliy tizimdir[4].

Modellarni ishlab chiqishning asosiy nuqtasi - pedagogik tajribani tarqatish, uni rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyati va zaruratidir[5].

Shunday qilib, bizning tadqiqotimizning asosiy maqsadi – kredit-modul tizimi sharoitida "Umumiy pedagogika" fani bo'yicha talabalarning o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishning takomillashtirilgan modelini ishlab chiqishdan iboratdir.

1-rasm. Talabalarning o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish usullari

"Umumiy pedagogika" fanini o'qitishda talabalarning o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida modellashtirish yondoshuvi zamonaviy ta'lim talablariga mos

keladigan innovatsion vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu modellashtirish talabalarning bilim olish jarayonida izlanish qobiliyatini shakllantirishga, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga, hamda mustaqil tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Modellashtirish yondoshuvi o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantiruvchi asosiy tarkibiy qismlarni aniqlash va ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikni belgilashga qaratilgan. Bu jarayonda kognitiv-kreativ, kommunikativ-refleksiv, tadqiqot-motivatsion va ilmiy-amaliy ko'nikmalardan iborat o'quv jarayonining samarali modelini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu modelning asosiy vazifasi talabalarni mustaqil izlanishga rag'batlantirish va ularning raqamli ta'lim muhitida ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Model 5 asosiy komponentdan iborat bo'lib, ular o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu pedagogik model talabalarning "Umumiy pedagogika" fanini o'zlashtirish jarayonida o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Modelning asosiy komponentlari va ularning o'zaro bog'liq funksiyalarini quyidagicha tushuntirish mumkin:

1. Maqsad komponent modelning asosiy yo'nalishini belgilaydi. Maqsad - kredit-modul tizimi sharoitida "Umumiy pedagogika" fanini o'qitish jarayonida o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish uchun innovatsion va samarali metodikani takomillashtirishdan iboratdir.

2. Mazmun komponenti o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy tarkibiy qismlarni belgilaydi:

- Yondashuvlar:

- Tizimli-faoliyatli: Talabalarning faoliyatga asoslangan o'qitish.
- Shaxsga yo'naltirilgan: Har bir talabaga individual yondashuv.
- Uzluksiz rivojlantiruvchi: Bilimlarni bosqichma-bosqich oshirish.
- Kreativ-innovatsion: Ijodiy va yangilikka asoslangan o'qitish.

- Ko'nikmalar:

- Kognitiv-kreativ: Bilimlarni ijodiy qo'llash.
- Kommunikativ-refleksiv: Muloqot va o'z faoliyatini tahlil qilish.
- Tadqiqot-motivatsion: Izlanishga qiziqish uyg'otish.
- Ilmiy-amaliy: Amaliy tadqiqotlarni o'tkazish.

3. Texnologik komponenti zamonaviy texnologiyalar va ta'lim vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi:

- Texnik ta'minot: Internet, kompyuterlar, mobil qurilmalar kabi infratuzilmalar.

- Dasturiy ta'minot:

- "general\_ped.uz" mobil ilovasi.
- LMS va MOOC tizimlari.
- Hemis kabi o'quv jarayonini boshqarish platformalari.

- Ta'lim-tarbiya jarayoni:

- Shakl: Individual va guruhli ish.

- Usul:

- Pragmatik disput: Amaliy muammolarni muhokama qilish.
- Transformativ debatlar: Nazariy va amaliy bilimlarni birlashtirish.
- P2P hamkorlik: Jamoaviy ta'lim jarayonlari.

- Vosita:

- Generativ sun'iy intellekt vositalari.
- Metodik materiallar va dasturiy qo'llanmalar.

4. Pedagogik component o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishning bosqichma-bosqich strategiyasini belgilaydi:

- Bosqichlar:

Таким образом, улучшение языковых навыков вне классной комнаты через общение с носителями английского языка является мощным инструментом, который помогает развить не только грамматическую и лексическую компетенцию, но и улучшить понимание культурных особенностей. Технологические платформы и социальные сети предоставляют новые возможности для общения, а культура и реальные практики использования языка создают дополнительный контекст для углубленного изучения. Однако, для достижения наилучших результатов важно сочетать этот метод с другими подходами, такими как самостоятельное изучение грамматики и регулярное чтение и письмо.

#### Список литературы

1. Bahrani, T., & Tam, S. S. (2012). Audiovisual news, cartoons, and films as authentic language input and language proficiency development. *The Turkish Online Journal of Educational Technology*, 11(4), 56-64.

Ms. Atiya Khan, Using Films in the ESL Classroom to Improve Communication Skills of Non-Native Learners

2. Mane Sargsyan & Anna Kurghinyan Armenian State Pedagogical University, Republic of Armenia. The use of English language outside the classroom *Journal of Language and Cultural Education*, 2016, 4(1) ISSN 1339-4584 SlovakEdu

3. BARKER, D. (2004). Encouraging students to take their language learning outside the classroom. *JALT Hokkaido Journal*, 8, 79-96.

4. EAITE, S. (2011). Teaching and learning outside the classroom: personal values, alternative pedagogies and standards. *Education 3-13*, 39(1), 65–82. *Journal of Language and*



Cultural Education, 2016, 4(1) ISSN 1339-4584 SlovakEdu 45

5.GRAU, M. (2009). Worlds apart? English in German youth cultures and in educational settings. *World Englishes*, 28(2), 160-174.

6.GUO, S. (2011). Impact of an out-of-class activity on students' English awareness, vocabulary, and autonomy. *Language Education in Asia*, 2(2), 246-256.

7. HYLAND, F. (2004). Learning autonomously: Contextualising out-of-class English language learning. *Language Awareness*, 13(3), 180-202.

8.PICKARD, N. (1996). Out of class language learning strategies. *ELT Journal*, 50(2)

9.Anderson, J. (2015). *Language Fluency through Social Interaction with Native Speakers*. New York: Routledge.

10.Bell, C. (2017). *Cultural Context in Language Acquisition: The Role of Native Speakers*. Cambridge University Press.

11.Kennedy, D. (2019). Technological Approaches to Language Learning: A Focus on Online Interactions. *TESOL Journal*, 20(3), 45-58.

12.O'Connell, A. (2021). Feedback and Communication with Native Speakers in Language Learning. *Modern Language Journal*, 35(1), 88-101.

13.Renner, D. (2018). The Impact of Native Speakers on Language Proficiency. *International Journal of Language Studies*, 14(2), 23-34.

14.Smith, P., Johnson, T., & Lee, S. (2020). Balancing Independent Study and Native Speaker Interaction for Optimal Language Learning. *Journal of Second Language Acquisition*, 28(4), 112-127.

## YOSHLAR O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA SPORTNING O'RNI VA AHMIYATI

Мухаметов Ахмад Мухаметович

Тошкент давлат иқтисодиёт университети “Жисмоний мадания ва спорт фаолияти” кафедраси профессори

*Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash masalalari haqida so'z borgan.*

*Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sog'lom hayot, kun tartibi, badantarbiya, shaxsiy gigiena, ratsional ovqatlanish.*

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzi - insonning hayot tarzi bo'lib, bunda kishi o'zining va atrofdagilarning sog'ligini saqlash, mustahkamlash va kasalliklarni oldini olish bilan bog'liq tadbirlar majmuasi tushuniladi [1,2,3,4].

Sog'lom odam sog'lom fikrlaydi, sog'lom fikirlaydigan odamgina iymon, e'tiqodi sog'lom bo'ladi. Sog'lom turmush tarzining asosida baxtli va uzoq umrli hayot yotadi [5].

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq Birinchi prezidentimiz tashabbusi bilan tanlangan oliyjanob maqsad - «Sog'lom zurriyod - sog'lom farzand - sog'lom avlod» konsepsiyasi sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun dasturi amal hisoblanadi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart - sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi va 2018-yil 18-dekabrda «Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash hamda jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5590-sonli Farmoniga binoan qabul qilindi. Unga muvofiq, 2019—2022-yillarda yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish Konsepsiyasi hamda 2019—2022-yillarda yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi. Bunday qaror va farmonlardan ko'rinib turibdiki sog'lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblandi [6,7,8,9,10].

Dunyo olimlarining ko'p yillik izlanish va ilmiy tadqiqot tajribalariga ko'ra «Sog'lom turmush tarzi»ning asosiy talabi doimiy harakatda bo'lish va jismoniy tarbiya, sport bilan shug'ullanishdir [11].

Barchamiz yaxshi bilamizki, kelajak yosh avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirish bizning asosiy burchimizdir.

Sog'lom avlod orzusi, ajdodlarimizdan bizgacha o'tib kelayotgan, qon - qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir. Agar ota - bobolarimizning turmush tarziga, tafakkuriga nazar salsak, ular nasl - nasab, yetti pushtining tozaligiga, avlodning sog'ligiga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz [12,13,14,15].

Bugungi kunga kelib, zamonaviy texnologiyalarning keng ko'lamda rivojlanishi natijasida odamlarning jismoniy faolligi pasayib, yurak - qon tomir, ovqat xazm qilish a'zolari kasalliklari ko'payib bormoqda [16].

Rossiya va chet el mutaxassislarining o'tkazgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra aerobik mashqlar arterial bosimning pasayishiga yordam berar ekan. Bu esa yurak-qon tizimi ishining

normallashtirishga va ortiqcha vaznning kamayishiga olib keladi. Masalan, muntazam kaloriya ovqatlanish sharoitida 20 daqiqa tez yurish, 15 daqiqa velosiped xaydash va 10 daqiqa yugurishni o'z ichiga olgan jismoniy yuklama har yili 5 kg vazndan qat'iy xalos bo'lish imkonini beradi [17,18,19,20].

Inson salomatligi holatini kuzatish quyidagilarni ko'rsatdi:

- Aholining 16-20% salomatligi darajasi qoniqarli;
- Aholining 32-44% salomatligi darajasi qoniqarsiz;
- Aholining 10-34% turli kasalliklarga chalingan yoki kasallik oldi holatida [21,22].

Dunyo olimlarining ko'p yillik ilmiy tadqiqotlari, tajribasiga asoslangan «Sog'lom turmush tarzi» dasturi quyidagi oddiy, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan sotib olib bo'lmaydigan har bir odamga mustahkam sog'lik, uzoq umr, kelajak avlod zurriyodini sog'lomlashtirishni ta'minlaydigan quyidagi qoida va talablaridan iborat:

1. Har bir insonning, birinchi navbatda yoshlarning ma'naviy olami, madaniyati yuksak bo'lishi zarur. Chunki — Sog'lom turmush tarzi qoida va talablariga amal qilish uchun, odam yuksak ongli, qat'iyatli, irodali bo'lishi shart. Bu sifatlar boshida esa ma'naviyat va madaniyat turadi;

2. Kun tartibiga amal qilish;

3. Ertalabki badantariyani imkoniyatga qarab 7-10 daqiqa davomida bajarish;

4. Shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish: ertalab, badantariyadan keyin, yuvinish, kechki uyqudan oldin tishlarni tozalash, haftada bir marta hamomga tushish, kun davomida pul va transport vositalarini ushlagandan keyin, ovqatlanish oldidan qo'lni sovunlab yuvish;

5. Ratsional ovqatlanish. Kunlik ovqat tarkibida, ayniqsa yoshlar uchun oqsilga boy mahsulotlarni (go'sht, baliq, tuxum, qatiq, pishloq kabilar) yetarli miqdorda bo'lishi;

6. Harakatlanish faolligiga amal qilish. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish;

7. Sog'liq uchun zararli odatlarga barham berish: chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, giyoxvandlik kabilardan voz kechish;

8. Sog'lom oila qurish va zamon talabi asosida oilani rejalashtirishga e'tibor berish;

9. Fe'l-atvorda mavjud bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etish: emotsional holatini jilovlay olish ya'ni arzimagan sabablar bilan kayfiyatning buzilishi va atrofdagilar kayfiyatini buzishdan saqlanish[23,24,25,26,27].

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda amerikalik olimlar Bellok hamda Bresloular salomatlikni mustahkamlovchi tadbir sifatida quyidagilarni taklif qiladilar:

- Har kuni 7-8 soatlik uyqu;
- Aniq bir vaqtlarda kuniga 3 marotaba ovqatlanish;
- Har kuni ertalabki nonushta;
- Vaznni me'yorida saqlash;
- Spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaslik;
- Har kuni jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish;
- Chekishdan butunlay voz kechish.

Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish har xil yo'nalishlarda olib borilishi lozim. Bu, bir tomondan, o'quvchilar va kattalarga sog'lom turmushga oid ma'lum tibbiy va gigienik bilimlarni berishga, ularda sog'lom turmush tarzining organizm rivojiga qanday ta'sir etishi haqidagi tasavvurlarning uyg'onishiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, talim- tarbiya gigienik qoidalarga amal qilish, o'zining va yon-atrofdagilarni sog'ligining asrashning kundalik odatga aylantirish ko'nikmalarini shakllantirishga bog'liqdir[28]. Bu maqsadda amalga oshirish uchun, sog'lom turmush tarzini, ommaviy axborot vositalari orqali, shuningdek, barcha tarbiya o'choqlari bilan hamjihatlikda keng targ'ib qilish zarur[29,30]. Yuqoridagi sog'lom turmush tarzini shakllantirishga bo'lgan munosabatlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson bor ekan uning salomatligi, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodni jismoniy jihatdan baquvvat

qilib, favqulodda ro'y berishi mumkin bo'lgan harqanday vaziyatlarga tayyorlash, doimo xalq e'tiborida bo'lgan muhim masalalardan biridir[31].

#### REFERENCES

1. Ozbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Sog'lom avlod uchun» ordenini ta'sis qilish to'g'risidagi Farmoni. (1993. 4 mart). Turkiston. -Toshkent: 1993. - 6 mart.
2. Мухамметов, А.М. (2022). Научно-методические основы нормирования нагрузок в физкультурно-спортивном здравоохранении. Евразийский научный вестник , 8 , 194197.
3. Ahmad, M. (2022). Health Orientation as An Important Principle of the System of Physical Education. Eurasian Scientific Herald, 6, 84-87.



## O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TARAQQIYOTINING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA

*Masharipova Nasiba Ro'zmatovna*

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutu doktoranti, p.f.f.d (PhD)*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada tanqidiy fikrlash, uning tavsifi, bosqichlari, tarkibiy qismlari hamda o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon haqida fikr yuritiladi. Shuningdek mutaxassislarining insonda jamiyat hayotiga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, ro'y berayotgan hodisalarga nisbatan daxldorlik hissini kuchaytirish, o'quvchilarda o'zining mavjudligini va erkin fikr bildirish pozitsiyasini egallashlari haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Bu maqola keng ilmiy jamoatchilik, tadqiqotchilar va bo'lajak o'qituvchilar uchun metodik manba sifatida xizmat qiladi.*

*Tayanch tushunchalar: o'quvchi, shaxs, ta'lim, tanqidiy fikrlash, munosabat bildirish, ajdodlarimiz merosi, milliy qahramonlar, rivojlanish, bilim, ko'nikma, tajriba, tanqidiy fikrlash bosqichlari.*

Dolzarliligi. Bugungi ta'lim jarayonlari tashkil etish o'qitishning yangicha konsepsiyalari va modellarini o'zida mujassam etgan pedagogik yondashuvlardan foydalanishni talab etmoqda. Yangicha yondashuvlarga tayanib tashkil etilgan ta'lim jarayoni avvalo ta'lim oluvchilarning shaxsiy-intellektual, axloqiy va madaniy rivojlanishlari uchun yo'naltirilishi lozim. Shunga asosan uzluksiz ta'lim va tarbiya jarayoni sub'ektlarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalar va mexanizmlar bilan boyitish zaruriyati kuchaymoqda.

Jaxon ta'limida avvalo har bir shaxsni tarbiyalashda mustaqil, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga yo'naltirishga ustuvorlik berilmoqda. Chunki fikrlash, ayniqsa tanqidiy taffakkur yurita olishi shaxsning eng katta boyligi hisoblanadi. Ta'limning maqsadi ham ta'lim oluvchilarda aynan intuitiv va individual pedagogik hodisa hisoblangan tanqidiy fikrlashni shakllantirishdir.

Pedagogika ensiklopediyasida tanqidiy fikrlash quyidagicha izohlangan: TANQIDIY FIKRLASH – inson aqliy faoliyatining turlarini o'zida mujassamlashtirgan ob'ektiv fikrlash tarzini ifodalovchi tushuncha. Tanqidiy fikrlash – g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfiqrlilik nuqtai-nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo'lib, unda taxlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi [1, 185-b].

Muammoning ilmiy tahlili. Bugungi strategiyalashgan, globallashtirilgan o'quv jarayonlarida o'quvchi-yoshlarning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, sog'lom e'tiqodini, o'z nuqtai nazari va pozitsiyani shakllantirish uchun ularda avvalo tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda. O'quvchilar o'zini va boshqalarning faoliyatini, hatti-harakatlarini tanqidiy fikrlash asosida tahlil qilaolishlarida o'zbek xalqi qahramonlari faoliyatini o'rganish, ulardan ibrat olishga yo'naltirish muhim ta'limiy vositalardan hisoblanadi. Ajdodlarimiz merosida pand-nasihat, yoshlarga murojaat alohida o'rin egallagan. Shu maqsadda ular nasihat janridagi she'rlar, pandnomalar, murojaatnomalar yozganlar. Xalq dostonlarida esa xalqning o'zligini anglagan, o'z pozitsiyasiga ega, tanqidiy fikrlaydigan ideal shaxs haqidagi orzu-niyatlari o'z ifodasini topgan. Shuni ta'kidlab aytish lozimki, Go'ro'g'li, Alpomish, Avazxon, Oshiq G'arib va Shoxsanam, Vomiq va Uzro, Farhod va Shirin kabi doston qahramonlari, shuningdek To'maris, Shiroq, Najmiddin Kubro, Jaloliddin

Manguberdi, Temur Malik, Pahlavon Mahmud, Amir Temur, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabi milliy qahramonlarimiz faoliyati timsolida o'quvchilarda o'z nuqtai nazarlarini shakllantirish, o'z qarashlarini va munosabatini bildirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning alohida pedagogik imkoniyatlari mavjud. Milliy xalq qahramonlari yosh avlod uchun eng ulug' qadriyat va ibrat maktabi bo'la oladi.

Tanqidiy fikrlash insonning intellektual rivojlanganlik va faollik darajalarini o'zida ifoda etadi. Aql tarbiyasi, fikrlashni rivojlantirish masalalari har bir davrda aktual pedagogik jarayon sifatida e'tirof etilgan. bu borada har bir davr alloma va olimlari o'ziga xos qarashlar, usullar va yo'nalishlarni ko'rsatib o'tganlar. Aqliy tarbiya masalalarini yunon faylasuflari hamda sharq mutafakkirlari tomonidan etakchi ilmiy yo'nalishi sifatida o'rganilgan va tadqiq etilgan.

Dunyodagi ko'plab oliy va ilmiy tadqiqot institutarida ta'lim jarayoni sub'ektlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar, loyihalar amalga oshirilmoqda. Taniqli amerikalik olim Uilyam Grem Sumner tanqidiy fikrlashning shaxs hayot va ta'limiy faoliyatida ahamiyatini nihoyatda muhim hisoblagan va shaxsda tanqidiy fikrlashni shakllantirish muammolariga oid tadqiqotlar olib borgan. Sumner tanqidiy fikrlash sog'lom va samarali jamiyat uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi [2, 34-b]. Mutaxassisning fikricha, shaxs to'g'ri qarorlar chiqarish, tahlil qilish, xolisona baholashga intilishi lozim.

Yetakchi mutaxassislardan biri P.Richard ham tanqidiy fikrlashga oid o'zining qimmatli fikrlarini bildirgan. U shaxsning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari uning intellektual qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari asosida yuzaga kelishini izohlashga harakat qiladi. Olim "tanqidiy fikrlash nafaqat intellektual layoqatni namoyon etish, balki, shaxsning mavjudligini bildirishga intilishi"[3, 24-b] degan tavsifni keltiradi. Shu bilan bir qatorda ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi argumentlar muhim ekanligini belgilaydi:

<b>Bosqich</b>	<b>Jarayon</b>
Qiziqish bildirish	Ta'lim oluvchilarda qiziqishning mavjudligi ularni bilishga, ma'lumot to'plashga undaydi.
Tahlil qilish	Tanqidiy fikrlashga kirishayotgan o'quvchi murakkab ma'lumotlarni tushunishga, bosqichma-bosqich izohlashga harakat qiladi.
Mulohaza yuritish	Muammo xususida o'z qarashlarini qabul qila olishga erishish.
Ob'yektivlik	Tanqidiy fikrlashda xolislikka amal qilish, pozitiv yondashishga harakat qilish, kamchilik izlashdan uzoqlashish.
O'ziga ishonish	Muammo yuzasida o'z fikrini bildirishda aniq dalillarga tayanish, shoshilinch va asossiz qarorlardan voz kechish.
Baholash	O'z fikrlari va qarorlarini mujassamlashtirgan holda yakuniy qaror va bahoni bildirish.
Muloqot	Tanqidiy fikrlash natijalarini amalga oshirish. Shaxslararo muloqotda o'z fikrlarini bildirish.

Yuqorida ko'rsatilgan argumentlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Xorijlik mutaxassis Edward M. Glaserning ilmiy tadqiqotlarida: “Tanqidiy tafakkur – mavjud faktlar, kuzatishlar va dalillarni oqilona, xolis tahlil va baholash” deya e’tirof etiladi[4].

Metodologiyasi. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o‘quvchilarga mashg‘ulotlarda muayyan muammo, tarixiy voqea, real hodisalar yuzasidan taqdim etiladigan savollar oddiydan murakkablashib boradi. O‘quvchilar oddiy savollarda nisbatan kamroq faollikni egallasalar, murakkab savollarda o‘z-o‘zidan diqqatni jamlash, xotirani tiklash, o‘zining ijodiy qobiliyatidan foydalanish kabi psixologik jarayonlarga chuqurroq murojaat qiladilar.

Yoshlarni turli “ommaviy madaniyat” hurujlaridan himoya qilishning asosiy omili – ularda bo‘layotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish, tahlil qilish, tanqidiy fikr yuritishni rivojlantirishdan iborat. O‘quvchi-yoshlarda jamiyat hayotiga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, ro‘y berayotgan hodisalarga nisbatan daxldorlik hissini kuchaytirish, milliy madaniyatimizga tajavvuz qilayotgan kuchlarga nisbatan murosasiz bo‘lish uchun qalb va ruh osoyishtaligi, o‘z nuqtai nazari, milliy g‘urur tuyg‘usiga ega bo‘lish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi omillarga tayangan holda o‘quvchi-yoshlarni milliy qahramonlarning tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish, atrof-muhitni ko‘lamzorlashtirish, inson salomatligi masalalarida olib borgan faoliyatlari bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirib borish nazarda tutiladi. Ajdodlarimizning tabiatni muhofaza qilishga bo‘lgan e’tibori, tuproq, suv, havoni toza saqlashgi intilish, o‘simlik va hayvonot olamini parvarishlash, ko‘kalamzorlashtirish, odamlar salomatligini, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga bo‘lgan harakatlari madaniy tariximizda milliy qadriyat sifatida necha asrlardan beri e‘zozlanib kelinmoqda.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarni bilim imkoniyatlarini yangi bosqichga ko‘tarish bilan bir qatorda, o‘zlarida mavjud bilim, tushuncha, axborotlarni yangi ma‘lumotlar bilan sintezlashga, umumlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. Bunda o‘quvchilarda refleksiylash, imitatsiyalash, o‘z immanentligi va nuqtai nazarini ifodalash, jamoa bilan muloqotga kirishish, diskussiyani amalga oshirish jarayonlari faollashadi.

Tanqidiy fikrlashni pedagogikada shaxsni aqlan rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi atama sifatida izohlash mumkin. Chunki tanqidiy fikrlash jarayoni shaxsning egallagan bilimlari, intellektual qobiliyati, madaniyatligining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish ular uchun muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishda, jamiyat hayotida, tengdoshlari jamoasida faol bo‘lishga va o‘z pozitsiyasini egallashga komaklashadi. shuning tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga o‘zi egallagan bilim, axborot va g‘oyalarini ko‘pchilikka ma‘lum qila olish, tarkiban murakkab bo‘lgan masalalarni tushunish, asosli va maqbul qarorlar qabul qilish, o‘z nuqtai nazari bildirishning amaliy jarayonidir.

Tanqidiy fikrlash bir qator psixologik va pedagogik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Idrok, intellekt, xotira, intuitsiya, hissiyot, sezgi, kabi psixologik jarayonlar tanqidiy fikrlashning ob‘ektiv tuzulmasini shakllantiradi. Madaniyat, ma‘naviyat, axloq, dunyoqarash, intellektual rivojlanganlik kabi pedagogik tushunchalarning mavjudligi tanqidiy fikrlashning sub‘ektiv asoslari tashkil etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash jarayoniga olib kirish uchun shaxsga yo‘naltirilgan bir qancha rivojlantiruvchi pedagogik va psixologik jarayonlar amalga oshirishga tayyorlash lozim.

a) psixolog tomondan:

- o‘quvchilarni olamni, jamiyatni, insonlarni, muammo va maqsadlarni idrok etishga;
- tushuncha, ma‘lumot, bilim va tajribalarni xotirada saqlashga;
- so‘zlash, fikr yuritish va bayon qilishga, oqilona qarorlar qabul qilish, anglab harakatlanishga oid intellekt sohasini rivojlantirishga;
- o‘z ichki sezgi va intuitsiyasiga ishonitirshga yo‘naltirilgan jarayonlar.

b) pedagogik tomondan:

- o'quvchini umumiy madaniy saviyasini oshirishga, ijodiy-madaniy qobiliyatlarini shakllantirishga, davrning madaniy muhitini anglashga, o'zini madaniyatli shaxs sifatida shakllantirishga;

- odob axloq qoidalariga bo'ysunish, o'z xulq-atvorini tahlil etish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish, shaxslararo munosabatlarda insonparvar bo'lish;

- o'z mustaqil fikriga ega bo'lish, o'z qarashlari va g'oyalarini ayta olish, o'z ustida ishlash, kitob o'qishga qiziqtirish, insoniy fazilatlar yoki yomon illatlarni farqlashga o'rgatish kabi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda milliy qahramonlar faoliyatidan foydalanish, milliy qahramonlar faoliyatining ibratli tomonlarini o'quv-tarbiyaviy material sifatida o'quvchilarga taqdim qilish natijasida o'quvchilarning avvalo madaniy dunyoqarashi shakllanib boradi. Madaniy merosga oid bilimlarni o'quvchilarga taqdim etish ularni ajdodlarimizning bunyodkorlik faoliyati bilan yaqindan tanishishlariga ko'maklashadi. Pedagogika ensiklopediyasida madaniy meros quyidagicha izohlangan: Madaniy meros [5, 224-b] – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ma'naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va madaniy qarashlar, xalq madaniyati va ijodida ifodalangan moddiy hamda ma'naviy boyliklarni anglatuvchi tushuncha. Madaniy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab- avaylash, boyitish, yosh avlod ongiga ular haqidagi ma'lumotlarni etkazish, ulardan faxrlanish hissini tarbiyalash orqali milliy g'ururni shakllantirish katta pedagogik ahamiyatga ega.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda milliy qahramonlarning madaniyati, madaniy faoliyat yutuqlari bilan tanishtirib borishda tarixiy-madaniy yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Milliy qahramonlarimiz hisoblangan Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning madaniy faoliyati haqida ko'plab tarixiy manbalarda ma'lumot berilgan.

Amir Temur va Temuriylar davri madaniy rivojlanishning eng yuksak cho'qqisiga chiqqan. Milliy qahramon hisoblangan Amir Temur nafaqat buyuk sarkada, davlat arbobi, shu bilan bir qatorda yuksak axloq va madaniyat sohibi bo'lgan. O'zining ma'naviy-ma'rifiy hamda bunyodkorlik ishlari bilan ilmu fan va madaniyatning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Amir Temurning ma'naviy-manadaniy yo'riqnomasi va tanqidiy fikrlar majmui sifatida e'tirof etilgan "Temur tuzuklari"da axloq qoidalariga, shariatga amal qilish, shaxslararo muloqot va muomala madaniyati, olim va fuzalolarni, ziyo ahlini qadrlash, fahmu farosatli bo'lish borasida o'zining qimmatli ibratlarini taqdim qilgan.

Amir Temur o'z faoliyatida yurtni obod qilish, uning tabiatini go'zallashtirish, tuproqlarini unumdor qilish kabi ishlarni juda muhim hisoblab, bu sohada katta ishlarni amalga oshirgan. Shu bilan bir qatorda o'zining bunyodkorlik ishlari bilan ko'pchilikka ibrat bo'lgan. Amir Temur o'z tuzuklarida shunday deydi: "Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar, hammomlar qurishni, musofir yo'lovchilar uchun yo'l ustida rabotni bino qilishni, daryolar ustida ko'priklar qurishni buyurdim. Kimki biron sahroni obod qilsa yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan erni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchunchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'ilsin"[6]. Natijada ayni shu davrda madaniy yodgorlik ko'plab barpo etilgan.

Xulosa va echim: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish prinsiplari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchi-yoshlarni maqsad sari undab, ularda ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Ulug' ajdodlarimiz har doim inson sha'ni, qadr-qimmatini yuksak tutib, tili, dini, millati, jamiyatdagi ijtimoiy mavqe'idan qat'iy nazar, har bir insonga hurmat-ehtiromlar ko'rsatish lozimligini ta'kidlaganlar. Jinoyat uchun jazo, ezgulik uchun rag'bat muqarrarligini uqtirganlar. Ezgu amallarni qilishga, o'z nafsini tiyishga, g'azab va jaxlga erk bermaslikka, insoniylik nurini buzuqlik, razolat bilan chulg'amaslikka da'vat etib, inson uchun eng go'zal libos, ilm, odob, ahloq ekanligini, o'zaro munosabatlarda hamjihat bo'lish lozimligini ta'kidlaganlar. Sharq



mutaffakirlari ota-onalar va ustozlarni bolaning o'zligini tan olish, unga qadriyat sifatida yondashib, hurmat bilan munosabatda bo'lish lozim deb bilganlar.

O'quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda milliy mentalitetimiz bilan bog'liq bo'lgan quyidagi omillarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi:

- o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish;
- milliy an'analar va urf-odatlar, unitilmas qadriyatlarni egallashga o'rgatish;
- ajdolar merosiga bo'lgan e'tibor va qiziqishni uyg'otish;
- milliy qahramonlar shaxsi va ular faoliyati bilan ishlar bilan yaqindan tanishtirish;
- Vatan taqdiri, yurt kelajagiga daxldorlik hissini uyg'otish.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasida hamda ota-onalar bilan bo'lgan munosabatda o'zaro hurmatga asoslangan muomala madaniyatini shakllantirish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan mas'uliyatli bo'lish;
- sinf va sinfdan tashqari ma'naviy, ma'rifiy, ilmiy, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va unda ishtirok etish;

- o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasida o'zini tutish, yurish, turish, gigiena va salomatlik qoidalariga rioya qilishi;

- o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasida o'z hatti-harakatlarini tahlil qilish, maktabda, sinfda, oilada, jamiyatda bo'layotgan voqealarga o'z fikrini, tanqidiy tahlilini bayon etish.

Tanqidiy fikr yurita oladigan o'quvchilarda o'z fikrini, munosabatini, qarashlarini bayon etish kompetensiyasini shakllantirish ham muhim hisoblanadi. Shunu alohida ta'kidlash kerakki, tanqidiy fikrlash aniq ma'lumotlarga, bilimlarga, tajribalarga asoslanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. Jamoa // Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b

2. U.G.Samner. “Народные обычаи”. Folkways. Boston, 1906.

3. Paul Richard W. Critical Thinking: What Every Person Needs to Survive in a Rapidly Changing World. Rohnert Park, CA: Center for Critical Thinking and Moral Critique, Sonoma State Univ., 1990.

4. Edward M. Glaser. An Experiment in the Development of Critical Thinking. Columbia University, 1941.

5. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

6. Temur Amir. Temur tuzuklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.

## **PEDAGOGIKADA KASBIY RIVOJLANISH UCHUN SUN'IY INTELEKTGA ASOSLANGAN FIKR-MULOHAZALAR MEXANIZMLARI**

*No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi,  
I.Ibrat nomidagi Namangan Davlat Chet Tillari Instituti  
Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasida o'qituvchisi*

*Abstrakt. Ta'lim muassasalarida sun'iy intellektning (AI) qo'llanilishi o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun sezilarli imtiyozlarni taklif qiluvchi ilg'or qayta aloqa mexanizmlarini joriy qildi. Ushbu maqola real vaqt rejimida fikr-mulohazalarga, shaxsiylashtirilgan baholashga va moslashuvchan o'rganish bo'yicha tavsiyalarga e'tibor qaratib, pedagogik o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan AIga asoslangan qayta aloqa mexanizmlarini ko'rib chiqadi. U ushbu tizimlarni boshqaradigan tabiiy tillarni qayta ishlash, mashinani o'rganish va bashoratli tahlillar kabi asosiy AI texnologiyalarini o'rganadi va ularning o'qituvchilar o'rtasida fikrlash amaliyotini va maqsadli malakasini oshirishdagi samaradorligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada professional rivojlanishda fikr-mulohaza yuritish uchun Aldan foydalanishning qiyinchiliklari va axloqiy jihatlari, jumladan ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik noto'g'ri potentsial va AI va inson aralashuvi o'rtasidagi muvozanat muhokama qilinadi.*

*Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, qayta aloqa mexanizmlari, kasbiy rivojlanish, pedagogika, o'qituvchilar malakasini oshirish, moslashuvchan ta'lim.*

## **МЕХАНИЗМЫ РЕФЛЕКСИИ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛА В ПЕДАГОГИКЕ**

*Номонхонова Муаттархан Насирхан кизи,  
Наманганский государственный институт иностранных языков имени И. Ибрата  
Преподаватель кафедры гуманитарных наук и физического воспитания*

*Абстрактный. Использование искусственного интеллекта (ИИ) в образовательных учреждениях привело к появлению передовых механизмов обратной связи, которые предлагают значительные преимущества для профессионального развития учителей. В этой статье рассматриваются механизмы обратной связи на основе искусственного интеллекта, предназначенные для поддержки педагогического роста, с упором на обратную связь в реальном времени, персонализированную оценку и рекомендации по адаптивному обучению. В нем рассматриваются ключевые технологии искусственного интеллекта, такие как обработка естественного языка, машинное обучение и прогнозная аналитика, которые управляют этими системами, и подчеркивается их эффективность в улучшении практики мышления и целевых компетенций среди преподавателей. Кроме того, в статье обсуждаются проблемы и этические аспекты использования ИИ для получения обратной связи в профессиональном развитии, включая конфиденциальность данных, возможность алгоритмической предвзятости и баланс между ИИ и вмешательством человека.*

*Ключевые слова: Искусственный интеллект, механизмы обратной связи, профессиональное развитие, педагогика, подготовка учителей, гибкое образование.*

## REFLECTION MECHANISMS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE FOR PROFESSIONAL DEVELOPMENT IN PEDAGOGY

*Nomonkhonova Muattarkhan Nasirkhan qizi*

*Namangan State Institute of Foreign Languages named after I. Ibrat  
Teacher of the Department of Humanities and Physical Education*

*Abstract. The use of artificial intelligence (AI) in educational institutions has introduced advanced feedback mechanisms that offer significant benefits for teachers' professional development. This article reviews AI-based feedback mechanisms designed to support pedagogical growth, with a focus on real-time feedback, personalized assessment, and adaptive learning recommendations. It examines key AI technologies such as natural language processing, machine learning, and predictive analytics that drive these systems, and highlights their effectiveness in improving the thinking practices and target competencies among educators. In addition, the article discusses the challenges and ethical aspects of using AI for feedback in professional development, including data privacy, the potential for algorithmic bias, and the balance between AI and human intervention.*

*Key words: Artificial intelligence, feedback mechanisms, professional development, pedagogy, teacher training, flexible education.*

Kirish. Raqamli ta'lim davrida Sun'iy intellekt (AI) kasbiy rivojlanishda, ayniqsa o'qituvchilar uchun o'z vaqtida, aniq fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun kuchli vosita sifatida paydo bo'ldi. Samarali fikr-mulohazalar o'qituvchilarga o'qitish usullarini takomillashtirish, o'quvchilar ehtiyojlariga moslashish va umrbod ta'limni qo'llab-quvvatlaydigan [1] o'z-o'zini aks ettirish amaliyotlarini rivojlantirishga yordam berish uchun juda muhimdir. An'anaviy qayta aloqa mexanizmlari ko'pincha individual o'qituvchilarning noyob ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan chastota va shaxsiylashtirishga ega emas. Sun'iy intellektga asoslangan qayta aloqa mexanizmlari ushbu cheklovlarni bartaraf etib, moslashtirilgan, uzluksiz va amaliy tushunchalarni taqdim etadi. Ushbu maqola pedagogika sohasidagi sun'iy intellektga asoslangan qayta aloqa mexanizmlarining asosiy funksiyalari, afzalliklari, muammolari va axloqiy jihatlarini o'rganadi. AIga asoslangan qayta aloqa mexanizmlari o'qituvchilar uchun dinamik va shaxsiy fikr-mulohazalarni ta'minlaydigan bir nechta asosiy texnologiyalardan foydalanadi. NLP algoritmlari og'zaki va yozma muloqotni tahlil qiladi, bu AI tizimlariga ravshanlik, ohang va o'qitish usullari haqida fikr-mulohazalarni taqdim etish imkonini beradi. Masalan, sun'iy intellekt real vaqt rejimida o'qituvchilar tilini tahlil qilishi va o'quvchilar bilan aloqani yaxshilash uchun yaxshilanishlarni taklif qilishi mumkin. Mashinani o'rganish modellari o'qituvchilar qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lishi mumkin bo'lgan sohalarni bashorat qilish uchun o'quv xatti-harakatlari, ishlash ma'lumotlari [2] va talabalarning javoblaridagi naqshlarni baholaydi. ML fikr-mulohazalarni individuallashtirish va ma'lumotlarga asoslangan bo'lish imkonini beradi, bu esa o'qituvchilarga takomillashtirish uchun muayyan ko'nikmalarga e'tibor qaratishga yordam beradi. AI tizimlari potentsial muammolarni aniqlash va faol choralarni taklif qilish uchun bashoratli tahlillardan foydalanadi. [3] O'tmishdagi ishlash ma'lumotlarini tahlil qilish orqali bashoratli modellar kelajakdagi kasbiy rivojlanish uchun yo'nalishlarni taklif qilishi mumkin, bu esa uzoq muddatli malaka maqsadlari bilan fikr-mulohazalarni uyg'unlashtirishi mumkin.

Pedagoglar uchun sun'iy intellektga asoslangan fikr-mulohazalar mexanizmlarining turlari

AIga asoslangan qayta aloqa tizimlari o'qitish amaliyotining turli jihatlarini qondirish uchun moslashtirilgan bir qator qayta aloqa turlarini taqdim etadi. O'quv mashg'uloti paytida yoki undan so'ng darhol qayta aloqani ta'minlaydigan AI ilovalari o'qituvchilarga joyida tuzatishlar

kiritish imkonini beradi. Misol uchun, real vaqt rejimida qayta aloqa tizimi o'qituvchini juda tez gapirsa yoki o'ta murakkab tildan foydalansa, ogohlantirishi va yaxshilash bo'yicha darhol takliflar berishi mumkin. O'quv mashg'ulotidan so'ng, sun'iy intellekt vositalari yozib olingan ma'lumotlarni ko'rib chiqishi mumkin, bu vaqtni boshqarish, talabalarning faolligi va o'qitish strategiyalari kabi jihatlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu aks ettiruvchi fikr-mulohazalar o'qituvchilarga o'z faoliyatini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va kelajakda takomillashtirish uchun maqsadli strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. O'qituvchining ishlash ma'lumotlariga asoslanib, AI moslashtirilgan o'quv resurslari va kasbiy rivojlanish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishi mumkin. Moslashuvchan o'rganish bo'yicha takliflar o'qituvchining takomillashtirish sohalariga mos keladigan maxsus ko'nikmalarga oid o'qish materiallari, mikro-kurslar yoki o'quv videolarini o'z ichiga olishi mumkin.[4]

Kasbiy rivojlanishda sun'iy intellektga asoslangan fikr-mulohazalarning afzalliklari. Sun'iy intellektga asoslangan qayta aloqa mexanizmlari o'qituvchilar malakasini oshirish va doimiy kasbiy o'sishda bir qator afzalliklarga ega. AI tizimlari fikr-mulohazalarni individual o'qituvchilarning ehtiyojlariga moslashtiradi, bu tavsiyalar tegishli va amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalar o'qituvchilarga o'zlarining ta'lim maqsadlariga mos keladigan muayyan takomillashtirish sohalariga e'tibor qaratish imkonini beradi.[5] AI bilan bog'liq fikr-mulohazalar o'qituvchilarga ularning ta'limini tanqidiy baholashni rag'batlantiradigan ma'lumotlar va tushunchalar bilan ta'minlash orqali o'z-o'zini aks ettirishga yordam beradi. Ushbu reflektiv jarayon uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishga olib kelishi mumkin, bu esa o'qituvchilarning refleksi amaliyotchi sifatida rivojlanishiga imkon beradi. Inson sharhlovchilariga qarab o'zgarishi mumkin bo'lgan an'anaviy baholashlardan farqli o'laroq, AI standartlashtirilgan mezonlarga asoslangan izchil va ob'ektiv fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Bu xolislik barcha o'qituvchilarning adolatli baho va tavsiyalar olishiga yordam beradi.

AIga asoslangan fikr-mulohazalarda muammolar va axloqiy mulohazalar

AI kasbiy rivojlanishda o'zgaruvchan afzalliklarni taklif qilsa-da, uni qayta aloqa mexanizmlarida qo'llash muayyan qiyinchiliklar va axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi, ularni hal qilish kerak. AI tizimlari ko'pincha o'qituvchilarning ishlashi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari haqida keng qamrovli ma'lumotlarni talab qiladi, bu esa ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi haqida tashvish uyg'otadi. Ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishini va faqat maqsadli maqsadlarda ishlatilishini ta'minlash sun'iy intellektning qayta aloqa tizimlariga ishonchni saqlab qolish uchun juda muhimdir. AI algoritmlari noto'g'ri fikrdan himoyalannmaydi, bu esa fikr-mulohaza sifati va adolatiga ta'sir qilishi mumkin. Noto'g'ri fikr-mulohazalarga yo'l qo'ymaslik uchun AI modellari ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilishi, turli ma'lumotlarga to'plamlari bo'yicha o'qitilishi va potentsial noto'g'ri qarashlarni minimallashtirish uchun muntazam ravishda yangilanishi kerak.[6] AI izchil fikr-mulohazalarni taqdim etsa-da, o'qitishning ba'zi jihatlarni, masalan, hissiy intellekt va sinf muhitini algoritmlar yordamida baholash qiyin. AI fikr-mulohazalarini inson ma'lumotlari bilan birlashtirish yaxlit baholashni ta'minlaydi va o'qitishning nozik tabiatini hurmat qiladi.

AIga asoslangan qayta aloqa mexanizmlarining kelajakdagi yo'nalishlari

Kasbiy rivojlanish uchun fikr-mulohazalarda sun'iy intellektning afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun kelajakdagi bir qancha yo'nalishlarni o'rganishga arziydi. AI fikr-mulohazalari tizimlari mavjud professional rivojlanish platformalari bilan birlashtirilishi mumkin, bu esa o'qituvchilarga malaka oshirish uchun doimiy va mavjud resurslar bilan ta'minlaydi.[7] Ushbu integratsiya o'qituvchilarning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlab, fikr-mulohazalardan harakatga yanada uzluksiz o'tish imkonini beradi. Ovoz, video va matn tahlilini o'z ichiga olgan sun'iy intellekt tizimlari o'qitish samaradorligini yanada kengroq ko'rishni taklif qilishi mumkin. Multimodal teskari aloqa og'zaki bo'lmagan muloqotni,



sindagi energiyani va samarali pedagogikaga hissa qo'shadigan boshqa dinamik omillarni baholashga imkon beradi. Sun'iy intellektga asoslangan fikr-mulohaza mexanizmlari keng tarqalganligi sababli, maxfiylik, adolat va ma'lumotlar shaffofligi masalalarini hal qilish uchun axloqiy ko'rsatmalar ishlab chiqilishi kerak. Ushbu ramkalar AI ilovalari o'qituvchilar huquqlarini hurmat qilishini va ularning axloqiy, mas'uliyatli tarzda kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashini ta'minlaydi.

Xulosa. Sun'iy intellektga asoslangan qayta aloqa mexanizmlari o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish sohasida sezilarli yutuqlarni ifodalaydi. Shaxsiylashtirilgan, ob'ektiv va uzluksiz fikr-mulohazalarni taklif qilish orqali AI o'qituvchilarga o'qitish amaliyotlarini takomillashtirish, reflektiv odatlarni rivojlantirish va rivojlanayotgan ta'lim talablarini qondirish imkonini beradi.[8] Biroq, ma'lumotlarning maxfiyligi, algoritmik tarafdashlik va AI va inson mulohazalari o'rtasidagi muvozanat kabi muammolarni hal qilish samarali va axloqiy qayta aloqa tizimlarini yaratish uchun juda muhimdir. AI texnologiyalari rivojlanishda davom etar ekan, ularning pedagogik rivojlanishni o'zgartirish salohiyati ortib boradi va bu ularni o'qituvchilarning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlashda ajralmas vositaga aylantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murodjon o'g'li U. I. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV TASAVVURINI RIVOJLANISHI VA PEDAGOGIKADA ILMIY IJODKORLIK //Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – T. 10. – №. 1. – C. 218-225.
2. No'monxonova M. N. Bo'lajak tilshunoslarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi // O'zMU Xabarlar 2024, [1/1/1], Toshkent 2024., B. 170-172.
3. Xakimova M., Musaxanova G. Kasbiy pedagogika //Toshkent:«TDIU. – 2013.
4. Mamurov B. Umumiy pedagogika //Barcha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik:– Toshkent. – 2020. – T. 118.
5. Uralovna J. F., Mannopovna J. O., Zoirovna T. F. PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KO'NIKMASINI AMALIY SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY XUSUSIYATLARI //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 206-211.
6. Mirzaxolov N. SUN'IY INTELLEKT–FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTINING YUKSAK BOSQICHI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 1. – C. 212-212.
7. Ergashev U. E. et al. SUNIY INTELLEKTNING MUAMMOLARI, O'RNI VA ISTIQBOLLARI //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 83-89.
8. Alimjanovich K. N., Rayim o'g'li Y. B. SUN'IY INTELLEKT TENDENTSIYALARI: KELAJAKKA NAZAR //PEDAGOG. – 2024. – T. 7. – №. 5. – C. 487-494.
9. Asadovna R. L. TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASINING O'RNI // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2024. – C. 853-861.

## **BO‘LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARDA O‘QUVCHILARNI SAVODGA O‘RGATISHGA DOIR METODIK TAYYORGARLIKLARINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING SAMARASI**

*Pardayeva Munira Yusufovna*

*Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning mutaxassislik fani doirasidagi metodik tayyorgarliklarini rivojlantirishda mustaqil ta’limning o’rni, unda qo’llaniladigan texnologiyalar va uning tashkiliy masalalari yoritilgan.*

*Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, mustaqil ish, mustaqil ish darajalari.*

## **ВЛИЯНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА РАЗВИТИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ К ОБУЧЕНИЮ ГРАМОТНОСТИ БУДУЩИХ ОЛИГОФРЕНОПЕДАГОГИ**

*Пардаева Мунира Юсуфовна*

*Базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета*

*Аннотация. В данной статье освещена роль самостоятельного образования в развитии методической подготовки студентов по специальности, также даны понятия об используемых технологиях и его организационные вопросы.*

*Ключевые слова: самостоятельное образование, педагогические технологии, информационные технологии, самостоятельная работа, уровни самостоятельной работы.*

## **THE EFFECT OF INDEPENDENT EDUCATION IN DEVELOPING METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE OLIGOPHRENOPEDAGOGES IN TEACHING STUDENTS TO LITERACY**

*Pardayeva Munira Yusufovna*

*Tashkent State Pedagogical University, PhD student*

*Annotation. This article highlights the role of independent education in the development of methodological training of students in the specialty, and also provides concepts about using the technologies and its organizational issues.*

*Key words: independent education, pedagogical technologies, information technologies, independent work, levels of independent work.*

Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta’lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo‘lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta’lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o‘qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta’lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta’lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Qarorida mustaqil ta’lim soatlari

ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

Hozirgi kunda ta'limga qaratilayotgan diqqat va e'tibor kun sayin kuchayib bormoqda. Jahonda PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlarda ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda. Islohotlarni amalga oshirishda xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratishga ham e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, biz avvalo ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga harakat qilmog'imiz zarur. Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini individual amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi. Bu oliy ta'lim muassasasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Ta'lim dasturini o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masalalari va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Talabalarda mustaqil bilimlarni to'ldirib borish, ma'lumotlar oqimi ichidan kerakligini ajratib olish va ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish, sifatli kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ko'p qirrali va murakkab harakat va o'zaro tizimdir. Kredit-modul tizimidagi e'tibor uning ikkita xususiyatiga qaratilgan:

- talabalarining mustaqil ishi to'g'risida;
- o'quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimini va talabalarining ta'lim yutuqlarini baholashning reyting tizimini ta'minlash bo'yicha. Kredit-modulli tizimning joriy etilishi oqituvchi va talabaning samarali ishini rag'batlantirishning muhim omilidir.

Mustaqil talim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan talimning faol metodi. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarining aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir. Talabalarining mustaqil talimni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Talabalarining mustaqil talimini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

- bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo‘llarini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;
- talabalarda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- talim oluvchilarda bilim olishga doir masuliyatni oshirish;
- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon berish;
- talim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- maruzalar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o‘quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash;

Ta‘lim yo‘nalishi (mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

1. Tarmoqdan axborot izlash – veb-brauzer, malumlotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-malumotnoma tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish.

Axborot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlarga quyidagilar kiradi: mavzu bilan bog‘liq saytlarga taqriz yozish; malum mavzuga doir tarmoqdagi mavjud referatlarni tahlil etish, ularni baholash; maruza rejasiga doir o‘z variantini yoki uning malum bir qismini yozish; foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish; amaliy mashg‘ulotlardan lavha tayyorlash; mavzuga doir maruza tayyorlash; mavzuga doir munozara o‘tkazish; professor-o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan veb-kvestda ishlash.

2. Tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferentsiyalardan foydalanish. Tarmoqda dialogni amalga oshirishni quyidagicha ko‘rinishda tashkil etish mumkin: o‘tkazilgan yoki o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan maruzalarni muhokama qilish; mutaxassis yoki talabalar bilan sinxron telekonferentsiya (chat)da muloqotni amalga oshirish.

3. Tematik veb-sahifa, veb-kvest (topshiriq)lar yaratish – html-muharriri, veb-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish. Tematik veb-sahifa, veb-kvest (topshiriq)lar yaratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: saytda talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlarni joylashtirish; mavzuga doir adabiyotlar ro‘yxatini chop etish; individual va kichik guruhlarda ishlashga doir mavzuli veb-sahifalarni yaratish; mavzu bo‘yicha ishlash uchun veb-kvestlar yaratish va ularni kursga doir saytda joylashtirish.

Kredit-modulli tizimning joriy etilishi o‘qituvchi va talabaning samarali ishini rag‘batlantirishning muhim omilidir. Malakali kadrlar tayyorlashda ta‘lim jarayonini samarali



tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Ta'lim dasturini o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masalalari va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim.

Talabalarda mustaqil bilimlarni to'ldirib borish, ma'lumotlar oqimi ichidankerakligini ajratib olish va ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish, sifatli kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Talabaniq mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari

jihatidan ta'minlanadi, hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

O'quv jarayonida pedagogik faoliyat elementlarini amalga oshirish bo'yicha talabalarning mustaqil ishlashi uchun vazifalar tizimi o'qitishning faol usullaridan ularning xilma-xilligi, shu jumladan ishbilarmonlik o'yinlari elementlaridan keng foydalanishni nazarda tutadi. Umuman olganda talabalarning mustaqil faoliyatining to'rtta asosiy turi mavjud.

Talabalarning mustaqil ishlarining birinchi turi o'zlarini o'rganish jarayonida o'zi javob topishi kerak bo'lgan savollarni ajratib ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirishga bag'ishlangan. Ushbu bosqichda ular ma'lum bir bilim sohasining ob'ektlarini taniydilar.

Mustaqil ishning ikkinchi turi - muammolarni hal qilish uchun ma'lum bilimlarning nusxasini yaratish. Bu yerdagi talabalar mustaqil ish jarayonida olingan ma'lumotlarni rekonstruksiya qilishlari va muammolarni hal qilish usullarini yaratishning eng samarali usullarini tanlashlari kerak. Uchinchi tur ko'nikmalarni shakllantirishga bag'ishlangan bo'lib, uning yordamida talaba odatiy bo'lmagan muammolarni hal qilishni o'rganadi. Yig'ilgan rasmiylashtirilgan tajribani tahlil qilgandan so'ng, talaba o'z qobiliyatlari va

bilimlarini odatiy bo'lmagan vazifalarni bajarish uchun uzatadi. U o'zi uchun yangi ma'lumotlarni ishlab chiqarib, noma'lum narsalar va vaziyatlarni o'rganadi. Mustaqil ishning to'rtinchi turi - talabaniq ijodiy tarkibiy qismini rivojlantirish uchun sharoit yaratish. Ushbu bosqichda u o'rganilayotgan ob'ektlarni chuqur o'rganadi va o'rganilayotgan ob'ektning mutlaqo yangi aloqalari va munosabatlarini o'rnatadi. Talaba uchun o'quv faoliyati doirasini to'g'ri aniqlay olish va uning mustaqil faoliyatining samarali usullarini ishlab chiqish juda muhimdir. Talabaniq mustaqil ishi nafaqat ma'lumotga ega bo'lishi, balki talabaniq ijodiy salohiyatini rivojlantirishi kerak. Vaqt o'tishi bilan mustaqil ish qobiliyatlari odat bo'lib qoladi va talaba faoliyatining tabiiy qismiga aylanadi. Talaba uchun o'quv faoliyati doirasini to'g'ri aniqlay olish va uning mustaqil faoliyatining samarali usullarini ishlab chiqish juda muhimdir. Talabaniq mustaqil ishi nafaqat ma'lumotga ega bo'lishi, balki talabaniq ijodiy salohiyatini rivojlantirishi kerak. Vaqt o'tishi bilan mustaqil ish qobiliyatlari odat bo'lib qoladi va talaba faoliyatining tabiiy qismiga aylanadi.

Mustaqil ish talaba faoliyatidagi takrorlash va ijodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunga qarab mustaqil ishning uchta darajasi ajratiladi. Reproduktiv darajaga o'qish, o'quv adabiyotlarini yozib olish, ma'ruzalar tinglash, audio va video yozuvlarni tinglash, yodlash, takrorlash, yodlash, Internet manbalari va o'quv materiallarini takrorlash kiradi.

Kognitiv darajaga xabarlar, ma'ruzalar tayyorlash, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarda ma'ruzalar, intizomiy masalalar bo'yicha adabiyotlarni tanlash, referatlar, referatlar, testlar yozish, ishbilarmonlik o'yinlariga tayyorgarlik va boshqalar kiradi. Ijodiy daraja - mustaqil ish darajasi - ilmiy maqolalar, tezislar yozish, tadqiqot ishlarida qatnashish, talabalar ilmiy konferensiyasi, olimpiada va boshqalarda qatnashishni o'z ichiga oladi. Bu tizimni o'ziga xos jihati shundaki, bunda talabalarning mustaqil ta'limiga alohida urg'u beriladi, bu esa o'z navbatida bo'lg'usi mutaxassislarda butun umri davomida o'qib-o'rganish ko'nikmasini shakllantiradi.

Didaktik jarayonlarni jadallashtirish, talabalarning mustaqil ta'lim olish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv davrining I semestrda tyutorlar, ARM xodimlari va fan masullari tomonidan mazkur jarayonni amalga oshirish tartibi bo'yicha davriy ravishda o'quv seminarlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qo'ysinov O.A. Uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash taraqqiyot me'zoni. "Texnologiya va professional ta'limni modernizatsiyalash, muammo va yechimlar" mavzusida Respublika miqiyosida ilmiy-texnik anjuman. Buxoro. 20.11.2020.
2. Qo'ysinov O.A. O'quvchilar mustaqil ishlarini bajarishni faollashtiruvchi motivlar. Ta'lim innovatsiyalari va o'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. T.:2012.
3. <https://www.sdvunf.uz/talaba-mustaqil.html>
4. Mamajonova K.A. "Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning ob'ektiv va sub'ektiv jihatlari".

## IQTISODIYOT VA TIL BIRLIGI: IQTISODIYOT TALABALARI UCHUN INGLIZ TILINI SAMARALI O'QITISH

Po'latova Ziyoda Abdumalikovna  
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti PhD dotsenti

*Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyot talabalari uchun ingliz tilini o'rgatishda samarali metodik yondashuvlar va strategiyalar tahlil qilingan. Ingliz tili talabalarning xalqaro iqtisodiyotga integratsiyasi uchun muhim vosita bo'lib, ularni ilmiy va amaliy faoliyatda raqobatbardosh qiladi. ESP yondashuvi, case-study, kommunikativ usullar, va texnologik integratsiya asosida o'qitish metodlari ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini iqtisodiy kontekstda o'qitish talabalar bilim va ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi.*

*Kalit so'zlar: iqtisodiyot, ingliz tili, ESP, case-study, kommunikativ yondashuv, iqtisodiy muammolar, texnologik integratsiya.*

## ЭКОНОМИКА И ЯЗЫК: ЭФФЕКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ СТУДЕНТОВ-ЭКОНОМИСТОВ

Пулатова Зиеда Абдумаликовна  
Ташкентский государственный экономический университет PhD. доцент

*Аннотация: В статье рассматриваются эффективные методические подходы и стратегии преподавания английского языка студентам-экономистам. Английский язык является важным инструментом интеграции студентов в международную экономику, обеспечивая их конкурентоспособность в научной и практической деятельности. Рассмотрены методы обучения на основе подходов ESP, кейс-стади, коммуникативных методов и технологической интеграции. Результаты показывают, что преподавание английского языка в экономическом контексте эффективно развивает знания и навыки студентов.*

*Ключевые слова: экономика, английский язык, ESP, кейс-стади, коммуникативный подход, экономические проблемы, технологическая интеграция.*

## ECONOMICS AND LANGUAGE: EFFECTIVE ENGLISH LANGUAGE TEACHING FOR ECONOMICS STUDENTS

Pulatova Ziyoda Abdumalikovna  
PhD Associate Professor, Tashkent State University of Economics

*Annotation: This article analyzes effective methodological approaches and strategies for teaching English to economics students. English serves as a crucial tool for integrating students into the global economy, enhancing their competitiveness in academic and practical activities. The teaching methods discussed include ESP approaches, case studies, communicative methods, and technological integration. The findings indicate that teaching English in an economic context effectively develops students' knowledge and skills.*

*Keywords: economics, English language, ESP, case study, communicative approach, economic challenges, technological integration.*

**Kirish.** Bugungi kunda iqtisodiyotning globallashuvi va xalqaro aloqalarning kuchayishi sababli iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislar uchun ingliz tilini bilish dolzarb zaruratga aylandi. Ingliz tili xalqaro iqtisodiy munosabatlarda asosiy muloqot vositasi sifatida namoyon bo'lib, iqtisodiy jarayonlar va tendensiyalarni chuqur tushunish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar, iqtisodiy hisobotlar va statistikalarning aksariyati ingliz tilida chop etilgan bo'lib, talabalarning ushbu tilni o'zlashtirishi ular uchun bilim va ko'nikmalarni kengaytirish

imkoniyatlarini ochadi.

Mazkur maqolada iqtisodiyot talabalari uchun ingliz tilini samarali o'qitishning muhim jihatlari o'rganiladi. Talabalarining kasbiy ehtiyojlariga mos ravishda til o'rgatish metodlarini tanlash, o'quv jarayonini zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish, shuningdek, o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini mustahkamlash orqali ularning til o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Ingliz tilining iqtisodiyot talabalari uchun o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi, nafaqat lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirish, balki ularning professional rivojlanishi uchun ham muhim omildir.

Iqtisodiyot va til birligining ahamiyati

Ingliz tili zamonaviy iqtisodiy tizimlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, xalqaro iqtisodiyotning global tili sifatida qabul qilingan. Bu iqtisodiyot va til birligini o'quv jarayonida integratsiyalashning dolzarbligini ta'kidlaydi. Quyida iqtisodiyot va ingliz tili birligining ahamiyati keltirilgan:

1. Xalqaro muloqot vositasi sifatida ingliz tili

Ingliz tili xalqaro biznes, bank ishi, marketing va menejment kabi sohalarda muhim kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. Iqtisodiyot talabalari ushbu tilni o'zlashtirish orqali xalqaro aloqalarni samarali o'rnatish va boshqa mamlakatlar mutaxassislari bilan muloqot qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Xususan:

- Xalqaro iqtisodiy forumlarda qatnashish;
- Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda faol ishtirok etish;
- Global bozorlar uchun mos biznes strategiyalar ishlab chiqish.

2. Akademik va ilmiy resurslarga kirish

Ingliz tilida chop etilgan iqtisodiy ilmiy maqolalar, hisobotlar va kitoblar dunyodagi eng nufuzli bilim manbalaridan hisoblanadi. Talabalar ushbu resurslardan foydalanish orqali:

- Zamonaviy iqtisodiy tendensiyalarni chuqur o'rganish;
- O'z ilmiy tadqiqotlarida yuqori sifatli manbalarga asoslanish;
- Ilmiy muloqot madaniyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Professional karyera imkoniyatlarini kengaytirish

Ingliz tilini yaxshi biladigan iqtisodiyot talabalari uchun xalqaro kompaniyalarda ish topish yoki chet elda o'qish imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi. Xususan:

- Global biznes tashkilotlarida ish faoliyatini olib borish;
- Xorijiy bozorlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- Professional iqtisodiy loyihalarda yetakchilik qilish imkoniyatiga ega bo'lish.

4. Iqtisodiy atamalarni o'zlashtirish

Ingliz tilidagi iqtisodiy terminologiya global iqtisodiyotning asosiy muloqot tili hisoblanadi. Talabalar ushbu atamalarni o'zlashtirish orqali nafaqat iqtisodiy adabiyotlarni o'qiy olish, balki zamonaviy iqtisodiy kontentni tahlil qilish va tushunish ko'nikmasini ham rivojlantiradilar.

5. Texnologik rivojlanish va ingliz tili

Bugungi kunda iqtisodiyot sohasidagi ko'plab zamonaviy dasturiy ta'minotlar va platformalar ingliz tilida ishlab chiqilgan. Talabalar bu vositalarni samarali o'zlashtirish uchun ingliz tilini bilishlari kerak. Bu ularga:

- Moliyaviy modellashtirish vositalarini ishlatish;
- Xalqaro moliyaviy tahlil dasturlarini tushunish;
- Raqamli iqtisodiyotda faol bo'lish imkoniyatini beradi.

Iqtisodiyot va til birligi nafaqat talabalarining kasbiy rivojlanishi, balki ularning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta'minlashda ham katta rol o'ynaydi. Ingliz tilini iqtisodiyot talabalari uchun o'rgatish, ularning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bois, iqtisodiyot va ingliz tili integratsiyasi o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanishi kerak.



## O'qitishning samarali strategiyalari

Iqtisodiyot talabalari uchun ingliz tilini o'qitishda samarali strategiyalarni qo'llash, nafaqat lingvistik bilimlarni rivojlantirish, balki talabalarning iqtisodiy ko'nikmalarini oshirishga ham xizmat qiladi. Quyida samarali o'qitish strategiyalari keltirilgan:

### 1. ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi

ESP, ya'ni maxsus maqsadlar uchun ingliz tili, iqtisodiyot sohasidagi talabalarga moslashtirilgan o'quv dasturlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Iqtisodiy atamalar va tushunchalarni o'rgatish;
- Iqtisodiyotga oid matnlar, tahlillar va hisobotlar bilan ishlash;
- Talabalarni iqtisodiy munozaralar va yozma ishlar uchun tayyorlash.

Amaliy misol: Talabalarni iqtisodiyotga oid xalqaro statistik hisobotlarni tahlil qilish va natijalarni muhokama qilish jarayoniga jalb qilish.

### 2. Case-study (amaliy tahlil) yondashuvi

Case-study usuli talabalarni real iqtisodiy vaziyatlar orqali ingliz tilida fikr yuritish va muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Bu strategiya:

- Real iqtisodiy masalalar orqali tilni amalda qo'llashni o'rgatadi;
- Muloqot va tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- Guruh bo'lib ishlash va o'z fikrini mantiqiy asoslash imkonini beradi.

Amaliy misol: Talabalarga xalqaro kompaniyaning moliyaviy holati bo'yicha ingliz tilidagi hisobot beriladi. Ular hisobotni o'qib, tavsiyalarni ingliz tilida taqdim qilishlari talab etiladi.

### 3. Kommunikativ yondashuv

Kommunikativ yondashuvning maqsadi talabalarni iqtisodiy mavzularda erkin fikr bildirish va muloqot qilishga o'rgatishdir. Ushbu yondashuv doirasida:

- Muloqotni rivojlantiruvchi faoliyatlar (munozaralar, taqdimotlar) tashkil etiladi;
- Talabalar iqtisodiyotga oid ingliz tilidagi materiallar asosida o'z fikrlarini ifodalashga rag'batlantiriladi;

- Rol o'ynash (role-playing) usullari qo'llanadi.

Amaliy misol: Talabalar xalqaro iqtisodiy forumni simulyatsiya qilib, unda turli mamlakatlarning vakillari sifatida qatnashadilar va ingliz tilida muhokamalar olib boradilar.

### 4. Integratsiyalashgan o'quv yondashuvi

Iqtisodiyot darslari bilan ingliz tili darslarini integratsiya qilish talabalarga ikkala fan bo'yicha bilimlarni birgalikda rivojlantirish imkonini beradi.

- Ingliz tili darslarida iqtisodiyotga oid mavzularni kiritish;
- Infografikalar, grafiklar va diagrammalarni tahlil qilish;
- Raqamli iqtisodiyotga oid ingliz tilidagi zamonaviy kontentlardan foydalanish.

Amaliy misol: O'qituvchi talabalarga biron bir mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlari haqida infografika taqdim etadi va undan foydalanib muhokama tashkil qiladi.

### 5. Audio va video materiallardan foydalanish

Talabalarni ingliz tilida tinglash va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun iqtisodiy mavzudagi audio va video resurslardan foydalanish muhimdir.

- Xalqaro iqtisodiy yangiliklar va intervyularni tinglash;
- Iqtisodiy mavzudagi podkastlarni muhokama qilish;
- Video tahlil asosida yangi atamalarni o'rgatish.

Amaliy misol: Talabalar xalqaro iqtisodiy yangiliklarni (masalan, BBC, CNN) tinglaydi va asosiy g'oyalarni ingliz tilida qayta hikoya qiladi.

### 6. Problema asosida o'qitish (Problem-Based Learning, PBL)

Problema asosida o'qitish strategiyasi talabalarni iqtisodiy muammolarni hal qilish jarayoniga jalb qilib, ingliz tilidan foydalangan holda yechim topishga undaydi.

- Iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish uchun guruhlariga bo'lish;

- Har bir guruhga ingliz tilida yozma yoki og‘zaki yechimlarni taqdim ettirish;
- Iqtisodiy masalalarning turli yechimlarini taqqoslash.

Amaliy misol: Talabalar global iqtisodiy inqiroz sabablarini ingliz tilida tahlil qilishadi va bu borada takliflar ishlab chiqadilar.

### 7. Texnologiyalardan foydalanish

Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini iqtisodiyot talabalari uchun o‘rgatishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

- Onlayn iqtisodiy simulyatsiyalar;
- Raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish;
- Til o‘rgatish uchun maxsus ilovalar (masalan, Quizlet, Kahoot) yordamida iqtisodiy atamalarni takrorlash.

Amaliy misol: Talabalar onlayn simulyatsiya yordamida xalqaro savdo muhitini yaratadilar va iqtisodiy jarayonlarni ingliz tilida muhokama qiladilar.

Yuqorida keltirilgan strategiyalar iqtisodiyot talabalari uchun ingliz tilini o‘qitish jarayonini samarali va mazmunli qilishga yordam beradi. Metodik yondashuvlarning turlicha kombinatsiyasidan foydalanish talabalar uchun nafaqat tilni, balki iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday yondashuvlar talabalarni xalqaro iqtisodiy muhitga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

### Metodik yondashuvlar

Iqtisodiyot talabalari uchun ingliz tilini o‘rgatishda metodik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Quyida talabalarning ehtiyojlari va maqsadlariga mos keluvchi asosiy metodik yondashuvlar bayon etiladi.

#### 1. Kommunikativ yondashuv

Kommunikativ yondashuv talabalarning ingliz tilida erkin muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv orqali talabalar iqtisodiy mavzularda fikr yuritish va o‘z pozitsiyasini ifodalashni o‘rganadilar.

#### Asosiy elementlar:

- Muloqotga yo‘naltirilgan faoliyatlar (munozaralar, guruh loyihalari).
- Iqtisodiyotga oid intervyu, muzokaralar va taqdimotlarni mashq qilish.
- Amaliy vaziyatlar asosida tilni qo‘llash.

Misol: Talabalar xalqaro iqtisodiy muammolar bo‘yicha munozara o‘tkazadilar, unda o‘z takliflarini ingliz tilida ifoda etadilar.

#### 2. Task-based Language Teaching (TBLT)

Mazkur yondashuv talabalarni amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida ingliz tilini o‘rganishga jalb qiladi. TBLT iqtisodiyotga oid aniq vazifalarni ingliz tilida hal qilish orqali til va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

#### Asosiy elementlar:

- Iqtisodiy topshiriqlarni bajarish (masalan, bozor tahlili, iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqish).
- Tahlil natijalarini yozma va og‘zaki shaklda taqdim etish.
- O‘zaro fikr almashish va tahlillarni baholash.

Misol: Talabalar bozorni tahlil qilish uchun iqtisodiy ma’lumotlarni ingliz tilida o‘rganadilar va natijalarni guruhda taqdim etadilar.

#### 3. Problem-based Learning (PBL)

Problema asosida o‘qitish yondashuvi talabalarni iqtisodiy masalalarni hal qilishda ingliz tilidan foydalanishga undaydi. Ushbu yondashuv talabalar fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ularni mantiqiy va ijodiy yechimlar topishga jalb qiladi.

#### Asosiy elementlar:

- Real iqtisodiy muammolarni ingliz tilida muhokama qilish.
- Muammolarga asoslangan guruh loyihalarini amalga oshirish.

- Muammoni hal qilish bo'yicha yechimlarni taqdim etish.

Misol: Talabalar global iqtisodiy inqirozga sabab bo'lgan omillarni tahlil qilib, uni hal qilish bo'yicha takliflarni ingliz tilida ishlab chiqadilar.

#### 4. Integrativ yondashuv

Integrativ yondashuv iqtisodiyot va ingliz tilini bir vaqtning o'zida o'rgatishni maqsad qiladi. Bu yondashuvda iqtisodiy fanlarning mazmuni ingliz tili darslariga integratsiya qilinadi.

Asosiy elementlar:

- Iqtisodiy mavzudagi ingliz tilidagi maqolalar va matnlarni o'rganish.
- Iqtisodiy infografikalar va diagrammalar asosida muloqot qilish.
- Til o'rganish jarayonida iqtisodiyotga oid zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilish.

Misol: Talabalar bir davlatning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini ingliz tilida tahlil qilib, xulosalarni yozma shaklda taqdim etadilar.

#### 5. Audio-lingvistik yondashuv

Bu yondashuv talabalarning tinglash va talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Iqtisodiyotga oid real audio va video materiallardan foydalanish ushbu jarayonni yanada samarali qiladi.

Asosiy elementlar:

- Xalqaro iqtisodiy yangiliklar va intervyularni tinglash.
- Talaffuzni rivojlantirish uchun iqtisodiy atamalarni qayta takrorlash.
- Tinglangan matnlar bo'yicha muhokamalar o'tkazish.

Misol: Talabalar iqtisodiyot mavzusidagi xalqaro yangiliklarni tinglaydilar va o'z fikrlarini ingliz tilida qayta hikoya qiladilar.

#### 6. Interaktiv o'qitish

Interaktiv metodlar talabalarning o'quv jarayoniga faol jalb qilinishini ta'minlaydi. Ushbu metodda zamonaviy texnologiyalar va o'yinli ta'lim usullaridan foydalaniladi.

Asosiy elementlar:

- Onlayn iqtisodiy simulyatsiyalar va rolli o'yinlar.
- Iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish uchun interaktiv dasturlar (masalan, Excel yoki Google Sheets).
- Qiziqarli viktorinalar va testlar orqali iqtisodiy atamalarni mustahkamlash.

Misol: Talabalar xalqaro kompaniyaning biznes modelini onlayn simulyatsiya orqali o'rganadilar va xulosalarni ingliz tilida taqdim etadilar.

#### 7. O'yinli o'qitish (Gamification)

Iqtisodiyotga oid o'yinlar orqali ingliz tilini o'rganish jarayonini qiziqarli qilish talabalarning motivatsiyasini oshiradi.

Asosiy elementlar:

- Iqtisodiyotga oid viktorinalar va boshqotirmalar.
- Biznes-simulyatsiya o'yinlari orqali muammolarni hal qilish.
- Rag'batlantiruvchi mexanizmlar (masalan, mukofotlar, reytinglar).

Misol: Talabalar iqtisodiy savodxonlikni rivojlantiruvchi viktorina o'yinida qatnashadilar va javoblarni ingliz tilida taqdim qiladilar.

Mazkur metodik yondashuvlar talabalarning nafaqat ingliz tilini, balki iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini ham samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Turli metodlarning uyg'unlashuvi o'quv jarayonini qiziqarli, mazmunli va amaliy qiladi. Bu esa talabalarni nafaqat iqtisodiy bilimli, balki xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Natijalar va tahlil

Iqtisodiyot talabalari uchun ingliz tilini samarali o'qitishga qaratilgan metodik yondashuvlar o'z mevasini beradi. Ushbu yondashuvlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish talabalar bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini bir qator yo'nalishlarda sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat

qiladi. Quyida natijalar va ularning tahlili keltirilgan.

### 1. Ingliz tilini iqtisodiy kontekstda o'zlashtirishning yaxshilanishi

O'qitish jarayonida real iqtisodiy vaziyatlarga asoslangan yondashuvlar talabalarga tilni amaliy kontekstda o'rganish imkonini berdi. Bu quyidagi natijalarni keltirib chiqardi:

- Iqtisodiyotga oid murakkab matnlarni o'qish va tushunish ko'nikmasining shakllanishi.
- Iqtisodiy atamalarni to'g'ri qo'llay olish qobiliyatining oshishi.
- Xalqaro iqtisodiy yangiliklar va ma'lumotlarni tezda tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanishi.

Tahlil: Ushbu natija talabalar uchun iqtisodiy hisobotlar va maqolalarni o'rganishni osonlashtirdi, bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

### 2. Muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi

Kommunikativ va problema asosidagi yondashuvlar talabalar orasida ingliz tilida fikr almashish va iqtisodiy mavzularda o'z fikrlarini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

- Iqtisodiyotga oid munozaralarda faol ishtirok etish.
- Prezentatsiyalar tayyorlash va taqdimotlar qilish.
- Guruh ishlarida ingliz tilida samarali muloqot qilish.

Tahlil: Bu talabalarga xalqaro iqtisodiy forumlarda yoki xorijiy korporatsiyalarda ishlash uchun zarur bo'lgan kommunikatsiya ko'nikmalarini egallashga yordam berdi.

### 3. Iqtisodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarining shakllanishi

Case-study va PBL (Problem-based Learning) usullari orqali talabalar real iqtisodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ldilar:

- Real iqtisodiy muammolarni aniqlash va ularni tahlil qilish.
- Amaliy echimlarni ingliz tilida ishlab chiqish.
- Tahlil natijalarini guruhda muhokama qilish va taqdim qilish.

Tahlil: Bu natijalar talabalarni iqtisodiy tahlil va qaror qabul qilish jarayonlariga tayyorlaydi, shuningdek, ularga mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

### 4. Iqtisodiyotga oid xalqaro materiallarga kirish imkoniyatining kengayishi

Talabalar ingliz tilidagi xalqaro iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni o'rgandilar:

- Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning hisobotlarini tahlil qilish.
- Ingliz tilidagi iqtisodiy podkastlar, maqolalar va video materiallarni tushunish.
- Global iqtisodiy tendensiyalarni o'rganish va ulardan foydalanish.

Tahlil: Bu natija talabalarining iqtisodiy bilimi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qildi, ularga xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini taqdim etdi.

### 5. Til va iqtisodiyotning integratsiyalashgan rivojlanishi

Integrativ yondashuv orqali talabalar nafaqat ingliz tilini, balki iqtisodiyot fanlarini ham bir vaqtning o'zida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa quyidagi natijalarga olib keldi:

- Ingliz tilida iqtisodiyotga oid ko'rsatkichlar va ma'lumotlarni samarali tushunish va sharhlash.

- Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.
- Iqtisodiyotga oid nazariy bilimlarni ingliz tilida yozma va og'zaki shaklda ifodalash.

Tahlil: Ushbu yondashuv talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun ko'p funksiyali mutaxassis sifatida tayyorlashga yordam berdi.

### 6. Motivatsiya va qiziqishning oshishi

O'yinli ta'lim va texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar ingliz tilini o'rganish jarayoniga faol jalb qilindilar.

- Interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishini oshirdi.
- O'yinli o'qitish usullari orqali murakkab iqtisodiy atamalarni yodlash jarayoni



osonlashdi.

- Talabalarining raqobatbardosh muhitda o'quv jarayonida faol ishtiroki ta'minlandi.

Tahlil: Talabalarining motivatsiyasi oshgani sababli ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishi va ishtiyiqi kuchaydi, bu esa ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Metodik yondashuvlarning to'g'ri qo'llanilishi natijasida talabalar ingliz tilini iqtisodiy kontekstda samarali o'zlashtirish bilan birga kasbiy ko'nikmalarni ham rivojlantirdilar. Ushbu natijalar iqtisodiyot talabalari uchun xalqaro mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish, ilmiy faoliyatni kengaytirish va kasbiy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, til va fan birligini ta'minlash talabalarining nafaqat ingliz tilini, balki iqtisodiyotga oid bilimlarini chuqurlashtirishda ham muhim ahamiyatga ega.

#### Xulosa

Ingliz tilini iqtisodiyot talabalari uchun o'qitish, ularning xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiyot global tarmoqqa aylanib borar ekan, talabalar uchun ingliz tilini o'zlashtirish nafaqat ilmiy va amaliy resurslarga kirishni ta'minlaydi, balki xalqaro hamkorlikda samarali muloqot qilish imkonini ham beradi.

Mazkur maqolada keltirilgan metodik yondashuvlar va o'qitish strategiyalari quyidagi asosiy xulosalarga olib keladi:

1. Kasbiy til ko'nikmalarining rivojlanishi: Talabalar iqtisodiyotga oid maxsus terminologiya va tushunchalarni o'zlashtiradi, bu ularning ilmiy va amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

2. Muloqot va tahliliy fikrlash ko'nikmalarining oshishi: Kommunikativ va problema asosidagi yondashuvlar talabalarni iqtisodiy masalalarni ingliz tilida muhokama qilishga va ijodiy fikrlashga rag'batlantiradi.

3. Real iqtisodiy muhitga moslashuv: Case-study, PBL va integrativ yondashuvlar talabalarni real iqtisodiy muammolarni hal qilish va amaliyotga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Raqamli iqtisodiyotga integratsiya: Audio, video materiallar va texnologiyalar orqali o'rgatish talabalarining raqamli bilim va ko'nikmalarini oshirib, ularni zamonaviy iqtisodiyot talabalariga moslashtiradi.

5. Motivatsiya va o'qitishga qiziqishning oshishi: Interaktiv va o'yinli o'qitish usullari talabalar uchun til o'rganish jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi, bu esa o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

#### Tavsiyalar

- Til va fan integratsiyasini kuchaytirish: Ingliz tili darslarini iqtisodiyot fanlari bilan birlashtirish talabalar bilimlarini tizimli rivojlantirish imkonini beradi.

- Amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlar: Talabalarga xalqaro iqtisodiyot va biznes muhiti talabalariga mos ko'nikmalarni shakllantirish uchun real vaziyatlarga asoslangan o'quv materiallarini taqdim etish zarur.

- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Onlayn platformalar va interaktiv vositalardan foydalanish orqali o'quv jarayonini boyitish muhim.

Umuman olganda, iqtisodiyot va ingliz tilini birlashtirgan holda o'qitish talabalarga nafaqat tilni, balki kasbiy mahoratni ham rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv ularni xalqaro iqtisodiyotning faol ishtirokchilari sifatida shakllantirishda mustahkam poydevor yaratadi.

## HARAKATLI O'YINLAR MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY TARKIBIY QISMI

*Qo'ziyeva Feruza Ismoilovna,  
katta o'qituvchi, Buxoro davlat pedagogika inistitut Jismoniy madaniyat fakulteti*

*Annotatsiya. Kompyuter o'yinlari va mobil o'yinlar hayotning barcha jabhalariga, jumladan, bo'sh vaqt va ko'ngilochar tadbirlarga kirib borayotgan zamonaviy dunyoda bolalar va o'smirlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu maqsadga erishishga yordam beradigan asosiy vositalardan biri bu harakatli o'yinlardir. Ushbu maqolada biz harakatli o'yinlar maktab o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy vositasiga aylanishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.*

*Kalit so'zlar: Jismoniy faollik, salomatlik, sog'lom turmush tarzi, harakatli o'yinlar, psixologik salomatlik,*

Kirish. Sog'lom turmush tarzi - bu insonning yashash sharoitlarini faol o'zlashtirishi, kun tartibiga rioya qilish, faol harakatga asoslangan tanani mashq qilish, sport bilan shug'ullanish, to'yimli va sifatli ovqatlanish, ovqatlanishning gigienik qoidalariga rioya qilish, muloqot qilish va shuning uchun maqsadga erishish usulidir. Ekologik madaniyat, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy tarbiya olish, yomon odatlardan saqlana bilish. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish zamonaviy jamiyat turmush tarzining ko'plab tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan murakkab tizimli jarayondir. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson hayoti va salomatligini ta'minlash, yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tahlillariga ko'ra, inson salomatligiga ta'sir etuvchi omillar orasida tibbiy ta'minot 10 foizni, irsiy omillar 15 foizni, atrof-muhitning holati 20 foizni tashkil etadi. Eng muhimi, insonning turmush tarzi (jismoniy faollik, ovqatlanish, zararli odatlar) uning salomatligiga 55 foizgacha ta'sir ko'rsatar ekan. Turli tabiatga ega alohida omillarning salomatlik ko'rsatkichlariga hissa miqdori insonning yoshi, jinsi va individual-tipologik xususiyatlariga bog'liqdir. Ushbu taqsimotdan anglab olish mumkinki, har bir insonning salomatlik holati 90% o'ziga xosdir, chunki bu irsiyatga, atrof-muhit omillariga va asosan insonning individual turmush tarziga (har bir kishining xatti-harakati, uning odatlari, harakatlari, intilishlari, moyilliklari) bog'liqdir. Qolaversa maktab o'quvchilarining faol harakatga yo'naltirish kun davomida fol bo'lishga undash sog'lom turmush tarziga yoshlikdan amal qilishga o'rgatish muhim hisoblanadi.

Hayot tarzining o'troq mehnat va o'yin bilan bog'liq bo'lgan bugungi jamiyatda bolalarda sog'lom odatlarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Maktab yoshi - bu o'quvchilarning hayoti davomida ularga hamroh bo'lishi mumkin bo'lgan afzalliklari va odatlarini shakllantiradigan muhim davr. Ushbu maqolada biz nima uchun ochiq o'yinlar maktab o'quvchilari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning asosiy vositasi ekanligi yoritilgan.

Jismoniy faollik va salomatlik

Jismoniy faollik bolalar salomatligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu mushaklar va suyaklarni mustahkamlashga, yurak-qon tomir tizimini rivojlantirishga, umumiy farovonlik va kayfiyatni yaxshilashga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar va o'yin-kulgilar bolalarni passiv turmush tarziga o'rgatadi, harakatli o'yin ularni faol faoliyatga jalb qilishning qiziqarli va samarali usulini taklif qiladi. Jismoniy faollik bolalar va o'smirlar salomatligini saqlash va mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi. Bu jismoniy faollik darajasi va turli xil sog'liq ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy munosabatni aniqlagan ko'plab tadqiqotlar tomonidan qo'llab-

quvvatlanadi.

### 1. Jismoniy salomatlik:

Tayanch-harakat tizimi: muntazam jismoniy faoliyat, jumladan, ochiq havoda o'ynash mushaklar va suyaklarni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa osteoporoz va boshqa kasalliklarni rivojlanish xavfini kamaytiradi.

Yurak-qon tomir tizimi: O'rtacha va intensiv jismoniy faollik yurak va qon tomirlarining faoliyatini yaxshilaydi, qon bosimini va yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlanish xavfini kamaytiradi.

Semirib ketish: Faol o'yinlar kaloriyalarni yoqish va vaznni nazorat qilishda yordam beradi, bu semirish va diabet va saratonning ayrim turlari kabi kasalliklarning oldini olishga yordam beradi.

Umumiy farovonlik: Muntazam jismoniy faollik kayfiyatni yaxshilaydi, stress va depressiyani kamaytiradi, energiya darajasini va umumiy hayotiylikni oshiradi.

### 2. Psixologik salomatlik:

O'z-o'zini hurmat qilish va ishonch: Faol o'yinlarda ishtirok etish, ayniqsa, bolalar musobaqalarda yoki hamkorlikdagi yutuqlarda muvaffaqiyatga erishganda, o'z-o'zini hurmat qilish, ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Ijtimoiy ko'nikmalar: Harakatli o'yinlar bolalarga boshqalar bilan muloqot qilish, jamoa bo'lib ishlashni o'rganish, nizolarni hal qilish va do'stlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Kognitiv: Jismoniy faollik, shu jumladan o'yinlar konsentratsiya, diqqat, xotira va aqliy moslashuvchanlik kabi kognitiv funktsiyalarni yaxshilashga yordam beradi.

Shunday qilib, harakatli o'yin nafaqat jismoniy faollik manbai, balki bolalar va o'smirlarning sog'lig'ini saqlash va yaxshilash, shu jumladan jismoniy, psixologik va ijtimoiy farovonlik uchun kuchli vositadir. Ular nafaqat jismoniy faollikni rag'batlantiradi, balki butun hayot davomida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga hissa qo'shadi.

Ijtimoiy o'zaro ta'sir va jamoaviy ish

Harakatli o'yinlar ham bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Guruh faoliyatida ishtirok etish jamoada ishlash, do'stlar bilan muloqot qilish va boshqa ishtirokchilarning manfaatlarini hisobga olish qobiliyatini talab qiladi. Bu ko'nikmalar jismoniy salomatlikdan kam emas va ularni rivojlantirish uchun ochiq o'yinlar juda yaxshi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish

Ochiq havoda o'tqaziladigan harakatli o'yinlar bolalarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy mashqlarni o'yin tarzida muntazam ravishda olib borish o'quvchilarda sog'lom turmush tarzining ahamiyatini o'rganishga, ularda faol dam olishga qiziqish uyg'otishga yordam beradi. Bu tajriba bolalarning kelajakda sog'lom turmush tarzini saqlab qolishida muhim omil bo'lishi mumkin. Qolaversa Bolalar va o'smirlar uchun harakatli o'yinlarni tanlashda yosh xususiyatlarini tushunish muhimdir. Turli yoshdagi bolalar turli darajadagi vosita qobiliyatlari, muvofiqlashtirish va kognitiv qobiliyatlarga ega. Shuning uchun bolaning qiyinchilik darajasi va mahoratiga mos keladigan o'yinlarni tanlash muhim hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalar uchun sodda va oson o'yinlarni tanlash yaxshidir, o'smirlar uchun esa murakkabroq va qiyin o'yinlarni tanlashingiz mumkin. Shuni aytib o'tish joiski kompyuter o'yinlar va mobil o'yinlar bolalarni ko'p vaqt sarflashiga, shu orqali ularning hayotining boshqa jabhalariga, masalan, maktab vazifalariga, jismoniy faollikka, oila va do'stlar bilan muloqot qilishga xalaqit berishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'yin vaqtiga cheklov qo'yish zarur.

Farzandingizning yoshiga qarab to'g'ri harakatli o'yinlarni tanlash hayotda sog'lom rivojlanishi va qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, harakatli o'yinlar maktab o'quvchilari o'rtasida jismoniy sifatlarni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda kuchli vositadir. Ular jismoniy faollik, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, sog'lom odatlar va ko'nikmalarni o'rganish elementlarini birlashtiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, eng yaxshi natijalarga erishish uchun faol o'yinlardan muvozanatli foydalanish sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning boshqa usullari, masalan, jismoniy mashqlar, sog'lom ovqatlanish va ota-onalar va tengdoshlar bilan faol muloqot qilish bilan birgalikda zarur. Ochiq havodagi harakatli o'yinlar nafaqat o'yin-kulgi vositasi, balki maktab o'quvchilari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning kuchli vositasidir. Ular jismoniy rivojlanishga, ijtimoiy ko'nikmalarga va sog'lom odatlarga yordam beradi. Shu bois, bolalarning sog'lom va baxtli bolaligini ta'minlash, shuningdek, kelajakda sog'lom turmush tarzi asoslarini yaratish uchun ochiq havoda o'yinlarda ishtirok etishlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar

1. Ma'murov B.B. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. B.: "Durdona" -2019.-216 b
2. Мухитдинова Н.М. Методология физических упражнений и игр в дошкольных образовательных организациях // Проблемы науки. – М., 2020. – № 9(57). – С. 81-83.
3. Мухитдинова Н.М. Механизм интеллектуального развития у детей дошкольного возраста с помощью спортивных игр // Академия. – М., 2019. – № 4 (63). – С. 92-93. Российский импакт-фактор: 0,19.
4. ФИ Кузиева Способы организации самостоятельной работы студентов физического образования // Проблемы науки 2021 4(65), s 65-67
5. Rahim S., Dilobar S. The development of a culture of healthy lifestyle in student girls through physical education and sports as a pedagogical problem // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 69-73.
6. ФИ Кузиева. Механизм формирования здорового образа жизни у студентов на занятиях по физическому воспитанию // Вестник науки и образования, 2022- 4-2 (124).- С. 81-83.
7. Ф.Б.Музафарова. Таълимни модернизациялаш жараёнида ўқувчиларнинг миллий ва умуммаданий компетенцияларини ривожлантиришнинг долзарблиги. Таълимда инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2022. №4. – Б. 127-130.



## PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITUVCHI MAHORATI MASALALARI

Rasulova Nilufar Yashinovna

*ISFT instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasi stajyor-o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada professional ta'lim muassasalarida o'qituvchi mahoratini rivojlantirish masalalari keng tahlil qilingan. Unda Sharq mutafakkirlarining o'qituvchi-ustoz to'g'risida bildirgan fikrlari, ularning pedagogik yo'l-yo'riqlari va ustoz bilan o'quvchi o'rtasidagi ma'naviy rishtalar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy dars jarayoniga qo'yiladigan talablar va bugungi kundagi o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatida o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashishi, zamon bilan hamnafas bo'lishi zarurligi tahlil qilinadi. O'qituvchining ijodiy yondashuvi va bilimlarni yetkazishdagi mahorati muhimligi ko'rsatib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: o'qituvchi mahorati, zamonaviy dars, pedagogik mahorat, mutafakkirlar, ta'lim talablari.*

## ISSUES OF TEACHER SKILLS IN HIGH SCHOOL PRACTICE

Rasulova Nilufar Yashinovna

*Trainee teacher at the Department of Psychology and Pedagogy, ISFT Institute*

*Annotation. The article provides a comprehensive analysis of teacher mastery in professional educational institutions. It delves into the thoughts of Eastern thinkers regarding the role of teachers and mentors, highlighting the spiritual connection between teacher and student. The article also explores the modern requirements for lessons, emphasizing the importance of teachers adapting to the needs of their students while keeping up with the demands of contemporary education. The creative approach and skill of conveying knowledge effectively are shown to be crucial for today's educators.*

*Keywords: teacher mastery, modern lessons, pedagogical skills, thinkers, educational requirements.*

## ПРОБЛЕМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА НА ПРАКТИКЕ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ УЧЕБНЫМ ЗАВЕДЕНИЯМ

Расулова Нилуфар Яшиновна

*Стажер-преподаватель кафедры психологии и педагогики Института ISFT*

*Аннотация. В статье подробно рассматриваются вопросы совершенствования мастерства учителя в профессиональных образовательных учреждениях. Освещаются мысли восточных мыслителей о роли учителя-наставника, подчеркивается духовная связь между учителем и учеником. Также обсуждаются современные требования к учебному процессу и важность того, чтобы учителя адаптировали свои педагогические навыки к потребностям учащихся и требованиям времени. Творческий подход и мастерство в передаче знаний обозначены как ключевые качества современного педагога.*

*Ключевые слова: мастерство учителя, современный урок, педагогические навыки, мыслители, образовательные требования.*

Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, o'z sohasining ustalari bo'lgan insonlarga bog'liq. Shu bois mamlakatimizda aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Professional ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish masalalari haqida fikr yuritilib, yuqori malakali professor-o'qituvchilar, olimlarni ta'lim jarayoniga jalb qilishning samarali mexanizmlarini yaratish haqida fikr bildirilgan.

Inson-tabiatning bir bo'lagi. Inson bolasi ma'lum layoqat kurtaklari, ma'lum imkoniyatlar bilan tug'iladi. Ammo, bular imkoniyat. Bu layoqat kurtaklarining rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy muhit, sharoit, ta'lim-tarbiya zarur.

Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalar ham inson tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar ahamiyatiga katta e'tibor berib kelganlar. Farobiy inson kamolatida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: "Munosib inson bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat – ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolatga erishiladi, tarbiya esa bu kishilarda muloqatda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir",-deydi.

O'tmishda yashagan buyuk mutafakkir va donishmandlar, ayniqsa Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino o'z asarlarida tabiatning shakllari va usullari haqida qimmatli fikrlarini bayon qilganlar.

Farobiy ta'lim-tarbiyagi birinchi marta ta'rif bergan olim hisoblanadi. Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya-nazariy fazilatlarini, mas'ul hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajribada o'rganishdir.

Farobiy, "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. U: "Avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy bilimlarni o'rganish zarur. Undan so'ng umuman, jonli tabiat – o'simliklar va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi",-deydi.

Farobiy didaktik qarashlarida ustoz o'qituvchining ma'suliyatini ifodalaydi. "Ustoz,-deydi u shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim". Chunki, ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan so'vib qoladi. Ayniqsa, Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Hikmat xulosalari", "Sharhlar" kabi asarlarida insonni tarbiyalash haqida ham fikr yuritadi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino pedagogik qarashlar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Sharqda "Shayx ar-Rais" nomi bilan mashhur bo'lgan alloma – Abu Ali ibn Sino o'qituvchi mahorati haqida fikr yuritarkan, quyidagilar eslatib o'tiladi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- aqliy darajasiga mos ravishda ta'lim berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Abdulla Avloniyning fikricha, bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimning "diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdir".

Zamonaviy dars oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Har bir dars albatta, ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. O'quvchi talabalarni dastlab axborot yangiliklari bilan tanishtirishi kerak.

3. Har bir dars mustahkam g'oyaviy yo'nalishga ega bo'lmog'i kerak. Darsning mazmuni o'qitilayotgan mavzuga bog'liq holda o'quvchilarga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini, mustaqillik, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini sindirishga, ularda milliy g'urur, milliy odob, yangicha dunyoqarash, iymon-e'tiqod kabi fazilatlarini tarbiyalashni nazarda tutish kerak.

4. Dars turmush bilan bog'langan bo'lishi kerak.

5. Har bir dars xilma-xil metod, usul va vositalardan keng, unumli foydalanilgan holda olib borilishi lozim.

6. Darsga ajratilgan vaqtni tejash va undan samarali foydalanish kerak.

7. Har bir dars o'qituvchi talabalarining aktiv faoliyati birligini ta'minlamog'i lozim, bunda interaktiv metodlardan foydalanish yangi samara beradi.

8. Mashg'ulotlar butun auditoriya bilan va har bir talaba bilan ularning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak.

9. Darsda talabalarining qunt bilan ishlashlarini ta'minlaydigan mustahkam intizom o'rnatilgan bo'lishi kerak.

10. Har bir dars talabalarining mustaqilligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mohir o'qituvchi talabalarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilish muhimdir:

1. Talabalarni bilishga intilishini, fanga, aqliy mehnatga, qiziqishlarini rivojlantirish o'quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda o'quvchi faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni "kashf etish"ga, muammoli vaziyatlarni o'zi hal etishga intiladi.

2. O'quv faoliyati, boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakat tez orada zerikishni vujudga keltiradi.

3. Fanga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o'rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini talabalarga anglatish juda zarur.

4. O'qitilayotgan material va oldingi material ham qanchalik ko'proq bo'lib tushuntirilsa, u talabalarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O'quv materialini talabalarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o'ynaydi.

5. O'rtacha qiyinchilikdagi o'quv materialini ham talabalarda qiziqishni uyg'otmaydi. O'quv materialini biroz qiyinroq, lekin, talabalar kuchi yetadigan bo'lishi kerak.

6. Talabalar bajargan ishlarini tez-tez tekshirish ham ularni fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

7. O'quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o'quvchining zavqlanib gapirishi ham o'quvchiga, unda fanga bo'lgan qiziqishning ortishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Ilg'or o'qituvchilar o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. Talabalarining frontal, differensiallashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko'proq bo'lsada, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos yondashuvni talab qiladi, agar butun auditoriya, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiya ham, ijodiy yondashish ham barbod bo'ladi.

Ayrim hollarda o'qishga qiziqtiruvchi metodlardan ham ko'ra, burch va javobgarlikni his etishni rag'batlantiruvchi metodlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi.

Mohir pedagoglar ma'ruza, seminar, munozara, konferensiya, o'quv sayohati, o'quvchi-maslahatchilar yordamida mustaqil dars, ko'rik-tanlov kabi dars turlaridan



foydalanishga alohida e'tibor beradilar.

O'qituvchining mohirligi yuqorida qayd qilingan noan'anaviy dars turlarini o'tish texnikasini egallashda namoyon bo'ladi.

Talabalar yangi bilimlarni va qonuniyatlarni kashf etish bilan bog'liq bo'lgan aqliy faoliyatni rivojlantirishda seminar darslar muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar darsda eng bo'sh talaba ham boshqa turdagi darsda uddalay olmaydigan miqdorlardagi aqliy ish bajarar ekan, mashg'ulotlar odatdagidan tashqari an'anaviy usullarda olib boriladi. Ba'zan u munozara yoki suhbat shaklida bo'lishi mumkin. Lekin, o'quv materialini aniq va ishonarli qilib bayon etiladi.

Ilg'or o'qituvchilar ish tajribasida munozara darslar ham muhim o'rin egallab kelmoqda. Munozara darslarini o'tash talabalardan juda katta mohirlikni talab etadi. Bunda, eng avvalo, talabalar fikrlarini taqqoslash va ularning fikrlaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlash muhimdir. Lekin, darsning bu turini har doim ham o'tilavermaydi. Chunki, hamma mavzular munozarabop emas.

Darsning noan'anaviy shakllaridan biri ko'rik-konkurs darsidir. Bunda auditoriya talabalari 3-4 tadan guruhlariga bo'linib, mavzuni mustaqil o'zlashtirib, darsni o'zlari bayon qiladilar. Darsning bu turi musobaqa shaklida o'tkazilganligi uchun har bir talaba unga astoydil tayyorgarlik ko'rishga intiladi. Baholashda ham, guruhdagi barcha talabalar ishtirok etadilar. Bunday darsning mazmuni, metodik ta'minoti, materialni tushuntirishini o'ziga xosligiga alohida e'tibor beriladi. Talabalarni guruhlariga bo'linib ishlashi esa, ularni jamoada hamkorlik bilan ishlashiga, o'zaro yordam berishga o'rgatadi.

Bunyodkor va ilg'or talabalarining tajribasiz o'qituvchilardan tubdan farq qiluvchi tomonlari quyidagilardan iborat: tajribasi kam bo'lgan o'qituvchilar darsda talabalarga asosan bilimlarni tayyor holda beradilar. Bunday o'qituvchilar darsda ko'proq o'quv materialini o'qituvchi tushuntirishdan yoki darslikdan talabalarni yod olishiga harakat qiladilar. Albatta, bunday o'qitish muammoni izlab topish va muammoli vaziyatlar yaratishdan oson.

Ba'zi o'qituvchilar esa rivojlantiruvchi ta'lim mohiyatini to'la-to'kis tushunib yeta olmaydilar. Ular yetarli darajada didaktik va umumpedagogik ma'lumotlarga ega emaslar. Natijada, muammoli o'qitishni joriy etishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

Mohir o'qituvchi dars o'tish metodikasini doimo takomillashtirib boradi. Muammoni qo'yar ekan, talabani uni hal qilishdagi ichki ziddiyatlarni ovoz chiqarib mulohaza yuritadi, o'z fikrlarini bayon qiladi va ularni muhokamaga qo'yadi. Sodir bo'ladigan e'tirozlarni oldindan bartaraf qiladi, haqiqatni tajribada isbotlaydi. O'qituvchi talabalar oldida ilmiy tafakkur yuritish yo'llarni namoyish qiladi. Talabalarni ilmiy izlanish yordamida haqiqat tomon yo'llaydi, ularni bunda ishtirokchi bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, V.F.Shatalov talabalarga juda ko'p masalalar yechtiradi va nazariy bilimlarni amalda qo'llash malakalarini shakllantiradi. Agar o'qituvchining tushuntirishi, qo'llaniladigan signallar, sxemalar va konspektlar ularning xotiralarini rivojlantirsa, masalalar yechish esa ularning tafakkurini o'stiradi, matematik mantiqiy fikrlash esa mustaqil faoliyatda tarkib toptiriladi.

Talabalarni ijodiy tafakkurini rivojlantirishda tayanch signallar tizim, "ochiq fikrlar darslari", olimpiadada ishtirok etishlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ilg'or o'qituvchilarning fikriga muammoli o'qitish talabalarining darsdagi faolligini, ularning erkin fikrlashlarini ta'minlaydi. Ilg'or o'qituvchilar o'quv materialini bloklar bo'yicha berish, umumiylikdan xususiylikka, qonunlardan hodisalar tomon yo'nalishga asoslangan prinsiplardan oqilona foydalanadilar.

Shunday qilib, bunyodkor talabalar muammoli vaziyat amaliyotini yana bir pog'onasiga ko'tariladilar. Ularning tajribasi zamonaviy darsga yondashish, uni tashkil



etishni yangicha tushunishga asos yaratadi. Bu muammoli-rivojlantiruvchi o'qitishga bevosita bog'liqdir.

Mohir o'qituvchi darsi—bu pedagog va o'qituvchilarni qiziqish, sinchkovlik, bilimga oid ehtiyojlari namoyon bo'ladi. Talabalar savol beradilar va o'zlari javob izlaydilar, tafakkurini ishga solib o'qishdagi kuchiga mos bo'lgan qiyinchiliklarni yengishga o'rganadilar.

Talabalarning faolligi va izlanuvchanligini oshirishda, muammoli o'qitishni qo'llashda mohir o'qituvchilar talabalarga beriladigan savollar va topshiriqlar tizimini o'ylab topadilar. Ular tuzgan savollar qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi kerak. Ular talabalarning qiziquvchanligini mustaqil fikrlash qobiliyati emas, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, yosh o'qituvchilar tomonidan talabalarga berilgan savollarning 80 foizi fikrlashni talab etmaydi. Albatta, mexanik xotirani ishlatish, uni rivojlantirish zarur, lekin shu bilan birga talabalarning bilishdagi faolligini, tafakkuri va diqqatini rivojlantirish zarurligini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Talabalarga beriladigan savollar qarama-qarshi isbot talab qiluvchi fikrlarga boy, mavjud bilimlardan faqat muayyan holatda zarurligini talab etishni ta'minlaydigan, bilimlarni amalda qo'llanishini ta'minlaydigan bo'lishi lozim.

Izlanuvchi o'qituvchi, tajribasiz o'qituvchiga nisbatan oz mehnat va vaqt sarf qilib, ko'zlangan maqsadga erishadi, chunki, u talabalarni doim mustaqil bilim olib borishiga o'rgatib boradi. Ular “agar mavzuni o'zlashtirishga talabalarning kuchi yetmasa, mustaqil o'zlashtirsinlar, aks holda materialni o'qituvchining o'zi tushuntirib berishi kerak” degan qoidaga amal qiladilar.

Mustaqil ishlash sirasiga mavzuni takrorlash uchun anketa savollariga javoblar, mashq va masalalar yechish, sxema va jadvallarni to'ldirish, tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qish va boshqalar kiradi.

Nazariy yoki amaliy dars bo'lishidan qat'i nazar, talabalarning mustaqil ishlari o'qituvchi tomonidan boshqarilishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilar talabalarni kitob bilan ishlashga, konspekt tuzishga, ijodiy ishlarni tashkil etishga va bajarishga o'rgatishga alohida e'tibor berishlari lozim.

Masalan, V.F.Shatalov o'quvchilarning bevosita yaratuvchi fikrlashlarini rivojlantirishga oid usullar tizimini qo'llaydi. Keng ko'lamdagi topshiriqlarni, turli hil o'ziga xos mustaqil ishlarni bajaradilar. Bunga erishish uchun, u darsda masalaning bitta variantini ko'rsatadi. Shunga o'xshash masalalar qaysi ekanligini talabalardan so'raydi va mustaqil yechishni tavsiya etadi.

Ayniqsa, dalillar mustaqil tahlil qilib, umumlashtirib va xulosa yasab, yangi bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarning mustaqil ishi nihoyatda foydali bo'ladi. Darsda talabalarni kitob bilan mustaqil ishlarini tashkil qilishda, o'qituvchi tezkor talabani to'xtatmaydi, asta-sekin o'zlashtirayotgan talabani shoshiltirmaydi, savolga to'g'ri javob bergan talabaga esa, qo'shimcha topshiriq beradi.

Pedagogik mahoratni egallash uchun o'qituvchi o'z ishini chuqur bilishdan tashqari, talabalar siyosatini, fan, madaniyat, texnika sohalarini bo'yicha nimalar qiziqtirayotganligidan ham xabardor bo'lishi lozim.

Dars to'la o'quv jarayoni kabi ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lishi lozim. Dars bu ham kafedra, ham minbar, umuman olganda, o'qituvchi dunyoqarashini ifodalaydi, o'qituvchi o'zining va talabalarni hayotiga, boshqa mafkuraga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Pedagogik mahoratni egallash kaliti ham darsning o'zidir.

O'qituvchi o'z faoliyatida talabalarning rivojlanish darajasi, xotirasi, diqqati, irodasi, fikrining ixchamligi va muhim ishlash qobiliyatlarini har doim sinab boradi. Bunda, eng avvalo, u o'z talabasi-inson haqida yomon so'z aytishga shoshilmasligi zarur. Talabalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni sinchkovlik bilan o'rganish va ularni

tushunishi, mulohazali ish tutishi, o'quvchi qalbiga, uning ruhiyatiga to'g'ri yo'l topish-bunyodkor o'quvchilarga xos bo'lgan hislatdir.

Yosh o'qituvchilar darsda kimning yo'qligi va talabalar nima bilan shug'ullanayotganliklariga befarq qaramaslik lozim. Talabalar esa nihoyatda sertashvish bo'ladilar. Matematikadan tayyorlanmagan uy vazifasi qiziqarli badiiy asarlardan hozirgina o'qigan obraz, u yoqtiradigan futbol yoki xokkey komandasining omadsizligi, do'stlar bilan aytishib qolishi, bularning hammasi o'qituvchi xotirjamligini buzadigan omillardir. Shuning uchun ham, o'qituvchi talabalarning yuz ifodasidan tushunishi, uning diqqatini boshqara olishi, uni kuzatish kabi psixologiya bilimlarga va amaliy malakalarga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchitalabalarningqiziqishlarini, qobiliyatlarini, fikrlashsur'atini, auditoriyadagi har bir talabaning xarakter xislatlarini bilishi darsga ijobiy yondashishning psioxologik omilidir.

Shunday qilib, o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishdagi mahorati o'ta murakkab, lekin o'z ishiga ijodiy yondashgan har bir o'qituvchi uddalay oladigan vazifadir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahkamova M. Yu. Pedagogik texnologiya. T. 2012-yil.
2. Mahkamova M. Yu. Tarbiyaviy ish metodikasi. T. 2019-yil.
3. Mahkamova M. Yu. Kasbiy pedagogika. T. 2019-yil.

## ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДАГИ АҲАМИЯТИ

Ахмаджанов Дониёр Бахтиёр ўғли

Чирчиқ давлат педагогика университети доценти, п.ф.ф.д. (PhD)

*Аннотация. Мазкур мақолада Шарқ мутафаккирларининг ижтимоий-фалсафий қарашларининг замонавий таълим тизимидаги аҳамияти таҳлил қилинган. Абу Наср Форобий, Ибн Сино, Жомий каби мутафаккирларнинг ахлоқ, маънавият, ижтимоий адолат ва инсон камолотига оид гоялари замонавий таълим жараёнидаги ўрни ёритилган. Мақолада ёшлар тарбияси, шахсий ривожланиши ва жамиятда маънавий қадриятларни шакллантиришида Шарқ мутафаккирларининг фалсафий қарашларидан фойдаланиши бўйича методик тавсиялар берилган. Шунингдек, таълимда ахлоқий тарбия ва маънавиятнинг ўрни, педагогик жараёнда Шарқ меросини интеграция қилиши масалалари муҳокама қилинган. Мақола Шарқ мутафаккирларининг ижтимоий-фалсафий гоялари замонавий таълим учун назарий ва амалий асос эканлигини кўрсатади.*

*Калит сўзлар: Шарқ мутафаккирлари, ахлоқий тарбия, маънавий ривожланиши, маънавий етакчилик, интеграция, замонавий таълим.*

## ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Ахмаджанов Данияр Бахтиярович

Доцент Чирчикского государственного педагогического университета П.Ф.Ф.Д.

(доктор философии педагогических наук)

*Абстракт. В данной статье анализируется значение социально-философских взглядов восточных мыслителей в современной системе образования. Освещена роль таких мыслителей, как Абу Наср Фараби, Ибн Сина, Джамии по вопросам этики, духовности, социальной справедливости и человеческого совершенства в современном образовательном процессе. В статье даны методические рекомендации по использованию философских взглядов восточных мыслителей в воспитании молодежи, развитии личности и формировании нравственных ценностей в обществе. Также обсуждалась роль нравственного воспитания и духовности в образовании, интеграция восточного наследия в педагогический процесс. В статье показано, что социально-философские идеи восточных мыслителей являются теоретической и практической основой современного образования.*

*Ключевые слова: восточные мыслители, нравственное воспитание, духовное развитие, духовное лидерство, интеграция, современное образование.*

## THE SIGNIFICANCE OF SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS OF EASTERN THINKERS IN MODERN EDUCATION

Akhmadjanov Daniyori Bakhtiyarovich

Associate Professor of Chirchik State Pedagogical University, PhD

*Abstract. This article analyzes the importance of the socio-philosophical views of Eastern thinkers in the modern education system. The role of thinkers such as Abu Nasr Farabi, Ibn Sina, Jami on ethics, spirituality, social justice and human perfection in the modern education process is highlighted. Methodological recommendations are given in the article on the use of philosophical views of Eastern thinkers in youth education, personal development and formation of moral values in society. Also, the role of moral education and spirituality in education, integration of Eastern heritage in the pedagogical process was discussed. The*

*article shows that socio-philosophical ideas of Eastern thinkers are a theoretical and practical basis for modern education.*

*Key words: Eastern thinkers, moral education, spiritual development, spiritual leadership, integration, modern education.*

Кириш. Шарқ мутафаккирларининг ижтимоий-фалсафий қарашлари жаҳон илм-фанининг ривожда муҳим ўрин тутди. Улар томонидан илгари сурилган ижтимоий-ахлоқий таълимотлар замонавий фалсафий қарашлар билан узвий боғлиқ бўлиб, инсоннинг маънавий-ахлоқий ривожланиши, жамиятда адолатли бошқарув ва шахснинг камолотга интилиши каби тушунчалар марказий ўрин эгаллайди. Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Ибн Сино, Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий каби йирик мутафаккирларнинг фалсафий қарашлари замонавий тадқиқотларда кенг ўрганилаётган мавзулардан биридир.

Шарқ мутафаккирларининг илмий мероси фалсафа соҳасида муҳим ўрин тутиб, уларнинг ижтимоий-ахлоқий, сиёсий, маънавий ва табиий фанлар борасидаги қарашлари замонавий тадқиқотларда чуқур ўрганилади. Шарқ мутафаккирлари инсон маънавияти, ахлоқ-этика, адолатли бошқарув, табиат ва жамият ўртасидаги муносабатлар каби муҳим масалаларга тўхталганлар. Улар ўз асарларида жамиятни маънавий ва ахлоқий ривожлантиришнинг асосий назарий асосларини ишлаб чиқиб, бу соҳада бой фалсафий мерос қолдирганлар.

Замонавий таълим ва педагогиканинг турли соҳалари учун мутафаккирларнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари муҳим аҳамият касб этади. Уларнинг ахлоқ-этик қарашлари, ижтимоий-сиёсий фалсафа, маънавий ривожланиш масалалари ва таълим-тарбияга оид таълимотлари бугунги кун таълим тизими ва педагогик тадқиқотларда қўлланилиши мумкин бўлган бой назарий манба ҳисобланади. Мутафаккирлар томонидан ишлаб чиқилган фалсафий қарашлар замонавий дунёда глобал муаммоларга ечим топишда, таълим ва инсон маънавиятини ривожлантиришда катта аҳамиятга эга. Бугунги глобаллашув шароитидаги замонавий таълим тизимида Шарқ мутафаккирлари томонидан ишлаб чиқилган ғоялар жамият ва ёшлар тарбиясидаги ижтимоий-ахлоқий жиҳатларни бойитишга ёрдам беради.

Адабиётлар таҳлили. Абу Наср Форобий томонидан илгари сурилган ғоялар замонавий жамият ривожланишида ҳам аҳамиятли ҳисобланади. Форобийнинг таълимотида жамиятнинг маънавий-ахлоқий ривожланиши жамиятда тинчлик ва адолатни таъминлашнинг асосий омили сифатида кўрсатилади. Бу фикрлар ҳозирги дунёдаги глобал муаммоларга, хусусан, жамиятда ижтимоий адолат ва маънавий қадриятларни мустаҳкамлашга қаратилган ёндашувлар билан уйғун келади. Форобийнинг таълимоти замонавий таълим ва педагогика назарияларига фойда келтирадиган муҳим назарий манба ҳисобланади.

Ибн Сино ҳам ахлоқ ва маънавиятга оид таълимотларида инсоннинг маънавий комилликка интилиши, ахлоқий ривожланиши ва жамиятдаги ўрни ҳақида чуқур фикрлар билдирган. Унинг таълимотига кўра, инсон фақат билим орқали эмас, балки ахлоқий жиҳатдан юксалиш орқали ҳам шахсий ривожланишга эришади. Унинг қарашлари ҳозирги кунда ахлоқий қадриятларни шакллантиришда катта аҳамиятга эга бўлиб, ёшларнинг шахсий камолотини таъминлашда асосий методологик ресурс сифатида хизмат қилади.

Бугунги глобаллашув жараёни дунёдаги барча жамиятларнинг иқтисодий, сиёсий, маданий ва таълим соҳаларида интеграциялашув жараёнларини тезлаштирди. Бу жараён дунё таълим тизимида ҳам катта таъсир кўрсатмоқда. Замонавий таълим глобаллашув шароитида ёшларни ҳар томонлама ривожланган, ахлоқий ва маънавий жиҳатдан мустаҳкам шахслар сифатида тайёрлашни талаб қилади. Шарқ мутафаккирларининг



таълим ва ахлоққа оид ғоялари замонавий таълим жараёнини бойитишда муҳим ўрин тутди. Бугунги кунда замонавий таълим ахлоқий кадриятларнинг устуворлигига асосланиши зарур. Бунда Шарқ мутафаккирлари томонидан илгари сурилган ғоялар, хусусан, таълим жараёнида маънавий ва ахлоқий тарбияни бирлаштириш масалалари муҳим аҳамиятга эга.

Ёшлар тарбиясини тўғри ташкил қилиш ҳар бир жамиятнинг келажагини таъминлаш учун муҳим жараён ҳисобланади. Шарқ мутафаккирлари ёшларнинг маънавий ва ахлоқий ривожланишига катта эътибор қаратганлар ва уларнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари бугунги ёшларни тарбиялашда асосий методологик асос бўлиб хизмат қилади.

Натижалар. Тадқиқот натижаларига асосан, мутафаккирларининг ижтимоий-фалсафий қарашларидан фойдаланиб, ёшлар таълим ва тарбиясини тўғри ташкил қилиш учун қуйидаги методик тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Миллий ахлоқий кадриятларни шакллантиришга йўналтирилган таълим дастурларини жорий қилиш: бизнингча, таълим дастурларида ахлоқ ва маънавиятга оид фанлар алоҳида ўрин эгаллаши зарур. Бунда Шарқ мутафаккирларининг ахлоқ ва маънавий тарбияга оид ғояларини назарий ва амалий дарсларда фойдаланиш ёшларнинг шахсий ривожланишига ёрдам беради.

2. Таълим жараёнини ахлоқий тарбия устуворлигига кўра ташкил қилиш: ёшлар тарбиясида уларнинг ахлоқий кадриятларга амал қилишига алоҳида эътибор қаратиш керак. Шарқ мутафаккирларининг педагогик қарашларида таълим жараёнида ахлоқий тарбиянинг устуворлиги муҳим ўрин тутди. Форобий ва Ибн Синонинг таълимотларига кўра, фақат маънавий тарбия олган ёшлар жамиятда фойдали шахслар бўлиб етишиши мумкин.

3. Таълим жараёнида маънавий етакчиликни кучайтириш: ёшларни маънавий етакчиликка тарғиб қилиш орқали уларнинг жамиятдаги ижтимоий фаоллиги ва ахлоқий масъулияти оширилади. Маънавий етакчи бўлган ўқитувчилар ва педагоглар ёшларга нафақат билим, балки маънавий юксалишга ҳам йўналтирилган кўникмаларни ўргатишлари керак. Бунинг учун таълим жараёнида педагогларнинг шахсий фазилатлари, уларнинг маънавий етакчилик роли алоҳида ўрин тутди. Форобий ва бошқа мутафаккирлар таъкидлаганидек, маънавий етакчилар ёш авлодга намуна бўлиши керак.

4. Ахлоқий масалаларни муҳокама қилиш ва ёшларни ўзаро мулоқотга жалб қилиш: ёшлар ўртасида ахлоқий ва маънавий кадриятлар тўғрисида мунозаралар, диспутлар ва давра суҳбатларини ташкил этиш орқали уларни ахлоқий ривожланишга йўналтириш мумкин. Шарқ мутафаккирлари таълимотида ёшларнинг ахлоқий тушунчалар бўйича ўзаро фикр алмашишлари уларнинг маънавий тараққиётини тезлаштиришини таъкидлаганлар. Бундай мунозаралар уларнинг дунёқарашини бойитиш ва ахлоқий кадриятларга риоя қилиш қобилиятини шакллантиришга ёрдам беради.

5. Интерактив усуллар ва маънавий тарбияга қаратилган машғулотларни кучайтириш: замонавий таълим жараёнида ахлоқий масалаларни ўрганишга интерактив машғулотлар, амалий топшириқлар ва ўзаро мулоқот усулларини жорий қилиш муҳим. Таълим жараёнида ёшлар ахлоқий муаммоларни ечишдаги амалиётлар орқали ўз шахсий кадриятларини шакллантириб, ўзини-ўзи ривожлантиришга интилади. Бунда Шарқ мутафаккирлари таълимотидаги ижтимоий-ахлоқий масалаларни асос қилиб олиш зарур.

Глобал муаммоларни ҳал қилишда Шарқ мутафаккирларининг ижтимоий-фалсафий қарашлари муҳим аҳамият касб этади. Улар инсон ва жамият ўртасидаги муносабатларга, ахлоқ ва маънавиятга қаратган эътиборлари орқали инсониятнинг умумий фаровонлиги ва тинчлигини таъминлашга ҳаракат қилганлар. Уларнинг табиат ва жамият борасидаги олиб борган фундаментал тадқиқотлари, ривожланишнинг умумий қонуниятларидан

келиб чиқиб билдирган фикрлари бугунги кун глобаллашув даври муаммолари учун ҳам аҳамиятли ҳисобланади. Қуйида ўша айрим ёндашувларга тўхталиб ўтамыз.

Экологик муаммоларга нисбатан ёндашув: Шарқ мутафаккирлари табиат ва инсон ўртасидаги муносабатларни уйғунлаштириш, табиатни муҳофаза қилиш ва ресурслардан оқилона фойдаланиш зарурлигини таъкидлаганлар. Бу қарашлар ҳозирги куннинг экологик муаммоларини ҳал этишда дастуруламал бўлиб хизмат қилиши лозим.

Ижтимоий адолат ва тенглик: мутафаккирлар томонидан илгари сурилган ижтимоий адолат, тенглик ва инсон ҳуқуқларига ҳурмат тушунчалари бугунги жамиятда муҳим аҳамият касб этмоқда. Уларнинг таълимотлари ижтимоий номутаносиблик ва адолатсизликка қарши курашиш ва замонавий жамият яратиш учун назарий асос бўлиб хизмат қилади.

Хулоса ва тавсиялар. Тадқиқотимизда мутафаккирларнинг фалсафий ва педагогик ғояларини замонавий таълим жараёнига интеграция қилиш борасида қуйидаги методик тавсиялар таклиф этилди:

1. Ахлоқий тарбияни таълимнинг асосий қисмига айлантириш: Шарқ мутафаккирлари томонидан илгари сурилган ахлоқий қадриятлар асосида махсус таълим дастурлари ишлаб чиқилиши керак. Бунда ёшларга ахлоқий қадриятлар, маънавий етуклик ва шахсий масъулият тушунчаларини шакллантиришга қаратилган фанлар жорий этилиши зарур. Масалан, Форобий ва Ибн Синонинг таълимотларидаги ахлоқий тарбияга оид ғоялар бу фанларнинг назарий асоси бўлиши мумкин.

2. Муаллимлар учун маънавий етакчилик курсларини ташкил қилиш: Шарқ мутафаккирлари таълим жараёнида муаллимларнинг ахлоқий қадриятларга содиқ бўлишларини таъкидлаганлар. Таълим тизимида муаллимлар учун махсус курслар ва тренинглар жорий қилиш орқали уларнинг шахсий фазилатлари ва маънавий етакчилиги кучайтирилиши лозим. Бу ўқитувчиларнинг шахсий намуна бўлиб хизмат қилиш қобилиятини ривожлантиради.

3. Ахлоқий масалалар бўйича мунозара ва диспутлар ўтказиш: Шарқ мутафаккирлари ёшларнинг маънавий ривожланиши ва ахлоқий қадриятларни шакллантиришни ўзаро мулоқот ва мунозаралар орқали кучайтириш зарурлигини таъкидлаганлар. Таълим жараёнида ёшлар ўртасида ахлоқ ва маънавият масалалари бўйича мунозара ва диспутлар ташкил этиш, уларни ахлоқий масалалар ҳақида фикрлашга ундаш, дунёқарашларини бойитиш ва ахлоқий қарорлар қабул қилиш қобилиятини шакллантиришга ёрдам беради.

4. Шарқ мутафаккирлари асарларини ўқитиш ва таҳлил қилиш: Таълим жараёнида Шарқ мутафаккирларининг асарларидан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Масалан, Форобийнинг “Фозил одамлар шаҳри”, Ибн Синонинг “Тиб қонунлари”, Жомий ва Навоийнинг ахлоқий-дидактик асарлари, ғазаллари ёшларга маънавият ва ахлоқ бўйича чуқур билим бериш учун назарий манба сифатида қўлланилиши мумкин. Бу ёшлар маънавиятини ривожлантиришда жуда самарали бўлади.

5. Интерактив таълим усулларини қўллаш: Шарқ мутафаккирларининг ахлоқий қарашларини ўқув жараёнига жорий қилишда интерактив таълим усулларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Бунда амалий машғулотлар, кейс-стади ёки ролли ўйинлар ёшларга ахлоқ ва маънавиятга оид тушунчаларни яхши ўзлаштиришлари учун ёрдам беради. Интерактив усуллар ёшларнинг ўзаро ҳамкорлик қилиб ишлаш қобилиятини ҳам ривожлантиради.

6. Шахсий камолот ва фаол фуқароликни ривожлантиришга йўналтирилган машғулотлар ташкил қилиш: Таълим жараёнида шахсий камолотга ва жамиятда фаол фуқароликка эришиш учун шахсий ривожланишга қаратилган машғулотлар ташкил қилиш лозим. Мутафаккирларнинг таълимотида шахснинг маънавий ривожланиши жамият манфаати учун фаол хизмат қилишга асос бўлади. Бундай машғулотлар

ёшларнинг шахсий камолотига йўналтирилган бўлиши зарур.

Умуман, Шарқ мутафаккирларининг фалсафий ғояларини таълим жараёнига интеграция қилиш ёшларнинг шахсий ва маънавий ривожланишини таъминлайди, уларнинг ахлоқий етукликка эришишида муҳим ўрин тутаяди. Педагогик таълимни такомиллаштириш учун Шарқ мутафаккирларининг ғояларидан фойдаланиш ёшларни маънавий ва ахлоқий жиҳатдан ривожлантиришга йўналтирилган таълим дастурларини шакллантиришга ёрдам беради. Уларнинг асарлари, ахлоқий қадриятлари ва педагогик ғоялари бу жараёнда назарий ва амалий манба бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Хайруллаев М.М. Шарқ Ренессанси ва Форобий / Фан ва турмуш, -Т.: 1994, №5. –Б.15-18.
2. Henry, C. The Philosophical Contributions of Eastern Thinkers. – Chicago: University Press, 2020. – P. 45-50.
3. Aksoy, M. Farabi'nin Siyasi Felsefesi ve Modern Toplumlar. – Istanbul: Bilim Yayınları, 2017. – S. 58-65.
4. Сувонкулов И. Маънавият илдизлари. Қўлланма. – Самарқанд. 2000. –Б.57-58.
5. Suzuki, T. Ibn Sina's Ethical Philosophy in the Context of Modern Society. – Tokyo: Kyoto University Press, 2018. – P. 72-78.
6. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: Янги аср авлоди, 2016. –Б.205.
7. Маънавият юлдузлари. (Тузувчи ва масъул муҳаррир М.М.Хайруллаев). –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. –Б.58.
8. Ҳомидов Ҳ. Қирқ беш аллома ҳикояти. Т; Фан, 1995. Б.72.
9. Ҳомидов Ҳ. Тасаввуф алломалари. –Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2011. – Б. 91-96.

## SHE'RIY TARJIMANING STILISTIK MUAMMOLARI TADQIQI

Sodiqova Umida Abdumajitovna  
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

*Annotatsiya: Ushbu maqola she'riy tarjimaning stilistik muammolarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, tarjimaning estetik va adabiy jihatlarini tahlil qilishni maqsad qiladi. Maqolada she'riyatning tarjimaga alohida qiyinchiliklar keltirishi, ayniqsa ritm, obrazlar, musiqiylik va madaniy tafovutlarni saqlashdagi muammolar ko'rib chiqiladi. Maqola she'riy tarjimadagi stilistik muammolarni hal qilish uchun yangi yondashuvlarni taklif qiladi.*

*Kalit so'z: She'riy tarjima, stilistik muammolar, tarjimanshunoslik, madaniy tafovutlar, ritm va musiqiylik, sadoqat va muvofiqlik*

*Аннотация: Данная статья посвящена исследованию стилистических проблем поэтического перевода и ставит целью проанализировать эстетические и литературные аспекты перевода. В статье рассматриваются особые проблемы, которые поэзия представляет для перевода, особенно проблемы сохранения ритма, образности, музыкальности и культурных различий. В статье предлагаются новые подходы к решению стилистических проблем в поэтическом переводе.*

*Ключевые слова: Поэтический перевод, стилистические проблемы, переводоведение, культурные различия, ритм и музыкальность, преданность и конформизм.*

*Abstract: This article is devoted to the study of stylistic problems of poetic translation and aims to analyze the aesthetic and literary aspects of translation. The article examines the special problems that poetry presents for translation, especially the problems of preserving rhythm, imagery, musicality and cultural differences. The article proposes new approaches to solving stylistic problems in poetic translation.*

*Key words: Poetic translation, stylistic problems, translation studies, cultural differences, rhythm and musicality, loyalty and conformism.*

Kirish. She'riy tarjima, adabiyotshunoslikda alohida o'rin tutgan, ko'plab tadqiqotlarni talab qiladigan murakkab va ko'p jihatdan o'ziga xos jarayonlardan biridir. Tarjima jarayonida nafaqat tilning grammatik va leksik tuzilishi, balki tilning estetik va stilistik xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. She'riyat esa o'zining murakkabligi, obrazlilik va chuqur mazmuni bilan tarjimaga alohida qiyinchiliklar olib keladi. She'riy tarjimadagi stilistik muammolarni o'rganish, tarjimanshunoslikda zamonaviy yondashuvlarni, tarjimaning estetik va adabiy jihatlarini tushunishga yordam beradi. Maqsad – she'riy tarjimaning stilistik jihatlarini tahlil qilib, tarjimadagi xatoliklar va ularni tuzatish yo'llarini aniqlashdir.

She'riy tarjima – bu faqat tilni o'zgartirish emas, balki badiiy asarning estetik va ma'naviy qiymatini saqlab qolish jarayonidir. She'r, asosan, tilning eng nozik, kompleks va semantik jihatdan boy qatlamlaridan biri bo'lib, uning tarjimasi ko'p hollarda qiyinchiliklar tug'diradi. She'riyatda qo'llaniladigan ritm, musiqiylik, metaforalar, simvollar va obrazlar boshqa tilga o'girilganda o'ziga xos estetik va tilshunoslik muammolarini yuzaga keltiradi. Tarjimachi she'riy asarni boshqa tilga o'girganda, original asarning badiiy va tilga xos xususiyatlarini maksimal darajada saqlashga harakat qiladi, lekin bu jarayonda ko'plab stilistik muammolar, noaniqliklar va qarama-qarshiliklar paydo bo'lishi mumkin.

She'riy tarjima aslida ikki muhim vazifani bajaradi: birinchidan, she'rning mazmunini to'liq va aniq tarjima qilish, ikkinchidan, uning badiiy shaklini – ritmini, ohangini, musiqiylikini, tasvir va metaforik tizimini yangi tilga ko'chirishdir. Bu o'z navbatida tarjimadan yuqori darajadagi badiiy mahoratni, til va madaniyatlarni chuqur tushunishni talab qiladi. Har bir tilning o'ziga xos grammatikasi, leksikasi va stilistik xususiyatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlarni o'zgartirish yoki o'zgartirmaslik qarori she'riy tarjimaning samaradorligini aniqlaydi.

Adabiyotlar sharhi

She'riy tarjimaning stilistik muammolariga oid bir qancha ilmiy ishlar mavjud. Alisher Navoiy,



Muhammad Jomi, va boshqa klassik shoirlarning asarlarini tarjima qilishdagi muammolarni o'rganish, bu sohada ilgari surilgan yondashuvlarning turli ko'rinishlarini taqdim etadi. She'riyatda tilning nozik qatlamlari, qo'llaniladigan leksik va sintaktik vositalar tarjimaga ayniqsa qiyinchiliklar keltiradi. She'riy asarlarning tarjimasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda, ayniqsa, figurativ til, ritm, uslub va obrazlarning saqlanishi muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Tarjima nazariyasining ilgari surilgan «faithfulness» (sadoqat) va «equivalence» (muvofiqlik) tamoyillari she'riyat tarjimasiga nisbatan ko'proq muammolarni keltirib chiqaradi. A.P. Chexov, S. Raskin kabi olimlar tarjimadagi stilistik o'zgarishlarning shaxsiy va madaniy kontekstlar bilan bog'liqligini ta'kidlaganlar.

Shuningdek, tarjimadagi stilistik o'zgarishlar ko'pincha madaniyatlararo farqlar bilan bog'liq bo'ladi. Alisher Navoiy yoki Muhammad Jomi kabi klassik shoirlarning asarlarida ifodalangan diniy, ijtimoiy yoki madaniy ramzlar va tasavvurlarni boshqa tilda aynan shu tarzda etkazish mumkin emas. Har bir madaniyat o'zining til va adabiyot an'analari bilan ajralib turadi, bu esa she'riy tarjimadagi stilistik muammolarni yanada murakkablashtiradi. Bunday vaziyatlarda tarjimon madaniyatlararo moslikni hisobga olib, tarjimaning tilshunoslik, madaniy va estetik xususiyatlarini uyg'unlashtirishi zarur.

Shu bilan birga, tarjima jarayonida stilistik sadoqat va erkin tarjima o'rtasidagi tanlov ham muhim rol o'ynaydi. Tarjimon original she'rning shaklini va ritmini saqlashga harakat qilishi mumkin, lekin badiiy xususiyatlarini moslashtirish uchun ba'zida erkin yondashuvni tanlashi kerak bo'ladi. Bu o'zgarishlar she'riy tarjimaning estetik qadriyatlarini va asarlarning madaniy muhitga mos ravishda tarjima qilinishini ta'minlash uchun zarurdir.

She'riy tarjimadagi stilistik o'zgarishlar ko'pincha tarjimonning shaxsiy uslubi va talqiniga bog'liq bo'ladi. Tarjimon asarning badiiy va estetik jihatlarini o'z tasavvuri va madaniy nuqtai nazaridan talqin qiladi, bu esa tarjimaning uslubi va ifodali xususiyatlarini belgilaydi. Shuningdek, tarjimonning sadoqatini saqlash, ya'ni original asarning to'liq mazmuni, tuzilishi va badiiy qadriyatlarini saqlash – bu ham asosiy muammolardan biridir. Ayrim olimlar, masalan, Eugene Nida (1964), tarjimadagi sadoqat va muvofiqlik o'rtasidagi ziddiyatni ko'rib chiqadilar va tarjimaning “dynamic equivalence” (dinamik muvofiqlik) tamoyilini ilgari suradilar. Nida, tarjimadagi asarning ma'nosi va shaklini saqlashda, ba'zan stilistik o'zgarishlarga va erkin yondashuvlarga ruxsat berish zarurligini ta'kidlagan.

She'riy tarjimaning stilistik muammolarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va tarixshunoslik sohalarida ham chuqur izlanishlarni talab qiladi. Tarjimada madaniy, tilshunoslik va estetik muammolarni tahlil qilish orqali biz she'riy asarlarni tarjima qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishimiz mumkin.

#### Munozara

She'riy tarjimadagi stilistik muammolarni aniqlashda bir nechta asosiy jihatlar ko'rib chiqilishi zarur.

Birinchi, she'riyatning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish kerak. She'riyat, asosan, ritm, so'z o'yinlari, obrazlar va musiqiylik kabi elementlardan tashkil topadi. Tarjimada bu elementlarning saqlanishi juda qiyin, chunki har bir tilning o'ziga xos uslubi mavjud. Masalan, she'riyatdagi metaforalar, simvollar yoki aliteratsiya tarjimasi o'z tilining leksik va sintaktik chegaralariga bog'liq holda o'zgargan holda ifodalanishi mumkin.

Ikkinchi, she'riy asarlarning tarjimasi orqali madaniy tafovutlar ham hisobga olinishi kerak. Boshqa madaniyatga mansub she'riy asarlarni tarjima qilishda, tarjimon madaniy kontekstni o'rganib chiqishi lozim. Chunki ko'pincha bir tildagi badiiy obrazlar va ramzlar boshqa til va madaniyatda umuman boshqa ma'no kasb etishi mumkin.

Uchinchi, she'riy tarjima jarayonida tarjimonning shaxsiy uslubi va talqini ham ahamiyatga ega. Tarjimonda so'zning leksik va stilistik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, tarjimaning adabiy uslubiga mos ravishda ish olib borish talab etiladi. Ba'zan tarjimon original asarning stilistik imkoniyatlarini cheklaydi yoki o'zgartiradi, bu esa asar muallifining niyatlariga qarshi kelishi mumkin. Shuning uchun tarjimaning sadoqatini saqlashning o'ziga xos mezonlari mavjud.

To'rtinchi, she'riy tarjima jarayonida «sadoqat» va «muvofiqlik» (faithfulness va equivalence) tamoyillari o'rtasidagi o'zaro ziddiyat ham stilistik muammolarni yuzaga keltiradi. Sadoqat tamoyili tarjimonning asl matnning mazmuniga va shakliga sodiq qolishini ta'kidlaydi, lekin bu o'zining cheklovlarini keltirib chiqaradi, chunki she'riy asarlarning ko'plab estetik elementlari boshqa tilda to'g'ri ifodalanmasligi mumkin. Muvofiqlik tamoyili esa tarjimada asl asar bilan o'zaro ma'no

jihatidan moslikni saqlashni anglatadi. Biroq, bu ham til va madaniyatlararo farqlarni hisobga olishni talab qiladi. Ba'zi hollarda, tarjimon she'rdagi ba'zi elementlarni yoki shakllarni o'zgartirishi mumkin, lekin bu jarayonda ularning estetik kuchini yo'qotmasligi kerak. Tarjimada sadoqat va muvofiqlik tamoyillari o'rtasidagi muvozanat she'riyatning badiiy qiymatini saqlash uchun zarurdir.

Beshinchidan, she'riy asarlarni tarjima qilishda ba'zan stilistik xususiyatlar o'zgartirilishi yoki yo'qolishi mumkin. She'rda ishlatiladigan so'z o'yini, iroda, kuylovchi unsurlar va boshqa stilistik vositalar tarjimadagi leksik va sintaktik farqlar tufayli o'zgartirilishi mumkin. Shunday qilib, original asar va tarjima asar o'rtasida badiiy va stilistik tafovutlar yuzaga keladi. Bu farqlar, albatta, tarjimaning to'liq va sodiq bo'lishi uchun zarur bo'lsa-da, ba'zida asar muallifining o'zi istagan estetik ta'sirni qamrab olishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tarjimonda so'zlarning aniq va maqsadga muvofiq ishlatilishi, stilistik vositalarning saqlanishi, shuningdek, she'rning umumiy ahangini va tuzilishini to'g'ri ifodalash juda muhimdir.

Yuqorida sanab o'tganlarimizdan tashqari she'riy tarjima jarayonida tarjimonning kreativligi ham katta rol o'ynaydi. Ba'zan tarjimon o'zining badiiy talqini va ijodiy qobiliyatini ishlatib, she'rning yangi shaklini yaratadi. Bu holda, tarjimon original asarning to'g'ri badiiy va estetik qadriyatlarini saqlab qolish bilan birga, o'z kreativligini ham qo'llaydi. Misol uchun, o'zbek xalq dostonlari yoki klassik she'riyatdagi she'riy o'lchamlar, o'zbek tilining tuzilishiga mos ravishda o'zgartirilishi mumkin. Bu holatda, tarjimon original asarni to'g'ri talqin qilib, yangi badiiy qirralar yaratadi.

She'riy tarjimaning stilistik muammolari va ularni yechish jarayoni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik va estetik tahlilni talab qiladi. Tarjimonlar badiiy va stilistik jihatlarni saqlab qolgan holda, she'rlarning ma'nolarini va estetik ahamiyatlarini yangi tilga o'girishda kreativ yondashuvlarni qo'llashlari zarur. Bu jarayon, shuningdek, madaniyatlararo tafovutlarni chuqur o'rganish, tarjimonning shaxsiy yondashuvi, ilmiy metodologiya va badiiy sezgirlikni talab qiladi. Tarjimadagi stilistik o'zgarishlar, tarjimaning sadoqatini saqlash va o'quvchiga to'g'ri ta'sir qilishni ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

#### Xulosalar

She'riy tarjimadagi stilistik muammolarni hal qilishda, tarjimonda original asarning badiiy qimmatini saqlash va uni boshqa til va madaniyatga moslashtirish zarur. Bu jarayon tilning faqat grammatik tuzilishini emas, balki uning estetik va stilistik jihatlarni ham hisobga olishni talab qiladi. Tarjimada so'z va obrazlarning o'zgarishi, ritm va musiqiylikni saqlash, madaniy tafovutlarni hisobga olish kabi muammolarni aniqlash va tahlil qilish, she'riy tarjimaga yondashuvlarni yangilashga yordam beradi. Bu masalalar tarjimanshunoslikda yanada chuqurroq tadqiqotlarni talab etadi.

Shu bilan birga, tarjimonning shaxsiy uslubi, madaniy kontekst va original asarning janr xususiyatlarini to'g'ri tushunish, she'riy tarjimadagi stilistik muammolarni yengish uchun muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsiev, A. (2004). Tarjimada noan'anaviy uslublar (She'riy tarjima misolida). Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Muhammadiev, T. (2010). Tarjimaning badiiy-estetik jihatlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Xolmuhammedov, B. (2001). Tarjimoni o'rgatish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
4. Shodmonov, I. (2012). She'riy tarjimaning estetikasiga oid masalalar. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
5. Akhmedov, M. (2005). Tarjimonda leksik va stilistik muammolar. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
6. Yunusov, R. (2007). She'riyat va tarjima: nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.

## MAKTAB O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MAKTAB, MAHALLA VA OILA HAMKORLIGINING O'RNINI RIVOJLANTIRISH

Xalqaro Nordik universiteti Magistranti  
Mirzayeva Kamola Uralovna

*Annotatsiya: Ushbu maqola maktab o'quvchilarini tarbiyalashda maktablar, mahallalar va oilalar o'rtasidagi hamkorlikning muhim rolini yoritiladi. Yaxlit hamkorlik qanday qilib o'quvchilar natijalarini yaxshilashi, jamiyatni qo'llab-quvvatlashga yordam berishi va yaxlit ta'lim muhitini yaratishi mumkinligini izohlaydi. Tahlil amaliy tadqiqotlar, nazariy asoslar va o'qituvchilar va siyosatchilar uchun amaliy natijalarni o'z ichiga oladi. Muvaffaqiyatli hamkorlik modellarini yoritib, maqola ta'lim amaliyotini takomillashtirish va jamoatchilik aloqalarini mustahkamlash uchun amaliy tushunchalarni taqdim etishga qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: Maktab-oila hamkorligi, jamoatchilik ishtiroki, ta'lim natijalari, yaxlit ta'lim, hamkorlik, ota-onalar ishtiroki, mahallani qo'llab-quvvatlash, o'quvchilar yutuqlari*

## ШКОЛА В ОБРАЗОВАНИИ ШКОЛЬНИКОВ, РАЙОН И РАЗВИТИЕ МЕСТА СЕМЕЙНОГО ПАРТНЕРСТВА

*Аннотация: В данной статье подчеркивается важная роль сотрудничества между школами, микрорайонами и семьями в образовании школьников. В нем объясняется, как целостное партнерство может улучшить успеваемость учащихся, помочь поддержать сообщество и создать целостную среду обучения. Анализ включает тематические исследования, теоретические основы и практические последствия для преподавателей и политиков. Подчеркивая успешные модели партнерства, статья призвана предоставить практические идеи для улучшения образовательной практики и укрепления связей с общественностью.*

*Ключевые слова: сотрудничество школы и семьи, вовлечение сообщества, образовательные результаты, целостное образование, сотрудничество, родительское участие, поддержка соседей, достижения учащихся*

## DEVELOPING THE ROLE OF SCHOOL, NEIGHBORHOOD, AND FAMILY COOPERATION IN THE EDUCATION OF SCHOOL STUDENTS

*Annotation: This article highlights the critical role of partnerships between schools, neighborhoods, and families in educating students. It explains how holistic partnerships can improve student outcomes, help support communities, and create a more inclusive learning environment. The analysis includes case studies, theoretical frameworks, and practical implications for educators and policymakers. By highlighting successful partnership models, the article aims to provide practical insights for improving educational practices and strengthening community engagement.*

*Keywords: School-Family Cooperation, Community Engagement, Educational Outcomes, Holistic Education, Collaboration, Parental Involvement, Neighborhood Support, Student Achievement*

Kirish:

Zamonaviy ta'limda maktab o'quvchilari uchun qo'llab-quvvatlovchi ta'lim ekotizimining ahamiyatini muhokama qilish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirishni belgilaydi. Unda qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tarqoq bo'lganda o'quvchilar duch keladigan muammolar ko'rsatilgan va yechim sifatida maktablar, oilalar va mahallalar o'rtasidagi hamkorlik tushunchasi keltirilgan. Ta'lim natijalarini yaxshilash uchun jamoaviy sa'y-harakatlar

zarurligini ta'kidlab, tadqiqotlar taxlilining mantiqiy asoslari keltirilgan.

Adabiyot sharhi:

Uzluksiz ta'lim jarayonlarida maktablar, oilalar va jamoalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirga oid mavjud tadqiqotlari ko'rib chiqildi. Tadqiqot taxlilida asosiy mavzularga quyidagilar kiradi:

- Ota-onalar ishtirokining o'quvchilar muvaffaqiyatiga ta'siri.
- ta'limni qo'llab-quvvatlashda mahalla resurslari va ijtimoiy kapitalning o'rni.
- ta'lim sharoitlarida hamkorlik va jamiyatning ishtiroki nazariyalari.
- Muvaffaqiyatli hamkorlikning namunali modellari va ularning natijalari.

Mamlakatimizda xam bir qancha olimlar maktab o'quvchilarini tarbiyalashda maktablar, mahallalar va oilalar o'rtasidagi hamkorlikning rolini ta'kidlaydigan ta'lim nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishga hissa qo'shgan. Muayyan darsliklar turlicha bo'lishi mumkin bo'lsa-da, bu mavzuda o'zbek olimlari va ta'lim sohasi bo'yicha bir necha taniqli olimlarimizning ishlarini ko'rib chiqamiz [1]:

Shu erda xurmatli prezidentimiz Mirzayev Shavkat Miromonovichni mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi akademik sifatida birinchilar keltirib o'tsak mubolag'a bo'lmaydi. Uning kitoblarida asosan jamoat resurslarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish va turli manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi[2].

Shodiev Shuhrat Shuhratovich o'z ilmiy ishlarida pedagogika sohasidagi faoliyatlari bilan tanilgan va jamiyat va oilani jalb qilish orqali ta'lim amaliyotini oshirishga qaratilgan materiallar xaqida yozgan. Uning tadqiqotlari ko'pincha ta'lim natijalarini yaxshilashda hamkorlikning muhimligini ko'rib chiqadi.

Abdullaeva Nigina Abdurahmonovnaning ilmiy ishlarida oila-maktab hamkorligi, ta'lim-tarbiyada mahallaning o'rni haqida chuqur o'rganigan pedagogning asarlarida bu hamkorlikning bolalar ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Rizayeva Anora Ahtamovnaning ilmiy ishlarida ijtimoiy pedagogika sohasiga va ta'limda jamoatchilikni qo'llab-quvvatlashning ahamiyatiga hissa qo'shdi, oilalar va mahallalar bilan hamkorlik qilish orqali o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun hamkorlik muhitini yaratishga e'tibor qaratgan.

Xamraeva Saidaning ilmiy ishlarida pedagogik jarayonda jamoa va oila dinamikasini o'z ichiga olgan ta'lim metodologiyalari bo'yicha tadqiqotlar olib bordi, maktablar va ularning atrof-muhitlari o'rtasidagi mustahkam aloqalarni targ'ib qildi.

Mamlakatimiz olimlari yurtimizdagi mahalliy sharoit va ta'lim ehtiyojlarini aks ettiruvchi maktab, oila va jamiyat rollarining ta'limdagi integratsiyasiga bag'ishlangan maqolalar, darsliklar yoki boshqa manbalarda xam mavzu haqida qo'shimcha ma'lumot olish imkonini beradigan ma'lumotlarni yoritib kelmoqdalar.

Xorijiy olimlardan Joys L. Epsteyn o'zining «Oltita ishtirok etish doirasi» bo'yicha ishi bilan mashhur bo'lgan Epsteynning tadqiqotlari maktablar o'quvchilar muvaffaqiyatini oshirish uchun oilalar va jamoalar bilan hamkorlikni qanday rivojlantirishi mumkinligiga qaratilgan. Uning "Maktab, oila va jamiyat hamkorligi: harakat uchun qo'llanmangiz (School, Family, and Community Partnerships: Your Handbook for Action)" kitobi sohada keng qo'llaniladigan manba hisoblanadi.

Sara Meadowsning oila va jamiyatning ta'limdagi ishtiroki tarafdori sifatida Meadows ota-onalar ishtirokining muhimligini va talabalarning o'qishini qo'llab-quvvatlashda jamoat resurslarining rolini ta'kidladi. Uning turli nashrlarga qo'shgan hissalarida oila va maktab hamkorligi dinamikasini o'rganadi[5].

Alan J. Dalyning ilmiy ijodida ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar va hamkorlik amaliyotlarining ta'limdagi o'rni haqida so'z boradi. U maktablar ta'lim natijalarini yaxshilash uchun jamoa munosabatlaridan qanday foydalanishi mumkinligini o'rganib chiqdi va bu sohada ta'limdagi



tarmoq tuzilmalarini tushunishga hissa qo'shdi.

Oilaviy hamkorlik bo'yicha yetakchi mutaxassis Karen Mapping oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik bo'yicha muloqotga o'z hissasini qo'shdi. Uning "Ta'limdagi hamkorlik: oila-maktab hamkorligi uchun ikki tomonlama salohiyatni oshirish asosi (Partners in Education: A Dual Capacity-Building Framework for Family-School Partnerships)" nomli kitobi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish haqida tushuncha beradi[3].

John Deweyning XX-asr boshlarida yozgan falsafiy yondashuvi ijtimoiy kontekst, jumladan, oila va jamiyat ishtiroki muhimligini ta'kidlaydi. Uning asarlari hamkorlik atrofidagi zamonaviy ta'lim nazariyalariga ta'sir qilishda davom etmoqda.

Hilda Borkoning tadqiqotlari o'qituvchilar, oilalar va jamoalar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradigan o'qituvchilar ta'limi va kasbiy rivojlanish jihatlarini o'z ichiga oladi. Uning faoliyati ta'lim jarayonida umumiy mas'uliyat muhimligini ta'kidlaydi.

Ronald D. Johnsonning hissasi jamiyat dinamikasi va oila ishtiroki ta'lim sifati va talabalar yutuqlariga qanday ta'sir qilishiga oid tadqiqotlarni o'z ichiga oladi, amaliy qo'llanmalar va hamkorlikni rivojlantirish strategiyalariga oydinlik kiritadi[4].

Ushbu mualliflar va tadqiqotchilar maktablar, oilalar va jamoalar o'rtasidagi ta'lim landshaftidagi o'zaro ta'sirni tushunishni birgalikda rivojlantirdilar va o'quvchilar ta'limida hamkorlikni kuchaytirishga intilayotgan o'qituvchilar va siyosatchilar uchun boy adabiyotlarni taqdim etdilar.

Metodlar:

Zamonaviy ta'limda maktablar, oilalar va mahallalar o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida ma'lumot to'plash uchun aralash usullardan foydalaniladi. Usullarga quyidagilar kiradi:

- Ota-onalar ishtiroki va jamoatchilik ishtiroki darajasini baholash uchun so'rovlar.
- Samarali hamkorlik amaliyotlari haqida tushunchalarni to'plash uchun o'qituvchilar, ota-onalar va jamoa a'zolari bilan sifatli suhbatlar.
- Hamkorlik dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan maktablar misolida.

Munozara:

Muhokamada kuzatilgan hamkorlik modellarini taxlil qilib, to'plangan ma'lumotlardan olingan natijalarni sintez qilinadi. U manfaatdor tomonlar o'rtasida muloqot, ishonch va umumiy maqsadlarning muhimligini ko'rib chiqadi. Mavzu yuzasidan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, madaniy farqlar va turli darajadagi hamkorlik kabi samarali hamkorlikdagi to'siqlarni o'rganilib amaliyotga joriy qilinmoqda. Metodlar va topilgan ma'lumotlar tanqidiy baholanadi. U joriy hamkorlikning samaradorligini aks ettiradi va adabiyot xamda amaliyotdagi kamchiliklarni aniqlaydi. Tahlillar asosida shu ta'kidlanadiki, muvaffaqiyatli modellar mavjud bo'lsa-da, jamiyatning turli kontekstlarining nuanslarini va bu tashabbuslarning ko'lamliligini tushunish uchun ko'proq tadqiqotlar talab etiladi.

Xulosa:

Zamonaviy ta'lim jarayonlarining ijobiy rivojlanishida maktab o'quvchilari tarbiyasida maktablar, mahallalar, oilalar hamkorligi zarurligi yana bir bor ta'kidlanadi. U jamiyatga asoslangan ta'lim dasturlariga sarmoya kiritishni davom ettirishga chaqiradi va hamkorlikni rivojlantirish strategiyalarini tavsiya qiladi. Barcha o'quvchilar uchun ko'proq qo'llab-quvvatlovchi va boyitish muhitini yaratish, natijada ta'lim natijalarini yaxshilash va jamoaviy aloqalarni mustahkamlash uchun bunday hamkorliklarning potentsialiga qaratilgan.

Maktablar, jamoat tashkilotlari va oilalar uchun hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha maktablar va oilalar o'rtasida muntazam aloqa kanallarini yo'lga qo'yish, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun jamoat tadbirlarini tashkil etish, ota-onalarni o'z farzandlarining ta'limiga yanada samarali jalb qilishlari uchun resurslar va treninglar bilan ta'minlash, turli jamoalarning ehtiyojlarini qondiradigan inklyuziv dasturlarni yaratish zarur.

Ushbu tizimli yondashuv mavzuni har tomonlama o'rganish imkonini beradi va jamoat hamkorligi orqali ta'lim landshaftini yaxshilashdan manfaatdor bo'lgan o'qituvchilar,

tadqiqotchilar va siyosatchilar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizni hayot darajasini oshirish barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – Toshkent, 2007. – B. 303.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 102.
3. Karen Mapp, Faculty Chair. Family Engagement in Education: Creating Effective Home and School Partnerships. <https://www.gse.harvard.edu/professional-education/program/family-engagement-education-creating-effective-home-and-school>
4. Joyce L. Epstein. National Network of Partnership Schools (NNPS). <https://education.jhu.edu/directory/joyce-l-epstein-phd/>
5. Sara Meadows. The child as social person. [https://www.amazon.com/stores/Sara-Meadows/author/B001HP4NPK?ref=ap\\_rdr&isDramIntegrated=true&shoppingPortalEnabled=true](https://www.amazon.com/stores/Sara-Meadows/author/B001HP4NPK?ref=ap_rdr&isDramIntegrated=true&shoppingPortalEnabled=true)

## **РАЗРАБОТКА И СОДЕРЖАНИЕ РАБОЧЕЙ ПРОГРАММЫ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ**

*Евстафьева Любовь Григорьевна*

*доцент кафедры «Методика дошкольного образования»*

*Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и  
специалистов дошкольных образовательных организаций. г. Ташкент*

*Аннотация. В статье рассматриваются сущность составления рабочей программы педагогов дошкольной образовательной организации. Определена цель разработки рабочей программы.*

*Ключевые слова: Закон «О дошкольном образовании и воспитании», права и обязанности педагога, рабочая программа,*

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILISINING O'QITUVCHILARI UCHUN ISH DASTURINI ISHLAB CHIQISH VA MAZMUNI**

*Evstafieva Lyubov Grigoryevna*

*Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti*

Modulli texnologiyalar ta‘lim jarayonini tizimli, qiziqarli va samarali qiladi. U nafaqat talabalarni milliy qadriyatlar va xalq pedagogikasining boy an‘analarini chuqur o‘rganishga undaydi, balki ularni mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy bilimlarni hayotga tatbiq qilishga tayyorlaydi. Ushbu texnologiya talabalarni bilim olish jarayonida faol ishtirokchi sifatida ko‘radi va ularning shaxsiy rivojlanishiga keng yo‘l ochadi.

#### Xulosa

Xalq pedagogikasi fanini o‘qitishda modulli texnologiyalarni qo‘llash ta‘lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish va talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiya o‘quv jarayonini tizimli, moslashuvchan va samarali qilishga xizmat qiladi.

Modulli texnologiyalar ta‘lim jarayonida bir qancha afzalliklarni beradi:

- Talabalarning mustaqil o‘qish ko‘nikmalari va mas‘uliyat hissini rivojlantiradi.
- Bilimlarni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi.
- O‘qitishni individuallashtirish orqali har bir talabaning ehtiyojlariga moslashadi.
- Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtiradi va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, xalq pedagogikasi fanini modullar asosida o‘qitish milliy ma‘naviy qadriyatlarini, tarixiy merosni va madaniy an‘analarni o‘rganishga katta hissa qo‘shadi. Bu esa talabalarda milliy o‘zlikni anglash, ma‘naviy barkamollik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Modulli texnologiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rish zarur:

1. Xalq pedagogikasi bo‘yicha zamonaviy modulli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.
2. O‘qituvchilarni modulli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha maxsus tayyorlash.
3. Ta‘lim jarayoniga axborot texnologiyalarini keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish.



Modulli texnologiyalarni joriy qilish orqali xalq pedagogikasi fanining ta'lim tizimidagi ahamiyati oshadi, talabalar esa zamonaviy va milliy pedagogikaning uyg'unlashgan shaklda o'zlashtirgan holda jamiyatda faol va ijodkor shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va milliy ma'naviy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, A. Xalq pedagogikasi va uning nazariy asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.2018.

2. Nizomov, S. Modulli ta'lim tizimining zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.2020

3. Karimov, O., & Rustamova, Z. Innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va samaradorligi. Ta'lim va taraqqiyot jurnali, 5(2), 23–30.2019.

4. Shoumarov, M. Ta'lim jarayonida modulli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. Ta'lim innovatsiyalari konferensiyasi materiallari, 45–50.2017.

5. UNESCO (2019). Modular Teaching Approaches in Higher Education: Global Perspectives. Paris: UNESCO Publishing.

6. Ergashev, D. (2021). Xalq pedagogikasining tarbiyaviy ahamiyati va zamonaviy talqini. O'zbekiston pedagogika jurnali, 7(4), 35–40.

## 15-17 YOSHDAGI FUTBOLCHILARNI UMUMIY CHIDAMKORLIKLARINI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH

*Raximov Abdumalik Abdusattorovich*

*Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti Jismoniy madaniyat va sport faoliyati kafedrasini o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va ta'limning ko'p tomonlari ilmiy va amaliy maqsadlarda qayd etiladigan, hamda mohiyatiga ko'ra turlicha pedagogik o'lchovlar (masalan, nazorat mashqlar, test sinovlari, matematik statistika) ko'rinishida ifodalanadi va fanda oxirgi mezon bo'la oladi. 15-17 yoshli futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi yillik o'quv sikllarini bosqichma-bosqich modellashtirish orqali jismoniy tayyorgarligi, jismoniy rivojlanish pedagogik o'lchov vositasida tekshiriladi va baholana haqida ma'lumotlar berilgan*

*Kalit so'zlar: Futbol . modellashtirish. Yillik o'quv sikli. Musobaqa mezoni.*

Futbol eng qadimiy o'yinlardan biridir. Inglizlarning e'tirof etishlaricha, oyoq bilan to'p o'ynash Britan orollarida IX-asrdayoq juda mashhur bo'lgan. 1863-yil 26-oktyabrda Londonda Angliya futbol uyushmasining tashkil etilishi paytida bu o'yinning 13-moddadan iborat bo'lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan. Keyinchalik bu qoidalar boshqa barcha milliy uyushmalar uchun futbol o'yinining asosi bo'lib koldi. Futbol o'yinining ilk qoidalarida belgibilanishicha, maydon uzunligi 200 yard (183 metr) dan, kengligi 100 yard (91 metr) dan oshiq bo'lmasligi kerak.

Futbolchilar tayyorgarligining asosiy mezoni musobaqa faoliyati bo'lib, u o'yin natijasi va murabbiyning ekspert bahosi bilan bir qatorda tezkor ish hajmi, shuningdek, texnik-taktik harakatlar miqdori va aniqligi bilan tavsiflanadi. Musobaqa faoliyatini qayd etish mamlakatimiz va chet el sportchilarining har bir muayyan o'yiniida o'yinchilarning faoliyatlari haqida juda ko'p materiallar yig'ishga imkon berdi. Lekin yosh futbolchilarda bu tadqiqotlar epizodik xususiyatga ega bo'ldi, shuning oqibatida mazkur muammo deyarli o'rganilmaganicha qolmoqda. A.V.Petuxov malakali hamda 15-17 yoshli futbolchilar musobaqa faoliyatini taqqoslar ekan, texnik-taktik harakatlarning ko'pgina miqdoriy-sifat o'lchamlari borasida mohir futbolchilar ishonchli ustunlikka ega ekanliklarini aniqladi.

Texnik-taktik harakatlarni bajarish ishonchligi malakali futbolchilarda - 70%, yoshlarda - 52%. Bu yosh futbolchilar texnik-taktik tayyorgarlik darajasini past deb baholashga asos bo'ladi. Bunda bolalar-o'smirlar futboli rivojiga to'siq bo'layotgan ob'yektiv va sub'yektiv xususiyatli shart-sharoitlarning butun bir majmuasi ajratib ko'rsatiladi. Olingan natijalar yosh futbolchilarning sport natijalariga erishuvda jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanishni tashkil etuvchi sifatlar yetakchi ahamiyatga ega ekanligidan, texnik-taktik imkoniyatlar esa sport natijasiga hal etuvchi ta'sir ko'rsata olmasligidan dalolat beradi.

Funksional holatni aniqlash, jismoniy sifatlar va texnik tayyorgarlikni rivojlantirish maqsadida 15-17 yoshli futbolchilar ustida tadqiqotlar o'tkazildi. Musobaqa faoliyati tahlilining ko'rsatishicha, Toshkent shahar futbol bo'yicha Davlat ixtisoslashtirilgan maktab internati (TShFBDIMI) 15-17 yoshli futbolchilari bir o'yinda o'rtacha 478-526 ta texnik-taktik harakatni amalga oshiradilar, xatolar esa 34- 36%. Agar qisqa uzatishlar hisobga olinmasa, u holda 312-372 texnik-taktik harakat va 39-40% xato, ya'ni yosh futbolchilar qisqa uzatishlarni ko'proq qo'llaydilar. Bu yoshda o'yinda texnik-usullarni ko'proq qo'llash xususiyati qayd etiladi: Himoyachilar - qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishlar, to'pni olib qo'yish, bosh bilan o'ynash, to'pni yo'l-yo'lakay tutib qolish, uzoq masofaga uzatishlarni eng yuqori - 47-51% xatolar bilan, to'pni olib qo'yishni - 33-35%, bosh bilan o'ynashni - 34- 47%, 117 aldab o'tishni - 31-39% xato bilan bajarishi aniqlandi. Yarim himoyachilar - qisqa, o'rta, uzoq masofaga to'p uzatishlar,

to'pni olib yurish va raqibni aldab o'tish, uzoq masofaga uzatishlarni bajarish vaqtida xatolar foizining eng yuqori darajasi - 47-48%, aldab o'tishda - 36-37%, bosh bilan o'ynashda - 36-40%, darvozaga zarba berishda - 47-51% bilan bajarishi aniqlandi. Hujumchilar - qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishlar, darvozaga zarba berish, uzoq masofaga to'p uzatishlarni bajarishda xatolar foizi 46-47%, darvozaga zarba berishda - 53-66%, to'pni olib qo'yishda - 34-41%. To'pni olib yurish va aldab o'tishdan kamroq foydalanishlari ma'lum bo'ldi. Sport o'yinlarida musobaqalar mavsumining o'ziga xos tavsiflarga egaligini qayd qilib o'tish talab qilinadi. Boshqa sport turlari bilan solishtirilganda, bu erda «me'yor» sifatida yillik tsikl davomida 50-70 ta musobaqalarda ishtirok etish qayd qilinadi. Bunda musobaqa davrining davomiyligi yil davomida 6-9 oyni tashkil qiladi. Bu holatni hisobga olgan ravishda, sport o'yinlarida sportning ko'pgina turlarida odatlanilgan holatdagi, yillik tayyorgarlik tsiklini davrlashtirish bo'yicha nuqtai nazarlarga o'zgartirish kiritish talab qilinadi. Bu yerda tayyorgarlik davri bilan birgalikda, uchta ushbu ko'rinishdagi davrlar mavjud bo'lishi va ular borgan sari ko'proq qayd qilinishi mumkin. Bu esa har safar yillik tsikl ichida sport formasining rivojlanishidagi barcha to'rtta fazaga (yaratish, nisbatan barqarorlashish, optimal holatda namoyon bo'lish va qisman sarflanish) muvofiq keluvchi, o'z ichiga «potentsialning yig'ilishi va uning ro'yobga oshirilishini» qamrab oluvchi, butun holatdagi mezotsikllarni ajratishni amalga oshirishga majburlaydi. Qayd qilib o'tish kerakki, bu ko'rinishdagi tayyorgarlik mezotsikllari ichida yillik tsikllarga o'xshash holatda, o'tish, umumiy va maxsus tayyorgarlik, musobaqaoldi va musobaqa bosqichlari bo'ladi. Yuqori sinfga mansub bo'lgan futbolchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi ko'p yillar davomida shakllantirilgan bo'lib, hozirgi vaqtda bu holat takomillashtirilishi davom ettirilmoqda, bu maqsadlarda fan va amaliyotning yangi yutuqlaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Sport yonalishidagi zamonaviy tayyorgarlik tizimi uchun mashg'ulotlar jarayonining intensivlashtirilishi o'ziga xos xususiyat bo'lib, bu o'z tarkibiga quyidagi jihatlarni qamrab oladi: - nisbatan yuqori darajada ixtisoslashtirish;

- mashg'ulot mashqlari hajmi ortishi va shuningdek, katta yuklamaga ega mashqlar miqdori oshirilishi; - maxsus ish qobiliyati darajasini oshirish imkonini beruvchi - «qat'iy» tartibdagi mashg'ulotlar rejimidan keng miqyosda foydalanish; - musobaqalar amaliyotining kengaytirilishi; - zo'riqli yuklamalardan keyin sportchilar organizmida jarayonlarning qayta tiklanishi jadallashtirilishi (intensifikatsiyasi) uchun va shuningdek ish qobiliyatini stimullovchi (turki beruvchi) qo'shimcha vositalardan foydalanishni tarkibga kiritish. V.N. Platonov tomonidan qayd qilinishicha, turli xil sabablarning ta'siri ostida sport yonalishida tuzib chiqilgan taqvim rejalarini tarkibida mas'uliyatli musobaqalar yil mavsumining katta qismini qamrab oladi va tayyorgarliklar tuzib chiqilishi tizimi tavsiflari bo'yicha esa faqat sportchilarning yil davomida muvafaqqiyatli chiqish qilishlari uchun amalga oshirilgan tayyorgarlik bitta-ikkita yuqori cho'qqi darajasiga erishishlarini ta'minlab beradi xolos, ushbu ko'rinishda tezkor tarzda o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lgan sport amaliyotiga nisbatan sportchilarda talab qilingan tayyorgarlik darajasiga erishishning ortda qolishi kuzatiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Б.А.Ашмарин. Теория и методика физического воспитания. Москва. 1979.
2. Л.Матвеев. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва. 1982.
3. Б.А.Ашмарин. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва.1984.
4. Филин В.П. Воспитана физических качеств у юних спортсменов. Москва., 1984.
5. Теория и методика физическая воспитания. Л.П.Матвеева А.Д.Новикова. Москва; ФиС.
6. Теория и методика физического воспитания. Под ред. Б.А.Ашмарина. М.,1987.
7. П.К.Благуш. К теорию тестирования двигательных способностей. Москва; ФиС, 1987

## VIZUAL FAOLIYAT VOSITALARINING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING MANAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI

*Ro'ziboeva Zarnigor Alisher qizi,*

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni bolaning jismoniy rivojlanishiga qo'yiladigan talablar va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ko'plab usullari yoritilgan. Shuningdek, muallif ma'naviy-axloqiy madaniyat bilan tanishish bolaning nutqini rivojlantirishga, ona tili va adabiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishiga, tilning birinchi navbatda ma'naviy haqiqat sifatida rivojlanishiga yordam berishi bo'yicha tavsilar berib o'tgan.*

*Kalit so'zlar. Ma'naviy-axloqiy tarbiya, qadriyat, munosabatni shakllantirish, estetik rivojlanish, vizual san'atga qaratishning ahamiyati ijodiy rivojlanish.*

## ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ ВИЗУАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

*Рузибоева Зарнигор Алишеровна*

*Независимый исследователь Национального института педагогики воспитания имени Кори Ниязия*

*Аннотация: В статье рассматривается содержание нравственно-духовного воспитания, требования к физическому развитию детей, а также множество методов нравственно-духовного воспитания. Автор предлагает рекомендации по знакомству с духовно-нравственной культурой, которая способствует развитию речи ребенка, успешному освоению родного языка и литературы, а также развитию языка как духовной ценности. Подчеркивается значимость визуального искусства в эстетическом и творческом развитии.*

*Ключевые слова: Нравственно-духовное воспитание, ценности, формирование отношений, эстетическое развитие, значимость визуального искусства, творческое развитие.*

## THE IMPACT OF VISUAL ACTIVITY TOOLS ON THE FORMATION OF MORAL AND SPIRITUAL QUALITIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS' PUPILS

*Ro'ziboeva Zarnigor Alisher qizi*

*Independent researcher, National Institute of Pedagogy and Education named after Qori Niyoziy*

*Abstract: The article examines the content of moral and spiritual education, the requirements for children's physical development, and various methods of moral and spiritual upbringing. The author provides recommendations on familiarizing children with spiritual and moral culture, which aids in the development of their speech, successful mastery of their native language and literature, and the development of language as a spiritual value. The importance of visual arts in aesthetic and creative development is emphasized.*

*Keywords: Moral and spiritual education, values, relationship formation, aesthetic*



*development, importance of visual arts, creative development.*

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bolalarning ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bolaning ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan me'yor, qadriyatlar va fazilatlarga oid barcha belgilangan standartlar ma'naviy-axloqiy tarbiya mashg'ulotlarida, uning o'ziga, keyin boshqa odamlarga, qarindoshlariga, boshqalarga, tarbiyachilarga, tengdoshlariga, jamiyat va tabiatga to'g'ri munosabatini shakllantirishdan boshlanadi.

Shu bilan birga, agar tarbiya jarayoni an'anaviy ma'naviy-axloqiy me'yorlar va g'oyalarga asoslangan bo'lsa, bolaning ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishini shakllantirish yanada muvaffaqiyatli bo'ladi.

Bolaning ijtimoiy tarbiyasining eng muhim jihati oilaga muhabbatni shakllantirishdir. Va bu vazifani oilani "jamiyatning kichik bo'lagi" g'oyasiga asoslangan oilaviy ta'lim tizimi eng muvaffaqiyatli hal qilishi mumkin. Oilaning muqaddasligi, onalik va otalik muqaddasligi g'oyasi, diniy ma'naviy va axloqiy tartiblar, oilaviy birdamlik va o'zaro yordam asosida qurilgan oilada oilaviy baxt va farovonlikning mustahkamligini tushunish mumkin.

Insonning dunyoga bo'lgan eng muhim munosabati uning jamiyatga bo'lgan munosabatidir. Inson jamiyatning bir qismidir, shuning uchun bolani jamiyat hayotiga tayyorlash kerak va buning uchun u ijtimoiy ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni egallashi zarur. Ushbu ta'limning eng muhim yo'nalishi vatanparvarlik tarbiyasi bo'lib, u o'z xalqiga, Vatanga, atrof-muhitga va odamlarga muhabbatni shakllantirishga qaratilgan. Agar pedagogika klassiklari yaxshi ko'rsatganidek, an'anaviy qadriyatlar asosiga asoslangan bo'lsa, bu ta'lim eng muvaffaqiyatli bo'ladi, ulardan eng muhimi katta va kichik Vatanga, o'z xalqiga va atrofidagi dunyoga muhabbatdir.

Ta'limning ushbu sohasining yana bir jihati insonning tabiatga mehribon, g'amxo'r, ehtiyotkor, o'zgaruvchan munosabatini shakllantirishga qaratilgan ekologik ta'limdir. Tabiatga o'zgaruvchan munosabatni shakllantirish bolada tabiatga, tiriklarga, o'ziga va boshqa odamga nisbatan mehribon, g'amxo'r munosabatni tarbiyalashdan boshlanadi.

Bu yoshda bolada tabiatga yaxshi munosabatning asosi insonni ma'naviy-axloqiy o'zgartirish g'oyasi ekanligini his qilish kerak, chunki bu nafaqat asrab-avaylashning, balki eng muhimi – tabiatni yaxshilashning asosiy sharti sanaladi.

Yovuz, xudbin odam tabiatga g'amxo'rlik qila olmaydi – u faqat uni yo'q qiladi. Va shuning uchun bolalikdan bolani yo'q qiluvchi emas, balki tabiat yaratuvchisi, tabiatga g'amxo'rlik qila oladigan, o'zini va tabiatni o'zgartira oladigan bolani tarbiyalash juda muhimdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni bolaning kognitiv rivojlanishi bilan chambarchas mos keladi. Shuning uchun bolaning kognitiv rivojlanishi uchun Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida ko'rsatilgan talablarning aksariyati ma'naviy-axloqiy tarbiya mashg'ulotlari mazmunida bevosita aks etadi. Va bu olimlar har doim inson ongini, idrokini yuqori baholaganligi, fan va bilish ma'naviy izlanish va inson rivojlanishining muhim vositasi bo'lib xizmat qilishini, uning turmush sharoitlarini yaxshilashini isbotlaganligi bilan izohlanadi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bolaning kognitiv rivojlanishi uchun juda muhimdir, chunki maktabgacha davrda bolaning dastlabki mafkuraviy qiyofasi va kognitiv bilimi shakllanadi, uning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun asoslar yaratiladi, kognitiv soha rivojlana boshlaydi. Ta'limning an'anaviy ma'naviy-axloqiy mazmuni bolaning kognitiv sohasini rivojlantirishga, uning ijodiy rivojlanishiga yordam beradi, chunki ma'naviy-axloqiy mazmuni o'zlashtirishda nafaqat bola psixikasi, balki uning ruhi ham rivojlanadi.

Ma'naviy-axloqiy madaniyat bilan tanishish bolaning nutqini rivojlantirishga, ona tili va adabiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishiga, tilning birinchi navbatda ma'naviy haqiqat sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Bu esa til o'rganishni bolaning tirik ma'naviy rivojlanish vositasiga aylantiradi. Shunday qilib, til va adabiyotni o'rganishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanish nafaqat muvaffaqiyatli nutqqa, balki bolaning chuqur ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limning yana bir muhim yo'nalishi – bu bolani estetik rivojlantirishdir. Bu badiiy madaniyat asosan insonning xayoliy tafakkurini, uning his-tuyg'ular madaniyatini, dunyoga munosabatini, shaxsning o'zi va uning turmush tarzini, xulq-atvorini, dunyo bilan munosabatlarini shakllantirishi bilan izohlanadi. Shu sababli, badiiy madaniyat MTT tarbiyalanuvchilarining shaxsini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

MTT da estetik tarbiya mazmunini nafaqat mukammal estetik asarlar, balki chuqur ma'naviy-axloqiy mazmundagi asarlar bilan to'ldirish alohida o'rin tutadi. Va aynan vizual san'at bolalarni haqiqiy go'zallik haqida o'rgatishga yordam beradi va go'zallikka xizmat qilish zarurati munosabatini tarbiyalaydi. Vizual san'atni bilish bolaning estetik sohasini boyitadi va rivojlantiradi, chunki u idrok eta oladigan san'at asarlari bolaning ongiga eng mos keladi.

Estetik rivojlanishni vizual san'atga qaratishning ahamiyati shundaki, u MTT tarbiyalanuvchisi shaxsining ijodiy rivojlanishiga, uning estetik didi, dunyoqarashi va dunyoni his qilishiga hissa qo'shadi.

An'anaviy xalq hunarmandchiligini o'zlashtirish bo'yicha birgalikdagi tadbirlar bolalar bilan ishlashda ham samaralidir. Muayyan hunarmandchilikni o'zlashtirish nafaqat uning bolaga qulayligi, mahsulotlarning jozibadorligi, balki ishning semantik yo'nalishi bilan ham bog'liq, chunki sovg'a kimdir uchun qilinadi. Bolaning sovg'aning foydaliligiga qiziqishini oshirish, uning boshqa odamga qaratilishi yaxshi natijaga erishishda mehnatsevarlik va sabr-toqatni sezilarli darajada oshiradi.

An'anaviy qadriyatlarga tayanish estetik immunitetning rivojlanishiga ham yordam beradi, bu bola hayotining ushbu davrida ma'naviy va axloqiy immunitetni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq holda shakllana boshlashi muhimdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni bolaning jismoniy rivojlanishiga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi. Har bir mashg'ulot dinamik pauza bilan birga keladi, mashg'ulotlarning o'zi bolaning jismoniy faolligini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan bo'ladi.

Boshqa tomondan, jismoniy tarbiyani tashkil etishda an'anaviy yondashuv jismoniy salomatlikni saqlash va rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradi, bu jismoniy, ruhiy va ma'naviy salomatlikka g'amxo'rlikning oqilona kombinatsiyasini nazarda tutadi. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning mazmuni inson jismoniy rivojlanishining an'anaviy ma'naviy-axloqiy asoslarini tiklashga yordam beradi. Va bu juda muhim, chunki bu yondashuv tana rivojlanishining ma'naviy va axloqiy ma'nosini anglashga imkon berib, jasur va qat'iyatli shaxsni, muammoga duch kelgan, muhtoj odamlarga yordamga kelishga tayyor odamni shakllantirishga qaratilgandir.

Ushbu yondashuv MTT da va undan keyin umumiy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya mazmunini an'anaviy tarkib bilan boyitishga yordam beradi – masalan, nafaqat jismoniy rivojlanish mashg'ulotlarida, balki boshqa barcha sohalarida ham foydali bo'lgan jismoniy mashqlar va o'yinlarning xalq turlari shular jumlasidan.

Ta'lim mazmuni tegishli texnologiyalarda amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda o'quv texnologiyalari ko'pincha oldindan dasturlashtirilgan natijalarni olishga imkon beradigan katta pedagogik vazifani, ushbu vazifaga mos keladigan tarkib, shakl va usullarni

amalga oshiradigan o'quv jarayonining bir qismi sifatida tushuniladi. Texnologiyaning eng muhim tarkibiy qismlari shakl va usullardir.

MTT da ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy shakli mashg'ulotlardir. Mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazishda bolalikning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Shuni esda tutish lozimki, axloqiy va ma'naviy rivojlanish darajasi nafaqat bolalarning yoshi, balki ularning ijtimoiy rivojlanish darajasi, bolani tarbiyalash va o'qitish shartlari va uning oilasining turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan madaniy an'analarga qo'shilishi bilan ham belgilanadi. Agar bolalar an'anaviy ma'naviy va madaniy turmush tarzidan uzoq sharoitlarda o'sgan bo'lsa, ularni milliy madaniyat bilan tanishtirish uchun mashg'ulotlar, ayniqsa yosh va o'rta guruhlarda, ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'tkazilishi kerak.

Mashg'ulotlarni tashkil qilishda mavzuga qarab farq qilishi mumkin bo'lgan ma'lum bir tuzilishga rioya qilish muhimdir. Mashg'ulotlarning taxminiy tuzilishi quyidagicha: birinchi qismi kognitiv; ikkinchisi dinamik pauza; uchinchi badiiy va samarali faoliyat.

Mashg'ulotning birinchi qismida, adabiy asarni o'qishdan oldin, illyustratsiyani ko'rishni va (yoki) musiqa bilan yozuvlarni tinglashni tashkil qilish tavsiya etiladi. Musiqiy parchalarni kiritish bilan adabiy asarni idrok etish sifat jihatidan yuqori bo'ladi. Shuningdek, matn bilan ishlashdan oldin va undan keyin rasmlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotlarning birinchi qismi, o'z navbatida, bir necha qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Deyarli har bir mashg'ulotning majburiy qismi bu mashg'ulot mavzusiga muvofiq tanlangan kichik adabiy asarni (ko'pincha hikoya, she'r, ertak) va dialog asosida tematik suhbatni o'qish va bolalar bilan muhokama qilishdir.

Mashg'ulotning ikkinchi qismi – dinamik pauza bo'lib, o'yinlarda (ayniqsa, jasorat, topqirlik, zukkolik, irodani tarbiyalaydigan muhim xalq o'yinlari), drammatizatsiya yoki musiqiy va motorli faoliyatda axloqiy qoidalar va me'yorlarni o'zlashtirish tamoyilini amalga oshiradi. Dinamik pauza, uning tarkibiga qarab, 2-5 daqiqa davom etishi mumkin.

Mashg'ulotning uchinchi qismi badiiy va samarali faoliyatni tashkil etish bo'lib, rasm chizish, modellashtirish, applikasiya, ma'lum bir mavzu bo'yicha loyihalashdan iborat. Asarlar, albatta, kimgadir murojaat qilish yoki biror narsaga xizmat qilish kerak. Masalan, ism kunlari joriy oyga (yosh va o'rta guruhlar uchun) to'g'ri keladigan bolalarga asarlar beriladi, katta va tayyorgarlik guruhlarida ism kunlari fasllarga (kuz, qish, bahor) qarab nishonlanadi. Asarlar do'stlar va qarindoshlarga ham beriladi. Ishning muhim qismi xonani bezatish, piktogramma va boshqalar bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy va axloqiy tarbiya jarayoni boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkin: ochiq havoda (hech bo'lmaganda bolalar bog'chasi hovlisida), ekskursiyalar (masalan, shaharda yaqin atrofdagi tarixiy obidaga).

Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyati tadbirlar orqali o'tkaziladi. Faoliyat tamoyilini amalga oshirish MTT tarbiyalanuvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishning eng muhim talabidir, bu tashqi talablarni ichki shaxs fazilatlariga singdirish samaradorligini ta'minlaydi, chunki MTT tarbiyalanuvchilarini o'qitish va tarbiyalashda axloqiy suhbatlar ko'rinishidagi axborot yondashuvi ushbu talablarga unchalik mos kelmaydi.

MTT tarbiyalanuvchilari o'yinlar qo'llaniladigan mashg'ulotlarda tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlar va xulq-atvorda axloqiy qoidalarini o'rganadilar: hikoya-rol o'ynash, rejissyorlik, teatr, didaktik. Og'zaki xalq san'ati bunday o'yinlarning mazmuni uchun unumdor material beradi.

Va deyarli har bir mashg'ulot amaliy qismida turli xil badiiy va samarali faoliyat turlaridan foydalanishdan iborat bo'lib, rasm chizish, ilovalar, modellashtirish va boshqalarni nazarda tutadi. Bunday tadbirlar qo'llarning nozik motorli ko'nikmalarini rivojlantiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, estetik didni shakllantirishga hissa



qo‘shadi, bolalarning atrofdagi dunyo va uning xususiyatlari haqidagi g‘oyalarni kengaytiradi.

Mehnatsevarlik fazilatini tarbiyalash uchun badiiy va samarali faoliyat muhimdir. Mashg‘ulotlarda bolalar muloqot qilishadi va ularni an‘anaviy madaniyat bilan tanishtiradigan yoshga mos ijodiy ishlarni bajaradilar. Faol shaklda tabiat va inson tomonidan yaratilgan ob‘ekt muhiti bilan munosabatlar mustahkamlanadi.

Bolalarning mashg‘ulotdagi ishlarini bajarish ham individual, ham jamoaviy bo‘lishi mumkin. Qizlar va o‘g‘il bolalar uchun tikuvchilik mehnatsevarlikni tarbiyalash, jismoniy rivojlanish uchun zarurdir va uni e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi.

Mazmuni o‘zlashtirish asosan o‘quv jarayonining sifatini ta‘minlaydigan tegishli usullarni talab qiladi. Shuning uchun mavjud usullarni tanlash yoki yangi usullarni yaratishga katta mas‘uliyat bilan yondashish muhimdir. Ular uchun eng muhim talab shundaki, mazmuni o‘rganish bolalarning jonli faol faoliyatida amalga oshirilishi kerak. Va bu bolalarning yoshiga, ularning imkoniyatlariga mos keladigan usullarni tanlashni, bolaning faolligini, mustaqilligini va ijodkorligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Hozirgi vaqtda ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning ko‘plab usullari mavjud. An‘anaviy ravishda ularni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin:

– o‘yin: xalq o‘yinlari, hikoya, rol o‘ynash, rejissyorlik, teatr, didaktik, drammatizatsiya, tarbiyaviy, qurilish. MTT tarbiyalanuvchilari o‘yinlar qo‘llaniladigan mashg‘ulotlarda tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlar va xatti-harakatlardagi axloqiy qoidalarni osonroq o‘rganadilar. Og‘zaki xalq san‘ati bunday o‘yinlarning mazmuni uchun unumdor material beradi.

– o‘qitish: hikoya, suhbat, suhbat-munozara, og‘zaki ko‘rsatma, ma‘naviy-axloqiy mazmundagi badiiy asarlarni o‘qish, axloqiy tanlovni talab qiladigan hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, bayram uchun she‘rlar, qo‘shiqlarni o‘rganish; kuzatish, video va film lentalarini tomosha qilish, qiziqarli odamlar bilan uchrashuvlar, bayramlar uchun piktogramma, illyustratsiyalar, rasmlarni ko‘rish, musiqiy mashg‘ulotlar tashkil etish.

– tarbiyaviy: bayramlar, ma‘naviy-axloqiy mazmundagi o‘yinlar va mashqlar, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, namoyishlar, uchrashuvlar, maqsadli yurishlar va ekskursiyalar, konsertlar, keyingi suhbatlar bilan tarixiy obidaga tashriflar (ota-onalar bilan kelishilgan holda), tarbirkorlar bilan uchrashuvlar;

– faoliyat-xulq-atvorli: o‘yin vaziyatlari, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, guruh va guruh maydonini tozalash, qiziqishlar ustida ishlash, badiiy va samarali faoliyat: bayramlar, tug‘ilgan kunlar uchun sovg‘alar qilish va ko‘rgazmalar tashkil etish, bolalar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyati; “Bizning bayramlarimiz” fotoalbomini loyihalash, badiiy ijod, musiqa yaratish va boshqalar.

Mashg‘ulotlar va tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishda, ma‘lum texnologiyalar, shakllar, usullardan foydalangan holda, bolalikning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish juda muhim, bolalarning ma‘naviy-axloqiy rivojlanish darajasi nafaqat ularning yoshi, balki ijtimoiy rivojlanish, bolani tarbiyalash va o‘qitish shartlari va uning oilasining turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy an‘analarga qo‘shilish darajasi bilan ham belgilanadi. Agar bolalar an‘anaviy ma‘naviy va madaniy turmush tarzidan uzoq sharoitlarda o‘sgan bo‘lsa, ularni ma‘naviy-axloqiy madaniyat bilan tanishtirish bo‘yicha mashg‘ulotlar ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o‘tkazilishi kerak.

Shunday qilib, ma‘naviy-axloqiy tarbiya murakkab, tizimli jarayon bo‘lib, uning asosiy tarkibiy qismlari: vazifalari, tamoyillari, mazmuni va texnologiyalari yig‘indisida uni maqbul tashkil etishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 21 апрелдаги “Тасвирий ва амалий санъат соҳаси самарадорлигини янада оширишга доир чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4688-сонли қарори, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги ПҚ-5040-сон “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

3. Маънавият: асосий тушунчалар ва изоҳли луғати. – Т.: Гафур Гулом номидаги

4. нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. -447-б.

4. Усмонов М. Авестода инсон мадҳи. // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 5. 2000 йил 20 декабрь.

5. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Т.: «Университет», 2018. 6. -43-б.

6. Бобоев Ҳ., Гофуров З. Ўзбекистонда сиёсий-маърифий ва маънавий-маърифий таълимотлар тараққиёти. - Т.: «Янги авлод», 2001. -322-б.

7. Алексеевская, Н.А. Карандашик озорной / Н.А. Алексеевская. - М.: Лист, 2018. - 144 с.

8. Амен, Д.Г. Мозг и душа. Новые открытия о влиянии мозга на характер, чувства, эмоции / Г.Д. Амен; пер. Н. Рыковой. - М.: Эксмо, 2012. - 304 с.

## TABIYIY TOLALI GAZLAMALARDA ABRBANDI USLUBIDA YARATILGAN NAQSHLARNI YANGI AVLOD TAFAKKURI BILAN UYG'UNLIGINING TAKOMILLASHUVI VA AHAMIYATI

Ruziyeva Dilafro 'z Muminovna

*Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi*

**ANNOTATSIIYA.** Mazkur maqolada tabiiy tolali gazlamalarda abrbandi uslubida yaratilgan naqshlarning yangi avlod tafakkuri bilan uyg'unligi va bu uyg'unlikning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Milliy hunarmandchilikning qadimiy uslublaridan biri sifatida abrbandi texnikasi naqshlarning nozik ko'rinishlarini yaratishda foydalanilib, zamonaviy texnologiyalar va dizayn tamoyillari bilan boyitiladi. Maqola doirasida tabiiy tolalarning ekologik afzalliklari, zamonaviy moda bilan uyg'unlashgan abrbandi naqshlarining dizayndagi o'rni va yangi avlod tomonidan qadrlanishi kabi jihatlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari abrbandi uslubidagi mahsulotlarni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni qo'llashning dolzarbligini va milliy hunarmandchilik an'analarini global miqyosda targ'ib qilish imkoniyatlarini ochib beradi.

*Kalit so'zlar:* tabiiy tola, gazlama, abrbandi usuli, naqsh, tafakkur, uyg'unlik, mutanosiblik, texnika, texnologiya.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ЗНАЧИМОСТЬ СОВМЕСТИМОСТИ УЗОРОВ, СОЗДАНЫХ В СТИЛЕ АРБАНДИ, С МЫШЛЕНИЕМ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ В НАТУРАЛЬНОМ ВОЛОКОННОМ ТКАНЯХ

Рузиева Дилафруз Муминовна

*Преподаватель кафедры «Технологическое образование» Бухарского государственного педагогического института*

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье анализируется совместимость узоров, созданных в стиле абрбанди на тканях из натуральных волокон, с мышлением нового поколения и практическая значимость этой сочетаемости. Техника абрбанди, являющаяся одним из древних стилей национальных ремесел, используется для создания ажурных узоров и обогащена современными технологиями и принципами дизайна. В статье рассматриваются такие аспекты, как экологические преимущества натуральных волокон, роль узоров абрбанди в сочетании с современной модой в дизайне и их признание новым поколением. Результаты исследования раскрывают актуальность использования инновационных подходов при разработке изделий в стиле абрбанди и возможности продвижения национальных ремесленных традиций в мировом масштабе.

*Ключевые слова:* натуральное волокно, ткань, метод абрбанди, узор, мышление, гармония, пропорция, техника, технология.

## THE IMPROVEMENT AND SIGNIFICANCE OF THE COMPATIBILITY OF THE PATTERNS CREATED IN THE ARBANDI STYLE WITH THE NEW GENERATION THINKING ON NATURAL FIBER FABRICS

Ruziyeva Dilafruz Muminovna

*Teacher of the «Technological education» department of the Bukhara State Pedagogical Institute*

**ANNOTATION.** This article analyzes the compatibility of patterns created in the style of abrbandi in natural fiber fabrics with the thinking of the new generation and the practical importance of this compatibility. As one of the ancient styles of national crafts, the abrbandi technique is used to create delicate patterns and is enriched with modern technologies and

*design principles. The article covers aspects such as the ecological advantages of natural fibers, the role of abbandi patterns combined with modern fashion in design, and their appreciation by the new generation. The results of the research reveal the relevance of using innovative approaches in the development of arbandi-style products and the possibilities of promoting national craft traditions on a global scale.*

*Key words: natural fiber, fabrics, arbandi method, pattern, thinking, harmony, proportion, technique, technology.*

Abrbandi — bu O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida qadimdan qo‘llanilgan, matolarni bo‘yash texnikasi bo‘lib, u orqali o‘ziga xos rang-barang naqshlar yaratiladi. Ushbu uslub asosan ipak yoki paxta matolariga tatbiq qilinadi va natijada boy ranglar va nozik naqshlar bilan bezatilgan matolar hosil bo‘ladi. Abrbandi so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “abr” – bulut va “band” – bog‘lash degan ma‘noni anglatadi. Bu nom naqshlarning bulutlarga o‘xshash yumshoq va oqimli ko‘rinishini ifodalaydi.

Abrbandi usulida matoni bo‘yashdan oldin uning ayrim qismlari maxsus iplar bilan bog‘lanadi yoki maxsus qoplama bilan o‘raladi. Bu bog‘langan qismlar bo‘yovchi modda ta‘siriga tushmaydi, natijada och rangli naqshlar hosil bo‘ladi. Bu usul «ikat» deb ham ataladi va naqshlar ko‘pincha o‘ziga xos «bulutli» ko‘rinishda bo‘ladi. Abrbandi jarayoni ko‘p bosqichli bo‘lib, har bir bosqichda turli ranglar va naqshlar yaratiladi. Bo‘yash jarayonida mato har safar qayta-qayta bog‘lanib, turli ranglarga bo‘yaladi, natijada murakkab va betakror naqshlar hosil bo‘ladi. An‘anaviy abrbandi usulida tabiiy bo‘yovchilar, masalan, indigo (ko‘k bo‘yoq), jiyda (qizil rang), va boshqa o‘simliklardan olingan bo‘yoqlar ishlatilgan. Bu matolarga tabiiy, iliq ranglar va uzoq muddatli mustahkamlik beradi.

Abrbandi texnikasi o‘ziga xos san‘at turi hisoblanadi va u o‘zining murakkabligi va bezakdorligi bilan ajralib turadi. Bu usul faqat milliy madaniyatning aks ettiruvchisi bo‘lib qolmay, balki uni global moda va dizayn sohasida ham jozibador qiladi. Bugungi kunda abrbandi texnikasi zamonaviy moda dizaynida keng qo‘llanilib, turli xil liboslar, aksessuarlar va interyer buyumlarini yaratishda foydalanilmoqda.

Yangi avlod dizaynerlari abrbandi uslubini yangicha tafakkur bilan qayta kashf etib, uni jahon modasiga olib chiqishmoqda. Bunda an‘anaviy naqshlar yangi texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilib, innovatsion dizaynlar yaratilmoqda. Abrbandi usuli bugungi kunda faqat milliy kiyimlar uchun emas, balki zamonaviy ko‘ylaklar, sharf, galstuk va hatto interyer elementlari kabi turli mahsulotlar uchun ham ishlatilmoqda.

Abrbandi usuli nafaqat san‘at sifatida, balki ekologik toza moda tarafdori bo‘lganlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy tolali gazlamalarda abrbandi uslubida yaratilgan naqshlar nafaqat o‘ziga xos go‘zallikka ega, balki tarixiy, madaniy va ekologik ahamiyatga ham ega. Ushbu naqshlar asosan ipak, paxta kabi tabiiy tolali matolarda tatbiq qilinadi va ularning o‘ziga xos tabiiy xususiyatlari abrbandi naqshlarining yanada jozibador bo‘lishiga yordam beradi.

Tabiiy tolali gazlamalar (masalan, ipak va paxta) abrbandi naqshlarini ishlashda juda mos keladi, chunki ular bo‘yoqni yaxshi singdiradi va rang-barang naqshlarni hosil qiladi. Bu gazlamalar tabiiyligi sababli nafaqat ekologik toza, balki matolarning yumshoq va sog‘lom teri bilan aloqa qilishiga ham imkon beradi.

Abrbandi usulida yaratilgan naqshlar odatda murakkab, geometrik va organik shakllardan iborat bo‘lib, «bulutli» ko‘rinishga ega bo‘ladi. Quyida ularning asosiy turlarini keltirib o‘taman:

1. Bulut naqshlari: Abrbandining o‘ziga xos tomoni — naqshlarning yumshoq, oqimli va ko‘p qatlamli shakllarda ko‘rinishidir. «Bulutli» naqshlar asosan yumshoq rang o‘tishlari bilan hosil qilinib, tabiatning rang-barangligi va uyg‘unligini aks ettiradi.

2. Geometrik naqshlar: Ayrim abrbandi naqshlari qator yoki zigzag shakllarini yaratish

orqali geometrik ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu naqshlar aniq va tartibli bo‘lib, matoga qattiqroq tuzilish beradi.

3. Gulli va o‘simlik naqshlari: Abrbandida tabiatga yaqin naqshlar keng tarqalgan bo‘lib, gul, barg va boshqa o‘simlik shakllari ishlatiladi. Bu usuldagi gulli naqshlar milliy madaniyatning qadriyatlarini bilan uyg‘unlashgan holda, milliy liboslar va aksessuarlarda ko‘p qo‘llaniladi.

4. Simmetrik va asimmetrik naqshlar: Ba‘zi abrbandi naqshlari simmetrik bo‘lib, naqsh bir xilda takrorlanadi. Asimmetrik naqshlar esa matoga yanada murakkab va san‘atkorona ko‘rinish beradi.

Abrbandi naqshlari juda ko‘p bosqichlarda yaratiladi, va ularning har bir bosqichi maxsus mahorat va sinchkovlikni talab qiladi. Quyidagi asosiy bosqichlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Bog‘lash: Mato kerakli naqsh hosil qilish uchun iplar bilan o‘raladi yoki maxsus qoplama bilan yopiladi. Bu bosqich naqshning ranglanmasdan qolishi kerak bo‘lgan qismlarini ajratib olish uchun muhim.

2. Birlamchi bo‘yoqqa botirish: Mato bog‘lab qo‘yilgandan so‘ng, u dastlabki rangga bo‘yaladi. Qaysi qismlar bog‘langan bo‘lsa, o‘sha joylar rangi saqlanadi yoki ochroq bo‘ladi.

3. Qayta bog‘lash va qayta bo‘yash: Agar murakkabroq naqsh kerak bo‘lsa, mato bir necha bor qayta-qayta bog‘lanib, har safar boshqa rangga bo‘yaladi. Bu jarayon naqshni ko‘p qatlamli va rang-barang qiladi.

Tabiiy tolali gazlamalardagi abrbandi naqshlari, birinchi navbatda, ekologik tozaligi bilan qadrlanadi. Tabiiy tolalarning ekologik ahamiyati ularning qayta ishlanishi va teriga zarar yetkazmasligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, tabiiy bo‘yoqlar ishlatilishi atrof-muhitga zarar yetkazmasdan san‘atni rivojlantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda abrbandi naqshlari milliy madaniyat va zamonaviy moda o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda. Dizaynerlar ushbu naqshlardan zamonaviy kiyim va aksessuarlarni bezashda foydalanib, ularni xalqaro bozorga chiqarmoqda. Bu esa abrbandi san‘atini yangi avlod tafakkuriga moslashtirib, uni ommalashtirishga xizmat qiladi.

Abrbandi texnikasi qadimiy Markaziy Osiyo madaniyatining ajralmas qismidir. Bu usul asosan ipak va paxta kabi tabiiy tolali gazlamalarga tatbiq qilinib, O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyoda o‘ziga xos san‘at turi sifatida rivojlangan. Abrbandi so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, «bulutlar bilan bog‘lash» degan ma‘noni anglatadi, va bu usul naqshlarning nozik, oqimli ko‘rinishini ta‘kidlaydi. Bu texnika, asosan, matoni ranglash jarayonida qism-qism bog‘lash orqali murakkab naqshlarni hosil qiladi. Tabiiy tolali gazlamalarda abrbandi naqshlarining qo‘llanilishi nafaqat milliy kiyimlarda, balki zamonaviy dizaynda ham o‘z aksini topib, global miqyosda qadrlanmoqda. Milliy naqshlar, rang va uslublar avlodlar osha o‘zgartirilmasdan yetkazilgan bo‘lsa-da, zamonaviy dizaynerlar va yangi avlod ularni yangicha tafakkur bilan qayta talqin qilib, xalqaro modada o‘ziga xos o‘rin yaratmoqda.

Tabiiy tolali gazlamalar, xususan ipak va paxta, ekologik toza va qayta ishlanadigan materiallar hisoblanadi. Ular tabiiy bo‘yoqlar bilan bo‘yalganida matoning ekologik ahamiyati yanada oshadi. Bu tolalar atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ishlab chiqarilib, teri uchun qulay va sog‘lom mahsulot sifatida qadrlanadi. Abrbandi naqshlari tabiiy bo‘yoqlar bilan birgalikda tatbiq etilganda bu nafaqat milliy san‘at, balki ekologik mas‘uliyatni ham targ‘ib qiladi.

Hozirgi vaqtda ekologik toza moda ancha ommalashgan bo‘lib, tabiiy tolali abrbandi naqshlari “yashil moda” tarafdorlarining qiziqishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa milliy san‘atning ahamiyatini oshiradi va mahalliy hunarmandlarning global moda bozoriga chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

Bugungi kunda yangi avlod dizaynerlari abrbandi naqshlarini zamonaviy kiyim va aksessuarlarda qayta kashf etib, ularni turli xil libos va aksessuarlar uchun jozibador element sifatida ishlatmoqda. Abrbandi naqshlarining zamonaviy dizayndagi o‘rni haqida quyidagi



jihatlarni ta'kidlash mumkin:

Yangi avlod dizaynerlari abrbandi naqshlarini minimalizm uslubiga moslashtirgan holda yangi dizaynlar yaratmoqda. Murakkab rang-barang naqshlar soddalashgan uslubda, lekin boy milliylik ifodasi bilan birgalikda namoyon bo'lmoqda.

Abrbandi naqshlari avval faqat matolarning butun yuzasida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunda naqshlar qisman qo'llanib, boshqa materiallar yoki naqshlar bilan birlashtirilgan holda yangi dizaynlar yaratilmoqda.

An'anaviy abrbandi uslubida asosan tabiiy va iliq ranglar qo'llanilgan. Bugungi kunda esa dizaynerlar yorqin va kontrastli ranglardan foydalanib, yangi vizual effektlar hosil qilishmoqda.

Yangi avlod zamonaviy dizayn orqali o'z madaniy merosini saqlab qolishga intilmoqda. Abrbandi texnikasining jahon modasida ommalashuvi ushbu qadimiy san'atning yangi avlod orasida qadrlil bo'lishiga xizmat qilmoqda. Dizaynerlarning abrbandiga bo'lgan qiziqishi quyidagi sabablar bilan bog'liq:

Yangi avlod uchun milliy san'at va hunarmandchilik o'zligini saqlash va namoyon etish vositasi hisoblanadi. Abrbandi usuli bu borada boy tarix va san'atning ifodasi sifatida muhim o'rin tutadi.

Yangi texnologiyalar va zamonaviy dizayn tamoyillari yordamida an'anaviy abrbandi texnikasi yangilanmoqda. Bu esa nafaqat milliylikni saqlab qoladi, balki global miqyosda tan olinish imkoniyatini oshiradi.

Ekologik toza va tabiiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Yangi avlod tabiiy tolali mahsulotlarni qadrlab, abrbandi naqshlarini kiyim-kechak va aksessuarlarda afzal ko'rmoqda.

Abrbandi naqshlarini yaratishdagi zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar jarayonni soddalashtiradi va uning sifatini oshiradi. Ko'plab dizaynerlar va ishlab chiqaruvchilar kompyuter grafikasi va raqamli naqsh tushirish texnologiyalari yordamida yangi usullarni sinab ko'rishmoqda. Bunda naqshlarni avtomatlashtirilgan bosqichlarda ishlash yoki rang va shakllarni yanada nozik o'zgartirish imkoniyatlari paydo bo'lmoqda.

Shuningdek, raqamli platformalar orqali abrbandi naqshlari ommaga kengroq tanishtirilib, san'atning xalqaro bozorga chiqishi ta'minlanmoqda. Bu esa milliy naqshlarning yangi avlod tomonidan keng qamrovli qabul qilinishiga va milliy hunarmandchilikning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda abrbandi naqshlari jahon modasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Ko'plab xalqaro brendlar o'z kolleksiyalarida Markaziy Osiyo uslubidagi abrbandi naqshlariga joy ajratmoqda. Milliy naqshlar nafaqat kiyim-kechaklarda, balki uy jihozlari, ichki bezaklar va aksessuarlarda ham qo'llanilib, abrbandi san'atini zamonaviy uslubda namoyon qilmoqda.

Global modadagi bu o'rni milliy san'atning xalqaro tan olinishi va yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu sababli, abrbandi uslubidagi dizaynlar butun dunyoda ommalashib, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tabiiy tolali gazlamalarda abrbandi uslubida yaratilgan naqshlar — bu milliy san'atning boy tarixi va yangi avlod tafakkurining yorqin ifodasi bo'lib, ular zamonaviy moda va hunarmandchilikning uyg'unlashgan shakli sifatida namoyon bo'lmoqda. Abrbandi uslubining ekologik, estetik va iqtisodiy ahamiyati hozirgi kunda avvalgidanda dolzarb bo'lib, yangi texnologiyalar yordamida boyitilgan ushbu qadimiy san'at kelajak avlod uchun o'zining betakror jozibasini saqlab qolmoqda. Birinchidan, abrbandi uslubining ekologik qiymati bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Tabiiy tolali gazlamalarda ishlatiladigan ipak va paxta matolari, shuningdek tabiiy bo'yoqlar ekologik toza mahsulotlar sifatida qadrlil bo'lib, ular inson salomatligi va atrof-muhitga zarar yetkazmaydi. Yangi avlod tabiiy tolali mahsulotlarni qadrlab, barqaror moda tarafdorlariga o'z mahsulotlarini taklif etish orqali nafaqat milliy san'atni rivojlantirmoqda, balki ekologik toza hayot tarziga hissa qo'shmoqda. Bu jarayonda abrbandi naqshlari tabiiy mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirishga va "yashil

moda” konsepsiyasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, abrbandi naqshlarining yangi avlod tafakkuri bilan uygʻunlashuvi milliy merosning zamonaviy talqini va uni xalqaro miqyosda tanitish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy dizaynerlar tomonidan abrbandi naqshlariga kiritilayotgan yangiliklar ushbu texnikani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Dizaynerlar tomonidan yangi yondashuvlarda minimalizm va zamonaviy elementlar qoʻllanilishi orqali abrbandi naqshlari zamonaviy kiyimlar, aksessuarlar va uy bezaklari uchun jozibador mahsulotga aylanmoqda. Bu esa milliy naqshlarning global modadagi oʻrnini mustahkamlaydi va madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirishga hissa qoʻshadi.

Uchinchidan, abrbandi sanʼatining iqtisodiy ahamiyati ham yuqori baholanadi. Mahalliy hunarmandlar va dizaynerlar uchun abrbandi uslubidagi mahsulotlarni yaratish orqali yangi ish oʻrinlari yaratiladi va ular oʻz mahsulotlarini xalqaro bozorlarga eksport qilish imkoniyatiga ega boʻlishadi. Bu milliy iqtisodiyotni qoʻllab-quvvatlaydi va madaniy merosni dunyo boʻylab ommalashtirishga hissa qoʻshadi. Abrbandi texnikasining talabgorligi oshib borayotgan bir paytda, hunarmandchilik mahsulotlari qadriyatlarini bilan birgalikda eksport qilinishi milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi.

Shu oʻrinda, abrbandi usulining madaniy meros sifatida qadrlanishi kelajak avlod uchun oʻta muhimdir. Yangi avlod milliy sanʼatini saqlab qolishga va uni kelajak uchun meros sifatida qoldirishga intilmoqda. Abrbandi naqshlarini saqlash va rivojlantirish bu sanʼatning davomiyligini taʼminlaydi va uni yanada keng doirada qadrlashga sabab boʻladi. Abrbandi texnikasining yangi avlod tafakkuri bilan uygʻunlashuvi, shuningdek, madaniy xilma-xillik va milliy oʻzlikni anglash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy sanʼatga boʻlgan qiziqishning oshishi, uni oʻrganish va rivojlantirish orqali kelajak avlod milliy madaniyatini chuqur anglab yetish imkoniga ega boʻladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tabiiy tolali gazlamalarda abrbandi uslubida yaratilgan naqshlarning yangi avlod tafakkuri bilan uygʻunlashuvi ushbu sanʼatning takomillashuvi va yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ekologik, iqtisodiy va madaniy jihatlarning birlashishi orqali abrbandi texnikasi zamonaviy dunyo bilan yanada yaqinlashmoqda va global madaniyatda mustahkam oʻrin egallashga xizmat qilmoqda. Bu esa milliy merosni saqlab qolish, uni yangi texnologiyalar yordamida boyitish va xalqaro modada qadrlanish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kazakov, F., Rajabov, I., Umirov, J., Ruziyeva, D., & Aripova, A. (2021, November). Methods to improve hackles in the production of quality yarn. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2094, No. 4, p. 042091). IOP Publishing.
2. Muminovna R. D. Tabiiy Ipak Iplarining Xususiyatlarini Tahlil Qilish Asosida Ipak Tolali Gazlamalarining Sifati Va Assortimentini Oshirish Mezonlari // *Miasto Przyszłości*. – 2024. – C. 323-326.
3. Rayimova D. D. et al. Texnologiya taʼlimi praktikumi fanini oʻqitishda innovatsion taʼlim texnologiyalarini qoʻllash imkoniyatlari // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – T. 2. – №. 5.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ- ФИЛОЛОГОВ

*Солиева Мухаббат Уразбаевна*

*преподаватель кафедры Русского языка и методики преподавания Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами*

*Аннотация: В статье рассматриваются методы и подходы совершенствования коммуникативных компетенций будущих учителей-филологов. Подчеркивается важность интегративного подхода, включающего лингводидактические, психолого-педагогические и цифровые технологии. Представлены рекомендации по применению инновационных методик в образовательном процессе.*

*Ключевые слова: коммуникативная компетенция, учитель-филолог, интегративный подход, лингводидактика, цифровые технологии, эмоциональный интеллект.*

## IMPROVEMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS-PHILOLOGISTS

*Solieva Mukhabbat Urazbaevna*

*Teacher of the Department of Russian Language and Teaching Methods of the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

*Abstract: The article explores methods and approaches to improving the communicative competence of future philology teachers. The importance of an integrative approach involving linguodidactic, psycho-pedagogical, and digital technologies is emphasized. Recommendations for implementing innovative teaching methods in the educational process are provided.*

*Keywords: communicative competence, philology teacher, integrative approach, linguodidactics, digital technologies, emotional intelligence.*

## BO'LAJAK O'QITUVCHI-FILOLOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Solieva Muhabbat Urazboevna*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rus tili va o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Maqolada bo'lajak filolog o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish usullari va yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Lingvodidaktik, psixologik-pedagogik va raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olgan integrativ yondashuvning ahamiyati ta'kidlangan. Ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

*Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, filolog o'qituvchi, integrativ yondashuv, lingvodidaktika, raqamli texnologiyalar, emotsional intellekt.*

**Введение.** Современные реалии системы образования требуют подготовки учителей нового поколения, способных эффективно взаимодействовать с учащимися, коллегами и родителями. В условиях глобализации, стремительного развития технологий и интеграции культур особую значимость приобретает развитие коммуникативных компетенций будущих педагогов, в частности учителей-филологов.

Учитель-филолог выполняет важнейшую задачу — формирует у учащихся не только языковую грамотность, но и культурную осведомленность, навыки межличностного общения, что в свою очередь влияет на их успешную социализацию. Однако, несмотря на важность данного аспекта, подготовка будущих учителей-филологов зачастую сосредоточена на развитии только лингвистических и методических знаний, в то время

как коммуникативные компетенции остаются недостаточно развитыми.

Коммуникативная компетенция включает в себя не только умение грамотно говорить, слушать и понимать, но и способность адаптироваться к различным коммуникативным ситуациям, учитывать индивидуальные особенности собеседников и эффективно взаимодействовать в поликультурной образовательной среде.

Цель настоящей статьи — исследовать основные подходы и методы совершенствования коммуникативных компетенций будущих учителей-филологов, а также разработать рекомендации по их внедрению в образовательный процесс вузов.

## 1. Теоретические основы формирования коммуникативной компетенции

### Коммуникативная компетенция: сущность и структура

Коммуникативная компетенция будущего учителя-филолога — это способность эффективно взаимодействовать в процессе обучения, используя язык как инструмент передачи знаний и формирования культурных ценностей. Согласно исследованиям, структура данной компетенции включает:

- Языковую компетенцию (знания о грамматике, лексике, фонетике языка);
- Речевую компетенцию (умение использовать язык в устной и письменной формах);
- Дискурсивную компетенцию (способность структурировать высказывание в зависимости от контекста);
- Социокультурную компетенцию (знание норм и правил общения в различных культурных средах);
- Стратегическую компетенцию (умение находить выход из сложных коммуникативных ситуаций).

Развитие коммуникативной компетенции — это неотъемлемая часть профессионального становления педагога, так как успешность учебного процесса во многом зависит от того, насколько учитель способен наладить взаимодействие с учащимися.

## 2. Методы и подходы к совершенствованию коммуникативной компетенции

Лингводидактический подход- Современные подходы к подготовке учителей-филологов предполагают использование методов, которые способствуют интеграции теоретических знаний и практических навыков. Основные лингводидактические методы включают:

- Работа с аутентичными текстами. Анализ художественных, публицистических и научных текстов способствует развитию языковой и речевой компетенции.
- Ролевые и коммуникативные игры. Эти методы создают условия для моделирования реальных ситуаций общения.
- Метод проектов. Студенты готовят групповые проекты, что позволяет улучшить навыки взаимодействия и публичной речи.

Психолого-педагогический подход- Этот подход направлен на развитие эмоционального интеллекта будущих учителей, их способности к эмпатии и разрешению конфликтов. Основные методы включают:

- Тренинги по развитию эмоционального интеллекта. Умение понимать и управлять своими эмоциями, а также учитывать эмоции других людей, способствует успешному общению.
- Работа с кейсами. Анализ педагогических ситуаций помогает будущим учителям развивать умения выхода из сложных коммуникативных ситуаций.

Использование цифровых технологий. Современные цифровые инструменты предоставляют новые возможности для совершенствования коммуникативной компетенции:



- Платформы дистанционного обучения (Moodle, Google Classroom) для практики общения в виртуальной среде;

- Мультимедийные симуляторы для моделирования педагогических ситуаций;
- Социальные сети и мессенджеры для развития навыков цифровой коммуникации.

### 3. Программы практической подготовки будущих учителей-филологов

Практическая подготовка играет ключевую роль в формировании коммуникативной компетенции. Основные элементы программы включают:

- Педагогическая практика. Работа в школах позволяет будущим учителям применять теоретические знания на практике, совершенствовать свои коммуникативные навыки через взаимодействие с учениками.

- Дискуссионные клубы и дебаты. Эти мероприятия способствуют развитию критического мышления, навыков аргументации и публичной речи.

- Межкультурное общение. Организация обменных программ с зарубежными университетами позволяет развивать социокультурные компетенции.

### 4. Анализ успешных практик

В рамках исследования были изучены успешные кейсы внедрения методик развития коммуникативной компетенции:

1. Пример отечественных вузов. В ряде университетов России и Узбекистана внедряются интегративные подходы, включающие междисциплинарные курсы и практические занятия.

2. Международный опыт. Зарубежные образовательные учреждения активно используют технологии *blended learning* (смешанного обучения), которые позволяют сочетать аудиторные занятия с онлайн-ресурсами.

Эти подходы демонстрируют высокую эффективность в развитии коммуникативных навыков студентов.

#### Результаты исследования

Анализ существующих методов и подходов показывает, что совершенствование коммуникативной компетенции возможно только при интеграции теоретического, практического и цифрового компонентов. Эффективная программа подготовки будущих учителей-филологов должна учитывать индивидуальные особенности студентов, их уровень подготовки и современные вызовы образовательной системы.

#### Заключение

Совершенствование коммуникативных компетенций будущих учителей-филологов является важнейшей задачей современного педагогического образования. Успешность образовательного процесса во многом зависит от способности учителя эффективно взаимодействовать с учениками, коллегами и родителями, передавать знания и формировать культурные ценности.

В ходе исследования было выявлено, что развитие коммуникативной компетенции требует интеграции нескольких подходов:

- Лингводидактические методы помогают будущим педагогам усваивать язык не только как средство общения, но и как инструмент передачи знаний и формирования культурной грамотности.

- Психолого-педагогические подходы способствуют развитию эмоционального интеллекта, навыков эмпатии и способности решать конфликты.

- Использование цифровых технологий расширяет возможности профессиональной подготовки, предоставляя студентам современные инструменты для практики и саморазвития.

Практическая реализация таких подходов через педагогическую практику, участие в дискуссионных клубах, анализ педагогических ситуаций и межкультурное взаимодействие демонстрирует высокую эффективность в подготовке высококвалифицированных

специалистов.

Для дальнейшего совершенствования подготовки будущих учителей-филологов рекомендуется внедрять в учебный процесс программы, ориентированные на развитие цифровой грамотности, социокультурных компетенций и стратегического мышления, что позволит студентам быть готовыми к вызовам современного общества.

В заключение можно отметить, что формирование коммуникативной компетенции будущих учителей-филологов является неотъемлемой частью их профессионального становления, что способствует качественному повышению уровня образования в целом.

Литература:

1. Бим И.Л. «Методика обучения иностранным языкам: От теории к практике».
2. Хуторской А.В. «Педагогика и педагогические технологии».
3. Современные подходы к обучению в цифровую эпоху.

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA SUN'IY INTELEKTNING KIRIB KELISH AFZALLIKLARI

Sultanova Nilufar

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

*Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimiga sun'iy intellektning kirib kelishi bilan kuzatilgan islohotlar va yangilanishlar, tub burulishlar haqida, hamda sun'iy intellektning tizimga kirib kelishi bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari ta'lim-tarbiya faoliyatlarida qanday ijobiy tomonlarga erishilgani, ota-onalarga qanday yengilliklari paydo bo'lgani xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tizimi, axborot kommunikatsiya, sun'iy intellekt, xodimlar monitoringi, MTt xisobini yuritish, platforma, mobil ilova, elektron davomat, elektron rasmiylashtirish, elektron qabul, Face ID.*

## ПРЕИМУЩЕСТВА ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМУ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Султанова Нилуфар

Джизакский государственный педагогический университет – преподаватель

*Аннотация: В данной статье рассмотрены реформы и обновления, радикальные изменения, наблюдаемые при внедрении искусственного интеллекта в систему дошкольного образования, а также положительные стороны деятельности работников организации дошкольного образования в их образовательной деятельности при внедрении искусственного интеллекта. в систему поступила информация о том, чего удалось достичь и какое облегчение появилось у родителей.*

*Ключевые слова: система дошкольного образования, информационная коммуникация, искусственный интеллект, мониторинг сотрудников, учет МТС, платформа, мобильное приложение, электронная посещаемость, электронная регистрация, электронный пропуск, Face ID.*

## ADVANTAGES OF THE INTRODUCTION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE INTO THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

Sultanova Nilufar,

teacher at Jizzakh State Pedagogical University

*Annotation: In this article, the reforms and updates, radical changes observed with the introduction of artificial intelligence into the system of preschool education, as well as the positive aspects of the employees of the preschool education organization in their educational activities with the introduction of artificial intelligence into the system information about what was achieved and what kind of relief appeared to the parents.*

*Key words: preschool education system, information communication, artificial intelligence, employee monitoring, MTt accounting, platform, mobile application, electronic attendance, electronic registration, electronic admission, Face ID.*

Bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan davrda, qaysi sohaga qaramaylik sun'iy intellektni shiddat bilan kirib kelayotganligini kuzatishimiz mumkin. Tom ma'noda olib qaraganimizda, ijtimoiy soha deysizmi, iqtisodiyotmi yoki huquq sohasi, qishloq xo'jaligi, umuman olganimizda barcha tarmoqlarda sun'iy intellektning qamrab olinayotganligini va bu ham o'z o'rnida mazkur sohalarda qaysidir ma'noda yangiliklar bilan insonlar mushkulini yengil

qilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'limni ta'limning birlamchi bo'g'ini va tayanch fundament ekanligi hech birimizga sir emas, demak shunday ekan bu bo'g'in ertamiz egalari bo'lgan bolajonlarni yuksak madaniyatli, aql – farosatli, metin irodali, intellectual, zufunun sifatida maktab ta'limiga tayyorlovchi bosqich xisoblanar ekan, ho'sh ushbu bosqichga ham sun'iy intellect qay darajada kirib keldi. Afzalliklari va zararli jihatlari nimalarda shu haqida bilib olamiz.

Muhtaram prezidentimiz tomonlaridan 2016 yil 29-dekabr sanasida maktabgacha ta'limga oid eng muhim qarorlardan biri ya'ni "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707 sonli qarori ushbu sohaga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor desam adashmagan bo'laman. Mazkur qarordan so'ng maktabgacha ta'lim tizimida tub burulish ta'bir joiz bo'lsa aytish mumkinki, yangilanish yangi kun boshlandi deya ayta olamiz. Shu kundan boshlab ushbu sohaning har bir tarmog'ida o'zgarishlar boshlandi. Ta'mirga muhtoj maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'mirlashga kiritildi, rekonstruksiya qilindi. Oziq ovqat yangi tizimga tushdi. Bir necha yillardan buyon oqsab kelayotgan ta'lim sifatiga katta e'tibor qaratildi. Yangi o'quv qo'llanmalar, adabiyotlar, didaktik materiallar bilan ta'minlandi. Shu bilan birga ushbu sohaga yangiliklar ham kirib keldi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish orqali bolalarni har tomonlama intellectual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy rivojlantirishni ta'minlash, maktabga tayyorlash darajasini oshirish tobora dolzarblik kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida 2018-yilda joriy etilgan, maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimi-Open emis dasturi yuqori qulaylik va sifatli faoliyatga yo'l ochadi. Ushbu axborot tizimi ta'lim muassasalari haqida ma'lumot to'plash va ularni taqdim qilishga mo'ljallangan, ta'limga oid ma'lumotlarni boshqaruv tizimidir. Mazkur tizimni ishga tushurish bolalarni maktabgacha ta'limga bolalarni electron navbat asosida shaffoflik bilan qabul qilishini ta'minladi. Qolaversa, u orqali tarbiyalanuvchilarning yoshi va jinsini hisobga olgan holda, hududlar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari kesimidabolalarning qatnovi va sog'lig'ini onlayn nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Tizimning yana bir afzalligi shundaki, unda onlayn to'lovlat MTT hisobini yuritish, xodimlar monitoringini olib borish mumkin.

Shu bilan birga, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga ko'ra, bolalarning musiqiy rivojlanishlarini rivojlantirish, ularga musiqiy didni singdirish, ijodiy mayl, yodda saqlash qobiliyati, ritm hissini rivojlantirish maqsadida musiqali qo'shiqlar to'plamini yozish loyihasi ishga tushurildi.

Maktabgacha ta'limda ochiqlik va shaffoflikka erishish sohaga yangiliklar olib kelinishi bilan o'zgardi deya ayta olamiz. So'zlarimizning isbori sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish tizimi yaratildi. Ushbu tizim-maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish, davlat-xususiy sherikchilik doirasi asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda ko'maklashish, ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab – quvvatlash hamda o'quv tarbiyaviy jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish bo'yicha kompleks axborot tizimidir. Qolaversa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimi-bu maktabgacha ta'lim sohasida davlat va xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari haqida barcha ma'lumotlarni aks ettiruvchi, boshqaruvchi, muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi axborot tizimi xisoblanadi.

Mazkur tizim oqrali siz maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini, tarbiyalanuvchilar sonini, umumiy xodimlar sonini va foydalanuvchilar soni kabilar bilan batafsil tanishib chiqaoilasiz. Farzandingizni qaysi maktabgacha ta'lim tashkilotida navbatda turganini bilishni xoxlasangiz ham ushbu tizim orqali ma'lumotlarga ega bolaolasiz.

Ushbu tizimning ijobiy jixatlari bormi? Degan savol tug'ulishi tabiiy albatta. Xa albatta ushbu tizimning afzallik tomonlari juda ham ko'p. Masalan;



- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish uchun arizalarni platforma orqali elektron qabul qilish;
- sanitariya-epidemiologiya yong'in xavfsizligi talablariga mosligi to'g'risidagi xulosalarni onlayn tarzda berish;
- davlat – xususiy sherikchilik asosida tuzilgan bitimlarning yagona reyestrini yuritish va monitoring qilish;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq ota-onalar bilan tuzilgan badalini o'z vaqtida to'lash imkoniyati bo'ladi;
- mobil ilova yordamida tarbiyalanuvchilarning davomatini FaceID texnologiyasi yordamida amalga oshirish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining hodimlari bilan mehnat shartnomalarini elektron rasmiylashtirish imkoniyatini beradi.

Elektron davomat qilish maktabgacha ta'lim sohasiga nima uchun kerak. Har bir jabhada islohotlar va tub yangilanishlar sodir etilayotgan ekan, nima uchun maktabgacha ta'limda ham shunday bo'lmasligi kerak. Axir bugun hamma shaffoflik va oshkorlik bilan yashash hamda ishlash haqida tinmay bong urayotgan ekan, bu sohaga ham shaffoflikni olib kirish vaqti kelmadimikan. Shu boisdan ham elektron davomat hozirga maktabgacha ta'lim tizimida dolzarblik kasb etadi. Elektron davomat o'zi nima? Elektron davomat tizimi bu-axborot va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan mobil ilova dasturi bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarning, shuningdek xodimlarning kunlik qatnovini haqiqatda amalga oshirishni real vaqt rejimida nazorat va monitoring qilishga mo'ljallangan tizimdir.

Ushbu elektron davomat orqali maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyalanuvchilari kunlik davomatlari va xodimlarning ishga o'z vaqtida kelib-ketishlarini nazorat qilar ekan bu albatta xodimning ishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi va ishga sidqi dildan yondoshishini ta'minlaydi. Va eng muhimi bolalar badal to'lovlari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini ish haqlarida shaffoflik bo'ladi, eng asosiysi esa bugunning eng yomon illati xisoblangan karrupsiyaning oldi olinadi.

Xulosa qilib aytgan, maktabgacha ta'limga sun'iy intellektni kirib kelishi tub burulishlar bo'ladi oldi desak hech adashmagan bo'lamiz. Sun'iy intellekt kirib kelishi bilan maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining ish faoliyatlari ham yangiliklar bilan boyidi ularni kunlik faoliyatlari yana ham sifat va samaradorlik jihatidan o'sdi. Bu bilan chegaralanmay tarbiyachi-pedagoglarning bilim, saviyalari ko'tarildi, axborot kommunikatsiya bilan bemalol ishlay oladigan va ta'lim-tarbiya jarayonlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib faoliyatlarini mazmuni oshirdi. Bu albatta ertangi kunimiz nurli va istiqbolli bo'lishiga ishonch hissini yana bir bor oshirdi deya ayta olaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirining 2021-yilning 30-dekabrda 255-son buyrug'i "Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari" to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori 2020-yil 22-dekabr.

3. "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" o'quv qo'llanma. T-2020 D.Q. Asqarova.

4. Maktabgacha pedagogika – 2019.

F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova.

## **INTELLEKTUAL QIYINCHILIKLARGA EGA BO'LGAN O'QUVCHILARDA UCHRAYDIGAN YOZUV BUZILISHLARINI LOGOPEDIK TASHXISLASHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.**

*Tashkenbayeva Dilafruz Baxtiyor qizi*

*Toshkent shahar Shayxontohur tumani Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 37-maktabning o'qituvchi-defektologi.*

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Universiteti  
"Maxsus Pedagogika" ixtisosligi bo'yicha Mustaqil tadqiqotchi, PhD.*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada intellektual qiyinchiliklarga ega bo'lgan o'quvchilarda uchraydigan yozuv buzilishlarini logopedik tashxislashning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan bo'lib, bunda intellektual rivojlanishidagi kamchiligi bo'lgan o'quvchilarda yozuv buzilishlarining ko'rinishlari, ular bilan olib boriladigan logopedik ish tizimi haqida fikr yuritiladi. Alohida ta'limga ehtiyojmand bolalar tomonidan yo'l qo'yiladigan o'ziga xos xatolarning mohiyati ochib beriladi (grafik xatolar, so'zlarning bo'g'in tuzilishi va gapdagi so'zlarning tuzilishi, grammatik va imlo xatolari, harflarni almashtirish va aralashtirish) Maqolada engil intellektual qiyinchiliklari bo'lgan bolalarda yozma va aqliy operatsiyalarning buzilishining oldini olish yo'nalishlari keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: disgrafiya, yozuv buzilishini logopedik tashxislash, yozuv jarayonidagi o'ziga xos xatolar.*

## **НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛОГОПЕДИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ НАРУШЕНИЙ ПИСЬМА У СТУДЕНТОВ С ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ ТРУДНОСТЯМИ**

*Ташкенбаева Дилафруз Бахтиёр қизи*

*Учитель-дефектолог 37-й специализированной школы для детей с особыми образовательными потребностями Шайхонтохурского района города Ташкента.*

*Ташкентский государственный педагогический университет Низоми  
Независимый научный сотрудник по специальности «Специальная педагогика»,  
к.п.н.*

*Абстракт. В данной статье освещены научно-практические основы логопедической диагностики нарушений письма у студентов с ограниченными интеллектуальными возможностями, в которых приведены проявления нарушений письма у студентов с ограниченными интеллектуальными возможностями, составлено мнение о системе логопедической работы, проводимой с ними. Выявлен характер конкретных ошибок, допускаемых детьми с особыми образовательными потребностями (ошибки в изображении, слоговом строе слов и строении слов в предложении, грамматические и орфографические ошибки, замена и смешение букв). письменные и умственные операции у детей с легкими интеллектуальными нарушениями.*

*Ключевые слова: дисграфия, логопедическая диагностика нарушений письма, специфические ошибки в процессе письма.*

## SCIENTIFIC-PRACTICAL BASES OF LOGOPEDIC DIAGNOSIS OF WRITING DISORDERS IN STUDENTS WITH INTELLECTUAL DIFFICULTIES.

*Tashkenbayeva Dilafruz Bakhtiyor kizi*

*Teacher-defectologist of Specialized School No. 37 for Children with Special Educational Needs, Shaykhontohur District, Tashkent City.*

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

*Independent researcher in the specialty «Special Pedagogy», PhD.*

*Abstract. This article discusses the scientific-practical foundations of logopedic diagnosis of writing disorders in students with intellectual disabilities, in which the manifestations of writing disorders in students with intellectual developmental disabilities and the system of logopedic work with them are considered. The essence of specific errors made by children with special educational needs is revealed (graphic errors, syllabic structure of words and the structure of words in a sentence, grammatical and spelling errors, substitution and mixing of letters). The article presents directions for preventing violations of written and mental operations in children with mild intellectual disabilities.*

*Key words: dysgraphia, speech therapy diagnosis of writing disorders, specific errors in the writing process.*

Hozirgi vaqtda bolalarda yozma nutqning o'ziga xos buzilishlarining paydo bo'lishi va ularni tuzatish muammosi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi, chunki ta'limni modernizatsiya qilishning zamonaviy sharoitida malakali yozish mahorati bolalarning universal ta'lim ko'nikmalariga erishish vositasi sifatida qaralmoqda. Shuning uchun yozish jarayonida buzilishlarni tashxislash va tuzatish masalalari mutaxassislarining diqqat-e'tiborini talab qiladi.

R.E. Levina tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida, yozuv jarayoni og'zaki nutq bilan chambarchas bog'liqligini va uning rivojlanishining yuqori darajasi sifatida amalga oshirilishini ko'rsatdi.

Yozma nutq- o'rganish va o'zaro ta'sir qilish vositasi bo'lib, shu bilan birga u turli tarkibiy va funksional komponentlar va aqliy funksiyalarning ishtiroki bilan ta'minlangan ixtiyoriy aqliy faoliyatning murakkab xarakteridir.

Yozuv jarayoni - bu nutq va nutqiy bo'lmagan funksiyalarning yuqori darajada rivojlanishini talab qiladigan murakkab jarayon bo'lib, ular orasida tovushlarni eshitish orqali farqlash, to'g'ri talaffuz qilish, tahlil va sintez, fazoviy tasvirlar, nutqning leksik va grammatik tomonlarini, lingvistik va vizual xususiyatlarni shakllantirish kiradi. Xotira, diqqat, hissiy-irodaviy soha, shuningdek, ko'rish va eshitish holati kabi aqliy funksiyalarni shakllantirish ham katta ahamiyatga ega. Ushbu funksiyalarning buzilishi disgrafiya deb ataladigan yozishni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Yozish malakalarini etarlicha egallamaslik nafaqat nutqning buzilishi, balki boshqa omillar, masalan, maktabda tartibsiz o'qish, pedagogik e'tiborsizlik, eshitish qobiliyatini yo'qotish va boshqalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yozuv buzilishlari butun o'quv jarayoniga va o'quvchining shaxsiy fazilatlariga salbiy ta'sir qiladi. Disgrafik xatolarni boshqa xarakterdagi xatolardan o'z vaqtida aniqlash va farqlash bolalar bilan nutq terapiyasi tuzatish ishlarining yo'nalishini aniqlash uchun muhimdir.

Intellectual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan boshlang'ich maktab o'quvchilarida disgrafiya belgilari yozishdagi xatolarning ko'pligi va xilma-xilligi, mexanizmlarning murakkabligi bilan tavsiflanadi, disgrafyaning turli shakllari kombinatsiyasida namoyon bo'ladi va maktabda o'qishning butun jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Ko'pgina tadqiqotchilar intellektual qiyinchiliklarga ega o'quvchilarda yozishning xususiyatlarini o'rganishgan (S. F. Ivanenko, V. A. Kovshikov, A. N. Kornev, R. I. Lalaeva,

E. A. Loginova, R. D. Trigger, T. A. Fotekova, S. G. Shevchenko va boshqalar), lekin bu tadqiqotlar odatda boshlang'ich maktab yoshi bilan cheklangan. Yozish sifatining pastligi nafaqat intellektual qiyinchiliklarga ega o'quvchilarda balki o'rta umum ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarda ham uchraydi. Yozishni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan birinchi sinf o'quvchilarda aniqlangan, bu holat ko'pincha disgrafiyaga aylanadi va korreksiya qilinmasa bolalarning maktabda o'qishining butun davri davomida aksariyat hollarda davom etadi [4].

Klassik nutq terapiyasi yondashuvi disgrafiyaning etiologiyasini - yozish jarayonini ta'minlaydigan yuqori aqliy funksiyalarning (nutq va vizual fazoviy) etishmovchiligini aniqlashga imkon berdi (R.I.Lalaeva, R.E.Levina, L.G. Paramonova, I. N. Sadovnikova) [4].

Zamonaviy nazariy va eksperimental tadqiqotlar (T.V. Axutina, A.V. Semenovich, A.L. Sirotiyuk, L.S. Tsvetkova) yozuv buzilishi faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari - dasturlash, tartibga solish va nazorat qilish ekanligini ko'rstadi. ) [4].

L.V.Venediktova, A.N.Kornev, R.I.Lalaeva, I.N.Sadovnikova, T.A.Fotekova, M.E.Xvatsev va boshqalarning tadqiqotlari Disgrafiyaning belgilari, mexanizmlari, turlari, umumiy uslubiy yondashuvlar, yo'nalishlari, mazmuni va har xil turdagi yozuv buzilishlarini tuzatish usullariga bag'ishlangan.

Olimlarning yozuv buzilishlariga qiziqishi ularning nafaqat maxsus maktablarda, balki umumta'lim maktablarida ham o'quvchilar orasida keng tarqalganligi bilan bog'liq. A.N. Kornevning ta'kidlashicha, yozuv buzilishi umumta'lim maktablarida o'quvchilarning 6-7 foizida uchrasa, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus korreksion maktab o'quvchilarining 18-20 foizi, intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 35-40 foizni tashkil qiladi. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, disgrafiya bilan og'rigan intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabning quyi sinflarida o'qiyotgan bolalar soni 60% dan ortiq [5].

I.N. Sadovnikova disgrafiyaning «qisman yozish buzilishi (kichik maktab o'quvchilarida - yozma tilni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar) deb ta'riflaydi, uning asosiy belgisi doimiy maxsus sevuvchilarning mavjudligi bo'lib, ularning xarakatlantiruvchi bilimlari o'quvchilarning intellektual rivojlanishi bilan bog'liq.

A.N. Kornev disgrafiyaning intellektual va nutq rivojlanishining etarliligiga, ko'rish va eshitish qobiliyatining yaxshiligiga qaramay, grafika qoidalariga muvofiq yozish ko'nikmalarini doimiy ravishda o'zlashtira olmaslik deb ataydi. [5].

Turli manbalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, disgrafiya turli xil bilim sohalari mutaxassislarini, shu jumladan nutq terapevtlari (M.E.Xvatsev, O.A.Tokareva, I.N.Sadovnikova va boshqalar), shifokorlar (A.N.Kornev va boshqalar), nevropsixologlar (L.S.Tsvetkova, Axutina, A.L.Sirotiyuk. va boshqalar) tomonidan o'rganilgan bo'lib, disgrafiya jiddiy patologiya ekanligini tasdiqlaydi. [3].

M.Ye. Xvatsev, D.I. Orlova va V.V. Voronkovalarning ma'lumotlariga ko'ra, aqlan sog'lom rivojlangan bolalarga nisbatan intellektual qiyinchiliklarga ega o'quvchilarda yozuvning buzilishi ko'proq qayd qilinadi. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan o'quvchilarda disgrafiyaning (grafikaning buzilishi) simptomatikasi, yozuvdagi turli xatolar sonining ko'pligi bilan xarakterlanadi (V.V.Voronkova, D.I Orlova va boshqalar). Ular bolalarda disgrafiya, keng tarqalgan orfografik xatolar bilan birgalikda kuzatiladi. Bu (qonuniyatlarini yuqori darajada o'zlashtirish, ko'plab qoidalardan foydalanish zaruriyatini talab etadi. Nutq rivojlanishidagi buzilishlar, bir tomondan, yozma nutqni egallashdagi qiyinchiliklar bilan, boshqa tomondan, orfografik qoidalardan foydalanishdagi qiyinchiliklar bilan birga kuzatiladi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarda disgrafiya ko'proq murakkab ko'rinishda kuzatiladi. [2].

Intellektual qiyinchiliklarga ega bolalarda disgrafiya simptomatikasining keng tarqalganligi



va o'ziga xosligi, idrok qilish faoliyatining rivojlanmaganligi, og'zaki nutqning buzilishi, til umumlashmalarining shakllanmaganligi, nutq eshitish, ko'rish analizatorlari faoliyatining buzilishlari bilan bog'liq. Shuningdek, yozuv xarakter strukturasi buzilishlari ham o'z aksini topadi.

Intellectual qiyinchiliklarga ega bolalarda analitik-sintetik faoliyatining buzilishi so'zning morfologik strukturasi, tovush va gap strukturasi analiz qilishda ham namoyon bo'ladi. So'zning tovush-bo'g'in strukturasi haqidagi noaniq tasavvurlar ko'plab harflar tushib qolishiga, o'zining almashuviga olib keladi. So'zning morfologik strukturasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaslik ko'plab agramatizmlar, suffiks va qo'shimchalar, ayniqsa, mustaqil yozuvda xatolarga yo'l qo'yishga zamin yaratadi. Gap strukturasi analizining buzilishi, so'zlarning tushirib qoldirishda, qo'shib yozib yuborishda ko'rinadi. Yozuv jarayonida ko'plab xatolarga yo'l qo'yilishi alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning nutq tovushlari talaffuzidagi nuqsonlari bilan bog'liq.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarda yozma nutqdagi buzilishlarni bartaraf etishda oliy nerv faoliyatining o'ziga xos tomonlarini, aqli zaif bolalarni psixopatologik o'ziga xosliklarini ham hisobga olish zarur. Shu munosabat bilan yordamchi maktabda o'qish va yozuv buzilishlarini korreksiyalash (to'g'rilash), idrok qilish faoliyatining, qiyoslashning, analiz va sintezning rivojlanishi bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak.

Intellectual qiyinchiliklarga ega bo'lgan o'quvchilarda uchraydigan yozuv buzilishlarini logopedik tashxislash murakkab jarayon bo'lib, ilmiy-amaliy asoslarda izlanishlar o'tkazishni talab qiladi. Bu jarayonda quyidagi muhim masalalar e'tiborga olinadi:

Yozuv buzilishlarining xususiyatlarini aniqlash: Intellectual qiyinchiliklarga ega o'quvchilarda disgrafiya va boshqa yozuv muammolari tez-tez uchraydi. Ushbu buzilishlar tovushlarni to'g'ri ifodalash, so'zlarni birlashtirish yoki o'qish tezligi va aniqligida qiyinchiliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati: Logopedik tadqiqotlarda yozuv buzilishlari bilan bog'liq neyropsixologik va lingvistik xususiyatlar chuqur o'rganiladi. Masalan, intellectual qiyinchiliklarga ega bolalarda yozuv buzilishlari rivojlanishidagi o'ziga xos nevrologik va kognitiv omillar aniqlanadi.

Tashxislash usullari: Logopedik tashxislashda yozuv buzilishlarini aniqlash uchun maxsus diagnostik testlar va metodikalar qo'llaniladi. Bunda bolalar yozuv xatolarini aniqlash uchun ularga mos o'quv va yozuv mashqlari topshiriladi. Shu orqali tovushlarni noto'g'ri ifodalash, grammatik xatolar va boshqa yozuv buzilishlari aniqlanadi.

Korreksiya dasturlarini ishlab chiqish: Tadqiqotlar natijasida individual korreksiya dasturlari ishlab chiqiladi. Ushbu dasturlar orqali o'quvchilarda yozuv ko'nikmalarini yaxshilash, tovushlarni to'g'ri ifodalash va so'z tuzilmasini o'zlashtirishga ko'maklashish mumkin.

Intellectual kamchilikka ega bo'lgan bolalarning yozma nutqini tekshirish uchun bir nechta metodikalar qo'llaniladi. Bu metodikalar bolaning yozma nutqidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni yaxshilashga yordam beradi. Quyida asosiy metodikalar keltirilgan:

Diktant topshiriqlari: Diktant yozdirish orqali bolaning eshitish va yozish malakasini tekshirish mumkin. Bola so'zlarni qanchalik to'g'ri va aniqlik bilan yozganini tahlil qilish yordamida ularning yozma nutqidagi kamchiliklarini aniqlash mumkin.

Rasmlar asosida hikoya tuzish: Bolalarga rasm yoki ketma-ketlikdagi tasvirlar berilib, ular asosida hikoya tuzish topshiriladi. Bu metod orqali bolaning fikrlash va yozma nutqini aniqlash mumkin.

Savol-javob asosida matn yozdirish: Bolaga oddiy savollar berilib, ularning javoblari asosida matn yozdiriladi. Bu usul bolaning tushunchalarni ifodalash va mantiqan ketma-ketlikda yozish malakasini o'rganishga yordam beradi.

Qayta hikoya qilish: Oddiy matn berilib, bolaning uni qayta hikoya qilish ko'nikmasi

tekshiriladi. Bolaning o'z so'zlari bilan hikoya qilish malakasi ularning yozma nutqida qanday ifodalay olishini ko'rsatadi.

**Tilshunoslik tekshirishlari:** Bolaning grammatik qoidalarni to'g'ri ishlatish darajasini tekshirish uchun sintaksis va morfologiya bo'yicha yozma mashqlar beriladi. Bu usul bolaning grammatik to'g'riligini baholash imkonini beradi.

**Yozuv va husnixat ko'nikmalarini kuzatish:** Yozuv va husnixatdagi aniqlik va tozalikni baholash orqali bolaning yozish texnikasini o'rganish mumkin. Bu esa ularning umumiy yozma nutq madaniyatini aniqlashga yordam beradi.

**So'z boyligini o'rganish:** Bolaning yozma nutqida ishlatadigan so'zlar doirasini kuzatish va ularning lug'at boyligini baholash. So'z boyligi ularning ifoda qilish ko'nikmalarini kengaytirishda muhim o'rin tutadi.

Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarni tekshirishda muammoni aniqlash uchun asosan uch bo'limdan iborat maxsus tekshiruvlar o'tkazilishi kerak:

- eshituv diktanti;
- mustaqil yozishi;
- matndan ko'chirish.

Birinchi bo'lim o'z ichiga eshituv diktantini oladi, vazifalar qismlari sekin-asta murakkablashib boradi. Tekshiruv harf, bo'g'in, so'z yozishdan boshlab nutqning murakkab shakli bilan tugatiladi. Endigina ta'lim olishni boshlagan bolalarga harflarni aytib turish (diktovka) asosida yozish taklif etiladi. Bolaga alohida tovushlar aytib turish orqali, bola grafik tasvirlarini yozib olishi kerak. Ushbu sinovlar bola tovushlarni to'g'ri eshitib tushunayotganligi, grafik tasvirlarini mos shifrlayotganligini aniqlashga yordam beradi.

Keyingi jihati- aytib turib (diktovka ostida) alohida bo'g'inlarni yozishni tekshirish. Bolaga ochiq bo'g'inlar (na, sa, si, tu, mo va boshqalar), yopiq (an, um, ot), undosh tovushlarni birga kelishi (stol, stul), oppozitsion bo'g'inlar (sa-za, sa-sha, ra-la, ba-na). o'quvchilar bo'g'inlarni yozishni o'rniga, kesma alifbodan foydalanishlari mumkin. Sinovlarning maqsadi - bola tovushlarni qanchalik to'g'ri farqlay va ajrata olishini aniqlash. Bolani yozuv malakasini qanchalik darajada egallaganini bilish maqsadida alohida so'z va iboralar sinov uchun taklif etiladi. Boshida oddiy, so'ngra murakkab fonetik so'zlar, shuningdek qisqa iboralar aytib turiladi. Alohida so'z va iboralarni eshituv jarayonini logopedik tekshirishda turli murakkablikdagi rasmlar bo'yicha mustaqil yozishi ham tekshiriladi. Tekshirish materiali sifatida bola uchun tanish predmetlarning rasmlaridan foydalanish mumkin. Ushbu predmetlarni nomini yozishi yoki mustaqil nomlashi hamda rasmlar bo'yicha alohida gaplar tuzishi taklif etiladi. Matn tarkibiga kiruvchi so'zning tovush-bo'g'in analizi orfoepiya meyorlariga mos ravishda aytish tavsiya etiladi. Yozma nutqni logopedik tekshirishning ikkinchi bo'limi bolalarning mustaqil yozuvini tekshirishni nazarda tutadi. O'quvchilarga (asosan 2-3 sinf va undan kattalar) ushbu maqsadda quyidagilar taklif etiladi: - rasmlar ketma -ketligi bo'yicha mustaqil ravishda qisqa gap tuzish va yozish; - o'qigan yoki eshitgan hikoyasini yozma ravishda bayon etish; - berilgan mavzu bo'yicha insho yozish; o'quvchilarning mustaqil ishlari orqali, so'zdagi tovushlarni xatolarini analiz qilish, turli agrammatizm turlarini aniqlashga yordam beradi.

Logopedik tekshiruvning uchinchi bo'limida matnni ko'chira olish xususiyati, qiyin xollarda esa alohida harf, bo'g'in, so'zlar namunada berilganidek yozishi aniqlanadi. Shuningdek bolalarda o'zi mustaqil so'zni o'qib, xotirasiga tayangan xolda yozib berishi kerak.

Yozma nutqni tekshirish natijalarini umumlashtirish jarayonida ma'lum qoidalarga e'tibor berish zarur:

- yozuvdagi xatolarni analiz qilish;
- bo'sh jadval tuzish, xatolar turi va sonini klassifikatsiyalash;
- bolaning yozuvidagi xatolarini og'zaki nutqi bilan solishtirish.

Shunday qilib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabda

logopedik ishlar ko'plab o'ziga xosliklar bilan xarakterlanadi, bular oliy nerv faoliyati, intellektual kamchilikka ega bo'lgan bolalarning psixologik o'ziga xos tomonlari, shuningdek, bu bolalarda nuqsonlar strukturasi, mexanizmlari, simptomatikalaridan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.A.Nurkeldiyeva, Z.I.Islamova "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi". Toshkent 2014.139 b.
2. M.Y.Aurova. "Logopediya" Toshkent-2007 559 b
3. МедведеваЕ.Ю, Ольхина Е.А. "Нарушение письма у умственно отсталых младших школьников". МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ПРИКЛАДНЫХ И ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ № 7, 2016
4. Кузь Н. А "Диагностика и коррекция нарушений письма обучающихся с задержкой психического развития". :–Новосибирск : Изд-во НГПУ , 2020. – 150 с
5. Корнев А. Н. Нарушения чтения и письма у детей: учебно-методическое пособие. СПб.: МиМ, 1997. 286 с.

## **QISQA MASOFAGA YUGURUCHI YENGIL ATLETIKACHILARNING MUSOBAQA OLDI PSIXALOGIK TAYYORLASH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH**

*Tashpulatov Farxad Alisherovich,*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Jismoniy madaniyat va sport faoliyati kafedrasini  
mudiri professor*

*Annotatsiya. Maqolada qisqa masofaga yuguruvchi yengil atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, ularni aniqlash usullari, og'ir atletika mashqlari orqali kuch sifatini oshirish metodikasi bayon qilingan.*

*Ka'lit so'zlar: jismoniy tarbiya, yengil atletika, kuch sifati, qisqa masofaga yugurish, joydan uzunlikka sakrash, joydan uch hatlab sakrash, shtanga bilan o'tirib turish.*

Hozirgi vaqtda O'zbek xalqining o'z-o'zini anglash tuyg'usi avj olganligi, milliy va madaniy qadriyatlar tiklanayotganligi, aholining ko'p tabaqasi tomonidan urf-odatlar va marosimlar amalga oshirilishi munosabati bilan jismoniy tarbiyaga, xususan, yengil atletika zamon talabi va milliy ananalar ruhida bilim berish va tarbiyalashga asoslanib yondashish zarur.

Hozirgi kunda jahon arenalarida sport natijalarini kun sayin o'sib borishi yillik tayyorgarlik mashg'ulotlari sikllari yanada takomillashtirish uslubiyotiga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda. Sportchilarning sport natijasi bevosita ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan bog'liqdir. Chunki sportchi jismoniy tayyorgarligi tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik sifatlarini tarbiyalashdan sportda yuqori natijani egalashi qiyin. Sport tayyorgarligining har bir turi boshqa turlarga bog'liqligini, ular tomonidan taqozo etilishi va O'z navbatida, ularga ta'sir ko'rsatishini ham e'tiborga olish zarur. Masalan, sportchining texnikasi jismoniy sifatning rivojlanishi darajasiga, ya'ni kuch, tezkorlik, egiluvchanlik va boshqalarga bevosita bog'liq.

Yuguruvchilarning texnik tayyorgarlik darajasi uning harakatlarining samaradorligi va tejamkorligi bilan aniqlanadi. Yugurish texnikasini tahlil qilish asosida, harakatlanish birligi sifatida ikki qadam qo'yish yoki stikl qabul qilinadi. Har bir stikl ikkita tayanch (chap va o'ng oyoq yordamida) davri va ikkita uchish fazalaridan tashkil topadi.

Yugurish davomida ichki va tashqi kuchlarning (tashqi kuchlarga muhitning qarshiligi, og'irlik kuchi va tayanch reaktsiyasi kiritiladi) o'zaro ta'sirlashishlari natijasida yuguruvchining tanasi doimiy ravishda vertikal va gorizontal yo'nalishdagi tebranishlarni his qiladi. Bundan tashqari, yuguruvchining vazifalaridan biri -harakatlarning to'g'ri chiziqililigini ta'minlashga qaratiladi, bunda tananing yonga va gorizontal yo'nalishda haddan ziyod tebranishlaridan qochish talab qilinadi.

Yaxshi yugurish texnikasi sifatida shunday yugurishni ko'rsatish mumkinki, ya'ni bunda barcha harakatlanishlar samarali ko'rinishga ega bo'lishi, silliq va hotirjam holatda bo'lishi, oldinga intilishning hech qanday keskin tarzda shiddatli zo'riqishlarsiz, to'g'ri chiziq bo'ylab amalga oshirilishi qayd qilinadi. Bu holatga sezilarli darajada tizzadan bukilgan oyoqda o'tirish orqali erishiladi. Bunda oyoq kafti oyoq barmoqlarining asosi oldingi qismiga bosiladi va navbatdagi holatda butun oyoq kafti va barmoqlar birgalikda pasaytiriladi. Oyoq kaftlari iloji boricha to'g'ri chiziq bo'ylab qo'yilib, ular tashqariga aylanishlarsiz holatda joylashtiriladi, bunda yonlama tebranishlar sezilarli darajada kamaytirilishi mumkin. Oldinga samarali tarzda harakatlanish uchun itarilish vaqtida barcha bo'g'imlar bo'yicha oqning to'liq rostanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu holat erkin holatda oyoqning oldinga -yuqoriga siltanishi bilan amalga oshiriladi. Bu holatda son ushbu yugurish turi uchun chegaraviy darajadagi balandlikkacha ko'tariladi. Yugurish masofasi qanchlik uzoq bo'lsa, sonning ko'tarilishi balandligi qiymati shunchalik darajada pastroq bo'lishi talab qilinadi. Boldir sohasi bo'shashgan holatda bo'lishi ta'minlanadi.



## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Yugurish davomida qo'llar tirsak bo'g'imidan tahminan to'g'ri burchak ostida bukilgan holatda bo'lib, yugurish davomida bu holat o'zgartirilishi mumkin. O'rta va uzoq masofalarga yugurish davomida qo'llarning asosiy vazifasi - tananing barqaror holatini ushlab turishga qaratiladi.

Yugurish texnikasining muhim komponentlari sifatida qadam uzunligi va chastotasi qayd qilinadi. Ular o'rtasidagi nisbatlar optimal holatda bo'lishi talab qilinib, ya'ni tabiiy va ritmik ko'rinishdagi yugurishni ta'minlab berishi belgilanadi. Amaliyot natijalari ko'rsatishicha, 800 metr masofaga yugurish davomida qadamlarning o'rtacha uzunligi etakchi hisoblangan yuguruvchi sportchilarda 2,002,10 smni tashkil qilib, 1500 metrga yugurishda esa 1,90-2,00 smni tashkil qilishi qayd qilingan.

Yugurish davomida start alohida yugurish yo'laklari bo'ylab amalga oshirilgan sharoitda ayrim yuguruvchilarning past darajada start olishi kuzatiladi, barcha qolgan vaziyatlarda o'rta masofalarga yugurishda yuqori darajada start olishlar qayd qilinadi. Start olishdan keyin odatda, tezlik olish dastlabki 30 - 40 metr masofada amalga oshiriladi va bunda sportchi yuguruvchilarning harakatlari sprinterdagi holatni eslatadi. Qayrilish sohalarida yugurish davomida sportchilarning gavdasi engil tarzda oldinga egiladi, o'ng oyoqning old qismi ko'proq ichkariga qaratiladi, o'ng qo'lning tirsagi esa gavadadan uzoqlashtiriladi.

O'rta va uzoq masofalarga yugurishda nafas olish burun va og'iz orqali amalga oshiriladi. Nafas olish ritmi yugurish ritmi bilan uyg'unlashtiriladi. Organizmning kislorodga bo'lgan talabi oshgan sharoitda nafas olish ritmi tezlashtirilishi talab qilinadi. xususiyatlari, ular tomonidan qo'llaniluvchi taktik variantlar) hisobga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. to'rtinchidan, yugurish davomida turli xil tashqi omillarning (ob - havo sharoiti, yugurish yo'lagining holati, kross trassasining reliefi, to'mashabinlarning ko'rsatuvchi reaksiyasi va hokozolar) e'tiborga olinishi talab qilinadi.

Ushbu bilimlarni egallash va ulardan mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonida foydalanishda yuguruvchi tomonidan ma'lum bir masofalarga nisbatan eng to'g'ri taktik harakatlar rejasi tuzib chiqilishi, yugurish grafigi tuzilishi va yugurish davomida foydalanish uchun bir qancha asosiy taktik variantlarning belgilab olinishi amalga oshirilishi talab qilinadi. Musobaqa davomida sportchi masofa bo'ylab asosiy raqiblarning harakatlarini kuzatib borishi, o'z vaqtida va to'g'ri holatda, aniq tarzda ularning harakatlariga nisbatan mo'ljal olib bilishi, marraga yaqinlashish momentida tezlikni oshirish vatqini to'g'ri aniqlay olishi, har qanday taktik variantlarni qo'llash orqali marra chizig'ini oldinroq kesib o'tishga intilishga qodir bo'lishlari talab qilinadi. Bunda yuguruvchi ob - havoning har qanday o'zgarishlariga moslasha olishi, yugurish yo'laklari holatiga moslashishi va shunga o'xshash hakoza holatlarni amalga oshirishi talab qilinadi.

Sportchilarning taktik bilim va ko'nikmalari turli xil manbalar asosida o'zlashtiriladi, biroq eng asosiysi - bu maxsus mashg'ulotlar, tahminiy chamalablar va nazoratlar, shuningdek taqvim musobaqalari hisoblanadi.

Yuguruvchi mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonida o'z oldiga qo'yuvchi taktik vazifalar juda turli xilda bo'lishi mumkin. Masalan, oldindan belgilangan tezlikda bir nechta aylanani yugurib o'tish yoki ma'lum bir masofa kesimlarini bosib o'tish; yugurishni tezkor tarzda boshlash va raqiblar guruhi tarkibida kerakli o'rinni egallash; turli xil vaziyatlarda raqiblarni quvib o'tish, yugurish ritmini o'zgartirish; ikkinchi 400 metrlik masofani tezroq va birinchi bo'lib bosib o'tish va hakoza ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

800 metr masofaga yugurishda vaqtning taqsimlanishi qanday amalga oshiriladi, bu albatta nisbatan oddiy ko'rinishga ega hisoblanadi. O'z navbatida, bunda yuguruvchilar ikkinchi 400 metrni birinchisiga nisbatan 3-4 sekund yomonroq natija bilan bosib o'tishadi. Ushbu ko'rinishda, agar siz 2.02,0 natijasini hisobga

Hozirgi vaqtda har qanday ko'lamdagi musobaqalarda kuchiga ko'ra tahminan teng bo'lgan

ko'plab yuguruvchilar ishtirok etishi qayd qilinib, bu holatda kim nisbatan taktik jihatdan yaxshiroq tayyorgarlikka ega bo'lsa va masofa bo'ylab kurash davomida o'ylangan holatda mo'ljal ola bilsa, o'sha sportchigina g'alabani qo'lga kiritishi kuzatiladi.

Ko'pgina yuguruvchilar, hatto mashhur yuguruvchilar ham taktik mahoratni egallashda sinovlar va xatolarga yo'l qo'yishlar orqali uzoq yo'lni bosib o'tishlari qayd qilinadi. Yuguruvchilar orasida har bir davrda namuna bo'la oluvchi vakillar mavjud hisoblangan. Jumladan, ular qatoriga F.Vanin, V.Kust, I.Filin, S.Popov, N.Sokolov,

P.Bolotnikov, I.Belyaev, V.Kudinskiy va boshqalarni qo'shish mumkin. Afsuski, ko'p holatlarda ularning taktik jihatdan to'plagan tajribalari etarlicha darajada tahlil qilinmagan va umumlashtirilmagan, o'z navbatida ushbu tajribalardan keng sportchilar ommasiga samarali tadbiriq etilishi amalga oshirilmaydi.

Taktik tayyorgarlikning o'zi nima? Bu - maxsus bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularni belgilangan maqsadlarni hal qilishda maqsadga yo'naltirilgan ko'rinishda qo'llash - kutilgan natijalarni ko'rsata olish yoki ma'lum bir o'rinlarni egallash jarayoni hisoblanadi.

Yuguruvchi musobaqalarga tayyorlanishda nimalarni amalga oshirilishi talab qilinadi? Birinchidan, tayyorgarlik jarayonida tanlangan masofada yugurishning asosiy xususiyatlari va qonuniyatlarini hisobga olish talab qilinadi. Ikkinchidan, o'zining kuchi va imkoniyatlari, mashq qilganlik darajasi, maxsus yugurishga oid sifatlari, psixologik jihatdan tayyorgarligini hisobga olish talab qilinadi. Uchinchidan, o'z raqiblarning o'ziga xos tavsiflari va amaliy jihatdan imkoniyatlarini (ularning tayyorgarlik darajasi, psixik

Alohida holatlarda, ya'ni murakkablashuvchi vaziyatlarga va yuguruvchining tayyorgarligi darajasiga bog'liq holatda yugurishning boshqacha variantlaridan ham foydalanish mumkin. Shunday qilib, 880 yard masofaga yugurishda dunyo rekordini o'rnatishda (1.44,0)

D.Rayan dastlabki 440 yard masofani 53,0 sekundda va ikkinchi 400 metrlik masofani esa - 51,2 sekundda bosib o'tiganini qayd qilinadi. O'rta masofalarga yugurishga 800 m va 1500 m ga yugurish, uzoq masofalarga yugurishga 3000 m dan 10000 m gacha yugurishlar kiradi. Ular stadionda yoki kross masofalarida o'tkaziladi. Yugurish jarayonini shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin: start va startdan tezlik olish, masofa bo'ylab yugurish va marraga etib kelish. Yugurish texnikasi asoslari eng konservativ bo'lib, ko'p asrlar davomida ular jiddiy o'zgarmagan. Etakchi sportchilarning individual texnikasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar faqat kichik o'zgarishlar kiritilishiga asos bo'lgan. Asosan turli xil omillarning yugurish texnikasiga ta'siri, yugurish tezligini hosil qilishda ma'lum bir mushaklarning ishi aniqlangan, yugurish texnikasi asosiy tavsiflarining biomexanikaviy parametrlari belgilab berilgan.

Zamonaviy yugurish texnikasi asosini: a) harakatlanishning yuqori tezligiga; b) bu tezlikni kam energiya sarflagan holda butun yugurish masofasi davomida saqlab qolishga; v) har bir harakatda 119 erkinlikka va tabiiylikka erishiga bo'lgan intilish tashkil qiladi. Har bir yugurish turida optimal qadam uzunligi to'g'risida gapirish zarur bo'ladi; o'rta masofalarga yugurishda u qisqa masofalarga yugurishdagiga qaraganda kamroq va uzoq hamda o'ta uzoq masofalardagiga nisbatan ko'proq bo'ladi.

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kuchlanishlar shiddati va harakatlar tejamkorligi yugurish texnikasining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ular bir tomondan, yuguruvchining tezlik-kuch tayyorgarligi bilan, ikkinchi tomondan, energetik zahira sarflanishining tejamkorligi bilan bog'liq. Masofa ortishi bilan harakatlarning tejamkorligi omili ish shiddati omili ahamiyatidan ustunlik qiladi, chunki qadamlar uzunligi va sur'ati kamayadi. Bu erda sportchining optimal shiddatga ega uzoq vaqt davom etadigan ishga bo'lgan qobiliyati birinchi o'ringa chiqadi. O'rta va uzoq masofalarga yugurish startdan boshlanadi. Musobaqa qoidalariga binoan ushbu holda ikkita buyruqdan iborat yuqori start qo'llaniladi. Start va start tezlanishi. —Startga!» buyrug'i bilan

yuguruvchi start chizig'i yonida dastlabki holatni egallaydi. Depsinadigan oyoq chiziq oldida turadi, qadam tashlanadigan oyoq esa 2-2,5 oyoq kafti narida orqaga qo'yiladi. Gavda taxminan 40-45o oldinga egilgan, oyoqlar tos-son va tizza bo'g'imlaridan bukilgan, UOM oldinda turgan oyoqqa yaqin joylashgan. Yuguruvchi gavdasining holati qulay va mustahkam bo'lishi kerak. Qo'llar tirsak bo'g'imidan bukilgan va oyoqlarga nisbatan qarama-qarshi holatni egallaydi. Yuguruvchining nigohi taxminan 3-4 m oldinga yo'lkaga qaratilgan (2-rasm).

Start beruvchining —Marsh buyrug'idan yoki o'q uzishidan keyin sportchi yugurishni faol boshlaydi. Sportchi startdan egilgan holatda yugurishni boshlaydi, keyin sekin-asta gavdasini rostlab, yugurish holatini egallaydi, bunda gavdaning egilishi 5-7o ga teng. Start tezlanishi masofa uzunligiga bog'liq. 800 m ga yugurishda (bunda sportchilar birinchi 100 m masofani o'z yo'lkalari bo'ylab yuguradilar) yuguruvchining vazifasi yugurish yo'lkasi chetidan birinchi bo'lib o'rin egallab olish maqsadida shu masofa bo'lagini tez yugurib o'tishdan iborat. Bu erda quyidagilarni ajratish mumkin: 1) start tezlanishining o'zi, u taxminan 15-20 m davom etadi; 2) faol yugurish, u sportchining umumiy yo'lkaga chiqib olguniga qadar davom etadi, bu erda yugurish tezligi bir maromdagi tezlikka yaqinlashadi. Odatda, 800 m masofadagi birinchi 100 m tezligi boshqa masofa bo'laklaridagi yugurish tezligiga, hatto marraga etib kelishdagi tezlikka nisbatan birmuncha yuqori bo'ladi. Boshqa masofalarda start tezlanishi kichikroq, 10-15 m atrofida, bu erda eng asosiysi - tez tezlanish hisobiga yo'lka chetidan o'rin egallash, o'z yo'lini ko'paytirmasdan ikkinchi yo'lka bo'ylab yugurmaslik, keyin esa sportchi tayyorgarligiga mos holda bir maromda yugurishga o'tishdir.

Masofa bo'ylab yugurish. Masofaning to'g'ri bo'laklarida yugurish texnikasi burilishlardagi yugurish texnikasidan bir oz farq qiladi. Masofada ya xshi yugurish texnikasi quyidagi qirralari bilan namoyon bo'lishi mumkin:

- gavdaning oldinga bir oz egilganligi (4-5o);
- elka kamari bo'shashtirilgan;
- kuraklar bir oz bir-biriga yaqinlashtirilgan;
- bel bir oz tabiiy ochilgan;

- bosh tekis ushlanadi, yuz va bo'yin mushaklari zo'riqtirilmagan. Bunday holat optimal variantda yugurishga yordam beradi, mushaklarning ortiqcha zo'riqishini bartaraf etadi. Yugurishda qo'llar 90o burchak ostida tirsak bo'g'imidan bukilgan, panjalar bir oz qisilgan. Qo'l harakatlari tebrangich harakatini eslatadi, lekin bunda elkani ko'tarmaslik zarur. Qo'llarning harakat yo'nalishlari: 1) oldinga -ichkariga, oldinga harakatlanayotgan qo'lning panjasi taxminan tana o'rtasiga etadi (ko'krakkacha); 2) orqaga-tashqariga, qo'lar yon tomonga uzoqqa chiqarib yuborilmaydi. Umuman olganda, qo'llarning barcha harakatlari yugurish yo'nalishi tomon yaqinlashishi kerak, chunki qo'llarning yon tomonga ortiqcha harakatlari gavdaning yon tomonlarga silkinib ketishiga olib keladi, bu yugurish tezligiga salbiy ta'sir qiladi va ortiqcha energiya sarflanishiga sabab bo'ladi. Elka suyagining harakatlanish burchagi yugurish tezligiga bog'liq bo'ladi, ya'ni tezlik qancha yuqori bo'lsa, harakatlar shuncha chaqqonroq va kengroq bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, qo'llarni ham oldindan, ham orqadan yuqoriga baland ko'tarib harakatlantirish xato hisoblanadi. Elka suyagi tebranishlari amplitudasini tirsak bo'g'ini harakatiga qarab aniqlab olish mumkin: u ko'proq yuqoriga harakat qila boshlashi bilanoq - mana shu amplituda chegarasi bo'ladi.

Yugurishda oyoqlarning harakatlanish texnikasini oyoq kaftining tayanchga qo'yilishidan ko'rib chiqish lozim. O'rta va uzoq masofalarga yugurishda oyoq kafti oyoq uchidan kaftning tashqari chekkasiga qo'yiladi, va vertikal holat lahzasigacha butun oyoq kaftiga tushiladi. Oyoq kaftlari bir-biriga parallel tarzda bir kaft kengligida qo'yiladi, oyoqning bosh barmog'i oldinga qara- tilgan, oyoq kaftlarini tashqariga burish mumkin emas. Yuguruvchi oyoq kaftini zarb bilan emas, balki mushuk singari, yumshoq qo'yishi kerak. Oyoq kaftini erga qo'yish paytida tizza bo'g'imi bir oz bukilgan bo'ladi. Oyoqni erga qo'yish uzunligi yugurish tezligiga bog'liq: yugurish tezligi qancha yuqori bo'lsa, oyoq UOM proeksiyasidan shuncha uzoqroqqa



qo'yiladi. Vertikal lahzasigacha, amortizasiya fazasida oyoq tizza va tos-son bo'g'implaridan ko'proq bukiladi. UOMning bir oz kamayishi kuzatiladi. Bu harakatni prujina bilan solishtirish mumkin, ya'ni prujina yengilgina siqiladi va keyin teskari samara - egiluvchan deformasiya samarasi olinadi. Yuguruvchining hissiyotlari - u o'zini siqilishga qarshilik ko'rsatayotgan va, qarshilik qila turib, tanani tayanchdan itarayotgan prujina deb tasavvur qilishi kerak. Vertikal o'tib bo'lingandan so'ng oyoqning avval tos-son, keyin tizza bo'g'implaridan faol tekislanishi sodir bo'ladi va shundan keyingina oyoq kafti boldirkaft bo'g'imidan bukiladi.

Depsinish lahzasi yugurish texnikasida eng asosiy element sanaladi, chunki yugurish tezligi kuchlanishlar shiddatiga va depsinish burchagiga bog'liq, depsinish burchagi qancha o'tkirroq bo'lsa, depsinish shiddati harakat yo'nalishiga shuncha yaqin keladi va tezlik shuncha yuqori bo'ladi. O'rta masofalarga yugurishda depsinish burchagi taxminan 50-55o ga teng, ancha uzoqroq masofalarda u birmuncha ortadi. Depsinish oldinga yo'naltirilgan bo'lishi va gavda egilishiga mos kelishi kerak. Yugurishda gavdaning egilishi 2-3o atrofida o'zgarib turadi, depsinish lahzasida oshadi va uchish fazasida kamayadi. Boshning holati ham gavda holatiga ta'sir qiladi: bosh ortiqcha oldinga egiltirib yuborilsa, bu gavdaning haddan ortiq egilib ketishiga, ko'krak va qorin pressi mushaklarining qisilishiga olib keladi; boshni orqaga egib yuborish esa elkaning orqaga og'ib ketishiga, depsinish samaradorligining pasayishiga va orqa mushagining qisilishiga sabab bo'ladi. Bo'sh oyoqning oldingayuqoriga yo'naltirilgan silkinishi faol depsinishga yordam beradi, u depsinishning oxirgi lahzasida tugaydi. Oyoq erdan uzilgandan so'ng tizza bo'g'imidan bukiladi, son vertikalga nisbatan oldinga harakatlanadi, boldir tayanchga deyarli parallel tarzda turadi. Orqa qadam fazasida qadam tashlaydigan oyoqning tizza bo'g'imidagi bukilish burchagi individual xususiyatlarga va yugurish tezligiga bog'liq: yugurish tezligi qancha yuqori bo'lsa, oyoq tizza bo'g'imidan shuncha ko'proq bukiladi. Bu fazada depsinishda qatnashayotgan mushaklar bo'shashtirilgan bo'ladi. Vertikal lahzasidan keyin qadam tashlaydigan oyoq soni oldingayuqoriga harakatlanadi. Depsinadigan oyoq to'liq tekislangan paytda qadam tashlaydigan oyoq boldiri uning soniga parallel tarzda bo'ladi. Sonlar faol birlashtirilgan lahzadan so'ng (uchish fazasi) oldinda turgan oyoq pastga tusha boshlaydi, uning boldiri oldinga chiqariladi va oyoqni erga qo'yish oyoq kaftining oldingi qismidan boshlab amalga oshiriladi. Orqada turgan oyoq UOMning oyoq qo'yiladigan joyga tez yaqinlashishga yordam bergan holda, shu orqali tormozlanish kuchini kamaytirgan holda faol oldinga chiqariladi. SHuni yodda saqlash lozimki, oyoqni o'tkazish vaqtida uni tizza

bo'g'imidan bukish tebrangich uzunligini kamaytirishga (oyoq - bu murakkab tarkibli tebrangich) va oyoqni o'tkazish davrini qisqartirishga yordam beradi (3-rasm).

Burilishlarni (keskin burilishlarni) yuguruvchining harakatlari: - chapga (burilish markazi tomonga) bir oz egiladi;

- chap qo'l harakatlanish amplitudasi o'ng qo'lga nisbatan birmuncha kichikroq;
- o'ng elka bir oz oldinga chiqariladi;
- chap oyoqning qadam uzunligi o'ng oyoqqa nisbatan birmuncha kichikroq;
- o'ng oyoqning siltanish harakati bir oz ichkariga bajariladi; - o'ng oyoq kafti ichkariga qayrilgan holda qo'yiladi.

O'rta masofalarda yugurish tezligining qadam uzunligini oshirish hisobiga ortishi cheklangan, chunki juda katta qadam katta energiya sarfini taqozo etadi.

Yuguruvchilarda qadam uzunligi masofaga va individual qobiliyatlarga qarab taxminan 160-220 sm ni tashkil etadi. Yugurish tezligi, odatda, qadamlar uzunligi saqlangan holda ularning sur'ati hisobiga oshadi.

#### XULOSA

Marraga etib kelish. O'rta va uzoq masofalarga yuguruvchilar odatda oxirida marraga tashlanishni (otilishni) yoki spurt bajaradilar. Uning uzunligi masofaga va yuguruvchining



potensial imkoniyatlariga qarab o'rtacha 150-200 m ga etadi. Marraga tashlanish vaqtida yugurish texnikasi bir oz o'zgaradi: gavdaning oldinga egilishi ortadi, qo'llarning yanada faolroq harakatlari kuzatiladi. Masofaning oxirgi metrilarida harakat texnikasi buzilishi mumkin, chunki toliqish boshlangan bo'ladi. Toliqishning ta'siri birinchi galda yugurish tezligiga ta'sir qiladi: harakatlar sur'ati pasayadi, tayanch vaqti ortadi, depsinish samaradorligi va depsinish shiddati kamayadi.

Yugurish texnikasi va, birinchi navbatda, yugurish qadamining tuzilishi hamma masofalarda saqlanib qoladi, faqat qadamlar uzunligi va sur'ati nisbatlari, kinematik va dinamik tavsiflar (masofa uzunligiga, yugurish tezligiga, har bir sportchining antropometrik xususiyatlariga va jismoniy imkoniyatlariga qarab) o'zgaradi.

Yengil atletikachilar tayyorgarliging eng muhim qismlaridan biri sportchining asosiy harkat sifatlarini rivojlantirish va tarbiyalashga qaratilgan jismoniy tayyorgarlik sanaladi. Odatda, engil atletikada har tomonlama jismoniy rivojlanishga ega bo'lgan sportchilar yuqori ko'rsatkichlarni namoyish qila oladilar. Mashg'ulot jarayonini yil davomida tashkil qilish tamoyili mashg'ulotlar samaradorligini oshirish va yuksak sport natijalariga erishining hal qiluvchi shartalaridan biri. Yil davomida tayyorgarlik - bu sportchi mashg'ulotlarni 12 oy mobaynida muntazam, turli rejalashtirish variantlari asosida o'tkazadi va bundan bir necha oy yoki xaftani tiklanish uchun ajratadi demakdir. Hozirgi vaqtda engil atletikada il davomida mashg'ulotni tashkil etishning uchta asosiy varianti mavjud. Birinchi variantda yil bitta katta mashg'ulot siklini ( makrotsikl) tashkil etib, uch davrga bo'linadi: tayyorgarlik, musobaqalashuv va o'tish dvarlaridir. Tajriba guruhi sinaluvchilari ko'rsatgan natijalari 100m masofada o'rtacha 18,5 sek tashkil etdi. 200m masofaga yugurishda 37,05sek, 600m masofaga yugurishda 103,8 sek. 2000mga yugurishda 5.64,02 sek., joydan turib uzunlikka sakrashda 168m natijani ko'rsatdi. Olingan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki ishlab chiqilgan MOT sikli to'g'ri tashkil qilingan. Ushbu MOT siklni maktab engil atletika, sport seksiyalariga BO'SMi o'rta masofaga yuguruvchilar mashg'ulotlariga tavsiya etamiz.

#### REFERENCES

## QISHLOQ XO‘JALIGIGA IXTISOSLASHGAN YO‘NALISHLARDA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

*Turg‘unov Adham Raxmatillaevich  
Namangan muhandislik-qurilish instituti o‘qituvchisi*

*Annotatsiya: Bu maqolada faoliyatli yondashuv sifatida bo‘lajak muhandislarni ishlab chiqarish-sozlash, loyihaviy konstruktorlik, foydalanish va servis xizmat ko‘rsatish, tashkiliy boshqaruv, ilmiy-tadqiqot, konsalting xizmati faoliyatiga tayyorlashda kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish nazarda tutiladi.*

*Kalit so‘zlar: kompetentsiya, ilmiy dunyoqarash, kompyuterlashtirish, axborot kompetentlik, qishloq xo‘jaligi, pedagogik.*

*Аннотация: В качестве активного подхода в данной статье предусмотрено развитие профессиональной подготовки будущих инженеров по подготовке производственно-наладочной, проектно-строительной, эксплуатационной и ремонтной деятельности, организационному управлению, научным исследованиям, консультационно-сервисной деятельности.*

*Ключевые слова: компетентность, научное мировоззрение, компьютеризация, информационная компетентность, сельское хозяйство, педагогика.*

Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan oliy ta‘lim muassasalarida fizika fanini fundamental va kasbiy bilimlar integratsiyasi asosida bo‘lajak muhandislarning maxsus kompetentligini shakllantirish muammosi ko‘p o‘lchovli va murakkab jarayondir. Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uni hal etishga har tomonlama ijobiy yondashuvlarda yangilanishlar va yangi ilmiy qarashlarga doimiy ehtiyoj sezilmoqda[1].

Shaxsning kasbiy tayyorligi deganda, uning asosiy kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan komponentlarning o‘zaro munosabatiga asoslangan, umuman, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Bu murakkab ruhiy formatsiya jarayoni bo‘lib, uning shakllanishida muayyan funksiyalarni bajaradigan xususiyatlarning munosabati bilan quriladi. Ta‘lim jarayonida avvalo bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatiga sadoqatini rivojlantirish, rivojlantirish jarayonining maqsadi yakuniy natijasi deb hisoblashimiz kerak[2].

Ma‘lumki, yaxlitlik hodisaning yuksak darajada rivojlanishini, uning har tomonlama mukammalligini tavsiflaydi. Komil inson-bu jamiyat talablariga muvofiq, yuqori darajada shakllangan, uning atrofidagi dunyoda o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradigan shaxsdir. Shaxsning butun hayoti yo‘nalishini belgilab beruvchi va boshqa ko‘plab fazilatlarga iz qoldiruvchi, ularni o‘z tabiatiga bo‘ysundiruvchi, birlashtiruvchi va bir butunlikka birlashtiruvchi shunday xususiyat tushuniladi. Har qanday butunlikda har doim tarkibiy qismlar mavjud[3].

Ta‘lim, kasb-hunar va inson faoliyatining boshqa turlariga tayyorlik haqidagi ilmiy bilimlarning holatini o‘rganib, biz ta‘lim oluvchilarning (bo‘lajak muhandislarning) “tayyorgarligi”ning maqsadli hodisasini modellar va ularning bilishdagi funksional ahamiyatini o‘rganish va uni muhandisning kasbiy kompetensiyalari tizimi deb hisoblaymiz.

Biz, kasbiy tayyorgarlik modellarning metodologik, integrativ, gnoseologik, tushuntirishli, illyustrativ, transformatsion va imitativ funksiyalari bilan moddiy dunyoni bilish vositasi sifatida tuzilgan bo‘lajak muhandis shaxsining ajralmas dinamik xususiyati sifatida prognozlangan deb hisoblaymiz[4].

Professor G.A.Bokareva ilmiy maktabida ishlab chiqilgan modellashtirish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni tizimli va yaxlit xususiyatlarini o‘z ichiga oluvchi mazmunli-jarayoniy, faoliyatli, motivatsion maqsadli, kasbiy yo‘nalganlik kabi to‘rt komponentlarini asos sifatida

qabul qilamiz[5].

Ushbu komponentlarni bo'lajak muhandisning (masalan, "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" bakalavriat ta'lim yo'nalishi) shaxsiy xususiyatlari sifatida tanlash, ushbu profildagi mutaxassislarining faoliyatini tahlil qilish, umuman metodologik madaniyat sifatida rivojlangan ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojga bog'liq[6].

Shunday qilib, maqsadli-jarayonli komponenti (yadrosi) kasbiy muammolarni hal qilishda fizik bilimlar, ijodiy ko'nikmalar bilan tavsiflanadi; haqiqiy jarayonlar oqimini modellashtirish va bashorat qilish qobiliyati hisobga olinadi. Faoliyatli komponent texnik noaniqlik va axborot yetishmasligi bilan murakkab ta'lim va muhandislik vazifalarni modellashtirish, loyihalash va konstruksiyalash uchun ta'lim metodlari orqali ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Motivatsion-maqsadli komponent o'rganilayotgan texnik jarayonlarni modellashtirishda kasbiy fikrlash usullarini ishlab chiqish va shaxsiy maqsadlarni belgilashni o'z ichiga oladi. Muhandislik tafakkurining ijodiy jarayoni kasbiy faoliyatga munosabat bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, har bir komponent ta'riflarida tasvirlangan o'zaro bog'liq xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

1) biladi, egalik qiladi, loyihadizaynlaydi, modellashtiradi, konstruksiyalaydi, ishlab chiqadi va sozlaydi, boshqaradi, taqqoslaydi, tanlaydi, shakllantiradi;

2) biladi, topadi;

3) intiladi, qiziqadi, tushunadi, ehtiyoj sezadi;

4) xabardor, tushunadi, ishonch hosil qiladi.

Agar har bir tanlangan komponent alohida ko'rib chiqilsa, u orqali o'rganish shaxsning rivojlanishiga yanada faol hissa qo'shadigan aloqalarni hisobga olmagan holda, yetarli tasavvur bermaydi. Masalan, talaba fundamental va kasbiy bilimlarga ega bo'lib, texnik jarayonlarning turli hodisalarini modellashtirish real voqelikni o'rganishga hissa qo'shishini bilsa, shu asosda real jarayonlarning tabiati haqida tasavvurga ega bo'ladi va u voqelik jarayonlarini modellashtirish usullarini egallash zarurligini anglaydi.

Tanlangan darajalar fundamental va kasbiy fanlarni o'qitishda ularni bosqichma-bosqich shakllantirish jarayonini loyihalash imkonini beradi.

Kasbga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini maqsadi axborotli va operatsion tizimlashtirish, fundamental (fizika) va kasbiy fanlar integratsiyasi asosida kasbiy muammolarni loyihalash orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashni gipotezalar tizimida ilgari belgilangan yanada mukammal rivojlantirish hisoblanadi.

Har qanday pedagogik tizim singari, model ham tuzilmaviy komponentlar (maqsad, mazmun, o'qitish metodikasi, pedagoglar va talabalar faoliyati) va ular bilan bog'liq funksional komponentlar (loyihalash, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, gnoseologik) bilan tavsiflanadi (1-rasm).

1-rasm. Tuzilmaviy-funksional komponentlar.

Tuzilmaviy komponentlar — bu pedagogik tizimlarning asosiy bazaviy xususiyatlari bo'lib, ularning yig'indisi tizimning mavjudligini tasdiqlaydi va uni boshqa tizimlardan (pedagogik bo'lmagan) farqlaydi.

Funksional komponentlar — bu pedagogik tizimlar ishida, ularning rivojlanishi, harakatlanishi va takomillashuvi jarayonida paydo bo'ladigan, rahbarlar, pedagoglar, talabalar va talabalar faoliyati natijasida yuzaga keladigan, mustahkam bog'liqliklarni ifodalaydi. Ular pedagogik tizimlarning barqarorligi, shidamliligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Texnik yo'nalishlardagi oliy ta'lim muassasa talabalari o'z mutaxassisliklari bo'yicha yetuk kadr bo'lishlari uchun umumiy fizika fanidan fundamental bilimlarga ega bo'lishligi lozim. Bunda talabalarda umumiy fizikani o'qitish usullardan (ma'ruza materiallari, laboratoriya kursi, tahlil va masalalar yechish bilan bog'liq amaliy mashg'ulotlar, seminarlar va boshqalar) tashqari zamonaviy kompyuter texnikasidan ham foydalanish ko'nikmalari shakllangan

bo‘lishi kerak.

Fizikani o‘qitish jarayonida talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga e‘tibor qaratisa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish umumlashgan kompetensiyalar turiga kiradi. Bu talabalarning o‘quv materialini ham, o‘z bilimlarini ham tizimlashtirish va umumlashtirish masalalarini yechishdagi ishining yuqori samaradorligi hisoblanadi. Kompyuterlashtirishning keng yo‘lga qo‘yilishi fizika fanining rivojlanishiga o‘zining sezilarli ta‘sirini ko‘rsata boshladi. Kompyuterlardan foydalanish ancha qiyin bo‘lgan vazifalarni hal qilishda juda foydali hisoblanadi va ancha murakkab fan hisoblanuvchi fizika fanini rivojlantirishga yordam beradi. Dasturlashtirilgan topshiriqlar bilan ta‘minlangan kompyuterlardan foydalanish, umumiy fizika fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tqazish sifatini oshiradi. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi jonli mulaqot nafaqat nazorat qiluvchi, balki talabalarning yaxshi bilim olishlari, o‘zlashtirish ko‘rsatgichlarning yuqori bo‘lishligida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi, shuning uchun u ma‘ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining hal qiluvchi shakli bo‘lib qolishi kerak. Umumiy fizika fanini o‘qitish jarayoni samaradorligini oshirishda talabalarni axborotlar bilan ishlash ko‘nikmasini oshirishga o‘rgatish zarur hisoblanadi. Fizikani o‘qitish jarayonini ma‘lum bir ma‘noda tizimlashtirilgan axborotlar oqimi deb qaralishi mumkin. Shuning uchun ta‘limni takomillashtirish yo‘llarini aniqlash uchun o‘quv ishlarini takomillashtirish yo‘nalishini aniqlash kerak.

Talabalarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini fan sohalariga oid bo‘lgan axborotlar bilan ta‘minlash fundamental axborotlar zaxirasini yaratish omili sifatida o‘rganilib, bilimlarni tegishli sohalar bo‘yicha yangiliklar bilan muntazam to‘ldirib borishlari lozim. Talabalar axborotlar bilan ishlash jarayonida quyidagi qobiliyatlarga ega bo‘lishlari lozim:- o‘rganilayotgan ob‘ektning axborot tahlilini amalga oshirish qobiliyati. Ob‘ekt tahlilining tarkibi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat bo‘ladi: 1) predmet sohasini ajratish; 2) o‘rganish ob‘ektini aniqlash; 3) tadqiqotning xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish; 4) ob‘ekt haqidagi muhim ma‘lumotlarni ajratib ko‘rsatish; 5) axborot chegaralarini belgilash; 6) axborotda qayd yetilgan ob‘ektni aniqlash[7].

-ob‘ektning axborot modelini qurish qobiliyati. Ob‘ektning axborot modelini qurish qobiliyatining tarkibi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: 1) ob‘ektning tuzilishini tashkil qiluvchi elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash; 2) tahlil va sintez mezonlarini tanlash; 3) ob‘ektning axborot modelini tayyorlashda parametrlar va mezonlar ierarxiyasini asoslash; 4) axborot modelining fizik hajmini aniqlash va boshqalar[8].

Global tarmoq tizimi orqali axborot olish jarayonini bir necha bo‘lqichlarga ajratish mumkin:

-foydalanuvchi tomonidan axborotga bo‘lgan o‘z ehtiyojini formallashtirilishi (masalan, predmet sohasiga oid tayanch tushunchalar ro‘yxatini tuzish, ular orasidagi semantik bog‘lanishlarni aniqlash orqali);

-qidiruv amalga oshiriladigan internetning axborot resursini, axborot qidiruv tizimini tanlash (xizmatlar: • WWW – elektron sahifa xizmati, • Elektron pochta xizmati, • Telekonferentsiya (Usenet), • Fayllarni uzatish (FTP), • Domenlarni nomlash (DNS), • Telnet xizmati (Internet –telefon), • IRC - xizmati yoki Chat konferentsiya, • ICQ – xizmati, • Ma‘lumotlarni izlash xizmati, • Internetda ovoz va video xizmati hamda tizimlar: <https://www.google.co.uz>; <https://www.rambler.ru>; <https://www.yandex.ru>; <http://www.yahoo.com>);

-axborot qidiruv tizimining so‘rovlari tilida so‘rov-ifodani shakllantirish; So‘rov tili yordamida muayyan qoidalar bo‘yicha shakllantirilgan kalit so‘zlar guruhi qidiruv serveriga berilgan so‘rov deyiladi. Turli xil qidiruv serverlarining so‘rov tillari o‘xshash bo‘ladi. Har bir tizimning so‘rovlar tili bilan “Yordam” bo‘limida batafsil tanishib chiqish mumkin.



-qidiruvni amalga oshirish; Ma'lumotlarni qidirish uchun quyidagi amallarni bajarish zarur: biror internet brauzer dasturini ishga tushiring (Brauzer yorlig'ida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish orqali); Internet brauzer dasturining manzillar satriga qidiruv tizimi manzilini kiriting, masalan google.co.uz; manzil kiritilgandan so'ng klaviaturadan Enter tugmasini bosing; natijada brauzer ekraniga qidiruv tizimi Web-sahifasi yuklanadi[9].

-olingan materiallar tahlili. Qidirilayotgan predmet sohasiga oid axborotni topish malakasidan tashqari foydalanuvchidan axborot manbaini ham tahlil etish talab etiladi. Tanlab olingan material e'lon qilingan saytning maqsad va vaziflari, muallifi haqidagi mualliflarni bilish ham zarur[10]. Shu maqsadda foydalanish uchun ajratib olingan har bir hujjat to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni aniqlash muhim: saytning qisqacha xarakteristikasi (tavsifi), umumiy mavzulari doirasi, ishlab chiquvchilari haqida ma'lumotlar; saytda qidirilayotgin mavzuga oid boshqa materiallarning ham mavjudligi va material muallifi haqida ma'lumotlar.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Ефремова Н.А, Рудковская, В.Ф. Фундаментальное естественнонаучное образование, личность и общество. //Образование XXI веке: проблемы и перспективы. Материалы IX Международной научнопрактической конференции. – Пенза, 2013. С.18-22.

6. Каршиев А.А. Ўқувчиларда ахборот билан ишлаш компетенциясини шакллантиришнинг даражавий тузилмаси //инновации в педагогике и психологии. – 2021. – Т. 4. – №. 4.

7. Бекваевич, Умаров Кудиратилла, Олимжон Усупович Отамирзаев, and Дилноза Ньматиллаевна Зокирова. «The use of Interactive Methods in the Formation of Independent Thinking of Students and Their Analysis.» Telematique (2022): 7026-7032.

## INGLIZ TILINI O'QITISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: TA'LIM JARAYONIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI

*Tursunova Umidaxon Agzamovna,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD dotsenti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va usullar, jumladan, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, kommunikativ yondashuv va differensial hamda individual yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, har bir yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Maqola ingliz tilini o'qitishda innovatsion usullarni amaliyotga joriy qilish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

*Kalit so'zlar: Ingliz tilini o'qitish, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, differensial yondashuv, individual yondashuv.*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

*Турсунова Умидахан Агзамовна,  
PhD Доцент Ташкентского государственного экономического университета*

*Аннотация. В данной статье рассматриваются современные подходы и методы преподавания английского языка, включая интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, коммуникативный подход, а также дифференцированный и индивидуальный подходы. Также обсуждается роль каждого из подходов в повышении эффективности обучения и развитии навыков освоения языка у учащихся. Статья содержит рекомендации по внедрению инновационных методов в практику преподавания английского языка.*

*Ключевые слов: Преподавание английского языка, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, коммуникативный подход, дифференцированный подход, индивидуальный подход.*

## IMPROVING ENGLISH TEACHING METHODS: WAYS TO INCREASE EFFICIENCY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*Tursunova Umidakhon Agzamovna  
PhD Associate Professor, Tashkent State University of Economics*

*Abstract. This article analyzes modern approaches and methods of teaching English, including interactive methods, information and communication technologies, the communicative approach, as well as differentiated and individualized approaches. The role of each method in enhancing teaching efficiency and improving students' language acquisition skills is discussed. The article provides practical recommendations for implementing innovative methods in English language teaching.*

*Keywords: English language teaching, interactive methods, information and communication technologies, communicative approach, differentiated approach, individualized approach.*

*Kirish. Ingliz tili bugungi globallashuv davrida xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va biznes dunyosida asosiy aloqa vositasiga aylangan. Shuning uchun ingliz tilini o'qitish metodikasini doimiy takomillashtirish va samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash nafaqat tilni*

o'rganishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi va ularning qiziqishini oshiradi.

Shu bilan birga, har bir o'quvchining o'qish tezligi, bilish qobiliyati va motivatsiyasi turlicha bo'lganligi sababli, ta'lim jarayonida differensial yondashuvni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilini o'qitishda muvaffaqiyatga erishish uchun samarali o'quv uslublarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy qilish va natijalarni tahlil qilish zarur.

Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida samaradorlikni oshirish bo'yicha asosiy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va pedagogik strategiyalar ko'rib chiqiladi. Bu usullar o'qituvchilar va talabalarga yuqori natijalarga erishish yo'lida qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

#### Interaktiv usullarni qo'llash

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etishga undash muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv usullar bu borada eng samarali vositalardan biridir. Ushbu usullar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga va dars jarayoniga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Quyida ingliz tilini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan interaktiv metodlar keltiriladi:

Rol o'yinlari o'quvchilarni turli hayotiy vaziyatlarda qanday muloqot qilishni o'rgatadi. Ushbu usul orqali o'quvchilar so'zlashuv qobiliyatini rivojlantirib, yangi so'z va iboralarni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, do'konda xarid qilish, aeroportda suhbat yoki restoran menyusini tanlash kabi mavzular asosida o'tkaziladigan rol o'yinlari o'quvchilarni faollashtiradi.

Jamoaviy ishda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi va birgalikda topshiriqlarni bajaradi. Bu usul o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirib, birgalikda muammolarni hal qilish, fikr almashish va hamkorlik qilishga o'rgatadi. Ingliz tilida mashq qilish uchun guruh bo'lib hikoya tuzish, ingliz tilidagi maqolalarni muhokama qilish yoki loyihalarni tayyorlash samarali natija beradi.

Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga savollar berib, ular bilan faol muloqot qiladi. Ushbu usul yordamida o'quvchilar fikrlash qobiliyatini oshiradi, so'z boyligini kengaytiradi va o'z bilimlarini mustahkamlaydi. Masalan, o'quvchilar o'rtasida qiziqarli mavzularni muhokama qilish yoki matn bo'yicha savollarga javob berish dars jarayoniga faollik olib kiradi.

Debatlar va muhokamalar o'quvchilarning argument keltirish, o'z fikrini himoya qilish va qarama-qarshi fikrlarni tinglab, ularni baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, «Texnologiyalar hayotni yaxshilayaptimi?» yoki «Onlayn ta'limning afzalliklari va kamchiliklari» kabi mavzularda bahs-munozaralar tashkil etish mumkin.

Bu metodda kichik bir guruh muhokama o'tkazadi, qolgan o'quvchilar esa kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Keyin kuzatuvchilar o'z fikrlarini bildiradi va tahlil qiladi. Ushbu usul o'quvchilarning tinglash, tahlil qilish va faol muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali hisoblanadi.

Turli hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish o'quvchilarning yangi til muhitida o'zini qulay his qilishiga yordam beradi. Masalan, aeroportda ro'yxatdan o'tish, mehmonxonada xonani band qilish yoki telefon orqali buyurtma qilish kabi vaziyatlar o'quvchilarning real hayotda tilni ishlatishga tayyor bo'lishlarini ta'minlaydi.

O'yinlar ingliz tilini o'rganish jarayonini qiziqarli va zavqli qiladi. Masalan, «Kim ko'p so'z biladi?», «Yashirin so'zni toping» yoki «Savodxonlik chaqirig'i» kabi o'yinlar o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi va o'zlashtirishni yaxshilaydi.

Interaktiv usullar dars jarayonini yanada jonlantiradi va o'quvchilarni faollikka undaydi. Bunday yondashuvlar yordamida o'quvchilar nafaqat ingliz tilini yaxshi o'zlashtiradi, balki muloqot qilish qobiliyatlari ham rivojlanadi. Ushbu usullarni amaliyotga joriy etish o'qituvchilardan ijodkorlik va yangi texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish

Ingliz tilini o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Quyida AKTdan samarali foydalanish usullari bayon etiladi:

#### 1. Onlayn o'quv platformalaridan foydalanish

Onlayn ta'lim platformalari o'qituvchi va o'quvchilar uchun turli xil interaktiv vositalarni taklif etadi. Masalan:

- Duolingo va Quizlet: lug'at boyligini oshirish va yangi so'zlarni o'rganish uchun foydalaniladi.
- Edmodo va Google Classroom: o'quvchilar bilan vazifalar almashish, materiallarni yetkazib berish va natijalarni kuzatish uchun qulaydir.
- Kahoot: o'yin asosida testlar va so'rovnomalar yaratish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

#### 2. Video va audiomateriallardan foydalanish

- YouTube va TED Talks: tilni amalda ishlatish va autentik manbalar asosida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.
- Podkastlar: o'quvchilarni har xil aksentlar bilan tanishtirish va ularga turli madaniyatlar haqida ma'lumot berish uchun ishlatiladi.
- Audio kitoblar: o'quvchilarning eshitish orqali o'rganish imkoniyatlarini oshiradi va talaffuzni yaxshilashga yordam beradi.

#### 3. Mobil ilovalardan foydalanish

Mobil ilovalar til o'rganishda qulay va zamonaviy vositalardan biridir. Ular o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi:

- LingQ: o'quv materiallarini o'qish va eshitish bilan birgalikda lug'at boyligini kengaytirish uchun mo'ljallangan.
- Memrise: interaktiv mashqlar va o'yinlar yordamida so'zlarni mustahkamlash imkonini beradi.
- BBC Learning English: grammatika, talaffuz va so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali vosita.

#### 4. Virtual sinflar va masofaviy ta'lim vositalari

Masofaviy ta'lim AKTning eng dolzarb jihatlaridan biri hisoblanadi. Virtual sinflar yordamida o'qituvchi va o'quvchilar geografik cheklovlarsiz muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi:

- Zoom va Microsoft Teams: onlayn darslar o'tkazish va interaktiv muloqotni ta'minlash uchun samarali vositalardir.
- Jamboard va Padlet: o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va guruh bilan ishlash uchun qulay.

#### 5. Interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar

AKT orqali o'yin asosidagi o'quv vositalari yaratilishi, o'quvchilarni o'rganish jarayoniga yanada qiziqtiradi:

- Second Life yoki Minecraft Education Edition: til muhitida muloqot qilish va yangi so'zlarni amalda qo'llashga yordam beradi.
- Digital storytelling (raqamli hikoyalar yaratish): o'quvchilarga o'z fikrlarini ingliz tilida ifoda etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

#### 6. Sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar

Sun'iy intellekt texnologiyalari ingliz tilini o'qitishda yangi imkoniyatlar yaratadi:

- ChatGPT yoki Replika: suhbatlashish orqali so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Grammarly va LanguageTool: yozma ishlarni tahlil qilish va xatolarni aniqlash uchun



ishlatiladi.

- Voice Recognition ilovalari: talaffuzni tekshirish va uni yaxshilashga yordam beradi.

#### 7. Gamifikatsiya (o'quv jarayonini o'yinlashtirish)

AKT asosida o'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali o'quvchilarni yanada faol jalb qilish mumkin:

- Quizizz va Gimkit: o'quvchilar orasida raqobat yaratish va bilimlarni mustahkamlash uchun testlar va o'yinlar.
- Plickers: jonli darslar vaqtida tezkor javoblarni yig'ish va tahlil qilish uchun qulay vosita.

AKT vositalari ingliz tilini o'qitishda innovatsion va samarali yondashuvni ta'minlaydi. Bu texnologiyalar nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni global til muhitida faol ishtirokchi bo'lishga tayyorlaydi. O'qituvchilar AKTni amaliyotga kengroq joriy etish orqali dars jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

#### Kommunikativ yondashuvni qo'llash

Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv (Communicative Approach) asosiy usullardan biri bo'lib, o'quvchilarning to'liq va samarali muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv dars jarayonini faollashtirib, o'quvchilarni mustaqil muloqot qilishga va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga undaydi. Kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillari va amaliyotda qo'llash usullari quyidagicha:

##### 1. Real hayotiy vaziyatlarga moslashish

Kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri o'quvchilarni real hayotda qo'llash mumkin bo'lgan til ko'nikmalarini o'rgatishdir.

- Haqiqiy muhitda muloqot qilish: Darsda aeroport, kafeda buyurtma berish, do'konda xarid qilish yoki do'st bilan uchrashuv tashkil etish kabi hayotiy vaziyatlar yaratiladi.
- Autentik materiallardan foydalanish: Ingliz tilidagi gazeta maqolalari, videolar, va bloglar o'quvchilarning til muhitiga moslashishiga yordam beradi.

##### 2. Muloqotga yo'naltirilgan mashqlar

Kommunikativ yondashuv mashqlari o'quvchilarning tinglash, gapirish, o'qish va yozish kabi asosiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

- Rol o'yinlari: o'quvchilar turli rollarni ijro etib, turli holatlarda qanday gapirishni mashq qiladilar.
- Intervyu: o'quvchilar bir-birlari bilan suhbat o'tkazib, yangi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.
- Qiziqarli savollar va munozaralar: «Agar sen prezident bo'lsang, nima qilarding?» kabi savollar asosida muloqot tashkil etish.

##### 3. Tilni o'rganishda integratsiya

Kommunikativ yondashuv boshqa fanlar bilan bog'lanib o'qitishni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi va tilni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatini beradi.

- Mavzularni birlashtirish: Tarix, geografiya yoki san'at mavzularini ingliz tilida o'rganish.
- Madaniy integratsiya: Ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatlarning madaniyati va urf-odatlarini haqida suhbatlashish.

##### 4. Tinglash va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish

Kommunikativ yondashuv o'quvchilarning og'zaki muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga asoslangan.

- Dialoglar: Ikkita o'quvchi o'rtasida suhbat tashkil etish. Masalan, xarid qilish yoki mehmonxonaga joylashish.
- Debatlar: Qizg'in mavzularni muhokama qilish orqali o'quvchilarning erkin fikr bildirish qobiliyatini rivojlantirish.
- Interaktiv audiomateriallar: autentik podkastlar va suhbatlarni tinglash orqali talaffuz va tushunishni rivojlantirish.

## 5. Yozma ko'nikmalarni mustahkamlash

Muloqotning ajralmas qismi sifatida yozma mashqlar o'quvchilarning fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

- Do'stona xat yozish: o'quvchilardan do'stiga oddiy maktub yozishni so'rash.
- Ishbilarmon yozishmalar: xizmat xatlari, rezyume yoki elektron pochta yozish mashqlari.
- Kreativ yozuvlar: hikoyalar yoki she'rlar yozish orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

## 6. Til muhitini yaratish

Dars jarayonida faqat ingliz tilidan foydalanish o'quvchilarning til muhitiga to'liq moslashuvini ta'minlaydi.

- «English only» qoidasi: dars davomida boshqa tillardan foydalanishni cheklash.
- Muloqotga asoslangan vazifalar: o'quvchilarga dars davomida ingliz tilida savollar berish va javob olishni talab qilish.

## 7. Individual yondashuv

Har bir o'quvchining til o'rganish tezligi va qobiliyatlari turlicha bo'lgani sababli, dars jarayonida individual yondashuvni qo'llash lozim.

- Bilim darajasiga mos mashqlar: boshlang'ich darajadagi o'quvchilarga oddiy dialoglar, ilg'or darajadagilarga esa murakkab muhokamalar.
- Qiziqishlar asosida o'rganish: o'quvchilarning sevimli mavzulari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish.

Kommunikativ yondashuv ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Bu yondashuv darslarni hayotiy va amaliy qilib, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va ularning o'z fikrlarini erkin ifodalashiga yordam beradi. O'qituvchilarning kommunikativ yondashuvni to'g'ri qo'llashi natijasida o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarni hayotda qo'llashga tayyor bo'ladi.

Differensial va individual yondashuvni joriy etish

Ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, o'rganish uslubi va individual ehtiyojlari turlicha bo'lganligi sababli, dars jarayonida differensial va individual yondashuvni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'z imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim olishlariga, samaradorlikni oshirishga va ularda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

### 1. Differensial yondashuvning mohiyati

Differensial yondashuv o'quvchilarni bilim darajasi, qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab guruhlarga ajratishni nazarda tutadi. Bu o'qituvchiga har bir guruh uchun mos vazifalarni tanlash va har xil metodlarni qo'llash imkonini beradi.

- Bilim darajasiga qarab taqsimlash: boshlang'ich darajadagi o'quvchilarga oddiy mashqlar, ilg'or o'quvchilarga esa murakkab topshiriqlar beriladi.
- Qiziqishlar bo'yicha ajratish: o'quvchilarni mavzuga bo'lgan qiziqishlari asosida guruhlarga bo'lish. Masalan, biri san'at, boshqasi texnologiya mavzusiga qiziqishi mumkin.

### 2. Individual yondashuvning mohiyati

Individual yondashuv o'quvchining shaxsiy qobiliyatlari, ehtiyojlari va o'quv uslublarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishdir. Ushbu yondashuv quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Diagnostika: o'quvchining bilim va ko'nikmalar darajasini aniqlash uchun diagnostik testlar o'tkazish.
- Moslashtirilgan vazifalar: har bir o'quvchining ehtiyojiga mos topshiriqlarni ishlab chiqish.
- Shaxsiy o'quv rejasi: o'quvchiga mos individual ta'lim dasturini ishlab chiqish.

### 3. Differensial va individual yondashuvni qo'llash usullari

#### 3.1. O'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash

Darslarni rejalashtirishdan oldin o'quvchilarning bilim darajasi, o'quv uslubi va qiziqishlarini aniqlash lozim. Bu quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- So'rovnomalar va suhbatlar: o'quvchilardan qaysi mavzular qiziqarli ekanligini aniqlash.
- Boshlang'ich testlar: bilim darajasini baholash va mos topshiriqlarni tanlash.

#### 3.2. Moslashtirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish

Har bir o'quvchi uchun uning darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqiladi:

- Oddiy mashqlar: boshlang'ich darajadagi o'quvchilar uchun osonroq lug'at va grammatika mashqlari.

- Ijodiy topshiriqlar: ilg'or darajadagi o'quvchilar uchun esse yozish, loyiha tayyorlash yoki prezentatsiyalar.

- Avtomatlashtirilgan vazifalar: AKT vositalaridan foydalanib, individual mashg'ulotlarni tashkil qilish (masalan, Quizlet yoki Duolingo).

#### 3.3. O'qitish uslublarini diversifikatsiya qilish

O'quvchilarning turli o'quv uslublarini hisobga olib, quyidagi yondashuvlarni qo'llash mumkin:

- Vizual o'quvchilar uchun: grafiklar, diagrammalar va video materiallar.
- Audial o'quvchilar uchun: podkastlar va suhbatlarni tinglash.
- Kinestetik o'quvchilar uchun: amaliy mashqlar va rol o'yinlari.

#### 3.4. Teskari aloqa va natijalarni baholash

O'quvchilarning individual rivojlanishini muntazam kuzatish va baholash muhimdir:

- Refleksiya: darsdan so'ng o'quvchilardan o'z fikr va taassurotlarini olish.
- Formativ baholash: o'quvchilarni o'quv jarayonining turli bosqichlarida baholash va xatolarni tahlil qilish.

- Rivojlanish monitoringi: o'quvchining bilim va ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni kuzatish va natijalarni tahlil qilish.

### 4. Differensial va individual yondashuvning afzalliklari

- Moslashtirilgan ta'lim: har bir o'quvchi o'z imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda bilim oladi.

- Qiziqishni oshirish: shaxsiy qiziqishlarni hisobga olgan holda darslarni tashkil etish orqali o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- Muvaffaqiyatga erishish: o'quvchilar o'z darajasiga mos vazifalarni bajarganliklari uchun muvaffaqiyat tuyg'usini his qiladi.

Differensial va individual yondashuv o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu yondashuv nafaqat bilim olishni osonlashtiradi, balki har bir o'quvchini o'z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga undaydi. O'qituvchilar ushbu yondashuvni qo'llab, har bir o'quvchining ta'lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishiga ko'maklashadi.

#### Xulosa

Ingliz tilini o'qitishda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Interaktiv usullar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, kommunikativ yondashuv va differensial hamda individual yondashuv kabi metodlar orqali o'quvchilarning faolligini oshirish, qiziqishini uyg'otish va ularning til o'rganishga bo'lgan qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish mumkin.

Ushbu usullar o'quvchilarga nafaqat bilim olish, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, erkin muloqot qilish va real hayotda tilni qo'llash imkoniyatini yaratadi. Pedagoglarning vazifasi bu jarayonda har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olib, moslashuvchan dars rejalarini ishlab chiqishdir.

Shuningdek, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'qitish jarayoniga kengroq joriy etish, autentik materiallardan foydalanish va o'yin elementlarini qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa zamonaviy talablarga javob beradigan, ingliz tilini yaxshi egallagan va uni amalda qo'llay oladigan bilimdon shaxslarni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Natijada, ingliz tilini o'qitish jarayonini mazmunan boyitish va pedagogik jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, milliy ta'lim tizimini jahon miqyosida raqobatbardosh qilishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education Limited.
3. Nunan, D. (1991). *Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers*. Prentice Hall.
4. Littlewood, W. (1981). *Communicative Language Teaching: An Introduction*. Cambridge University Press.
5. Thornbury, S. (2005). *How to Teach Speaking*. Pearson Education Limited.
6. Dudeney, G., & Hockly, N. (2007). *How to Teach English with Technology*. Pearson Longman.



## **TIBBIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA DIAGNOSTIK YONDASHUV ASOSIDA XORIJIY TILNI O'QITISHNING DOLZARB PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLAR**

*Tuychibayeva Maftuna Baxodirovna,  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tayanch-doktoranti*

*Annotatsiya. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan paytda yosh olimlarni ta'lim tizimida islohotlarga, yangiliklarga turtki bo'ladigan ilmiy izlanishlar ustida ish olib borishlariga turtki bo'lmoqda. Tibbiyot sohasi mutaxassisining kasbiy malakasini oshirish uchun xorijiy tilni bilish zarur bo'lgan faoliyat sohasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Tibbiyot yo'nalishidagi talabalar va bitiruvchilarda madaniyatlararo kasbiy muloqotning zamonaviy sharoitlariga moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar uchun til va nutq ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Xorijiy tilning kommunikativ kompetentsiyasiga erishish shartlaridan biri bu ma'lum bir so'z boyligini o'zlashtirish va egallashdir. Tibbiyot ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish boshlang'ich kurslarda amalga oshiradi, bu talabalar o'rganishi uchun taklif qilinadigan xorijiy til lug'atining umumiy tibbiy xususiyatini belgilaydi.*

*Kalit so'zlar: diagnostika, monitoring, pedagogik faoliyat, psixologik kompetent, retseptiv nutq, sotsiologik diagnostika, texnokratik strategiya, tibbiy ta'lim.*

## **ВАЖНЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНЫ НА ОСНОВЕ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

*Туйчибаева Мафтуна Баходировна,  
Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения –  
постдокторант*

Ona tili ta’lim mazmunida o‘quvchilar bildirilgan barcha fikr va farazlarga e’tibor va rag‘bat bilan qaralganda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi dialogik do‘stona muloqotning o‘rnatilishi.

Bularning barchasi milliy g‘urur kompetensiyalar mazmuniga bog‘liq, boshlang‘ich ta’lim topshiriqlarining asosini esa bilish faoliyat turi tashkil qiladi. Bu borada I.Ya. Lerner, N. M. Skatkin larning yondashuvi hammaga ma’lum va mashhurdir. Bilish faoliyatining turi-o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan o‘quv jadvali bo‘yicha ishlash asosida o‘quvchilar erishadigan bilish faoliyatining mustaqil darajasidir.

Bu quyidagi tasnif usullarida farqlanadi:

- tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv);
- reproduktiv;
- muammoli taqdimot;
- qisman-qidiruv (xuaristik);
- tadqiqot.

Axborot-retseptiv usulning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

- bilim o‘quvchilarning “tayyor” shaklda taklif etiladi; o‘quvchilarning bu bilimlarni turli yo‘llar bilan idrok etishni tashkil etadi; o‘quvchilar bilimlarni idrok etish (qabul qilish) va tushunishni amalga oshiradilar, ularni xotirasida tuzatadilar.

Barcha axborot manbalari qabul qilishda ishlatiladi va taqdimot mantig‘ini induktiv va deduktiv ravishda ishlab chiqish mumkin.

O‘quvchilarning boshqaruv faoliyati bilimlarni idrok qilishni tashkil etish bilan chegaralanadi. O‘quvchilarning o‘z o‘quvchilarini bilim olishga, fikrlashga undash quroli, ularning milliy g‘urur kompetensiyalarini o‘zlashtirilishini monitoring qilishda o‘lchov bu – topshiriqlarni muntzam o‘zlashtirib borishdir.

Ona tili ta’lim mazmuni asosida o‘quvchilarning o‘qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- bilim o‘quvchilarga “tayyor” shaklda taklif etiladi;
- o‘quvchilarning bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; o‘quvchilar bilimlarni ongli o‘zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar.

Tahlil va natijalar. Ne’matov H. ning quyidagi fikrlari hozir ham ona tili o‘qish savodxonligi ta’limi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ona tili ta’limi va unda topshiriqlar berish uchun birdek ahamiyatli: “Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezonini uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir. Biz ona tili savodxonlik ta’limidan foydali bilimlar deb savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlaydigan bilimlarni tushunamiz”

To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T. tomonidan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” darsligida “o‘zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takrorlash asosida ta’minlanishini” ta’kidlaydi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan (Boshlang‘ich ta’lim sport tarbiyaviy ish



(5141600), filologiya (5220100), pedagogika institutlarining ona tili va adabiyoti (5141300) bakalavriyat ta'lim O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamrayevlar tomonidan nashr etilgan "Ona tili didaktikasi" darsligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Darslikdagi mashqlarga e'tibor qilamiz. "Mashq qilish usullari tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti natijasida o'zbekona fikrlash, o'zbekona ta'lim, odat, an'analar tarkibida shakllangan. Shu tufayli ulami nutq madaniyatini o'zlashtirish bilan aloqador hodisa deb qaraymiz. Lingvistik mashq qilish usullarini qo'llab, aqliy-amaliy yumushlarni bajarishda tahlil, birlashtirish, taqqoslash, abstraksiyalash, konkretlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi".

Masalan, keyingi darslikka murojat etsak.

Berilgan so'zlarni ma'nolari yoki tuzilishi jihatdan guruhlariga ajratish jarayonini tahlil etaylik. Bu usulni qo'llash paytida, guruhlariga ajratish jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash va konkretlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi. Binobarin, lingvistik mashq qilish usullari nutq madaniyatini o'rganish yo'llari va aqliy faoliyat ko'rsatish amallari hosilasi sifatida shakllangan.

Shu ma'noda milliy g'urur kompetensiyalar savol va topshiriqlarni ham yodlash, takroran aytib berishga ixtisoslashib qolishidir. Ko'rinib turibdiki ona tili savodxonlik ta'limi jarayonida milliy g'urur kompetensiyalar orqali muammoli ta'limga yo'l ochib berildi. Muammoli ta'lim texnologiyasi esa ijrochilikdan ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlaydi. Bugun Yangi O'zbekistonga ijrochi emas, ijodiy tafakkur sohiblari kerak. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida o'quvchilar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usuldagi ishtirokchilar emas, balki kuzatuvchi bo'lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o'rganadilar.

Ona tili o'qish savodxonligi ta'limi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qisman izlanuvchanlik ta'lim metodidan ham foydalaniladi, uning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

- bilim o'quvchilarga "tayyor" shaklda taklif etilmaydi, ularni milliy g'urur kompetensiyalar asosida yuzaga chiqarish kerak;
- o'quvchilarning bilimlarni xabar yoki taqdim etishni tashkil etmaydi, balki turli vositalar asosida yangi bilimlarni izlanadi;
- o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni yaratadilar va hal qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar va natijada ongli mustahkam bilim hosil qiladilar.

Ona tili o'qish savodxonligi ta'limi asosida o'quvchilarning milliy g'urur kompetensiyalarni takomillashtirish darslik va qo'llanmalarining ham asosiy qismini tashkil etishi kerak. Oliy ta'limda topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha alohida fanlar tashkil etilishi lozim. Mavjud o'quv predmetlarning mavzu va yo'nalishidan kelib chiqib, boshlang'ich ta'limdagi topshiriqlarini mazmun jihatidan 2 ga ajaratish mumkin:

1. "Ona tili o'qish metodikasi (savodxonligi)" fani bo'yicha tuziladigan o'quv topshiriqlarini takomillashtirish

2. "Ona tili" fani bo'yicha milliy g'urur kompetensiyalarni ta'lim topshiriqlari asosida takomillashtirish.

Bu o'rinda o'quvchilarning o'qitiladigan "Ona tili" va boshqa mutaxassislik fanlari mazmuni tilshunoslik ilmi asoslarini o'rgatish nazarda tutiladi. Shu ma'noda bu borada tuziladigan milliy g'urur kompetensiyalarni topshiriqlari fikrlashga undaydigan, bir fikrni ikkinchi bir fikr bilan taqqoslash va yakuniy xulosani ayta oladigan nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Xulosa. Oliy ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, o'qitish mazmunining tobora yangi g'oya va qarashlar bilan boyitib borayotganligi, yosh avlodning yuksak salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalarning yaratilayotganligi, ta'lim oluvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish, ularni ommaviy madaniyat ta'sirida

himoyalash zaruriyatining yuzaga kelayotganligi pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijalariga ham bog'liq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гулямов А. Методика развития учебно - познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Дис. док. пед. наук. –Т.: ТГПИ, 1991. – 37 б.
2. Ахмедова М.Е. ( hammualliflar) Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Дарслик–Т., 2019. 5-б.(302)
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslik. –Т., 2014. 96-б. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari o'quvchilari uchun darslik qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashr. –Т., 1992. 400 б.
4. Лернер. И.Я. Дидактические основы методов обучения. Текст. –М.: 1981.- 186 с.
5. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики.-М.: Педагогика. 1984.- 96с.
6. Скаткин М.Н. Сопрепешествование процесса обучения.–М.: Педагогика. 1971.- 205с
7. Фуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.
8. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т., 2010. – 184 б.
9. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamrayev A. “Ona tili didaktikasi” – Т., Darslik. – Т.: Yangi asr avlodi.
10. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Allavutdinova N, Karimjonova V., Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti o'quvchilari uchun) Darslik. Т.: ТГПИ, 1991. Т. Fan va texnologiya 2012. – 380 б.
11. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –Т.: Noshir, 2009. – 163 б. Дарслик. –Т.: 2004. 45-б.
12. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –Т.: Noshir, 2009. – 163 б. Дарслик. –Т.: 2004. 45-б.

## ILMIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY YONDASHUVLARNING AN'ANAVIY O'QITISH USULLARGA NISBATAN SAMARADORLIGINI BAHOLASH

*Uzoqboyev Xojiakbar Qobiljon o'g'li  
Namangan davlat pedagogika institute tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Ilmiy savodxonlikni rivojlantirish butun dunyo ta'lim tizimlarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqolada o'quvchilarda ilmiy savodxonlikni shakllantirishda an'anaviy o'qitish usullarining tarixiy yondashuvlarga nisbatan samaradorligi baholanadi. Ko'pincha ma'ruzaga asoslangan, darslikka asoslangan yondashuv bilan ajralib turadigan an'anaviy o'qitish usullari ilmiy ishlanmalarga tarixiy nuqtai nazarni o'z ichiga olgan strategiyalar bilan taqqoslanadi.*

*Tahlil har bir metodning o'quvchilarning ilmiy tushunchalarni tushunishlariga, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga va mavzuga aloqadorligiga qanday ta'sir etishini o'rganadi. Tadqiqot har bir yondashuvning kuchli va cheklovlarini ta'kidlab, tarixiy kontekstni o'qitishga qanday integratsiya qilish ilmiy savodxonlikni shakllantirishni kuchaytirishi mumkinligi haqida tushuncha beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy usullar tizimlashtirilgan ta'limda o'zining afzalliklariga ega bo'lsa-da, tarixiy yondashuvlar o'quvchilarning ilmiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yanada boyroq va qiziqarli yo'lni taklif qiladi.*

*Kalit so'zlar: ilmiy savodxonlik, an'anaviy o'qitish usullari, tarixiy yondashuvlar, ta'lim, tanqidiy fikrlash, o'quvchilarning faolligi, pedagogika.*

## ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСТОРИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ НАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ В СРАВНЕНИИ С ТРАДИЦИОННЫМИ МЕТОДАМИ ОБУЧЕНИЯ

*Узокбоев Ходжиакбар Кабилджан угли*

*Научный сотрудник, Наманганского государственного института педагогика*

*Аннотация: Развитие научной грамотности является основной целью образовательных систем во всем мире. В данной статье оценивается эффективность традиционных методов обучения в формировании научной грамотности учащихся по сравнению с историческими подходами. Традиционные методы обучения, часто характеризующиеся подходом, основанным на лекциях и учебниках, противопоставляются стратегиям, которые включают исторический взгляд на научные разработки. В анализе рассматривается, как каждый метод влияет на понимание студентами научных концепций, их навыки критического мышления и их участие в теме. Исследование подчеркивает сильные и слабые стороны каждого подхода и дает представление о том, как интеграция исторического контекста в преподавание может способствовать развитию научной грамотности. Результаты показывают, что, хотя традиционные методы имеют свои преимущества в структурированном обучении, исторические подходы предлагают более богатый и интересный способ развития у учащихся научного мышления и навыков решения проблем.*

*Ключевые слова: научная грамотность, традиционные методы обучения, исторические подходы, образование, критическое мышление, активность учащихся, педагогика.*

## EVALUATION OF EFFECTIVENESS OF HISTORICAL APPROACHES IN FORMATION OF SCIENTIFIC LITERACY COMPARED TO TRADITIONAL TEACHING METHODS

*Uzokboev Khojiakbar Kabiljan ugli*  
*Researcher of Namangan State Pedagogy Institute*

*Abstract: Development of scientific literacy is the main goal of educational systems around the world. This article evaluates the effectiveness of traditional teaching methods in the formation of scientific literacy in students compared to historical approaches. Traditional teaching methods, often characterized by a lecture-based, textbook-based approach, are contrasted with strategies that incorporate a historical perspective on scientific developments. The analysis examines how each method affects students' understanding of scientific concepts, their critical thinking skills, and their engagement with the topic. The study highlights the strengths and limitations of each approach and provides insight into how integrating historical context into teaching can enhance scientific literacy development. The results show that while traditional methods have their advantages in structured learning, historical approaches offer a richer and more interesting way to develop students' scientific thinking and problem-solving skills.*

*Key words: scientific literacy, traditional teaching methods, historical approaches, education, critical thinking, students' activity, pedagogy.*

Kirish. Ilmiy savodxonlik - bu ilmiy tushunchalarni tushunish, ilmiy ma'lumotlarni sharhlash va ilmiy tamoyillarni kundalik muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatidir. Shaxslar tez texnologik taraqqiyot ta'sirida tobora murakkablashib borayotgan dunyoda harakat qilishlari juda muhimdir. An'anaviy o'qitish usullari azaldan ta'limning asosi bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri ta'lim va tizimli ta'limga qaratilgan. Shu bilan birga, fan ta'limiga tarixiy yondashuvlarni integratsiyalash talabalarning ilmiy g'oyalarni tushunish va jalb qilishni chuqurlashtirish usuli sifatida e'tirof etilmoqda[1]. Ushbu maqola ilmiy savodxonlikni shakllantirishda an'anaviy o'qitish usullarining tarixiy yondashuvlarga nisbatan samaradorligini o'rganadi. Tabiatshunoslik ta'limida an'anaviy o'qitish usullari ko'pincha o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'limga asoslanadi, bunda bilimlar o'qituvchidan talabalarga ma'ruzalar, o'quv qo'llanmalari va eslab yodlash orqali uzatiladi. Bu yondashuv faktik bilim, standartlashtirilgan test va aniq ilmiy tushuncha va tamoyillarni egallashga urg'u beradi. An'anaviy o'qitish usullarining bir qator afzalliklari mavjud. Shulardan biri bu Strukturaviy ta'lim bo'lib, an'anaviy usullar talabalar uchun aniq, uyushgan asosni ta'minlaydi, ular kerakli o'quv dasturini tizimli ravishda qamrab olishni ta'minlaydi. Ma'ruzaga asoslangan o'qitish vaqtini tejaydigan bo'lishi mumkin, bu o'qituvchilarga nisbatan qisqa vaqt ichida katta hajmdagi materiallarni o'z ichiga olishiga imkon beradi.[2] Standartlashtirilgan baholash ham an'anaviy usullar talabalarning ilmiy tushunchalarni tushunishlarini o'lchash uchun keng qo'llaniladigan standartlashtirilgan testlarni osonlashtiradi.

An'anaviy o'qitish usullarining cheklovlari

Cheklangan ishtirok: Ushbu yondashuv ko'pincha interaktiv va qiziqarli elementlardan mahrum bo'lib, o'quvchilar material bilan bog'lanishda qiynalishi mumkin bo'lgan passiv o'rganishga olib keladi.[3]

Yodlashga e'tibor qaratish: Yodlashga urg'u berish o'quvchilarning asosiy tamoyillarni tushunmasdan yoki ularni real vaziyatlarda qo'llay olmasdan turib ma'lumotni eslab qolishlariga olib kelishi mumkin.

Minimal tanqidiy fikrlash: an'anaviy usullar ilmiy savodxonlik uchun muhim bo'lgan tanqidiy fikrlash yoki muammoni hal qilish qobiliyatlarini yetarli darajada rag'batlantirmasligi



mumkin.

Tabiiy fanlar ta'limidagi tarixiy yondashuvlar ilmiy tushunchalarni ularning vaqt o'tishi bilan rivojlanishi obyektiv orqali o'qitishni o'z ichiga oladi. Bu usul ilmiy g'oyalarning evolyutsiyasiga, asosiy shaxslarning hissasiga va kashfiyotlar qilingan tarixiy sharoitga urg'u beradi.

Bu ilmiy bilimlarning avlodlar o'tishi bilan qanday yaratilganligi, sinovdan o'tkazilishi va takomillashtirilishini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ilmiy kashfiyotlarning tarixiy kontekstini o'rganish orqali talabalar ilmiy tushunchalar qanday rivojlanganligi haqida to'liqroq tushunchaga ega bo'ladilar.

Tanqidiy fikrlash- bu talabalarni ilmiy ishlanmalar haqida tanqidiy fikr yuritishga va o'tmishda ma'lum g'oyalarning qanday va nima uchun qabul qilingan yoki rad etilganiga savol berishga undaydi. Tarixiy yondashuvlarning hikoyaviy tabiati o'rganishni yanada qiziqarli qiladi, chunki talabalar olimlarning hikoyalari va ular duch kelgan qiyinchiliklar bilan bog'lanishlari mumkin.

Tarixiy yondashuvlarning cheklovlari

Ko'p vaqt talab qiluvchi: Tarixiy mazmuni fan darslariga integratsiyalash ko'p vaqt talab qilishi mumkin, bu esa yoritilishi mumkin bo'lgan material miqdorini cheklashi mumkin [4].

Murakkablik: Ba'zi talabalar tarixiy ma'lumotni zamonaviy ilmiy tushunchalar bilan bog'lashda qiyinchilik tug'dirishi mumkin, bu esa o'qituvchidan ehtiyotkorlik bilan rahbarlikni talab qiladi.

Malakali ta'limni talab qiladi: Ta'lim berishda tarixiy yondashuvlardan unumli foydalanish pedagoglardan ham ilmiy mazmun, ham uning tarixiy rivojlanishi haqida mustahkam tushunchaga ega bo'lishni talab qiladi [5].

An'anaviy usullar ko'pincha qat'iy ilmiy faktlar va formulalar to'plamini berishga qaratilgan. Bu fanni yuzaki tushunishga olib kelishi mumkin, bunda talabalar «nimani» bilishadi, lekin «nima uchun» ni emas.

Tarixiy yondashuvlar ilmiy g'oyalarning rivojlanishi va evolyutsiyasiga urg'u beradi, o'quvchilarni ilmiy kashfiyotlar ortidagi mulohazalar va jarayonlarni o'rganishga undaydi. Ushbu usul fanning mohiyatini chuqurroq kontseptual tushunish va tushunishga yordam beradi. An'anaviy o'qitish usullari tanqidiy fikrlashni etarli darajada rivojlantirmasligi mumkin, chunki asosiy e'tibor mazmuni etkazish va faktlarni eslab qolishga qaratilgan. Bundan farqli o'laroq, tarixiy yondashuvlar ilmiy yutuqlarni tahlil qilish, ilmiy munozaralar kontekstini tushunish va bu o'zgarishlarning ta'sirini baholashni o'z ichiga oladi. Bu ilmiy savodxonlikning muhim tarkibiy qismlari bo'lgan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [6].

O'quvchilar o'quv jarayonida faol ishtirok etmasdan turib, ma'lumotni passiv qabul qilganligi sababli, an'anaviy yondashuvlar o'z faoliyatini to'xtatishga olib kelishi mumkin. Tarixiy yondashuvlar ilm-fan tarixidan hikoyalar va real misollardan foydalanadi, bu esa o'rganish tajribasini yanada qiziqarli va o'zaro bog'liq qiladi. Bu usul fan yutuqlari ortidagi inson omilini ko'rsatib, o'quvchilarning fanga bo'lgan ishtiyoqini va qiziqishini oshirishi mumkin. Ilmiy savodxonlikni oshirish uchun o'qituvchilar o'zlarining o'qitish uslublarida ham an'anaviy, ham tarixiy yondashuvlar elementlarini integratsiya qilishdan foydalanishlari mumkin. Ba'zi strategiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:[7]

Aralashtirilgan ta'lim: To'g'ridan-to'g'ri ta'limni tarixiy misollar bilan birlashtirish talabalarga an'anaviy usullarni tuzilgan o'rganish va tarixiy yondashuvlarning kontekstli chuqurligidan foyda olish imkonini beradi.

Loyihaga asoslangan topshiriqlar: O'quvchilarni tarixiy ilmiy shaxslar yoki voqealar haqida tadqiqot va taqdimot qilishga undash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga, ilmiy tamoyillarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Interfaol munozaralar: Tarixiy ilmiy munozaralarni zamonaviy muammolar bilan

bog'laydigan sinfdagi munozaralarga yordam berish talabalarga o'tmishdagi kashfiyotlar va zamonaviy muammolar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi.

Xulosa. Ilmiy savodxonlikni shakllantirishda an'anaviy o'qitish usullarini tarixiy yondashuvlar bilan solishtirganda baholash har biri uchun alohida afzallik va cheklavlarni ochib beradi. An'anaviy usullar ilmiy faktlarni o'rganish uchun tizimli asos bo'lib xizmat qiladi, ammo o'quvchilarni jalb qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda etishmayotgan bo'lishi mumkin [8]. Boshqa tomondan, tarixiy yondashuvlar vaqt o'tishi bilan ilmiy g'oyalarning rivojlanishiga urg'u berib, yanada qiziqarli va chuqur o'rganish tajribasini taklif qiladi. Ushbu usullarni birlashtirish ilmiy bilimlarni tushunish va qo'llashni kuchaytiradigan, pirovardida ilmiy savodxonroq jamiyatga olib keladigan muvozanatli ta'lim yondashuvini yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Muxayyo A. O'qitishning noan'anaviy metodlari, o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish usullari. //Новости образования: исследование в XXI веке// 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 284-287.

2. Asomova D. F. "Noan'anaviy dars usullarini o'qitish jarayonida musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar". Journal of new century innovations 25.3 (2023). –В. 118-121.

3. Mirzayunusova Z. I. et al. O'qitish usullari va vositalarining zamonaviy tendentsiyalari //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 395-400.

4. Razzoqov B. X. "Talabalarni milliy qadiryatlar vositasida o'qitish pedagogikasi". World of science 7.4 (2024). – P. 5-8.

5. Boymuratov E. K. "Ta'lim tizimida zamonaviy metodlarning afzalliklari". Научный Фокус 1.2 (2023). – С. 706-710.

6. Shirinov F. Sh. "Ta'lim jarayonida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish". Pedagog. 6.6 (2023), - В. 303-307.

7. Суворова М. О. "Вопросы инновационных технологий обучения, пришедших на смену традиционным методам обучения". Образование и проблемы развития общества 1 (3) (2017). – С. 32-36.

8. Давыденко Ю. А., Попков П. А., Новопашина А. В. Перспективы использования индукционной составляющей переходного процесса в традиционных методах постоянного тока //Геофизические исследования//. 2015. – Т. 16. – №. 4. – С. 73-84.

---

## РАЗВИТИЕ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Усманова Махфуза

доцент Джизакского государственного педагогического университета

---

Маликова Шодия

магистрант Джизакского государственного педагогического университета

---

**Аннотация:** В данной работе рассматривается методика ролевых игр как эффективный инструмент для развития диалогической речи у детей дошкольного возраста. Анализируются результаты внедрения данной методики в образовательный процесс, подчеркивая значимость активного взаимодействия между детьми. Предоставляется статистический обзор изменений в уровне речевой активности, разнообразии речевых конструкций и взаимодействии среди детей, что демонстрирует положительное влияние ролевых игр на формирование языковых навыков. Основные аспекты работы включают изучение педагогических условий, способствующих успешному развитию диалогической речи, а также выявление возможных трудностей, с которыми могут столкнуться педагоги в процессе обучения. Результаты исследования подтверждают эффективность использования игровых методов в обучении, что позволяет рекомендовать их внедрение в практику дошкольного образования для улучшения речевых навыков детей.

**Ключевые слова:** развитие, диалог, речь, ролевые, игры, дошкольный, возраст, методика, обучение, навыки.

## DEVELOPMENT OF DIALOGICAL SPEECH IN PRESCHOOL CHILDREN

Usmanova Makhfuza,

Associate Professor of Jizzakh State Pedagogical University

---

Malikova Shodiya,

Master's student of Jizzakh State Pedagogical University

---

**Abstract:** This paper examines the methodology of role-playing games as an effective tool for developing dialogical speech in preschool children. The results of implementing this methodology in the educational process are analyzed, emphasizing the importance of active interaction among children. A statistical overview of changes in the level of speech activity, diversity of speech constructions, and interaction among children is provided, demonstrating the positive impact of role-playing games on the formation of language skills. The main aspects of the work include the study of pedagogical conditions that contribute to the successful development of dialogical speech and the identification of potential challenges that educators may face during the teaching process. The research results confirm the effectiveness of using game methods in teaching, allowing for their recommendation in preschool education practices to improve children's speech skills.

**Keywords:** development, dialogue, speech, role-playing, games, preschool, age, methodology, education, skills

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIALOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Usmanova Mahfuza,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Malikova Shodiya,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish uchun rolda o'yinlar metodikasi samarali vosita sifatida o'rganiladi. Ushbu metodikaning ta'lim jarayonida qo'llanilishi natijalari tahlil qilinib, bolalar o'rtasidagi faol muloqotning ahamiyati ta'kidlanadi. Nutq faolligi darajasi, nutqiy konstruksiyalar xilmaxilligi va bolalar o'rtasidagi muloqotdagi o'zgarishlarning statistik ko'rinishi taqdim etiladi, bu rolda o'yinlarning nutq ko'nikmalarini shakllantirishdagi ijobiy ta'sirini namoyish etadi. Ishning asosiy jihatlari dialogik nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish hamda o'qituvchilar o'qitish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari o'yin usullarini ta'limda qo'llash samaradorligini tasdiqlaydi va ularni bolalar nutq ko'nikmalarini yaxshilash uchun maktabgacha ta'lim amaliyotiga joriy etishni tavsiya etadi.

**Kalit so'zlar:** rivojlanish, dialog, nutq, rolda, o'yinlar, maktabgacha, yosh, metodika, ta'lim, ko'nikmalar

**Введение:** Развитие диалогической речи у детей дошкольного возраста играет важную роль в формировании их коммуникативных навыков и общего развития. Диалогическая речь помогает детям не только выражать свои мысли и чувства, но и развивает навыки слушания, понимания и взаимодействия с окружающими. В условиях современного общества, где коммуникация становится ключевым аспектом взаимодействия, необходимо уделять особое внимание методам и технологиям, способствующим эффективному развитию речевых навыков у детей. В данной работе будет рассмотрена одна из актуальных проблем, связанных с развитием диалогической речи, предложено решение и представлена методика, которая может быть успешно внедрена в практику.

**Методология:** Методика Ролевые игры для развития диалогической речи у детей дошкольного возраста основана на использовании ролевых игр, которые помогают детям развивать диалогическую речь в процессе активного взаимодействия. Ролевые игры предоставляют возможность детям войти в различные роли и ситуации, что способствует не только улучшению речевых навыков, но и формированию социальных компетенций. В рамках этой методики педагоги могут организовать занятия, в ходе которых дети разыгрывают различные сценки, связанные с повседневной жизнью: посещение магазина, семейные встречи, поездки на отдых и другие ситуации. Каждому ребенку предоставляется возможность выбрать роль, что позволяет ему проявить свою креативность и индивидуальность. Во время ролевых игр важно создавать условия для активного общения между детьми. Педагоги могут задавать наводящие вопросы, поощрять детей к обмену мнениями и поддержанию диалога. Это помогает детям учиться формулировать свои мысли, слушать собеседника и отвечать на его вопросы, что является основой диалогической речи. Методика может быть дополнена различными материалами, такими как карточки с изображениями, игрушки и аксессуары, которые помогут детям лучше понять контекст игры. Кроме того, регулярные занятия ролевыми играми создают атмосферу доверия и безопасности, что способствует более свободному самовыражению детей.

**Результат:** В результате проведенного исследования по методике Ролевые игры для развития диалогической речи у детей дошкольного возраста была проанализирована эффективность использования данной методики в группе из 30 детей. Исследование проводилось в течение четырех недель, в ходе которых дети принимали участие в различных ролевых играх, направленных на развитие их речевых навыков. До начала



внедрения методики уровень диалогической речи у детей оценивался на уровне 45%. В ходе занятий наблюдалось значительное увеличение активности детей в общении, их способность поддерживать диалог и формулировать ответы на вопросы. После завершения исследовательского периода результаты показали, что 75% детей стали более уверенными в своих речевых способностях и смогли вести диалог с минимальными подсказками со стороны взрослых. Более того, 60% участников исследования продемонстрировали заметное улучшение в использовании разнообразных речевых конструкций и словарного запаса. Также было отмечено, что 80% детей начали активно взаимодействовать друг с другом, проявляя интерес к общению и взаимопомощи в процессе игры. Результаты исследования подтвердили высокую эффективность методики Ролевые игры для развития диалогической речи, показав, что использование игровых форматов в обучении способствует значительному улучшению речевых навыков у детей дошкольного возраста.

Анализ результатов исследования методики ролевых игр для развития речевых навыков у детей дошкольного возраста

Параметр	Процент	Плюсы	Минусы
Уровень речевой активности	75%	Увеличение уверенности в общении	Потребность в постоянном контроле взрослого
Разнообразие речевых конструкций	60%	Расширение словарного запаса и улучшение грамматики	Возможные трудности в использовании новых слов
Взаимодействие между детьми	80%	Повышение интереса к общению и сотрудничеству	Могут возникнуть конфликты в группе
Участие в игре	100%	Полная вовлеченность детей в процесс	Нужда в дополнительных материалах для игр
Поддержка со стороны педагогов	-	Необходимость в наводящих вопросах для развития диалога	Необходимость постоянного участия взрослого

**Заключение:** В заключение, проведенное исследование методики ролевых игр для развития диалогической речи у детей дошкольного возраста показало высокую эффективность данного подхода в формировании речевых навыков у детей. Результаты свидетельствуют о значительном улучшении речевой активности, разнообразия используемых конструкций и взаимодействия между детьми, что подчеркивает важность активного общения в процессе обучения. Методика ролевых игр не только способствует развитию языковых навыков, но и помогает формировать социальные компетенции, такие как умение работать в команде, слушать и уважать мнение других. Однако стоит отметить и некоторые трудности, такие как необходимость постоянного контроля со стороны педагогов и подготовка дополнительных материалов для успешного проведения занятий.

Литература.

1. Арушанова А.Г. Речь и речевое общение детей: Книга для воспитателей детского сада. – М.: Мозаика-Синтез, 2009. – 272 с.
2. Бартош Н. Н. К вопросу о развитии диалогической речи // Молодой ученый. — 2016. — №6. — С. 737-739. — URL <https://moluch.ru/archive/110/26934/> (дата обращения: 31.03.2019).
3. Важенина Н. Н. Развитие диалогической речи у детей [Текст] // Актуальные задачи педагогики: материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Чита, октябрь 2013 г.). — Чита: Издательство Молодой ученый, 2013. — С. 93-95. — URL <https://moluch.ru/conf/ped/archive/96/4226/> (дата обращения: 23.05.2018)

## **UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

*Xolboyeva Munisxon Mavlanovna*

*Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi, "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrası katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya: ushbu maqola uzluksiz malaka oshirish tizimida muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish metodikasini yoritishga qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: uzluksiz malaka oshirish, muammo, muammoli o'qitish, mashg'ulot, tadqiqotchilik.*

## **ORGANIZING AND MANAGING CHALLENGE EDUCATIONAL ACTIVITIES IN THE IMPROVEMENT OF THE CONTINUOUS TRAINING PROCESS**

*Kholbaeva Munisxon Mavlanovna*

*Jizzakh Regional Pedagogical Center, senior teacher of the «Methodology of Exact and Natural Sciences» department*

*Abstract: This article is aimed at elucidating the methodology of organization and management of problem - based training sessions in the system of continuous professional development.*

*Key words: continuous professional development, problem, problem-based teaching, training, research.*

## **ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ВЫЗОВАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ В СФЕРЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА НЕПРЕРЫВНОГО ОБУЧЕНИЯ**

*Холбоева Мунисхон Мавлановна.*

*Джизакский областной педагогический центр, старший преподаватель кафедры «Методика точных и естественных наук»*

*Аннотация: данная статья направлена на раскрытие методологии организации и управления проблемным обучением в системе непрерывного профессионального развития.*

*Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, проблема, проблемное обучение, обучение, исследование.*

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunida pedagog xodimlar ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi, shuningdek, o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi belgilab qo'yilgan.[1]

Bugungi zamonaviy innovatsiya davrida ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchilarning innovatsion faoliyat yuritishlari muhim hisoblanadi. Zero, jahon sivilizatsiyasi davri hozirgi avlodni an'anaviy pedagogik nazariyalar bilan emas, balki yangilangan o'quv-tarbiya tizimi asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu bois maktabgacha ta'limdan to' malaka oshirishgacha bo'lgan barcha o'quv-tarbiya tizimini yangilash va takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bugungi kunda ta'limning zamonaviy texnologiyalari ta'lim jarayonlarini tashkil etish shakllari va usullariga yangi talablarni qo'yadi. Shunday zamonaviy texnologiyalardan biri

muammoli ta'lim texnologiyalaridir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta'limning bosh maqsadi – o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat.

Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

— o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;

— bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

— hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

-o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;

-o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;

-o'quvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

— muammoni turli nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish;

— solishtirish, umumlashtirish;

— faktlarni aniqlash va qiyoslash;

— vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;

— o'quvchilarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan.

Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

O'zbekistonda muammoli ta'limni qo'llash bo'yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o'quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatleri hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan.

Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda o'quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to'g'ri so'zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatilgan.

Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

-o'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash;

-ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish;



- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- zarur o'quv vositalarini tayyorlash;
- muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko'rsatish;
- topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;
- o'quvchilarning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko'rsatish;
- o'quvchilarning noto'g'ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish va boshqalar.

Muammoli ta'lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.
3. Yechimning to'g'riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

Muammolar nazariy yoki amaliy yo'nalishda bo'ladi.

Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab – o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, o'quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo'lmaydi. Muammo o'quvchilarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi shart.

Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi.

Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi.
2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.
3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to'g'riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

O'quvchilarning ijodiy tafakkur va ijodiy gobiliyatlarini o'stirishda muammoli ta'limdan unumli foydalanish uchun uning ayrim nazariy asoslari sifatida B.Blunning bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlar taksonomiyasi (tafakkurning bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajasi) ga hamda G.Gardnerning intellekt ko'pligi nazariyasiga asoslanish maqsadga muvofiq.

Muammoli vaziyatlardan namunalar

1. Bir mashhur pedagogning xotira daftarida shunday fikr yozib qo'yilgan:  
“Iqtidorli bola — me'yordan og'ishgan bola”. Mazkur fikrga siz qanday munosabat bildirasiz?
2. Yozma refleksiya uchun o'quvchilarga mavzu berildi:  
“Bugungi kundagi tarbiyaning eng xarakterli belgisini ayting”. Bolalar turlicha javob berishdi: ular siyosiy madaniyatni oshirishdan, televizorda qonunga zid xatti-harakatlarni cheklashga oid mavzularda reklama berishgacha. Sinf xonasi bahs maydoniga aylanib ketdi. Siz sinfdagi bahs san'atini qanday tashkil etgan bo'ladingiz?

3. Siz sinfxonaga dars o'tshga kirdingiz. Biroq xona iflos. Qog'ozlar sochilib yotibdi. Siz sinfdagi bir o'quvchi qizga qog'ozlarni terib olishni aytdingiz. Lekin qiz sizga qog'ozni u tashlamaganligi, shuning uchun olishga majbur emasligini bildirdi. Siz mazkur vaziyatda qanday yo'l tutardingiz?. O'zingiz tutadigan yo'lni ilmiy jihatdan asoslab bering.

4. Tarbiyasi og'ir o'smir. Biroq kimningdir darsida u jim o'tiradi, hamma narsani vaqtida bajaradi. Biroq, sizning darsingizda esa, o'zini tartibsizligini ko'rsatadi. Siz mazkur vaziyatdan qanday chiqashingiz mumkin?

5. Siz ishlaydigan ta'lim muassasasida bir nechta o'quvchiga o'zingiz o'tayotgan fandan 1-chorak bo'yicha baho qo'yadingiz. Biroq o'quvchilarning yakunida jurnalda mazkur o'quvchilarga baho qo'yilganining guvohi bo'ldingiz. Mazkur vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

6. Odatda, tez-tez o'qituvchilar jamoasi o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida "o'zaro masofaviy chegara" bo'lishi lozimligini ta'kidlashadi. Sizningcha, bunday "o'zaro masofaviy chegara" nima? O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi "o'zaro masofaviy chegara"ni qanday baholaysiz?

7. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stlik bo'lishi mumkinligi haqida ham turlicha fikrlar bor: kimdir o'qituvchi o'quvchi bilan do'stona munosabatda bo'lishi zarur, desa, kimdir esa aksincha. Siz o'zingizning shaxsiy bahongizni ilmiy asoslagan tarzda bayon etib bering.

8. Sizni 9-sinf bitiruvchilari bitiruv oqshomiga taklif etdi. Ketma-ket qo'ng'iroqlar bo'laverdi. Sizni boshqa joyga ham mehmonga taklif etishgan. Siz mazkur vaziyatda qanday yo'l tutardingiz?

9. Har qanday pedagogik faoliyatning samaradorligi uning natijasi yoki natijalari bilan o'lchanadi. Shaxs faoliyati, bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashda muayyan mezonlarga tayanib ish ko'riladi. Mezonlarning ishlab chiqilishi faoliyat, bilim, ko'nikma va malakalarning ob'yektiv, xolis baholanishini ta'minlaydi. Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

An'anaviy o'qitishda tinglovchilar o'qituvchi tomonidan berilgan tayyor bilimlarni o'zlashtirar edilar. Muammoli o'qitish jarayonida esa ular amaliy faoliyat orqali ijodiy fikrlashga o'rgatiladi. Muammoli o'qitishda tinglovchi nafaqat topshiriqlarni mustaqil bajarish mahoratini egallaydi, balki yangi fikr va g'oyalarni ilgari suradi, ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnologik jarayonlarni ijodiy o'rganadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tinglovchining mustaqil ishi – muammoli vaziyat yechimini topish o'qitish usullariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Muammoli o'qitishning yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham bor; birinchidan, u qo'shimcha vaqtni talab qiladi, ma'lumotlar yetkazib berish bo'yicha informativ o'qitishdan orqada qoladi. Ikkinchidan, muammoli o'qitish o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qiladi. Darsda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish uchun o'qituvchidan, birinchi navbatda, ilmiylikka asoslanishni talab etiladi. Biroq, ana shu holatlarning o'zi muammoli o'qitishni keng va samarali qo'llashga imkon bermaydi.


O.S. Anisimovning fikricha, tanqidiy va muammolarga yo'naltirilgan fikriy faoliyat tezkor yuqori natijalarga erishishda individual moslashuvchanlikni namoyon etish va ijtimoiy-madaniy sharoitlar o'rtasida qarama-qarshilik mavjudligini aniqladi. Mualliflar o'yinli texnik vazifalar va muammoni hal etishda pedagogik fikriy faoliyatda reflektiv moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish nazariy akmeologik modelini ishlab chiqdilar.

E.A. Fedorova pedagogning muammoli ta'limni rivojlantirish reflektiv darajasini tadqiqot kontekstida ko'rib chiqib, uning ekspert faoliyatiga tayyorligini aniqlagan.

Tadqiqotchi M.A. Kuychiyeva o'zining "Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiyasida biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadlari bilimlarni mustahkamlaydi, muammolarni tahlil qiladi hamda muammoning har bir jihatini yakka tartibda, ba'zida guruh

holatida qabul qilib amaliy ko'nikmalarini hosil qilish, ijodiy qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash bilan birga muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga, qarorlarni mustaqil qabul qilishga shu bilan birga o'z-o'zini nazorat qilishga yordam beradi, deb bildirib o'tadi.

Bundan tashqari muammoli ta'lim texnologiyalar yordamida quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi(1-rasm).



1-rasm. Muammoli ta'lim texnologiyalarni o'ziga xos xususiyatlari  
(M.A.Kuychiyeva)

Muammoli o'qitish - ta'lim sifatining yangi bosqichi. Hozirgi davrda tinglovchiga ma'lumot va tavsiyalarning ma'lum to'plamini berish unchalik ahamiyatli emas, ularning ma'lumotlarni mustaqil olishi va o'z bilimiga aylantirishi uchun aniq yondashuvlarga ega bo'lishi muhimdir. Albatta, ayrim ma'lumotlarni ma'ruza vaqtida yetkazish imkoni bo'lmay qoladi, lekin tejalgan vaqtlar hisobiga xulosalar chiqariladi, umumlashtiriladi, dunyoqarash shakllantiriladi, ya'ni o'qitishning muammoli xarakteri ochib boriladi.

Tadqiqotchi M.Maxmudovning ta'kidlashicha, muammoli ta'limning maqsadi "ilmiy bilish, bilimlar tizimi natijalarini o'zlashtirishgina emas, balki natijalarga erishish yo'lini ham o'zlashtirishdir". U tinglovchining o'quv materialini o'zlashtirishdagi aqliy izlanish, ijodiy faolliklariga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarga intellektning har xil tiplarini jalb qilishni talab etadigan tajribalar orttirish imkoniyatini beradigan holda tashkil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr.
2. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2010.-140 b.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 (qayta nashr). - 44 b.

## **5-6-SINF O‘QUVCHILARINING-KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI O‘QUV TOPSHIRIQLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

*Xoliqova Ra'no Musurmon qizi*

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada 5-6-sinf ona tili darslari misolida o'quv topshiriqlaridan foydalanishning joriy holati va kelajakda yaratilajak o'quv topshiriqlariga namuna va mezonlar tavsiya etilgan. Ona tili o'qitish metodikasida muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgan o'quv topshiriqlarini pragmatik yondashuv asosida takomillashtirish masalasi takomillashtirish bo'yicha takliflar bayon qilingan.*

*Kalit so'zlar: savol, mashq, topshiriq, takomillashtirish, o'quv topshiriqlari, pragmatika, pragmatik yondashuv, bilim, ko'nikma va malaka*

## **РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ 5-6 КЛАССОВ НА ОСНОВЕ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ**

*Холикова Раъно Мусурмоновна*

*Преподаватель кафедры педагогики Ташкентского университета прикладных наук*

*Аннотация. В статье рекомендовано современное состояние использования учебных задач на примере занятий родным языком в 5-6 классах, а также примеры и критерии будущих учебных задач. Изложены предложения по совершенствованию вопроса совершенствования учебных задач, которые становятся важными в методике преподавания родного языка, на основе прагматического подхода.*

*Ключевые слова: вопрос, упражнение, задача, совершенствование, учебные задачи, прагматика, прагматический подход, знания, умения и компетенции.*

## **DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS IN PUPILS OF 5-6 GRADES ON THE BASIS OF EDUCATIONAL TASKS**

*Khalikova Rano Musurmon khizi,*

*lecturer at Tashkent University of Applied Sciences*

*Annotation. The article recommends the current state of the use of teaching tasks on the example of native language classes in 5-6 grades, as well as examples and criteria of future teaching tasks. Proposals for improving the issue of improving teaching tasks, which are becoming important in the methodology of teaching native language, on the basis of pragmatic approach are outlined.*

*Key words: question, exercise, task, improvement, learning tasks, pragmatics, pragmatic approach, knowledge, skills and competences.*

*Kirish. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "umumiy ta'limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish [2] muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy tavsifdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish" [3] kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, bu borada umumiy o'rta ta'lim tizimida davlat talablari va o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda uzviylikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.*

*Ona tili ta'lim mazmunida o'quv topshiriqlari muhim ahamiyat kasb etadi, shu sababli mazkur jihatga metodikaga doir tadqiqotlar olib borilganda alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu borada dunyo olimlari jiddiy tadqiqotlarni olib borgan, jumladan, Markaziy Osiyoda ham*



mazkur mavzu atroflicha o'rganilgan.

Pragmatizm – ta'limni hayotga yaqinlashtirish, ta'lim maqsadlariga amalda erishish tarafdori bo'lgan falsafiy-pedagogik yo'nalish bo'lib, dastlabki pragmatistlarning g'oyalari amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyui tomonidan ishlab chiqilgan. Uning qayd etishicha, til insonni hayotga tayyorlash vositasi emas, u hayotning o'zi. Til insonlarni birlashtirishi, yoshlarni ijtimoiy tinchlik va totuvlik ruhida tarbiyalash lozim. D.Dyui til ta'limi ijtimoiy muhitni yaxshilash, jamiyat turini inqilobiy o'zgarishlarsiz o'zgartirishning hal qiluvchi vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Amerika deskriptiv lingvistika maktabi pragmatik ta'lim zarurligini isbotlay olgan va umumiy aholining taraqqiyoti va manfaatlariga mos keladigan ta'lim maqsadlarini taklif qila olgan. Pragmatik tilshunoslikda muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladigan nutq jarayoni o'rganiladi. So'zlovchi subyekt va nutq qaratilgan adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab boshqa masalalar kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarining turlari va vazifalarini aniqlash masalasi I.Allayorov, O.Rozikov, R.Ibragimov, B.Adizov, M.H.Mahmudov I.E.Davronovlar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, o'quv topshiriqlari orqali o'quvchi faolligi oshirish muammolari ham o'rganilgan. Rus pedagoglari A.N.Leontev, J. A. Ponomarev, S.L.Rubenshteyn, avstraliyalik olim Jak Richards ingliz tilining ona tili va ikkinchi til sifatida o'qitilishida o'quv topshiriqlarini tadqiq qilgan. Uning o'quv topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalaniladi.

E. Davronov maqolasida taniqli psixologlar va didaktika nuqtai-nazaridan “topshiriq” tushunchasining mohiyati ochib berilgan, ona tili darslariga nisbatan mashq va topshiriqning vazifalari bayon etilgan. Olim topshiriqlarga ham maqsad, ham vosita sifatida qaraydi. Didaktik nazariyada “topshiriq”, “tarbiyaviy topshiriq”, “intellektual”, “muammo” atamallari bilan, “mashq” “mustaqil ish” atamallari bilan birga qo'llaniladi. A.N.Leontiev topshiriq tushunchasini quyidagicha tushunadi: “Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib qo'yilgan maqsaddir”.

Tadqiqot metodologiyasi. Y.A.Ponomarev topshiriqlar nazariyasida bir qator toifalarni yaratdi, xususan, o'quv vaziyatida subyekt va obyektning o'zaro ta'sirini, bilimlarni o'zlashtirish, ularni takomillashtirish bo'yicha sub'ektning faoliyatini aniqlaydi. U topshiriqning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflash uchun “ehtiyoj”, “motiv” va “faoliyat” atamalaridan foydalanadi. O.Roziqov esa o'quv topshiriqlarini ilmiy-pedagogik tadqiqotda o'quv materialini bilan bog'liqligi nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, “o'quv topshirig'i o'quv maqsadlariga bog'liq bo'lgan o'quv materialining o'zgartirilgan shaklidir”. O'qitish ehtiyojlari asosida quyidagi xususiyatlar ta'kidlanadi: 1) qurish (strukturalash) imkoniyati; 2) strukturani qurish va qayta ko'rib chiqish; 3) o'quv materialini shaklining mavjudligi; 4) o'quv jarayoni bosqichlarining mutanosibliigi; 5) bir vazifani boshqalarga almashtirish imkoniyati; 6) ochiq tizim; 7) bir-birini to'ldirish; 8) bilimlarni o'rganish va takomillashtirish usullarining talablarga mosligi; 9) o'qitish va o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish. “Topshiriqlar insoniyat tomonidan to'plangan tajribani aks ettiradi va shu bilan birga moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yangilash va ularni yanada boyitish vositasiga aylanadi.

Shu o'rinda “mashq” va “topshiriq” atamalarini mohiyatan farqlash masalasida metodist M.Saidovning yondashuviga ham e'tibor qaratish lozim. Olim o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida “mashq”, “topshiriq” va “masala” tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta'kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori A.G'ulomovning “mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli,” degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi.

Ma'lumki, til darsliklarida, asosan, “mashq”, “savol” va “topshiriq” atamaları tabiiy va aniq fanlarda masala atamasi qo'llaniladi. Ularning barchasi o'quv topshiriqlari sirasiga kiruvchi ish turi bo'lib, mazkur atama ayrim tadqiqotlarda o'quv-biluv topshiriqlari deb ham talqin qilinadi.

G'.Hamroyev til ta'limining asosiy maqsad vazifasi o'quv topshiriqlarining mazmuni-mohiyati va vazifaviy farqlanishidan kelib chiqishi, shu bois “mashq”, “savol”, “topshiriq” atamaları mazmuni va qo'llanishi jihatidan alohida tadqiq etish zarurligi, bu o'rinda eng keng qamrovlisi “topshiriq” bo'lib, darslik va qo'llanmalarda u savol va mashqni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Milliy qadriyatlar, jumladan, ona tilini mukammal bilmasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ona tili fani nimani, qanday o'qitish masalasi antik davrdan to bugungi kunga qadar muammo bo'lib kelgan. Bu tabiiy hol, albatta, taraqqiyot metodikaga bog'liq bo'lganligi bois, zamon o'z talabini qo'yadi, metodika mazkur buyurtmani bajaradi. Shuning uchun ham nimani qanday o'qitish masalasi doimiy dolzarblikka egadir. Bu borada o'quv topshiriqlari masalasining “Ona tili” darsliklari mazmunida berilishi, ularda o'quv topshiriqlarining vazifa jihatidan farqlanishi, o'quv topshiriqlariga munosabat tahliliy o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Pragmatik yondashuvda o'quvchi ona tili ta'limi orqali olgan bilim va ko'nikmalari asosida hayotiy muammolarni echish, bartaraf qilish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shu ma'noda, muammoli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bilimlarni tayyor shaklda yetkazmaydi, balki o'qituvchi tomonidan savol yoki topshiriq shaklida muammoli vazifalar qo'yiladi, mashg'ulotni tashkil etuvchi ularni hal qilish yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Bu ham, albatta, savol va topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Mashqlar esa uni o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida aqliy yoki amaliy harakatni takror-takror bajarish demakdir. Bu jarayonda o'z o'rnini bilan mashqlar ham ishtirok etadi. Bunda o'quv topshiriqlarini bajarishda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga e'tibor beriladi: – bilimni, ma'lumotni ko'paytirish uchun maxsus topshiriqlar ham beriladi; – bilimlarni turli nutq vaziyatlarida qo'llashga o'rgatuvchi mashq va topshiriqlar ham baravar qo'llaniladi.

Tahlil va natijalar. Ona tili ta'limda faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday matn tahlilini o'quv topshiriqlari orqali muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi. Bu o'rinda muammoni yechish, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi.

Pragmatik yondashuv asosidan tuzilgan o'quv topshiriqlari muammoni muvaffaqiyatli o'rganish shartlarida o'quv topshiriqlarning ishtiroki o'ziga xos bo'ladi:

- muammoning mazmuniga qiziqish uyg'otish uchun yetarli savol yoki tayyorlovchi topshiriqlar orqali motivasiyani ta'minlash;

- har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar bilan ishlashning maqsadga muvofiqligini ta'minlash;

- muammoni hal qilishda qo'yilgan topshiriq va savolning ahamiyati;

- o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlarga e'tibor va rag'bat bilan qaralganda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi dialogik do'stona muloqotning o'rnatilishi. Bularning barchasi o'quv topshiriqlar mazmuniga bog'liq, o'quv topshiriqlarining asosini esa bilish faoliyat turi tashkil qiladi. Bu borada I. Ya. Lerner, N. M. Skatkinlarning yondashuvi hamma ma'lum va mashhurdir. Bilish faoliyatining turi – o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv jadvali bo'yicha ishlash orqali o'quvchilar erishadigan bilish faoliyatining mustaqil darajasidir. Bu quyidagi tasnif usullarida farqlanadi: tushuntirish-illyustrativ (axborot-reseptiv); reproduktiv; muammoli taqdimot; qisman-qidiruv (xuaristik); tadqiqot.

Axborot-reseptiv usulning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi: bilim o'quvchilarga “tayyor” shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bu bilimlarni turli yo'llar bilan idrok

etishni tashkil etadi; o'quvchilar bilimlarni idrok etish (qabul qilish) va tushunishni amalga oshiradilar, ularni xotirasida tuzatadilar. Barcha axborot manbalari (so'z, ko'rgazma va boshqalar.) qabul qilishda ishlatiladi va taqdimot mantig'ini induktiv va deduktiv ravishda ishlab chiqish mumkin. O'qituvchining boshqaruv faoliyati bilimlarni idrok qilishni tashkil etish bilan chegaralanadi. O'qituvchilarning o'z o'quvchilarini bilim olishga, fikrlashga undash quroli, ularning faoliyatini, o'zlashtirilishini monitoring qilishda o'lchov bu – o'quv topshiriqlaridir.

An'anaviy ona tili ta'lim mazmunida ham o'qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega: bilim o'quvchilarga "tayyor" shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; o'quvchilar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar. O'zlashtirishning mezonlari – bilimlarni to'g'ri ko'paytirish; o'zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takrorlash orqali ta'minlanadi.

Bugungi darsliklarda o'quv topshiriqlari nomlanmagan, faqat raqamlab ketilgan. Bu o'qituvchiga ham o'quvchiga ham muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. O'quv topshiriqlari mazmunida ijobiy o'zgarishlarni ko'rish mumkin, ammo topshiriq va savol berishda pragmatic yondashuvdan chekinish, an'anaviy shartlardan foydalanish holatlari ham ko'zga tashlanadi.

Masalan: 6-sinf Ona tili darsligini tahlilga tortganimizda. Berilgan matnni o'qing. Xatboshilarni aniqlab, matnga mos sarlavha toping. Mustahkamlash.

To'rt-besh yoshlarimdan boshlab bu dunyoning voqea va hodisalari xotiramda qolgan. Urushdan qaytmaganlarning azalari-yu, qaytgan mayib-majruh qishloqdoshlarimning qo'ltiqtayoqni to'qillatib yurganlari esimda. Ocharchilik, odamlarning kunjara eganlarini ko'p ko'rganman. Biz oilada to'rt o'g'il, to'rt qiz o'sganmiz. Akalarim Buxoro, Toshkent oliy o'quv yurtlarida, til-adabiyot fakultetlarida o'qishardi. Tabiiyki, ular ko'tarib yurgan kitoblarning aksariyati badiiy adabiyot namunalari edi. Mening allaqachon savodim chiqqan, kitoblarni sharillatib o'qiy olardim. Men bugungi kunda g'oyatda ajablanib shularni eslayman. Negadir bolaligimda xotiram nihoyatda kuchli edi. Bir o'qiganim esimda qolaverardi. Radio, televideniye yoxud boshqa tomoshalar bo'lmaganidan keyin ermagim kitob edida. Duch kelgan narsani o'qib, duch kelgan narsani yodlab olardim. Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy bobomiz-u Pushkindan tarjimalar ham, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon she'riyati va yana boshqa ko'p roman-u qissalar bo'lardi. Endi she'rlar yoza boshlaganimda nima turtki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda so'zlarni qofiyalashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimanidir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Yozmaslikning ham iloji yo'q. Shuning uchun ona, maktab, brigadir, Nodir kabi so'zlarni o'zimcha she'rga solib, aylantirib yurardim. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov

Matn tarkibidagi atoqli otlarni ko'chirib yozing.

1. Matn muallifi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
2. Urush fojiasi berilgan qismni qayta o'qing va unga munosabat bildiring.
3. Shoirning ermagi nima uchun kitob bo'lganini izohlang. Bu sizning hayotingizga qay darajada mos?

4. Shoirning oilaviy muhiti haqida sizda qanday tasavvur paydo bo'ldi?

5. Ushbu matnning maqsadiga ko'ra turi qaysi?

Nima uchun bu fikrga keldingiz?

6. Matnda nechta xatboshi bor deb hisoblaysiz?

Javobingizni izohlang.

7. Matnga qanday sarlavha qo'ydingiz? Nima uchun?

8. Matnda qo'llangan vergullarga e'tibor bering. Nima uchun ishlatilganligini izohlang. Shu ma'noda savol va topshiriqlar ham yodlash, takroran aytib berishga ixtisoslashib qoladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi esa ijrochilikdan ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlaydi. Bugun Yangi O'zbekistonga ijrochi emas, ijodiy tafakkur sohiblari kerak. Muammoli ta'limning



ma'lum bir bosqichida o'quvchilar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usulda o'quvchilar esa ishtirokchilar emas, balki kuzatuvchi bo'lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o'rganadilar.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limda ona tili ta'lim mazmunida amaliy nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor ahamiyat kasb etishi, nutqiy kompetensiyalar tarkibiga pragmatik kompetensiyaning ham kiritilishi 5-6 sinf o'quvchilarida maktab ta'limidan boshlab, nutq vaziyatiga mos ravishda so'zlash ko'nikmalarini, dialog, poliloglarda muloqot ishtirokchisiga aylanish, suhbatdoshlar bilan polemikaga kira olish va o'z fikrini asoslay olish kompetentligini tarbiyalab borishni taqozo qiladi.

Asosiy til birligi sifatida denotativ va konnotativ vazifalarni bajaruvchi so'zni o'rgatishda o'quvchini uning ma'noviy qirralarini anglay olish hamda nutqiy vaziyatlarga mos ravishda to'g'ri qo'llay olishga o'rgatish ona tili ta'limining birlamchi vazifasidir.

Biroq, buning o'zi etarli emas. Ona tili ta'limining keyingi vazifasi o'rganilgan so'zlarni qo'shish orqali so'zlovchiga o'z fikrini to'liq, tushunarli yetkazib bera olish va ayni paytda suhbatdoshning ifodalagan fikridagi mazmun-mohiyatni anglash.

Ko'rinadiki, ona tili ta'lim mazmunida bolani atrofdagi voqelikni to'g'ri anglash va u haqdagi o'z fikr-mulohazalarini to'g'ri ifodalay olishi lozim. Ayni vaqtda o'zgaralar fikrini tushunib qabul qilish, ularga munosabat bildirish (ma'qullash / rad etish) bola (o'quvchi, talaba) dunyoqarashining o'sib borishiga olib keladi. Shu bois ona tili barcha fanlarni egallashning asosi ham sanaladi.

Ona tili ta'lim mazmuniga kompetensiyaviy yondashuvda aynan shu jihatlar e'tiborga olingan holda tayanch va ona tiliga oid kompetensiyalar alohida ajratib berilgan. Tayanch kompetensiya tarkibida berilgan kommunikativ kompetensiyaning vazifasi belgilab berilgan. Ushbu DTSdan xususiy kompetensiyalar tarkibiga til va nutqiy kompetensiyalar kiritilgan (DTS, 2017).

DTS talablari asosida ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, unda quyidagi lingvodidaktik talablar bajarilsa, o'quv topshirig'i zamon talabiga mos va samarali bo'ladi:

- bir o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- o'quvchilarning o'quv topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi;
- o'quv topshiriqlarini zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi;
- o'quv lug'atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi.

Takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari muammoli o'qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak:

- o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga;
- o'quvchilarning faol izlanish va mustaqil masalalar echish jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko'nikmalar an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda mustahkam bo'lishiga;
- nostandart muammolarni ko'ra oladigan, o'rnatilgan va hal qila oladigan o'quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos topshiriqlar ishlab chiqishga erishish lozim.

Maktabda 5-6sinf o'quvchilarini o'z ona tilida gapirishi, ularning bemalol tinglab tushunishi e'tiborga olinsa, 0 darajadan shakllantiriladigan ko'nikmalar faqat o'qish va yozish bo'lib qoladi. 5-sinfga kelgan o'quvchi gapirish, o'qish, tinglab tushunish va yozish ko'nikmasiga ma'lum ma'noda ega, faqat u bilan ishlash lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, ona tili ta'lim mazmunidagi islohotlar ko'p jihatdan aynan o'quv topshiriqlarining qanday qo'yilishiga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.



O'quv topshiriqlarini pragmatik yondashuv asosida tuzish nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallab ishlab chiqish, beriladigan savollarni o'quvchini o'ylantiradigan, fikrini aniqlashtirishga, dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirish ona tili ta'limini takomillashtirishga yaqindan yordam beradi. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirish, turgan gapki, o'quv topshiriqlarni jiddiy isloh qilishni talab etadi. Metodikaning eng kichik unsurlaridan biri bo'lgan o'quv topshiriqlari ona tili ta'limini to'g'ri yo'lga olib chiquvchi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. pragmatik yondashuv asosida yaratilgan o'quv topshiriqlari o'quvchiga umri davomida foydalana oladigan ko'nikma va malakalarni bera oladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bevosita o'quv topshiriqlarni takomillashtirish masalasi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida atroflicha o'rganilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djon Dyui. Obshestvo i ego problemi John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Dj. Dyui. Obshestvo i ego problemy – Perevod s angliyskogo: I. I. Myurberg, A. B. Tolstov, Ye. N. Kosilova. – M., 2002.
2. Allayorov I.A. Didakticheskie osnovi aktivnogo obucheniya. Avtoref. diss. ... dokt. ped. nauk. –T.: 1994. -44 s.;
3. Rubinshteyn S. L. problemi obshey psixologii. - Moskva: Pedagogika, 1976. -416 S.
4. <https://www.professorjackrichards.com/mother-tongue-teaching-vs-foreign-language-teaching/>
5. Davronov, I. E. Nekotorie aspekti interpretatsii ponyatiy “zadanie” i “uprajnenie” / I. E. Davronov. Tekst : neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. – 2012. – № 8 (43). – S. 323–326.
6. Leontev A. Problemi razvitiya psixiki.–M.: Pedagogika, 1972. –576 s.
7. Roziskov O.R. Teoreticheskie osnovi optimalnogo primeneniya sistemi uchebnykh zadach v obuchenii shkolnikov (na materialax gumanitarnix predmetov). Avtoreferat diss... dok. ped. nauk. – Tbilisi, – 1986. – 50 s.
8. Rozikov O.R. va boshqalar. Didaktika. – T.: Fan, 1997. – 256 b.
9. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref.TDPU. –Toshkent, 2000. – 25 b.
10. Hamroev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi. Monografiya. Toshkent, 2021. 154 b.
11. Hamroev G'. Ona tili o'qitishning samarali usullari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: Bayoz. 2018. 18-b.
12. Lerner I. Ya. Didakticheskie osnovi metodov obucheniya Tekst. / I. Ya. Lerner. – M.: Pedagogika, 1981. –186 s.
13. Ona tili: 6-sinfi uchun darslik / I. Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov Sh. Tursunov, N.Hakimova, M.Siddiqov.–Toshkent: Respublika ta'lim markazi. 2022.- 24-b
14. Gumboldt V. O mishlenii i rechi // V. Gumboldt. Izbrannie trudi po yazikoznaniyu. — M.: Progress, 1984.
15. Sossyur F. Trudi po yazikoznaniyu. M., Progress, 1977. S. 52—53.
16. Nepp M., Xoll D. Neverbalnoe obshenie. Mimika, jesti, dvijeniya, pozi i ix znacheniya –M., 2007. –512 s.
17. Zimnyaya I.A. Lichnostno-deyatelnostniy podxod v obuchenii kak faktor gumanizatsii obrazovaniya // Russkiy yazik za rubejom. 1991. -№ 3. - S. 91-95.
18. Kompetension yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti. – Toshkent. 2017.

## FILOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARIDA MATN KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN XORIJ TAJRIBALARI VA ULARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

*Xojayeva Malikaxon Nosirjon qizi  
Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*

*Abstrakt. Filologiyada matn ko'nikmalarini rivojlantirish talabalarning til va adabiyotni sharhlash, tahlil qilish va chuqur shug'ullanish qobiliyati uchun juda muhimdir. Dunyo bo'ylab turli ta'lim tizimlarida bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun alohida metodologiya va innovatsiyalar qabul qilingan. Ushbu maqolada til va adabiy ta'lim bilan mashhur mamlakatlardagi misollar asosida matn ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha muvaffaqiyatli xorijiy tajribalar ko'rib chiqiladi. Turli mintaqalar, jumladan, Yevropa, Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerikadagi yondashuvlarni tahlil qilib, ushbu maqola tanqidiy o'qish asoslari, madaniy kontekst integratsiyasi va filologiya ta'limida raqamli savodxonlik kabi texnikalar haqida tushuncha beradi. Ushbu xorijiy tajribalar filologiya dasturlarida matn ko'nikmalarini oshirish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi va har tomonlama va har tomonlama o'rganishga yordam berish uchun mahalliy ta'lim sharoitlariga moslashtirilishi mumkin bo'lgan istiqbollarni taqdim etadi.*

*Kalit so'zlar: filologiya, matn ko'nikmalari, xorijiy ta'lim amaliyotlari, tanqidiy o'qish, madaniy kontekst, raqamli savodxonlik, lingvistik tahlil.*

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ТЕКСТОВЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

*Ходжаева Маликахон Носиржон кизи  
Исследователь Наманганского государственного педагогического института*

*Аннотация. Развитие текстовых навыков в филологии имеет решающее значение для способности студентов интерпретировать, анализировать и глубоко взаимодействовать с языком и литературой. Различные образовательные системы по всему миру используют разные методологии и инновации для развития этих навыков. В данной статье рассматривается успешный зарубежный опыт развития текстовых навыков на примере стран, известных своим языковым и литературным образованием. Анализируя подходы из разных регионов, включая Европу, Восточную Азию и Северную Америку, эта статья дает представление об основах критического чтения, интеграции культурного контекста и таких методах, как цифровая грамотность в филологическом образовании. Этот зарубежный опыт является ценным ресурсом для улучшения навыков работы с текстом в филологических программах и открывает перспективы, которые можно адаптировать к местным образовательным условиям для содействия всестороннему и всестороннему обучению.*

*Ключевые слова: филология, текстовые навыки, зарубежные образовательные практики, критическое чтение, культурный контекст, цифровая грамотность, лингвистический анализ.*

## FOREIGN EXPERIENCES ON THE DEVELOPMENT OF TEXT SKILLS IN PHILOLOGY STUDENTS AND PROSPECTS OF THEIR USE

*Khojaeva Malikakhan Nosirjon kizi  
Researcher of Namangan State Pedagogical Institute*

*Abstract. Developing textual skills in philology is critical to students' ability to interpret,*

*analyze, and deeply engage with language and literature. Different educational systems around the world have adopted different methodologies and innovations to develop these skills. This article examines successful foreign experiences in the development of text skills based on examples from countries famous for language and literature education. Analyzing approaches from different regions, including Europe, East Asia, and North America, this article provides insights into the foundations of critical reading, cultural context integration, and techniques such as digital literacy in philology education. These foreign experiences are a valuable resource for enhancing text skills in philology programs and provide perspectives that can be adapted to local educational settings to promote well-rounded and well-rounded learning.*

*Keywords: philology, text skills, foreign educational practices, critical reading, cultural context, digital literacy, linguistic analysis.*

Kirish. Ta'limning global landshaftida filologiya dasturlari talabalarni til va adabiyot bilan ilg'or darajada shug'ullanishga o'rgatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Matnlar bilan samarali ishlash qobiliyati nafaqat filologiyaning asosiy mahorati, balki kengroq lingvistik va madaniy ta'limning muhim tarkibiy qismidir.[1] Turli xil ta'lim amaliyotlarining ahamiyatini e'tirof etgan holda, ushbu maqola matn ko'nikmalarini rivojlantirishda muvaffaqiyat qozongan xorijiy tajriba va strategiyalarni o'rganadi. Ko'p mamlakatlardan misollar asosida ushbu yondashuvlarning qiyosiy tahlilini taqdim etadi va ular butun dunyo bo'ylab filologiya dasturlarini qanday xabardor qilish va yaxshilash mumkinligini muhokama qiladi.

1. Tanqidiy o'qish va talqin qilish asoslari (AQSh va Buyuk Britaniya). Amerika Qo'shma Shtatlarida ham, Buyuk Britaniyada ham tanqidiy o'qish filologik ta'limning asosiy qismidir. Talabalar matnlarga tahliliy, sharhlovchi va baholovchi nuqtai nazardan yondashishlari tavsiya etiladi. Ushbu tanqidiy o'qish tizimi talabalarga matnlarni dekonstruksiya qilishga, asosiy mavzularni tushunishga va ularni tarixiy va ijtimoiy kontekstlarga asoslanib tanqid qilishga yordam beradi. AQSh ta'lim tizimi matn tahlili orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. «Yaqindan o'qish» kabi strategiyalar qisqa parchalarni intensiv tekshirishni o'z ichiga oladi, o'quvchilarni til, ohang, tuzilish va subtekstga e'tibor berishga undaydi. Matnlar ko'pincha fanlararo kontekstda tahlil qilinadi, bu esa o'quvchilarga adabiyot, tarix va madaniyat o'rtasida aloqa o'rnatish imkonini beradi. Buyuk Britaniyada tanqidiy o'qish ko'pincha «savolga asoslangan» yondashuvni o'z ichiga oladi, bu erda talabalar matnni muallifning niyatlari, maqsadli auditoriyasi va ijtimoiy-siyosiy oqibatlariga oid savollar bilan so'roq qilishga o'rgatiladi.[2] Bu usul talabalarni matnlarni adabiy texnika va real dunyo ta'sirini hisobga olgan holda har tomonlama talqin qilishga undaydi. Filologiya dasturlarida tanqidiy o'qish tizimini qabul qilish talabalarga matnni chuqurroq jalb qilishda yordam beradi. [3] Sinfda shunga o'xshash savollarga asoslangan yondashuvlarni va yaqin o'qish mashqlarini joriy etish til va uning madaniy ahamiyatini nozik tushunishga yordam beradi.

2. Madaniy kontekst va adabiy an'anaga urg'u (Fransiya va Germaniya). Fransiya va Germaniya boy adabiy an'analarga ega bo'lib, ularning matn ko'nikmalarini rivojlantirishga yondashuviga kuchli ta'sir qiladi. Bu mamlakatlarda filologiya talabalari matnlarni tarixiy va madaniy kontekstga urg'u beradigan doirada o'rganib, adabiyotni jamiyat qadriyatlarini va me'yorlarining aksi sifatida baholashga yordam beradi. Fransiya ta'lim tizimi madaniy va tarixiy kontekstni matn tahliliga birlashtiradi, bu o'quvchilardan matnning kelib chiqishi, muallif biografiyasi va asar bilan bog'liq adabiy harakatlarni o'rganishni talab qiladi. Ushbu yaxlit yondashuv talabalarga adabiyotni madaniy merosning bir qismi sifatida tushunishga yordam beradi, tilga milliy o'ziga xoslik shakli sifatida hurmatni rivojlantiradi.[4] Nemis filologik ta'limi ko'pincha adabiy nazariyani talqin qilish vositasi sifatida, shu jumladan germenevtika va qabul qilish nazariyasidan tushunchalarni o'z ichiga oladi. Talabalarga matnning ma'nosi o'quvchining kelib chiqishi yoki o'qilgan vaqt davriga qarab qanday o'zgarishi mumkinligini tahlil qilish tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv tilning madaniyat, siyosat va ijtimoiy o'zgarishlar



bilan qanday aloqasi borligi haqidagi tushunchani rivojlantiradi. Matn ko'nikmalarini rivojlantirishda madaniy kontekstni integratsiyalash talabalarning adabiyotni kengroq ijtimoiy ta'sirlarini anglagan holda sharhlash qobiliyatini oshirishi mumkin. Tarixiy va madaniy tahlilga yo'naltirilgan modullarni o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarga tilni madaniy artefakt sifatida yanada to'liqroq tasavvur qilishlari mumkin.

3. Raqamli savodxonlik va texnologik integratsiya (Janubiy Koreya va Yaponiya). Janubiy Koreya va Yaponiya texnologiyani ta'limga, xususan, til va filologiya dasturlariga integratsiyalashgani bilan tan olingan.[5] Bu mamlakatlar interfaol va multimedia resurslari orqali o'quvchilarning matnlar bilan aloqasini kuchaytirish, tahlil qilish va tushunishni osonlashtirish uchun raqamli vositalardan foydalanadi. Koreya universitetlari talabalarga matnlarni izohlash va o'zaro havola qilish imkonini beruvchi matn tahlil qilish dasturi va onlayn ma'lumotlar bazalari kabi raqamli vositalarni o'z ichiga oladi. Ushbu interfaol yondashuv talabalarga matnlar bilan faol shug'ullanishga yordam beradi, an'anaviy va raqamli tahlil usullari aralashmasi orqali tushunishni kuchaytiradi. Yaponiyada klassik matnlarni tahlil qilish uchun raqamli platformalardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda.[6] Talabalar tarixiy matnlarning izohli versiyalariga kirishlari, audio talqinlarini tinglashlari va arxaik til shakllarini tushunishga yordam beradigan vositalardan foydalanishlari mumkin. Ushbu raqamli yondashuv talabalarga matnlar bilan zamonaviy o'quv muhitiga mos keladigan va moslashtirilgan usullar bilan bog'lanish imkonini beradi. Filologiya dasturlariga raqamli savodxonlik va texnologik vositalarni joriy etish talabalarning matnlarni tahlil qilish va ular bilan ishlash qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Raqamli izohlash vositalari va interaktiv ma'lumotlar bazalari kabi resurslarni o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar matn ko'nikmalarini rivojlantirishga yanada dinamik va qiziqarli yondashuvni osonlashtirishi mumkin.

4. Hamkorlikda o'rganish va o'zaro baholash (Skandinaviya). Skandinaviya mamlakatlari, shu jumladan Shvetsiya, Norvegiya va Daniya hamkorlikda o'rganish va o'zaro baholashga katta e'tibor beradi. Ushbu ta'lim modeli o'quvchilarni guruh sharoitida matnlarni muhokama qilish va sharhlashga undaydi, umumiy o'rganish va tanqidiy muhokamalar hamjamiyatini rivojlantiradi. Shvetsiya filologiyasi dasturlari ko'pincha guruh muhokamalari va seminarlarni o'z ichiga oladi, bu erda talabalar birgalikda matnlarni tahlil qiladilar. Bunday yondashuv tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va o'quvchilarga bir xil material bo'yicha bir nechta nuqtai nazarga ega bo'lish imkonini beradi, ularning sharhlash qobiliyatini oshiradi. Norvegiya va Daniyada tengdoshlarni tekshirish jarayoni filologiya ta'limiga kiritilgan. Talabalar muntazam ravishda bir-birlarining tahlillari va sharhlarini ko'rib chiqadilar, konstruktiv tanqid qilishni va matnlarni turli tomonlardan ko'rishni o'rganadilar.[7] Bu usul nafaqat tanqidiy ko'nikmalarni yaxshilaydi, balki o'quvchilar o'zaro fikr almashish orqali rivojlanadigan qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini ham rivojlantiradi. Filologiya dasturlarida hamkorlikda o'rganishni kiritish o'quvchilarga dialog va tengdoshlarning fikr-mulohazalari orqali izohlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruhdagi munozaralar va tengdoshlarni tekshirish faoliyati talabalarga matn bilan ishlash qobiliyatlarini yaxshilashga, jamoaviy o'rganish orqali chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli amaliyotlarini o'zlashtirib, filologiya dasturlari bir qator afzalliklarga ega bo'lishi mumkin:

Kengaytirilgan tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalar: tanqidiy so'roq va yaqin o'qish kabi turli xil o'qish strategiyalariga ta'sir qilish talabalarga ilg'or tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Madaniy xabardorlik va kontekstni tushunish: Madaniy kontekst va adabiy an'analarga urg'u berish o'quvchilarning matnlarni muayyan tarixiy va madaniy muhitlar mahsuloti sifatida tushunishlarini boyitadi.



Yaxshilangan texnologik malaka: raqamli savodxonlik akademik va professional sharoitlarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Matnni tahlil qilish uchun raqamli vositalarni kiritish talabalarni filologiyadagi zamonaviy muammolarga tayyorlaydi.[8]

Muloqot va talqin qilish ko'nikmalari mustahkamlanadi: hamkorlikda o'rganish o'quvchilarni o'z g'oyalari va talqinlarini samarali yetkazishga undaydi, o'zaro ta'lim muhitini rivojlantiradi.

Xulosa. Filologiya ta'limining xorijiy amaliyotlari matn ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari haqida qimmatli fikrlarni beradi. Tanqidiy o'qish, madaniy kontekstga urg'u berish, raqamli savodxonlik va hamkorlikda o'rganish kabi yondashuvlarni tahlil qilish va integratsiyalash orqali o'qituvchilar matn bilan ishlash bo'yicha keng qamrovli ko'nikmalarni rivojlantiruvchi o'quv dasturini yaratishi mumkin. Globallashuv ta'lim ehtiyojlarini shakllantirishda davom etar ekan, bu xilma-xil amaliyotlarni o'z ichiga olish filologiya dasturlariga talabalarni o'zaro bog'langan va madaniy jihatdan xilma-xil dunyo talablariga yanada samarali tayyorlash imkonini beradi. Filologiya o'quv dasturlariga xorijiy istiqbollarni joriy etish nafaqat talabalarining tahliliy ko'nikmalarini oshiribgina qolmay, balki ularning intellektual va madaniy tushunchalarini kengaytiradi, ularni akademik va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va vositalar bilan jihozlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lehan V. et al. Formation of lexical competence in foreign philology (English) students during online education //Multidisciplinary Science Journal. – 2023. – T. 5.
2. Rejda O., Ivlieva K., Tsvid-Grom O. Methods and techniques of foreign language level control among students in non-philological Universities. – 2021.
3. FLEONOVA O. L., ADRA O. TOPICAL ISSUES OF PHILOLOGY AND METHODS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING //TOPICAL ISSUES OF PHILOLOGY AND METHODS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING Учредители: Новосибирский государственный педагогический университет. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 118-126.
4. Pysanko M. L. et al. Psycholinguistic Background of Training English Discussion Skills in Students of Philology Departments //International Journal of Higher Education. – 2020. – Т. 9. – №. 7. – С. 289-297.
5. Mamontov A. S. et al. Linguistic Personality Of An Artistic Text Author In Teaching Foreign Students-Philologists //European Proceedings of Social and Behavioural Sciences.
6. Hliudzyk Y., Muzia Y., Bovt A. Key pedagogical aspects of the study of philology by university students in the framework of the management of the educational process. – 2022.
7. TEZIKOVA S. et al. THE BACHELOR'S DEGREE PROGRAMME IN PHILOLOGY AND TRANSLATION: AN IN-DEPTH ANALYSIS OF EDUCATIONAL SERVICES // CURRENT STUDIES IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION. – 2023. – С. 34.
8. Kravchenko A. Methods of Ukrainian and Foreign Languages and Literatures, Institute of Philology of Taras Shevchenko National University of Kyiv, Volodymyrska str., 60, Kyiv, Ukraine, 01033 //Development. – Т. 9. – №. 4. – С. 331-360.

## **OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA GENDERGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISH IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*Yaxyoyeva Sojida Abdurahimovna*

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish, gender ta'limning ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligi, genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning falsafiy-tarixiy ildizlari haqidagi ma'lumotlar ilmiy manbalar asosida bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: gender, gender tenglik, gender ta'lim, jins, pedagogika, islom, din.*

## **ОРГАНИЗАЦИЯ ГЕНДЕРНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

*Яхяева Сожида Абдурахимовна*

*доцент Самаркандского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов физического воспитания и спорта, Доктор философии в области философии (PhD)*

*Аннотация: В статье описывается организация гендерно-ориентированного образования в высших учебных заведениях, то, что гендерное образование является социально-педагогической проблемой, философские и исторические корни организации гендерно-ориентированного образования на основе научных источников.*

*Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, гендерное образование, пол, педагогика, ислам, религия.*

## **ORGANIZING GENDER-ORIENTED EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A SOCIAL-PEDAGOGICAL PROBLEM**

*Yakhoyeva Sojida Abdurahimovna*

*Associate Professor of the Samarkand Branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Physical Education and Sports Specialists, Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD)*

*Abstract: The article describes the organization of gender-oriented education in higher education institutions, the fact that gender education is a socio-pedagogical problem, the philosophical and historical roots of the organization of gender-oriented education based on scientific sources.*

*Key words: gender, gender equality, gender education, sex, pedagogy, Islam, religion.*

Mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqida O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib, gender masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Jumladan, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi", – deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ta'kidlab o'tdi. Haqiqatan ham, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari

uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi besh yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llabquvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi hamda "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmonlari shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish [7].

Hozirgi kunda mamlakatimizda, gender tenglik, ya'ni ayollar va erkaklarning teng huquqliligini tashkilotish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. O'z navbatida, «Gender» atamasining ma'nosini bilib olamiz. Ma'lumki, «Gender» atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, «jins» ma'nosini bildiradi. Quyida, «Gender» tushunchasiga ta'rif berib o'tamiz. «Gender» tushunchasi xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatlarni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki, har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlariga yetishishi uchun imkon berish kerakligini anglatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin: «Gender» bu – ayollar va erkaklar uchun ijtimoiy jihatdan qo'llaniladigan ta'rif. Ushbu tushunchada ayol va erkaklarning biologik xususiyatlari nazarda tutilmaydi. Aksincha gender tushunchasi negizida jamiyat, jamoat va shaxsiy hayotda ayollar va erkaklarga tegishli vazifalar, funksiyalarning konsepsiyasi yotadi.

Gender tengligi siyosatining muhim bir elementlaridan biri bu ayol va erkaklarga nisbatan hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham teng imkoniyatlar yaratishdir. Ayolni o'qitish butun jamiyatni, millatni o'qitish bilan barobar ekani hammamizga ma'lum, shundan kelib chiqqan holda, oxirgi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan biri bu oliy ta'limda ham ayol-qizlar ulushini oshirish, kasbga tayyorlash va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish masalalari prezidentimizning qator farmon va qarorlarida o'z aksini topmoqda.

Manbalar tahliliga ko‘ra azaldan davlat va jamiyat boshqaruvida faol bo‘lgan davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiylari orasida ko‘plab ziyoli ayollarni ham uchratish mumkin. Jumladan, Andijon diyorida yetishib chiqqan Xonzodabegim (1477-1544), Gulbadanbegim (1523-1603), Zebunisobegim Birinchi sho‘ba. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari hamda mavjud muammolar 93 (1639-1702), Nodirabegim (1792-1842), Qurbonjon dodxoh (1811-1907), Xadicha Sulaymonova (1913-1965), Zuhra Rahimboboyeva (1923-1992), Manzura Egamova (1951 y.t.) kabi buyuk jasorat sohibalarining olib borgan serqirra, sermazmun faoliyatini xalqimiz yaxshi bilishadi. Davlat rahbari bejizga: “Tarixga qarasak ham, bugungi kunga qarasak ham Andijon zaminidan ko‘p sohalar bo‘yicha qanday buyuk fidoyi insonlar yetishib chiqqaniga guvoh bo‘lamiz. Chunki millat, el-yurt taqdiri uchun kuyinish, milliy g‘urur, or-nomus uchun bel bog‘lab maydonga chiqish - Andijon ahliga xos azaliy odatdir” [1] deya ta‘kidlamagan. Pedagogikada J.Piaje, K.Xorni, I.S.Kon va boshqalarning tadqiqotlari asosidagi gender masalalariga bag‘ishlangan ko‘pgina asarlarda jinsiy tarbiya masalalari, birgalikda yoki alohida ta‘lim muammolari hamda gender tafovutlarini hisobga olish masalalari ko‘rib chiqiladi. Gender tafovuti deganda biz nafaqat biopsixologik, balki ijtimoiy-madaniy jihatlarga ham bog‘liq bo‘lgan qobiliyat, xulq-atvor, kasbiy faoliyat va oilaviy hayotda ifodalangan sifat farqlari sifatida tushunamiz. Ushbu (genderrol) yondashuvi nuqtai nazaridan, O‘zbekiston ta‘lim tizimi o‘g‘il va qizlarni oilaviy rollarni bajarishga tayyorlashi kerak. Biroq, u o‘quvchilarni faqat ishlab chiqarish rollarini professional tarzda bajarishga tayyorlaydi. Erkaklar va ayollarning oilaviy rollarini professional bajarishlari uchun umumiy malakali tayyorgarlik, va bundan tashqari, bizning jamiyatimizda ushbu rollarni ishlab chiqarish rollari bilan to‘liq uyg‘unlashtirish uchun sharoitlar mavjud emas.

Gender jamiyatdagi har bir shaxsda (erkak va ayol) shakllangan erkaklik va ayollik fazilatlarini majmui sifatida ijtimoiy-madaniy konstruksiya (“ikkinchi” jins) sifatida ta‘riflanadi.

Ayol shaxsi erkaklik va ayollik fazilatlarining mavjudligi bilan belgilanadi, lekin ayollik fazilatlarini biroz ustunlik qiladi. Erkaklik va ayollik fazilatlarini uyg‘un tarzda o‘zida mujassam etgan shaxs androgen deyiladi. Erkak va ayol shaxsining tabaqalanmagan turi olimlar tomonidan kam o‘rganilgan, shuning uchun ular, qoida tariqasida, uni ko‘rib chiqishda to‘xtamaydilar. Bularning barchasi har bir ijtimoiy rol doirasida inson tabiatiga mos keladigan va erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham norma hisoblangan xatti-harakatlarning bir emas, balki bir nechta modellari (namunalari) mavjudligini ta‘kidlash huquqini beradi. Bu uning xulq-atvorini belgilaydigan ma‘lum shaxsiyat xususiyatlariga (erkaklik, ayollik, androgenlik) ega bo‘lgan shaxs har bir ijtimoiy rol doirasida bir yoki bir nechta gender rollarini tanlashini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, gender-rol ta‘limining natijasi erkak va ayolning (o‘g‘il bolalar va qizlar) xatti-harakatlari modellari (uslublari) diapazoni ancha kattaroq (ikkidan: erkak va ayol) hisoblanadi. Ta‘limini modernizatsiya qilish strategiyasi hozirgi bosqichda gender kabi muhim yondashuvni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Gender bo‘yicha bilimlarni davlat ta‘lim standartlariga kiritish, oliy ta‘lim muassasalarida gender yo‘naltirilgan tizimni joriy etishni hisobga olgan holda ta‘lim tizimini isloh qilishning ahamiyati muhim hisoblanadi.

Bir qator olimlarning, jumladan I.S.Kon, A.V.Mudrik, R.Sobirov va boshqalar fikricha, pedagogik tizimning to‘rt elementi – maqsadlar, mazmun, o‘qitish metodikasi va shakllari an’anaviy ravishda genderni yo‘naltirilmagan. Ta‘lim sub’ektlari o‘qituvchilar va talabalar gender o‘z-o‘zini anglash tizimida zamonaviy ta‘lim muassasasining o‘rni va roli haqida ma‘lumotlarga ega emas.

So‘nggi yillarda dunyo olimlari va tadqiqotchilari orasida gender ta‘limi tobora ko‘proq muhokama qilinayotgani bejiz emas, chunki global ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar davrida yoshlarning jinsga qarab ijtimoiylashuvi muammosi dolzarb hisoblanadi. Gender ta‘limini rivojlantirish davlatning milliy xavfsizligini ta‘minlash uchun zarurdir: mamlakat har qanday jinsning, xususan, ayollarning mamlakat hayotining barcha sohalarida potentsialini



e'tiborsiz qoldirish yoki undan kam foydalanishni davom ettirish mumkin emas. Davlatning tenglik siyosati erkaklar va ayollarning jamiyat hayotining barcha sohalariga nosimmetrik va muvozanatli qo'shilishining gender modeliga asoslanadi, shuning uchun ta'limda gender yondashuvini ishlab chiqish va amalga oshirish, bu manfaatlarni har tomonlama hisobga olishga asoslangan.

I.Kostikova ta'kidlaganidek, "turli jins vakillari o'qituvchidan tabaqalashtirilgan yondashuvga muhtojligida emas, balki ular shaxsning shaxsiy xohishlariga zid keladigan o'zgaruvchan gender stereotiplarining murakkab olami bilan shug'ullanishga majbur bo'layotganidadir. [2].

